


Azamat
QORJOVOV

QORONG'I CHORBOG'



Azamat QORJOVOV

QORONG'I CHORBOG'

Qissalar

**Toshkent
“Ijod-Press”
2019**

UO'K: 821.512.133-31

KBK: 84(50')6

Q-59

Qorjovov, Azamat.

Qorong'i chorbog': qissalar / A.Qorjovov – T.: “IJOD-PRESS” nashriyoti, 2019-yil, – 288 bet.

ISBN: 978-9943-5814-3-2

Shahardan kelgan yosh yigit qishloq qabristoniga go'rkov bo'lib joylashadi. Uning nega bunday yo'l tutganiga qishloqdagi tog'asi tushunolmaydi. Qabristonning soyga tutash tomonida qarovsiz bog bor edi, u yerni “Qorong'i chorbog” deb atashardi. Yosha go'rkovning siri “Qorong'i chorbog” bilan bog'liq ekani hech kimning xayoliga kelmaydi.

Shuningdek, kitobdan muallifning “Telba kelining kundaligi” qissasi ham joy olgan. Qamoqxonada ko'zini ochgan taqvodor kelin panjara ortiga qanday kelib qolganini eslayolmaydi. U hibsxona erto'lasida kundalik tutib, qora o'tmishini yodga oladi va mudhish tarixi ayon bo'ladi...

Asarlar siz – aziz kitobxonlarga manzur bo'ladi degan umiddamiz.

UO'K: 821.512.133-31

KBK: 84(50')6

ISBN: 978-9943-5814-3-2

QORONG'I CHORBOG'

Mardlar uchun ham alohida eshik bo'lsa kerak.
Muallif

I

Kunlarning birida Chirchiq shahridagi ohori to'kilgan to'rt qavatli uy oldidagi chinor tagida yolg'iz o'tirgan jingalaksoch, qiyiq ko'z, norg'ul yigitning telefonini jiringladi. U hecham shoshilmasdan kalta shimining cho'ntagiga qo'l soldi-da, telefonni olib, darz ketgan ekranchasiga erinib boqdi va xuddi yonida birov «Qo'ng'iroq qilayotgan kim?» deb so'ragandek, «Bilmasam» degan ma'noda lab burib, yelka qisdi. Begona raqam edi. Kim bo'ldi ekan? Yaxshisi, o'chirib qo'yadi. Hozir telefonda gaplashishni emas, ijara uy balosidan qutulib, shaharda o'z boshpanasiga ega bo'lish haqida o'ylashni istayotgandi.

Ammo telefon ikkinchi marta bezovta qildi. Yigitning ko'ngli yangilikni sezdi va yashil tugmani bosdi.

— Allo!.. — Bir chetga chirt etib tufladi u.

— Kenji, senmisan? — dag'al ovoz eshitildi naryoqdan. Keyin qo'ng'iroq qiluvchi javobni ham kutmasdan hol so'radi: — Qalaysan, ukam? Ko'rinxaysan?

Darhaqiqat, yigitning ismi Kenjaqul bo'lib, ayrim kimsalar, xususan, dordan qochganlar to'dasining sobiq a'zolari «Kenji» degan laqabsifat nom bilan chaqirishardi. Qishloqda faqat Toshtemir tog'asi eshitgandi uning laqabini.

— Kimsiz? — so'radi Kenji.

— Tanimasliging mumkinmas, — deb javob berdi qo'ng'iroq qiluvchi.

Kenji o'tmishdagi kalamushlardan biri tavbasini unutib, qandaydir jinoyat sahifasini ochmaganligini farnimladidi. Uni ikki yildan beri eski to'dadani ham so'famay qo'ygandi. To'g'ri-da, Kenji na qarz bera oladi, na o'g'rilikka

SAMARQAND JOTISOU
VA SERVIS INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI

yordamlashadi. Bilagida kuchi bo'lsa-da, nafaqat eski tanishlari uchun, hatto butun bir jamiyat uchun deyarli keraksiz bandaga aylanib qolgandi. Toshkent viloyatidagi bu shaharchaga dastlab novvoychilik, keyin aroq do'konida yukchilik ishlari bo'yicha keldi. Ikkisida ham ishdan haydalib yana olis viloyatdagi tumaniga — ota qishlog'iga qaytib ketdi. Toshtemir tog'asining qishlog'iga esa qadam bosmadi. Maktab davridan beri negadir ko'ngli qolgandi. Uchinchi gal Chirchiqdagi bir tanishi diskotekaga ishga chaqirdi. Kenji tabiatan kurashga moyil, yiqitishga iqtidorli yigit edi. Uyidan uch yuz ellik chaqirim naridagi diskoteka da «tinchlik posboni» vazifasini bajarishga kirishdi. Esini taniganidan beri mushtlashuvdan qaytmagan. Bir qarashda o'z kasbini topganga o'xshasa-da, allaqachon zerikkan va mana hozir ham ishga borishni o'yamaslik uchun ijara uy oldida hech narsa yoqmay, bekorchixo'jalardek o'tirardi.

- Kimsiz? — qayta so'radi Kenji.
- Voy-bo', ishqilib Kenjimisan?
- Ha, menman.
- Hasan gazchiman. Tanidingmi?
- Yo'q.
- Avval injektorchi edim. Endi tanidingmi?
- Yo'q, baribir tanimadim. Raqamimni kimdan oldingiz?
- Raxa akadan oldim. Meni tanimasligingga kelsak, bitta dalil aytaman, taniysan-qo'yasan. Ugam daryosi bo'yidan olib ketganman, Chorvoq chorrahasida hunar ko'rsatganding. Chilonzorga kela-kelguncha qoningni artgandim. Floyd Meyveyzerdek zo'r urisharding.

Kenji boshini qashib, o'rindiqqa suyandi. Yaqin o'tmish qa'ridan eski tanish qandaydir manfaat sabab bo'y ko'rsatayotgan edi. Toshkentga ilk marta kelgan kezlari Raxaning turli hamtovoqlari-yu tanishlari bilan u yer-bu yerda yuzma-yuz bo'lardi. Masalan, tug'ilgan kunlarda, choyxonalarda, dam olish maskanlarida. Raxa har doim

«bu bola mard yigit, mening tug‘ishgan ukamday» derdi. Ayimlarini Kenji mastlikda uchratgani uchun hushyorlikda ko‘cha-ko‘yda duch kelsa, tanimasdi. Bugun yo‘qlab qolishibdimi, yangilik eshitadi, aniqrog‘i, taklif.

— ...Besh yildan oshibdi, ukam, — dedi qo‘ng‘iroq qiluvchi.

O‘shanda Hasan gazchi davrada ishtirok etmagan bo‘lsada, Chorvoq chorrahasida Kenjining ulfatlariga duch kelgan, hol-ahvol so‘rashish asnosida sheriklaridan biri Ugam bo‘yida qolib ketganini eshitgan va mashinasida o‘zi borib, Kenjini topib kelgandi. Kenji xarsangtoshlardan sakrab-sakrab, narigi qirg‘oqqa o‘tgan va ulkan qizil tosh ustida cho‘zilib yotgancha, uqlab qolgandi. Yillar o‘tdi. Mashina tuzatadigan ustaning ismi Kenjining esidan chiqib ketgandi. Raxa bilan ham aloqa uzilgan, hayot boshqa davralarda davom etardi.

— Raxa aka telefon raqamimni kimdan olibdi? Bilmasdi-ku, — dedi Kenji.

— Ezma bo‘p qolibsan, bekorchilikda o‘zi shunaqa ezmalanadi odam, — kului Hasan gazchi. — Men tanigan paytlari bunaqa emasding.

— Aka, maqsadga o‘ting. Chorvoq chorrahasida ulfatlarimni do‘pposlaganimda, adashmasam siz «yigit qisqa gapiradi, shu qisqa gapi ham aqli bo‘ladi» degandingiz.

— Barakalla! Hozir Chirchiqdamisan? Diskotekada ishlayapti deyishdi.

— Shunaqa.

— Zo‘r ish bor, uka, Toshkentga kel.

— Ustachilik qilmayman.

— Xayolingga har xil o‘ylar kelmasin. O‘g‘rilikni tashlaganman, yaxshi odamman, qo‘li gul gazchi ustaman. Hamma gap shundaki, senbop bir ish chiqib qoldi, aynan senbop.

— Qanaqa ish?

— «Qorong‘i chorborg‘» degan joyni eshitganmisan?

- Chorvoq deyapsizmi?
- Chorvoq suv omborini aytmayapman, chorborg' deyapman. Sen uni ko'rgansan.
- Aka, gap bunday. Men bilan o'yin o'ynab vaqtingizni bekorga ketkizmang. Ishingizni o'zingiz qilavering. O'sha tinch.

Hasan gazchi qahqah urib kului.

- Hoy, Kenji uka, — dedi u, — rostdan o'zing yashaydigan shaharchaning odamlariga o'xshab qolibsani. Senga iltimos qilmayman, buyurmayman ham. Iltimos va buyruqning o'rtasidagi gapni aytaman. Shundoq ko'chaga chiq-da, taksiga o'tirib, «Chilustun»ga haydat, bekatdan o'tgandagi ko'cha boshida seni kutaman. Bir odam yo'lingga intizor qarab o'tiribdi. Bir og'iz gaplashasan. Ma'qul kelmasa, qaytib ketasan. Tag'in anavi Qorong'i chorborg'ni ko'rgansan degan gapimni hazil dema. O'ngingda aniq ko'rgansan. Viloyatingdagi aynan sen tug'ilgan tumanga qo'shni yerdagi G'oztepa qishlog'i esingdami?

- Tog'amning qishlog'ini aftyapsiz.
- Uning qabristoni-chi? Esingdami?
- Qanaqa qabriston?
- Odam dafn etiladigan go'riston-da, yana qanaqasi bo'lishi mumkin!?

— Shunday ham deylik...

- Shunday ham deylik? Nima balo, Kenji, oxirgi paytlarda kasal-pasal bo'lmaidingmi? G'oztepaga bormagan-misan? Borgansan. Ota-onang vafot etganida, qarindoshingnikida yashamaganmisan? Yashagansan. Qishloqning chorborg'ini ko'rgansan. Ko'rmagan, eshitmagan bo'lishing mumkin emas. Men senga aytayotgan ish o'sha chorborg' bilan bog'liq. Chorborg' shundoqqina qabriston biqinida joylashgan...

Kenji Qorong'i chorborg'ni esladi. Onasi rahmatlining amakivachchasi bo'lmish Toshtemir tog'aning qishlog'idagi qabristonning soy tomonidagi bog'ni odamlar «Qorong'i

chorbog‘» deb atashardi. Xuddi chala tush kabi g‘ira-shira yodida ekan, qachonki eslatishganda xotirasida uyg‘ondi. Qiziq, buning Toshkentda yashayotgan Hasan gazchiga ne chog‘lik aloqasi bor?

- Bilaman, — dedi Kenji o‘zini beparvo tutishga urinib.
- Chorboqqa nima bo‘pti? Xazina ko‘milganmikan?
- O‘zing nima deysan?
- Xazina yo‘q, chunki tilla-pillaning isi chiqqanida, meni yordamga chaqirmasdingiz.
- Odamni xafa qilding, — o‘pkaladi Hasan gazchi.
- Sening tog‘a yurtingdan topilgan xazinani faqat o‘z jig‘ildonimga urvormasdim. Harholda, bir tovoqdan osh yeganmiz. Qisqasi, bir soatdan so‘ng aytilgan joyga kel.

Kenji cho‘pchaklarga ishonmasdi. G‘oztepa xurofot-parastlarining yuragiga vahm soladigan qarovsiz bog‘ ham qiziqtirmasdi. Ehtimol, Hasan gazchining qo‘l ostiga G‘oztepadan kelgan biror yigit ishga o‘tgan-u «Qorong‘i chorbog‘» afsonasini qo‘shib-chatib hikoya qilgandir va gazchi o‘ylab qarasa, Kenji G‘oztepada bolaligida ma’lum muddat yashagan, shu bois endilikda hazillashmoqchidir. Axir, Kenji G‘oztepa qishlog‘idagi tog‘asinikida yarim yilcha yashaganini bir necha marta Raxaga gapirgan, jumladan, Hasan gazchiga ham aytgandir...

Oradan bir soat o‘tgach, yigit aytilgan bekatdan o‘tib, mashinadan tushdi-da, yon ko‘chaga kirdi. Hasan gazchi eski «Jiguli»da kutib o‘tirgan ekan. Peshvoz chiqib, kuch sinashmoqchidek qo‘l siqib ko‘rishdi, hatto yosh yigitlardek bosh urishtirdi. Doim oftob tig‘ida yuradiganlar singari qorayib ketgan, hamon ko‘zlari olma-kesak terardi. Kenji bir qarashdayoq bildi, bukrini go‘r to‘g‘rilaydi — bu odam yaná bir yomonlik payiga tushgan.

- Xoliroq joyda gaplashamiz, — dedi mashinasida ketayotganlarida. — Qalay u yoqlar? Toshkentdan yaxshimi deyman? Kelmay qo‘yding?
- Ko‘p kelaman, lekin biz uchrashmaymiz, — e’tirozini

aytdi Kenji. – Bugun menga bog'liq qandaydir ish chiqib qolib, chaqirtirdingiz. Bo'lmasa, ming yil o'tsayam so'rabsurishtirmasdingiz, «kelmay qo'yding» degan gapingiz noo'rin.

– Buncha osmondan gapirasan? U ishni sensiz ham eplayman. Ammo eng yaxshi variant sensan.

– O'g'rilik, qotillik, tovlamachilik... Shulardan qaysi biri?

– Hech qaysisi.

– Ko'ramiz-da! Qani, nimani taklif qilarkansiz!

Hasan gazchi miyig'ida kului.

– Diskotekada ishlayapsanmi? Nega yopishib olding maymunxonaga?

– Ishga chaqirdi, keldim. Meni Chirchiqdagi tanishimdan boshqa hech kim chaqirmay qo'ygan.

– Kesatig'ing chiroyli chiqdi. Aybimni bugungi taklif bilan yuvaman.

– Sizni unutib yuborganman, aka, shuning uchun kesatiq boshqalarga atalgan.

– Diskotekaga ishga o'tmasdan avval qishloqdag'i uyinga ketganmiding?

– Ota-onamdan qolgan uyda amakivachcham yashaydi. Makonim boshqa yerlarda.

– Amakivachchang uyni olib qo'yganmi?

– Chirog'i yoniq turishi uchun bola-chaqasi bilan yashashyapti. Qachon uylansam, qishloqqa qaytib borsam, uyni bo'shatishadi.

– Sen uylanasan, Kenji.

– Nima?

– Seni uylantirish uchun chaqirtirdim, – jiddiy tortdi Hasan gazchi. – Gapim yolg'on bo'lsa, til tortmay o'lay.

– Qaynatsa qoningiz qo'shilmaydi-yu mening uylanish-uylanmasligim bilan nima ishingiz bor? – olayib qaradi Kenji.

— Tfu bema'ni gapga! — deb gazchi mashinasini anhor bo'yidagi oshxonalarga eltuvchi ko'chaga burdi.

Ular chekkadagi ayvonsifat joyni band etib, tamaddi qila boshlashdi. Kenji kutganidek, uchinchi odam, ya'ni Kenjini so'roqlab kelgan shaxs mavjud emasdi. Hamma gap Hasan gazchining o'zida ekan.

II

O'sha kungacha Kenji haqida eshitmagandim, tanimasdim. Oilam bilan vagon yonida xayrashldim. Qizigan temir tafti yuzga urilib, vokzal perronidan moy isi anqirdi. Yozning bir oyini qishloqda o'tkazishga ijozat berib, bugun shaharning gavjum vokzalidan kuzatib qo'ymoqdaman.

Men engashib farzandlarimni quchdim, keyin birin-ke-tin manglayalaridan o'pdim.

— Uyni toza tuting, suvaraklar hammayoqni bosib ketmasin, — dedi xotinim.

Uyda xotinsiz yasharkanman, albatta yuvuqsiz idishlar, kir kiyimlar, ushog'i tozalanmagan dasturxon paydo bo'ladi. O'tgan yili yozda ham oilam qishloqqa mensiz ketgan, iyun, iyul, avgustda mehnat ta'tili ololmaydigan kamina jurnal tahririyatida ishga ko'milib qolavergandim. Har kuni kechqurun kimsasiz uy kutardi. Non ushoqlari atrofda sochilib yotganidan va idishlar o'z vaqtida yuvilmaganidan tez orada xonadonimizni suvaraklar-u pashshalar bosib ketardi.

— Sanjar... — dedim-u tilimni tishladim. Aytganday, jiyanim Sanjar iyunning boshidayoq ikkinchi kursni tamomlab, qishlog'iga jo'nab ketgandi.

— Jiyaningizning amakivachchasi o'qishga topshirmoqchi edi, kelmadi-da, — dedi xotinim afsuslangannamo. — Abituriyentligida biznikida yashasa, ovqat qilib, uyga qarab turardi. Juda qo'l-oyog'i chaqqon, mehnatkash bola edi. Qishda kelib, uyimizda bir kun yotib ketganida, Sanjar bi-

lan birga paloslarni liftdan tushirib, qorda o'xshatib qoqib, tozalab bergandi.

- Ismi nima edi?
- G'aybulla.
- Esladim. Qishlog'inining nomini so'raganimda, rosa kuyib-pishib tushuntirgandi.
- Qishlog'ini G'oztepa deyisharkan. Siz «qishloqlaringda g'ozlar tepalikda yashaganmi?» deb so'ragandingiz. Oqtepa, Uchtepa, O'ratega deb eshitganman, G'oztepasi ham bor ekan-da, degandingiz.
- To'g'ri...
- Ayniqsa, «Qorong'i chorborg» degan joyning tarixi bilan qiziqqandingiz. G'oztepaning qabristoni chetida shunaqa nomli bog' bor ekan.

Poyezd «Qorong'i chorborg» nomini eshitib cho'chigandek bezovta hushtak chalib, joyidan jilishidan darak berdi. O'ilam vagonga chiqdi. Biz yana bir marta xayrashdik. Tanburda xotinimning ovozi jarangladi:

- Xayr, dadasi! Ovqat qilib yeng! Kiyimlaringizni toza tuting!

Bolalarim ham chug'illashdi:

- Xayr, dada!..
- Xayr, dadajon...

Poyezd jo'nab ketganidan so'ng vokzalda bir oz turdim. Biroq kimsasiz uyga qaytishga majbur edim. Ertaga ish, ayrim tahrirlarni yakunlab qo'ysam, dushanba yengil kechadi.

Metroga tushib, salqin vagonda uxlاب qolibman. Ko'zimni ochganimda, vagondagilar ham mudrardi. Avval o'ngga, keyin so'lga nigoh tashladim. Ko'zlarim yumilib, boshimni ko'ksimga osiltirgan ham edimki, tanish yuz ko'z o'ngimda jonlandi. U kim bo'lди ekan?

Ko'zimni ochib, vagon burchagiga ko'z tashladim va jiyanimning g'oztepalik amakivachchasini odamlar orasidan bir lahza ko'rdim. Toshkentga kelmadи deganida xotinim

yanglishgan edi chog'i, ana u, o'nga botib o'tiribdi. Hoynahoy, qayerdan ijara uy topsam, degan xayol tinchini kemi-rayotgandir? Yoki uy manzilim yodidan ko'tarilib, qanday topib borishni o'layaptimikan?

Shu payt poezd metroning men tushadigan bekatida to'xtadi. Odamlar o'rinalardan guvva turib, eshikka talpinishdi. Men yigit tomonga shoshildim, lekin yetib borganimda, o'rni bo'm-bo'sh edi.

Bekatga chiqib, atrofga alanglay-alanglay eskalatorga yetdim. So'ng zinaga chiqib, yo'lovchilarni kuzatgancha yuqoriladim. Sanjarning amakivachchasi zehnli va ziyrak edi. Uyimga qaysi metro bekatining qaysi tomonidan chiqib borishni eslab qolganiga shak-shubha yo'q.

Uni yer ustidan ham topolmadim. Uyga mendan oldin borib, yo'q ekan deb qaytib ketmasin deb xonadonimga shoshildim. Pod'yezdda turgan qo'shnim meni hech kim so'rab kelmaganini aytdi. Uyga kirib, muzdek suv ichdim va ko'zguga qarab, peshonamga shap etib urdim.

— Balki o'xhatgandirman, — dedim o'zimga o'zim. — Oxirgi paytlarda ko'z nurim pasaygan, ko'zoynak olishim...

Gapimni tugatmagan ham edimki, eshik uch marta taqilladi. Eshik ko'zchasidan qarab lotoreyadan yutgandek quvonib ketdim. U o'sha edi — metroda ko'rganim yigit. Dastyor o'z oyoqlari bilan hoziru nozir.

Mehmonni ochiq chehra bilan qarshi oldim. Yigit ogohlantirmasdan to'g'ri bostirib kelganidan xijolatda edi. Derazalarga parda tutilgani uchun mehmonxonam nimqorong'i edi. Negadir pardalarni ochtirmadi, elektr chiroqni ham yoqmasligimni so'radi.

— Yangang bilan bolalarni bugun qishloqqa jo'natdim. Ishonasanmi, yo'qmi, vokzalda sen haqingda gaplashgandik. O'qishga hujjat topshirsa, uyga qarab o'tirardi, yaxshi bola edi, deb seni maqtagandik. Mana, kelibsan, yaxshi bo'libdi...

- Rahmat, — siniq jilmaydi yigit. — Men o'qish tashvishida emas, boshqa ish bilan yuribman.
 - Boshqa ish bilan yuribman deysanmi? Ishga o'tmoqchimisan?
 - Yo'q, haligi... — deya G'aybulla dasturxon chetini o'ynadi. (U ko'zimga nafaqat g'amgin, bir oz kasalmand ham ko'rindi.)
 - Mazang yo'qqa o'xshayapti. Do'xtirga keldingmi?
 - To'g'risini aytsam, bir yigitni axtarib yuribman, aka. Bizning G'oztepaga borgandi. Bitta-ikkita ishlarda teskari bo'lib qolgandik. Unda hech qanday qasdil yo'q. Faqat... Toshkentda nima ish qilayotganini bilmuoqchiman.
 - Choydan ich. Nima ekan debman-a!
- G'aybulla o'yga tolib o'tirdi-da, so'ng birdan o'rnidan turib, burchakka bordi.
- Sizga oddiy tuyuldimi? — dedi u. — Bu oddiy voqeemas...
 - Nimani gapiryapsan o'zi? Tinchlikmi? — dedim hayron bo'lib.
 - Sizga gapirib bermasam, meni tushunmaysiz.
 - Xo'p, gapirib ber, tushunay.
 - Qishlog'imizning nomi G'oztepa ekaniga qiziqqandingiz. Qabriston chetidagi Qorong'i chorborg' haqida esa maqola yozmoqchi edingiz.
 - Maqola emas, hikoyami, qissami.
 - Umuman olganda, Toshkentga Qorong'i chorborg' ishi bo'yicha keldim. Bir boshidan gapirib beraman, bitta shart — tirik ekanman, mendan eshitganingizni hech kimga aytmaysiz.
 - Hech kimga aytmayman, yozaman, xolos.
 - Yozmaysiz!
 - Keyinchalik yozaman. Isming o'zgaradi, joy ham. Voqealar ijodiy laboratoriyyada qaynatiladi, sintez qilinadi, o'zing ham tanimaydigan darajaga keltiriladi. Agar menga

barini to‘kib-solishni o‘ylamaganingda edi, uyimga kelib, bu haqda og‘iz ochmasding.

- Uyingizga kelishimning sababi bitta emas.
- Boshqa boradigan joying yo‘qligini ham sabab deb hisoblayapsan. Sirli voqealar jurnalida ishlashim — bu ham bir turtki. Qani, o‘tir! Harholda, maxfiy sirlarni burchakdan baqirib so‘zlab bermassan?

G‘aybullha devorga suyanib, boshini changalladi.

- Hayot o‘tkinchi ekanini odam o‘z aqlini taniganidan beri biladi, — deb gap boshladi u. — To‘rt-besh yoshlarmida bobom va momom oldinma-ketin vafot etishdi. Odam o‘lishi, janoza, tobut... barini ko‘rdim. Maktabda o‘qib yurgan kezlarim ayrim qarindoshlarim, tanigan-bilganlarim hayotdan ko‘z yumdi. Odam umr o‘tkinchi ekanini bolasligidan biladi, tiriklar yoshi belgilanmagan ilohiy navbat bilan ketayotganini ko‘radi, ammo xuddi o‘lmaydigandek yashaydi. Bir kun kelib bari o‘zgaradi... O‘zimni g‘alati sezyapman. Go‘yoki men men emas...

- Senga bir nima bo‘lganini bekorga aytmadim.
- Qorong‘i chor bog‘ degan joy haqida gapirib borganimda, qiziqib qolgandingiz. Bolaligimizda mevasidan o‘g‘irlab yeganmiz, cho‘zmakamalakka shox sindirganmiz, mol-holga o‘t o‘rganmiz... Bexosiyat joy ekanini ham aytganmanmi?

- Bexosiyat emas, qo‘rqinchli joy deganding. Ayrim dovyurak bolalargina bemalol o‘tib-qaytib yurisharkan.

- Sizda Qorong‘i chor bog‘ haqida oz-moz tasavvur bor ekan. Endi bu yog‘ini eshiting. Bizning qishloqda o‘g‘il bolalar maktabga borganidan boshlab sinflarga ajratiladi...

- Albatta.
- O‘rta maktabning «a», «b» sinflarini nazarda tutmayapman. Bola maktabga borganidan keyin ijtimoiy sinflarga ajratiladi. Hammamiz birovlarning fikrlariga itday ergashuvchilarmiz, sinflarga ajralishimiz juda oson.

— Xuddi boylar va kambag'allar, qoralar va zodagonlar degandek-a?

— Ma'naviy sinflarga, aka. Men o'qigan sinf to'rtbeshta buzg'unchi bolaning qo'lida edi. Shular bizning ma'naviyatimizni belgilab berishdi, jamiyat yoki o'qituvchilar emas. Kimki ularning yo'rig'iga yurmasa, bolalardan ajratib qo'yishardi. Odam yakkalanib qolardi, hech kim gapirmasdi. «Falonchini ajratib tashlashibdi» deyishlari sharmandalik edi. Ajratib yuborilgan bolani kichik sinflar to'dalashib kaltaklashardi, qizlar mazax qilishardi. Ota-onasi, akalari, qarindoshlarining o'g'llari hech qanday yordam berolmasdi. Bolalarning o'z dunyosi bo'lib, o'z davlati, o'z yozilmagan qonunlari hukm surardi. Yillar o'tgan sayin biz o'sha buzg'unchi bolalarning shaxsiyatiga aylana boshladik. Men ichishga, chekishga, to'ylarda mushtlashishga, bir to'da bo'lib tumanimiz markaziga borib, bezorilik qilishga o'rgandim. Jo'ralarim «G'aybi zo'r yigit» deb maqtashardi. Shu maqtovni qo'ldan boy bermaslik uchun ham tirishardim. Qayerdaki ishkali bo'lsa, mening ovozim hammanikidan balandroq chiqardi. Kichkinligimdan kurashchi bolaman. Jonimni jabborga berib solishardim, mushtlashardim, raqibimni yiqitib, tavbasiga tayantirardim. Ammo o'g'irlik qilmaganman, aka. Bizdan — o'n to'rtta boladan birorta o'qimishli odam chiqmadi. Hammamiz tug'ma «ikkichi» emasdik, shunchaki sinfimizga «loyiq» yigit bo'lishga intildik. Na ota-onaning orzusini, na kelajagimizni o'yladik. Umuman olganda, ota-onalarimiz ham qoyillatib orzu qilishmagan.

— Qishda kelganingda seni mehnatkash, tartib-intizomli yigit deb o'ylagandim. Ayniqsa, darrov uy ishlariga yordamlashganing, mehmonman deb qarab o'tirmaganing yoqqandi.

— Yaxshi muhitda yaxshiman, yomon muhitda yomonman. Xoh ishoning, xoh ishonmang, uyimda doim mo'min-qobil bola bo'lganman. Otam yoki onam

ko‘chadagi bezoriliklarimni eshitib koyishsa, ichib kelgan-imning ertasiga baqir-chaqir qilishsa, yerdan ko‘z uzmay o‘tiraverardim. Biror marta gap qaytarmaganman. Siz journalist emas, aroqxo‘r, nashavand bo‘lganiningizda, menga nuqsingiz tez urardi. Xudoga shukr, halol inson ekansiz. Dangasaroqligingizga qaramay, qishda mehnatkashligim yuzaga chiqishiga undov berdingiz. G‘oztepada bularning bari aksincha edi. U yerda eshakdek ishlab, huzur-halovat topolmaydi kishi. Muhit kuladi, muhit chetga chiqarib qo‘yadi. Boshqalar nima qilsa, shundan andaza olganlar «el qatori» yashab o‘tadi. Bilasizmi, qo‘limga kitob ushlaganim uchun haligacha ustimidan kulishadi. Universitetga hujjat topshirmaganimni endi tushungandirsiz?

- G‘aroyib ekansan! O‘z fikring yo‘qmi?
- Muhittan chiqib ketish aytishgagina oson.
- Agar shunday bo‘lsa, menimcha, sinfni boshqarayotgan yanada katta kuch bor. To‘rtta mishiqi bezori jamiyatni o‘zgartirolmaydi. Aqli, hushli yigit ekaning ko‘rinib turibdi, muhitga qulliging qiziq.
- Ha, yanada katta kuch bor. Hammamiz o‘scha kuchning ta’siridamiz. Maktabni bitirsak ham bu kuchning ta’siridan qutulolmadik.
- Uning nomi — ongsizlik.
- Bizni ongsiz deyapsizmi?
- Ja «ongsiz» deb haqorat qilmoqchi emasman, — dedim mehmonning ko‘nglini og‘ritishdan qochib. — Hech kim o‘z aqli bilan yashamasligidan jahlim chiqyapti, xolos. Men a’lo baholarga o‘qiyman, sizlarga qo‘shilib darbadarlik qilmayman, kelajakda kasb egallashim kerak degan biorsta mard bola chiqmadimi?
- Yo‘q, bizda yetmish besh yoshli chollar ham so‘kinib gapiradi, ichadi, sigaret chekadi, behayo latifalarni gapirib kuladi, o‘tgan-ketgan xotinlarni g‘iybat qiladi. Faqat bir yigit... faqat u qobiqni yorib chiqqan.
- Ana, bo‘larkan-ku. Kim u?

— Kenji.

— Kenji? Laqabmi bu?

— Ismining buzilgan shakli. U bizning qishloqdan emasdi, boshqa joydan kelgan. Ismi Kenjaql edi. Mendan uch yosh katta. Laqabi Kenji ekanini yaqinda eshitdim, shu vaqtgacha Kenjaql yoki Kenja derdik. Bir vaqtlar, adashmasam, oltinchi sinfdaligida qishlog‘imizdagি Toshtemir degan odamnikiga kelib yashagandi, mакtabimizda olti oycha o‘qib ketgandi. O‘sanda ota-onasi vafot etib, yetim bo‘lib qolgan ekan. Mendan katta bo‘lishiga qaramay, «aka» demasdim, senlab gapirardim. G‘oztepa bolalari avvaldan begonalarni kaltaklagan, haqoratlagan. Menda ham shunday kayfiyat ustun edi. Qizig‘i, shu Kenjaql siz aytgandek o‘z aqliga quloq soladigan yagona bola bo‘lib chiqdi. Afsus, u ko‘p yashamadi.

— O‘ldimi?

— Bizning qishloqda ko‘p yashamadi. O‘zining qishlog‘idagi qarindoshi, adashmasam, amakisi olib ketdi. Tog‘asi otaliqqa olsa, Kenjaqlning hovli-joyini sotib yuboradi degan. Haqiqatan Toshtemir aka pulparast, foydakash, qasamxo‘r odam edi. Kenjaql ham anoyi emasdi. Qaysarligi bilan alohida ajralib turardi. Uni kimdir o‘z fikriga ko‘ndirib, og‘dirib olishi juda qiyin edi.

— Masalan...

— Masalan, u Toshtemir akanikida yashay boshlagach, mакtabimizga o‘qishga keldi. Sinfidagi Berdi, Mo‘tti, Tariq laqabli bolalar hammani boshqarardi. Ularning chizgan chiziqlaridan chiqishning oxiri voy edi. Aytishlaricha, Kenjaql sinfga kirib kelib, o‘qituvchi ko‘rsatgan partaga o‘tirgan va kitob-daftarini chiqarib, topshiriqlarini yozgan. Dars tayyorlashga ishqiboz yangi bola sinfdagi birorta o‘g‘il bola tugul, qizlarga ham yoqmagan. Buning ustiga Kenjaql birinchi tanaffusdayoq Mo‘ttining basharasini buzgan. Mo‘ttining «Bugundan boshlab sening laqabing Mitti bo‘ladi, ikkimiz Hasan-Husanga aylanib, bitta onani, ma-

salan, sening onangni emgan hisoblanamiz» degan gapi urushni keltirib chiqargan. Bo‘lmasa bolalar Kenjaqulni sinfning «shef»lari bilan tanishtirishgan, birorta bola bilan adi-badi aytishishning oqibati yangi bola uchun nihoyatda yomonligini ham tushuntirishgan.

— Yuragi katta ekan-da.

— Bu yog‘ini eshiting. Darslar tugab, hamma uyi-ga qaytayotganida, Tariq bilan Berdi «Yangi bolani soy bo‘yiga, Qorong‘i chor bog‘ oldiga olib tushamiz, Mo‘tti o‘chini oladi» deb e‘lon qildi. Biz — kichik sinflar ham mushtlashish haqida darrov eshitdik. Bolalar xuddi olo-mondek, olomondan ham battari — yovvoyi qabiladek Kenjaqulni o‘rab, soy bo‘yiga yetaklab ketishdi. Mening yuragimda rahm yashiringandi, o‘shanda bechora Kenjaqulga rosa ichim achishgan. Biroq nachora. Begona qishloqdagi begona maktabga kelgan bolani ovloq joyda hech kim orzu qilmaydigan qismat kutardi. Yoniga yaqinlashib, «Kenjaqul, qochib ketsang-chi», deb shivirladim. Biroq bola mag‘rur edi, hech qayoqqa qochmadi. Uni shu tobda hech kim qutqarolmasdi.

— O‘zidan boshqa, — dedim men.

G‘aybulla bosh silkidi.

— To‘g‘ri aytdingiz, aka, — dedi bo‘g‘iq ovozda, — yangi bolaning joniga o‘zidan boshqa hech kim oro kirolmasdi. Ota-onasi o‘lib ketgan, maktab direktori va o‘qituvchilar bexabar, Toshtemir tog‘asi ishda. Bu qishloqda bolaning do‘ssti ham yo‘q,adolatli hakamlik qiladigan xolis odam ham. Bitta yo‘li — yig‘lab yolvorish, kechirim so‘rash, Mo‘ttining do‘pposlashiga o‘zini qo‘yib berish, ota-onasi vafot etib, yetim bo‘lib qolganini aytib, G‘oztepa sardorlarida rahm-shafqat uyg‘otish. Harholda, men va bir necha bola shunday o‘yladik, pichirlashib fikrlarimizni aytidik.

«Mo‘tti, bu iflos yetimcha bilan yakka-chiga-san, — dedi Berdi. — Qo‘rqma, ~~bisAMARQAND OSHIMDAR~~ yengilsang, otimni boshqa qo‘yaman» ~~V A SERVIS INSTITUTI~~

Kenji yengini shimarish bahonasida boyadan beri boshini egib miq etmayotgandi. Hamma «qo'rqqanidan dami ichidan chiqmay qoldi, bugun rosa kaltak yeydi» deb o'ylayotgandi. Biroq u Berdiga qarab, dedi:

«Tilingga ko'p erk berarkansan! Bilib qo'y, bu yugurdaging mакtabda tegishini oldi, navbat senga. Kel, yaxshisi, ikkimiz erkakchasiga solishamiz. Kim o'zini yigitman desa, yakkama-yakka olishayotganlarga xalaqit bermaydi. Kelishdikmi?»

Sinfdoshlari «Berdiga gap qaytardingmi?» deb unga galalashib tashlanishdi. Kenji dovdirab qolmasdan yetti-sakkiz chog'li bolaga qarshi yolg'iz kurashdi. Agar uni yiqitib olishsa, tamom edi, shuning uchun Kenjaqul yaqinlashganini tepib-urib, ko'zlarini ko'kartirib, burunlarini qonatib, ortga chekina-chekina Qorong'i chor bog'ning chirigan ihota to'sig'iga taqalib qoldi. Berdi chopib kelib tergan edi, Kenjaqul shox-shabbani sindirib, chor bog'ning odam oyog'i tegmagan tizza bo'yi o't-o'lanylari orasiga yi-qildi.

Bolalar Berdining zarbasidan zavqlanib bab-baravar qiy-qirib yuborishdi, ammo Kenji o'rnidan turib, o'zini himoya qilishga shaylandi.

«Gapim ta'sir qilmadi, erkak emas ekansanlar», — dedi u g'oztepaliklarga.

Singan to'siqdan Berdining yakka o'zi o'tdi. O'tgan zahoti Kenji uning ustiga qoplonday otilib, bo'ynidan qayirib yiqitdi-da, chap qo'li bilan bosib turib, o'ng qo'lida ketma-ket o'ntacha zarba tushirdi. Bunday jangni faqat kinoda ko'rgan bolalar taxtadek qotib qolishdi. Tariq to'siqdan oshmoqchi edi, Kenji qaddini rostlab, qo'lini bigiz qildi.

«Tariq, sen aralashma! — dedi hansirab. — Yigitchasiga olishmoqchi edilaring, nega bunday qilyapsanlar? Nahotki, G'oztepa qishlog'idagi hamma bolalar xotinchalish?! Har kim o'zi aytgan gapi uchun javob berishi kerak-ku! Yigit misanlar? Yigitcha ish qilinglar!»

Shundan so'ng Kenji hammamizga murojaat qildi:

«Bolalar! Men o'zimga ishonaman! Sizlar ham o'zlariningga ishoninglar! Kim hozir galalashib men ga tashlangan bo'lsa kechirdim! Oramiz ochiq! Bugun darsda kitob o'qiganim uchun meni yomon ko'rib qoldilaring! Rahmatli onamni haqorat qilishdi! Bilib qo'yinglar! Bundan keyin ham kitob o'qiyan! Har kuni darsga kelaman! Onasiga til tekkizganlarga esa hech kim muloyim gapirmaydi! Agar begonaligim uchun urmoqchi bo'lsalaring, qattiq yanglishasanlar! Bu qishloq mening tog'a yurtim! Mabodo meni begona deb hisoblaymiz desalaring, mayli, roziman! Faqt bir narsani unutmanglar! U holda men uchun sizlar ham begona bo'lasizlar! Har biringni bittama-bitta ushlab, mana shu Qorong'i chorboqqa olib kirib so'yaman! Shunda bilasizlar ottonasi o'lgan bolani haqorat qilish qandayligini! Shunga yigitchasiga kelishamizmi? Qani, kim rozi?»

Birortamizdan sado chiqmadi. Kenji yuzi qonga belangan Berdini joyidan turg'izib, Tariqning yoniga suyab keldi. Tariq Kenjiga indamadi, boshqalar ham shashtidan tushishdi. Kenji sekin-asta ortiga chekinib, Qorong'i chor bog'ga kirib, ko'zdan g'oyib bo'ldi. Yangi bolaning tap tortmasdan Qorong'i chorboqqa kirib, narigi tomonidan — qabristondan chiqib ketishi bizni lol qoldirdi.

Yillar o'tdi, aka, bir necha oy avval Kenjaqul yana qishlog'imizda paydo bo'ldi. Toshtemir aka «jiyan go'rkovga shogirdlikka kelibdi» deganida, hayron qoldim.

— Qishloqda go'rkovlikni kasb qilib ishlaydiganlar bormi? Misol uchun, bizda marhumning qarindoshlari go'rkovlik qilishadi, hech kim doimiy kasb qilmagan. Shogirdlik an'anasi ham yo'q.

— Bizdayam shunday, aka, — dedi G'aybulla. — Har doim o'zi ko'ngilli bo'lib go'rkovlik qiladigan Mahmud aka degan kishi qabr qazishda marhumlarning qarindoshlariga bosh-qosh bo'lardi. Unga dafn marosimidan, xayriya tu-

shumlaridan pul ajratishardi. Kenji kelib, u ham norasmiy go'rkovga aylandi.

— Aytganday, yigitning laqabi nega Kenji? Menga kimnidir eslatyapti, radiodan eshitdimmi...

— Laqabi Kenji ekanini yaqinda Toshtemir aka gapi orasida aytib o'tgandi, ungacha laqabini bilmasdik. Maktabni bitirib Toshkentga ishga ketganida, u yoqdagilar «Kenji» deb ot qo'yishgan mish.

— Shaharda ishlab yurgan yigitning begona qishloqqa kelib, go'rkovlikni o'rganishga ahd qilgani g'ayritabiyy emasmi? O'zini tutishi qanaqa edi?

— Hardamxayolga o'xshab qolgandi. Bir qarashda Kenjaqulni tanimadim. Soqoli olinmagan, xiyol bukchaygan, eski kiyimdag'i bu yigit maktab chog'idagi mag'rur bolaga o'xshamasdi. Chap oyog'ini sezilar-sezilmas oqsab bosardi. O'z fikrida mardlarcha sobit qolgan bola kelajakda o'qimishli odam bo'lib chiqmaganidan ichimda «eh, attang» dedim. Balki uni biror sektaga kirgan diniy fanat deb o'layotgandirsiz? Kenjaqul maktabimizda o'qib ketgan paytlarida ham xudoga ishonmagan, yaqinda kelgанида ham o'sha-o'sha — dahriy edi.

— Ajabo! Dahriy go'rkov!

— O'zi go'rkovlik qilaman demagan. Toshtemir aka shunaqa bir qiziqqon, hovliqma fe'lli kishi. Kenji bahorda unikiga kelib, uyida yashab turishni so'ragan, nima ish bo'lsa, qilishini aytgan. Toshtemir akaning qurilish ishlariga, dehqonchilikiga qarashgan. Kenji bu ishlarni yoqtirmay, uquvsizlik bilan qilganmi, Toshtemir aka nimanidir o'ylaganmi, ishqilib go'rkovga shogirdlikni gapirdi-yu, ko'p o'tmay Kenji boshqa bir odam tufayli rostdan go'rkovga shogird bo'lib qoldi.

— Toshkentda nima ish qilgan?

— Uch yil nima ish qilganidan bexabarmiz.

— G'oztepada u bilan bog'liq qanday voqeа bo'ldi?

Menimcha, Kenji bilan bog‘liq qandaydir voqeani gapirmoqchisan?

— Asosiy voqeaga o‘tay, aka. Muqaddas degan sinfdoshimni yaxshi ko‘rardim. Ko‘pchilik qatori men ham qishlog‘imiz yaqinidagi litseyga o‘qishga o‘tdim, boshqacha aytganda, maktab binosidan litsey binosiga ko‘chdik. Muqaddas qishlog‘imiz tugul, butun tumanda Ahmadqulovlar deb dong taratgan sulolaning qizi, aniqrog‘i, Ahmadqulov degan mansabdar boyning nevarasi edi. Ahmadqulov qora ko‘zoynak taqib, atir buruqsitib, oq shim, oq ko‘ylakda, shlyapada yuradigan yetmish yoshlardagi kekkaygan bir olifta chol edi. U tuman hokimiyatida ishlagan, sut zavodida, keyinchalik vino zavodida direktor bo‘lgan, neft bazasini boshqargan. Bir o‘g‘il, uch qizi bor. Farzandlari biror karomat ko‘rsatmagan. Ahmadqulov nafaqaga chiqib, bizning G‘oztepa qishlog‘imizdagi dang‘illama hovlisisda qarilik gashtini surayotgandi. Qishloqning kattasiyam, oqsoqoliyam shu edi. Ahmadqulovning yakka-yu yagona o‘g‘li, ya’ni Muqaddasning otasi yuvosh, ko‘ngilchan, elga aralashmaydigan kishi bo‘lib, haligi dang‘illama hovlida turardi. Muqaddas xuddi shu yerda tug‘ilib o‘sdi. Uni otasi emas, bobosi tarbiyaladi. Qaysi kasbni tanlashini, kimga turmushga chiqishini Ahmadqulovning shaxsan o‘zi belgilashi kunday ravshan edi. Men kimman? Oddiy traktorchingin o‘g‘li. Otam haligacha ichadi, ulfatbozlik qiladi, topish-tutishimizning tayini yo‘q. Oxirgi paytlarda traktorimiz ham qo‘ldan ketgan. Ahmadqulov otamni bir tiyinga olmaydi, yoqtirmaydi, hamqishloq bo‘lgani uchun to‘yma‘rakada ro‘para kelsa, shunchaki qo‘l berib ko‘rishadi, xolos. Ko‘chada ijirg‘angandek ikki qadam naridan o‘tadi. Aytganimdek, men aslida yomon bo‘lmasam-da, tashqaridan qaraganda sinfning eng bemaza bolalaridan edim. Ko‘chadagi yurish-turishimdan, oilaviy ahvolimdan, yetti pushtimdan Ahmadqulov juda yaxshi xabardor edi. Qolaversa, Muqaddas litseyni tamomlagandan o‘qishga kirishi,

o'zi kabi o'qimishli, kelajagi porloq, nufuzli oila farzandiga turmushga chiqishi, bu paytda bizning oila to'y qilishga qurbi yetishi u yoqda tursin, rejaga ham kiritmagan bo'lishi oldindan ma'lum edi. Biroq Muqaddasdan ko'ngil uzish oson deysizmi? Uning husnu malohatda tengsizligi, xushchaqchaq va sho'xligi, hammaga yoqadigan shirinso'zligi boshqa qizlarda uchramasdi. Ahmadqulovning nevarasi ekani xaridorlarini o'n chandon ko'paytirgandi. Oshiqlarining orasida har xil yigitlar uchrardi...

— Kenji uni sevib qoldimi?

G'aybullha «shoshilmang» degan ma'noda bosh chayqadi.

— Muqaddas san'atga qiziqardi. Maktab sahnasida qo'shiq kuylardi, intermediyalarda rol o'ynardi, kichik sinflarga rejissorlik qilardi. Litseyga o'tganida ham faol edi. Ahmadqulovga uning san'atga qiziqishi zarracha yoqmasdi. Muqaddasni huquqshunoslik institutiga o'qishga joylashtirmoqchi edi. Ahmadqulovning xayolida ishlar ko'ngildagidek ketayotgandek ko'rinsa-da, vaziyat bobo o'ylagandan ancha boshqacha edi. Muqaddas sevimli bobosining erka qizi desam yanglismaganimdek, «dunyo-qarash» jihatidan ham davomchisi edi. «Dunyoqarash» deb qo'shtirnoq ichida aytyapman, aka, ya'ni ishqiy sarguzashtlarni nazarda tutyapman.

— Qanaqa ishqiy sarguzashtlar?

— Oddiy sevgi qissalar. Bunday qissalar Muqaddasda ko'p bo'lgan.

— Ko'p bo'lgan? Nahotki, sen bir necha yigit bilan sevishgan kapalakdek beqaror qizni yoqtirarding?

— Meni ayblamang, aka, ko'ngilga buyurish aytishgagina oson. Muqaddas ham ja engiltak emasdi, kulib, hazillashib yoki sichqon-mushuk o'ynab, oshiqlarini oro yo'lدا tashlab ketaverardi. Men uning «bo'sh qolishini» kutardim. Bir gal «Shunday yurishing to'g'rimi?» deb so'raganimda, u «Sen ham meni yoqtirasan, shuni unutmaki, birortang qo'limni ushlolmaysan», deb katta ketgan. Bobosining xo-

tinlarga suyagi yo‘q bo‘lgan deyishadi. Yaqin yillargacha Ahmadqulov ko‘p shaytoniy amallar qilgan. Muqaddas esa beshinchи sinfda o‘qib yurganimizdayoq o‘g‘il bolalar bilan xat yozishgan. Begona bolalarni ko‘rsa, qiliq chiqarib qolishi avval-boshdan menga yoqmasdi, bobosining qoni tortadi-da. Kenji kelmasdan sal avval Muqaddasning navbatdagi oshig‘i maydonga chiqdi. U litseyda o‘qiydigan pastki mahallalik To‘rabek ismli yigit edi. Ikkisi To‘rabekning mashinasida kechqurun tuman markazidagi pavilonda muzqaymoq yeishga ketayotganlarida, avtohalokatga uchrab, yigit voqeа joyida til tortmay o‘ldi. «Mashinada Ahmadqulovning nevarasi – Muqaddas ham bo‘lgan ekan, beting qursin uyatsiz qiz To‘rabekning mashinasida nima qilib yurgan ekan?» degan gap-so‘z hammayoqqa tarqab ketdi. Buni eshitgach, men ham Muqaddasdan nafratlanganga o‘xhash yomon tuyg‘ularni tuydim, ammo har galgidek yomon ko‘rish tezda tarqadi. Aksincha, endi yo‘l ochilib, mening taqdirim Muqaddasga bog‘lanadigandek tuyuldi. Ahmadqulovning ham kayfiyati buzildi, g‘am bosdi. Kelgusida Muqaddas o‘qishni bitirib, erga tegayotganida, kimsan Ahmadqulovning nevarasi degan oliy rutbaga ega bo‘lardi. Endi-chi? «Yigitining mashinasida allaqayoqqa ketayotganida, avariyaga uchrab, yigit o‘lgan qizmi?» deyishlari muqarrar. To‘rabekning dafn marosimida hamma ishtirok etdi. Ahmadqulov ham mullalar va boshqa kattalar bilan qabristonga bordi. Men odamlar orasida edim. Qarasak, yer qattiq, qabr qazuvchilar lahad devorini to‘liq tayyorlab ulgurishmabdi.

«Nega bo‘lmadilaring? Mayit kutib qolsinmi?!» – do‘q urdi Ahmadqulov.

«Qabristonning bu chetidan cho‘qirtosh chiqishini bilmagandik, rais bova», – deya o‘zini oqladi Mahmud go‘rkov.

«Bilishlarining kerak edi! – g‘azab otiga mindi Ah-

madqulov. Keyin yangi qabrdan sal nariroqdan bir uchi chiqib turgan ko'hna qabrtoshga ko'zi tushdi. — Anavi nima?»

«Urushdan keyin biz tomonlarga asirlar kelib ishlagan-da, o'lganlarni shu yerga ko'mishgan, — dedi go'rkov. — Ko'p emas, bitta asosiy qabr bor».

«Sendan yaxshi bilaman, Mahmud! Asirlar qabri sal narida, anavi yantoqzorda edi-ku! Qanday qilib bu yoqqa kelib qoldi?»

«Qabrlar siljimaydi, rais bova, — dedi Mahmud aka, — biz siljib boryapmiz, har yili qanchadan-qancha odam o'lyapti. Noma'lum askarlarga qo'shilib ketamiz».

Shu payt yangi lahad ichidan ust-boshi changga belan-gan Kenjaqul chiqib, qabr tayyorligini aytdi.

«Kim bu bola?» — so'radi Ahmadqulov tajang kayfiyat-da.

«Toshtemirning jiyani, — javob berdi go'rkov. — Shu polvon bo'limganida, mayitning joyi miňg baqirsangiz ham tayyor bo'lmashdi. Yomon tirishqoq ekan».

O'likni dafn etishdi. Ahmadqulov nevarasining nomiga dog' tushirgan hovliqma yaxshiroq dafn etilganiga ishonch hosil qilmoqchidek do'ppaygan qabrga oxirgi marta sinch-kov nazar tashlagach, olomonga ergasharkan, dedi:

«Bugundan keyin Toshtemirning jiyani go'rkovlik qilsin. Mahmud, eshityapsan-mi? Unga ham pul ajratinglar!»

«Qorong'i chorborg'ni ham topshiring, rais bova, — kesatdi go'rkov. — Yaxshilab obod qilib, o'ttada sizlarga supa ham qurib beradi, pensionerlar chiqib, choy-poy ichasiz-lar».

Odamlar kulib yuborishdan o'zlarini zo'rg'a tiyish-di. Axir, Qorong'i chorborg'ning chakalakzorida eshakni o'tlatishga ham irim qilishardi-da.

«Qorong'i chorborg' senga o'xshagan cho'pchakchilar uchun yomon joy, aslida u yer uyingdag'i bog' kabi oddiy

daraxtzor, — dedi Ahmadqulov. — Qo‘llaringdan kelsa, obod qilinglar, borib choy ichaylik. Qani haligi bola?»

Odamlar darhol Kenjini ro‘para qilishdi.

«Oting nima?» — so‘radi Ahmadqulov.

Kenjaqul ismini aytgan edi, Ahmadqulov qayerdan ekanini, nega G‘oztepaga kelib yashayotganini surishtirdi.

«Ota-onam o‘tib ketishgan, yaqin qarindoshlarimdan bu yerda Toshtemir tog‘am bór... Shunga... Toshtemir tog‘amning uyida yashab, ul-bul ishlariga qarashsam deb keluvdim...»

«Senbop ishlar ko‘p, shulardan biri Qorong‘i chorbog‘, — dedi Ahmadqulov. — Bizning odamlar sal xurofotparast. Bog‘ni obod qil, o‘g‘lim! Hoynahoy, Toshtemir tog‘angdan Qorong‘i chorbog‘ haqida avvallari eshitgansan. Mana, kelib ko‘rding. Nimasi xosiyatsiz? Ishlaysanmi?»

«Tog‘amdan so‘rab ko‘ray-chi, bova».

«Mayli, so‘ra. Bitta narsani unutma: hech kim mening gapimni ikki qilmagan! Yana shuni tushunki, Qorong‘i chorbog‘ning qarovsiz qolganining o‘zi xosiyatsizlik, gap uning qanaqa joy ekanida emas. Daraxtlarni ekkan odamni yaxshi tanirdim. Qabristonning etagidagi jarlik bilan soyning o‘rtasi uzoqdan xunuk ko‘rinadi, shu yerni bog‘ qilaman, degandi. Haqiqatan, soyning narigi yog‘idan qara! Tepalik qishloq qabristoni, pastlik jannatday bog‘. Bu bog‘ soyga tutashib ketadi. Ajoyib manzara emasmi?»

Kenji bosh silkidi.

Xalq qabristondan chiqdi. Ahmadqulovning Qorong‘i chorbog‘ bilan zig‘ircha qiziqmasligi ilgaridan ma’lum edi, endilikda qiladigan ishi qolmaganmi yoinki hukmdorlik illatimi, uning diqqat-e’tibori qabristonning qarovsiz bog‘iga qaratilgan edi...

G‘aybulla hikoya qilishdan to‘xtab, havo etishmayot-gandek yoqasini xiyol ochib, bo‘ynini ishqadi. Men uning sog‘lididan hamon xavotirda edim. Shunday esa-da, Kenji va Qorong‘i chorbog‘ voqeasiga ham qiziqish uyg‘ongandi.

- U Qorong‘i chorbog‘ni gullatdimi? — so‘radim men.
- Hech kim kutmagan ishlarni qildi, — deb javob berdi
G‘aybulla og‘ir uh tortib...

III

O‘sha kuni — Hasan gazchi chaqirgan damda Kenji o‘ttiz chaqirimcha yo‘l bosib, Toshkentga kelib, anhor bo‘yidagi oshxonaning ayvonida o‘tirganida, gazchi shunday degan edi:

— Mening qayerlik ekanimni bilmaysan, ukam. Toshkentlik, farg‘onalik, jizzaxlik... emasman. Qon jihatdan tugul, geografik jihatdan ham metisman. Tomirimning bir uchi sizlar tomonga — nafaqat viloyatlaringga, balki tumaninglarga borib taqaladi. Behazil gap, Kenji, biror manfaat umidida gapirmayapman. Ugam daryosi bo‘yidan qay-tayotgan ulfatlarining sening yo‘qolib qolganingni aytib hirninglashganida, qaerlik ekaningni gaplari orasida aytib o‘tishgan. Ona yurtimdan, ya’ni ona tomonimdan ekanku, degan xayol lip etib o‘tgach, o‘zim seni axtarib topdim va daryoning narigi tomonidagi tosh ustida uxlab yotgan holingda uchratdim. Yillar o‘tdi, seni yana surishtirdim va ulkan kashfiyotga duch keldim. Buni qara, sen G‘oztepa qishlog‘iga borib turarkansan, tog‘angnikida yashagan ekansan. Menga aynan u yerlarga borgan odam kerak edi, o‘sha hojatbaror shaxs o‘zing bo‘lib chiqding. Qo‘lingni ber, ukam! Erkakchasiga qo‘l tashlashaylik! O‘ylaymanki, mening taklifimni rad etmaysan. Boya aytganimdek, xohlasang uylanasan, xohlamasang yo‘q. Muhimi, katta mukofotni qo‘lga kiritasan.

— Maqsadga yetib keldingiz, ochiq gapiring, — dedi Kenji qovoq uyib.

— Sen bola romantik emassan, hatto Xudoga ham ishonmaysan, — Hasan gazchi yana gapni aylantirayotganga o‘xshasa-da, maqsadga darrov ko‘chdi: — Men teskar-ringman, shuning uchun necha-necha yillardan beri qasos

ololmayotgan odamim bilan hisob-kitob qilmoqchiman. Uning ismi Rauf, familiyasi Ahmadqulov. Eski korchalon, eski amaldor, eski tulki. Hozir G‘oztepa qishlog‘ida yashaydi, avvallari asosiy qarorgohi tuman markazida edi. Izidan seni qo‘ymoqchiman.

— Teskarim ekansiz, Xudoga ishonarkansiz, nima kerak sizga o‘ch-po‘ch? Buning ustiga o‘tmishda qolgan g‘alva ekan. Ming yil oldingi muammolarni ko‘targuncha, yo-shingizni yashab, oshingizni oshamaysizmi?

— Maslahat berma, Kenji, xafalashib qolamiz. Ahmadqulov yolg‘iz singlimni yo‘ldan urgan. Singlim o‘z joniga qasd qilganidan keyin ota-onamning sog‘ligi yomonlashgan. La’nati Ahmadqulov juda puldor edi, qaerga qo‘lini cho‘zsa yetardi, tepada tanishlari son-mingta. Vaziyat chigallashganida, bosdi-bosdi qilish uchun singlimga Toshkentdan uy olib berib, ish ham topib bergen.

— Keyin-chi?

— Singlim Toshkentda bir kun ham yasholmadi, o‘zini o‘ldirdi. Uyi o‘ttiz yildan beri hali ham turibdi. Bir xonali galereyka. O‘sha uyni xizmat haqqingga beraman. Xohlasang yasha, xohlasang sotib yubor. Ko‘ryapsan, bugun singlim ham yo‘q, ota-onam ham. Yaqinda xotinim va-fot etdi. Bu dunyoda yolg‘iz qoldim. To‘g‘ri, qizlarim bor. Biri Ozarbayjonda, ikkinchisi Rossiyada. Ular o‘zlariga to‘q. Hozirgi uch xonali uyim mendan keyin qizlarimga qoladi. Anavi uyni esa... pul kerakligida ming marta sotib yubormoqchi bo‘lganman, qizig‘i, nimadir sabab bo‘lib, hech sotolmaganman. Notariusga boramiz, uyni garovga qo‘yib, sendan yigirma ming dollar qarz olganimni ras-miyashtiramiz. Bu — uy senga o‘tdi degani. Shartim, Ahmadqulovning qizini... uzr, qizi debman, nevarasini olib qochasan va uylanasan. Bizni chaqirib, kichikroq to‘y qilasan. To‘y xarajati ham mendan.

— Qasos shumi? — kului Kenji.

— Kulma, bola! Sen tomondan bir yigit qo‘limda ish-

lab ketgan, — oldinga engashdi gazchi. — Bir oy avval to'yiga aytdi, odatda uzoqlarga bormasdik, bu safar bordim. Bahonada Ahmadqulov haqida ma'lumotlarni qo'lga kiritdim. Necha yillardan beri yuragimni o'rtab kelayotgan, ayniqsa, yolg'iz qolganimdan so'ng kecha-yu kunduz tinchlik bermayotgan ishni amalga oshirishga taqdir signal bergandek tuyuldi. U nevarasiga juda suyanib qolibdi. Aytishlaricha, nevarasi sohibjamol qiz, bu yil mакtabni, aniqrog'i, qishlog'idagi litseyni tamomlab, yuristlikka o'qimoqchi. «Qasos shumi?» deb ustidan kulyapsan. Men ham ustingdan kulaymi? Sening o'sha qizga uylanishing — eng katta qasos! Ahmadqulovning bunday baxtsizlikni tatigandan ko'ra o'lgani yaxshi.

— Menga nima qipti?

— Sengami? — Hasan gazchi o'graydi. — Senga, ukam, ko'p narsa qilgan... — Sigaretidan olib, Kenjidan ko'z uzmasdan olov yoqdi. — Turgan-turishing Ahmadqulovni pichoqsiz so'yadi. Qo'lingda hunaring yo'q, o'g'rilar bilan oshnasan, allaqanaqa buzuqxonalarda qo'shmachi va fohishalarni qo'riqlaysan, ofitsiantlikni ham eplolmagansan, ota-onang vafot etib ketgan, mayli, joylari jannatda bo'lishsin, senda tuzukroq qarindosh-urug' ham qahat. Ahmadqulovning nazarida, ko'cha bolasisan. Senga o'xshaganlarni kuyovlik tugul, bog'iga qorovullikka olishdan ham hazar qiladi. Buni qaraki, sen unga kuyov bo'lsan, quda tomonda meni uchratadi, ha, shunaqa, taqdirdan qochib qutulolmaydi.

— Hamma hazar qiladigan odam ekanman-da, a? — zaharxanda kuldji Kenji.

— Men uchun haqiqiy yigitsan, Ahmadqulov va unga o'xshagan oqsuyak zodagonlar uchun esa pastsan. Men aytmasam ham, shunday kibrli kaltafahmlarning qizlariga yoki nevaralariga uylanib, joyiga o'tirg'izib qo'yish kerak edi. Militsiyaga berib qamatib yuboradi, deb qo'rhma. Toshkentga olib kelib, uyingni ko'rsatasan, o'zingga bundoq qarab yursang, kelishgan yigitsan, sevgidan alla aytib,

qalbini eritasan. Ahmadqulov chiranganiga qaramay nevarasi sudga bermasa, sen bilan Toshkentda yashashni istasa, miliitsiya nima deydi? Urmagansan, o'ldirmagansan, zo'rlamagansan, go'yoki qiz bilan sevishib qolib, birga qochib kelgansan.

— «Bog'iga qorovullikka olishdan ham hazar qiladi» deganizingizga, anavi... Qorong'i chor bog'ni so'ramoqchiydim. Bularga qabriston bilan Qorong'i chor bog'ning nima aloqasi bor?

Hasan gazchi stuliga bahuzur yastlanib, tutun pufladı.

— Jin-pin, arvoх-parvoхga ishonmaysan, — sigaret kulimi qoqdi gazchi. — Demak, go'riston dan, xosiyatsiz bog'dan — héch balodan qo'rqmaysan. Shuni xohlayapmanki, qizni dabdurustdan o'g'irlab ketma, tog'angnikida ma'lum muddat yashab, qishloqni o'rgan, ilojini topib, qabristonda ishla, qishloq ahliga go'rkov bo'lib tanil.

— Go'rkov bo'lib tanil? — aftini bujmaytirdi Kenji.

— Masalan, tog'ingga Qorong'i chor bog'ni obod qila man, de. Ko'nmasa ham ishga kirishib ket. Qorong'i chor bog', qabriston — bular bitta joy. Xudoga ishonmaysan, ular esa ishonishadi va... Qorong'i chor bog'dan dahshatga tu shishadi. Sen ularning nazarida g'alatiroq yigit bo'lishingni xohlayapman. Nima desam ekan... bo'ladi-yu odamlar irim qiladigan joy! Shunday joyda bemalol ishla! Odamlar seni sog' emas deb o'ylasin!

— Nega?

— Qo'shimcha effekt.

— Qanaqa qo'shimcha effekt?

— Ahmadqulov sevimli nevarasi go'rkovga, Qorong'i chor bog' qorovuliga, hech kimi yo'q yigitga tur mushga chiqayotganini eshitsin! O'g'ri ekaningni...

— O'g'ri emasman.

— O'g'ri emassan! Suhbatlashayotganimizdan beri ularning ko'zi bilan ko'ryapman, ukajonim! Nafaqat o'g'risan, uyidan chiqib ketib, buzuqxonalarda tunab yurgan ban-

gisan! Ahmadqulovning qon bosimi oshib, til tortmay o'ladi. Qizning ko'nglini ol, qiz senga turmushga chiqishni istasa, qonun bir tola tukingga ham tegmaydi. Qalay?

— Yana o'sha gap!..
— Shoshma! Oxirgi besh-olti yil ichida nevarasiga qat-tiq bog'lanib qolgan, deyapman-ku! Nevarasining tash-vishidan boshqa ishi qolmagan. Kampiri olamdan o'tgan, farzandlaridan zerikkan. Umr bo'yи topgan obro'yining ham, boyligining ham — barchasining huzur-halovati shu nevara qiz timsolida mujassam. Bejiz senga katta pul tikyapmanmi?! Eski «Jiguli»da yursam yuray, maqsadim amalga oshsin! Yomon qasos emas, qizni o'ldirmayapman, nashaga o'rgatmayapman, shunchaki senga olib beryapman. Tarixda birinchi marta Ahmadqulovning emas, mening aytganim bo'lsin, iltimos, Kenjjon.

Jimlik cho'kdi.

— Faqat shumi? — qiya nazar tashladi Kenji.
— Faqat shu, — dedi Hasan gazchi qo'l uzatib. — Uylanasanmi? Besh tashla!
— Uylansam, nevarasi mening oilamga aylanadi-da, aka. Keyin bu yog'i qandoq bo'ladi?
— Albatta oilangga aylanadi. Bu yog'i qandday bo'ladi.
— Aytmoqchimanki, uylanganimdan so'ng nevarasiga nisbatan dushmanchililingiz tugashi kerak. Aks holda, aka... Balki o'yinlar boshlanmasidan avval... shu yerda rejangizni to'xtatganimiz ma'qulmikan? Shunda aka-ukachiligidiz tinchgina saqlanib qoladi, qon to'kilmaydi.
— Voy-vo'-o', bir qiz uchun meni o'ldirishing mumkin-mi?
— Bir qiz uchun emas, oilam uchun.
— Kenji, — dedi Hasan gazchi unsiz kulib olgach, — Ahmadqulovning qiz nevarasida hozir ham xusumatim yo'q. Ehtimol, sen bilan baxtli bo'lar. Men uchun muhimi, Ahmadqulov degan kazzob, xotinbozning ruhan ezilishi! Agar yoyuz bo'lganimda edi, nevarasining boshiga qora kunlarni

solardim. U o‘g‘irlanadi, binoyidek yigit tomonidan. Axir, Ahmadqulovning asabiga tegadigan ko‘cha bolasi hisoblansang-da, bundoq olib qaraganda, boshqalardan kam joying yo‘q-ku! Xullas, yigirma ming AQSh dollari ishlading. Tabriklayman! Buyursin! Menga singlimning uyi kerak emasdi. Shu uyni sen olyapsan va... singlimning erta so‘ngan umri uchun bir mal‘un bilan hisob-kitob qilyapsan.

Shusiz ham Kenji rangsiz hayotdan zerikkan edi. Kindik qoni to‘kilgan ota qishlog‘iga borsa, amakilari o‘z tashvishlari bilan band, G‘oztepaga borsa, Toshtemir tog‘asi ro‘zg‘or qayg‘usiga botgan, hech kim boshini silamaydi. Kenji o‘zi allaqachonlardan beri odamlardan mehr kutmay qo‘ygandi. Qishloqdan chiqib ketib, ko‘chada ovundi, ortidan birov surishtirib kelmadi. Aksincha, Kenji qishloqqa borganida, «manा, shaharda ishlab pul topyapti, bizning o‘g‘illarga ham ish izla, Kenjaqul», deyishdi. Birortasiga ish surishtirmadi, qora va kir hayotiga yaqinlashtirmadi...

— Yana nimalar?

— U yoqqa manavi po‘rim kiyimlarda borma, — dedi gazchi Kenjining egnidagi yarashiqli guldor ko‘ylakka imo qilib. — Ahmadqulovning ko‘proq ezilishini xohlayman. Xuddi tomi ketgan, bechorasifat, oqsoq, soqoli olinmagan, tushkun yigit bo‘lib bor.

Kenji kulmoqchidek taraddudlandi-yu bu gal kulmadi. Hasan gazchi kelishuvni ifodalash uchun yana qo‘l cho‘zdi.

— Baxtingni bersin, Kenji... Aytganday, familiyang nimaydi?

— Oynaqulov, — deya gazchining qo‘lini qisdi Kenji. — Qarz berayotganingizda pasportimni ko‘rasiz.

— ...Kenji Oyna! — xitob qildi Hasan gazchi. — Xafa bo‘lma-ku-ya, zo‘r noming bor-da! Hammasidan ham G‘oztepaga yuboriladigan odam bo‘lib chiqqanedingdan xur sandman. Senga bitta uy tugul, borimni berishga tayyorman. Faqat epla, uka, epla! Shu bahonada omading chopib,

ham uyli, ham xotinli bo'lib qolasan. Tag'in xunuk qiyofada yur, deganimni ko'ngling-ga olma. Qiz sening aslida qandayligingni bilsin va sevsin. Boshqalarning fikriga qarab ish tutish Ahmadqulovning ishi, sening emas. Oldindan aytamanki, senga olomonning fikri bir tiyin! Ahmadqulov aslida singlimni yoqtirmagan, shunchaki hamkasblari maqtayvergach, ko'pchilikning orzusidagi gulni o'yinchoq qilishni xohlagan, xolos. Endilikda ko'pchilik yoqtirmagan yigit — Kenji unga kuyovto'ra bo'ladi.

IV

Menga Qorong'i chorborg' bilan bog'liq voqealarni hikoya qilayotgan G'aybullaning rang-quti o'chgan edi. Uning kasal ekaniga shak-shubha qilmay qo'ydim. Biroq choy ichishni ham istamay, Kenji va Qorong'i chorborg' voqeasini hikoya qilishda davom etdi:

— To'rabeckning avtohalokatda o'lishidan so'ng Muqaddas birdan o'zgarib qoldi, aka. Jarohatlari bitib, o'qishga chiqqanida, ikkinchi qavat yo'lagida ro'para keldim. Shifixonada yotmay, uyida davolandi. Ahmadqulov birorta sinfdoshini kasal ko'rgani uyiga yaqinlashtirmadi, go'yo gap-so'z ko'paymasligi uchun vahimakashlarga qarshi shu tariqa chora ko'rgandi. Muqaddas bir oycha burun «Oshxona» deb nomlangan intermediyani litsey sahnasiga qo'yish tashvishida menga ofitsiant rolini o'ynashni iltimos qilganida, nafetgandim.

«Tuzalib qoldingmi? — deb hol so'radim va yarasini tirnamaslik uchun darhol gapni burdim: — Ofitsiant rolini kim o'ynaydigan bo'ldi? Sharifmi?»

«Yo'q, u emas», — dedi Muqaddas yonimda to'xtamasdan o'tarkan.

«Unda kim?» — ortidan ergashdim.

«G'ayulla, ko'rmayapsanmi, o'qishga bugun chiqdim, «ofitsiant»ni endi topaman. Hozir so'rama o'shani».

U avtohalokat va To‘rabekning o‘limi mavzusida hech kim bilan gaplashmadi. O‘qituvchilar ham yurak yutib hech vaqo so‘ramadi. Xuddiki Muqaddas halokat ishti-rokchisi bo‘limgan, odam o‘limgan, jarohat olmagan.

Biroq...

Dars tugab, odatdagidek uygaga piyoda jo‘nadik. Litsey qishloq markazidan bir yarim chaqirimcha narida edi. Maktab kabi litseyning yo‘li ham Qorong‘i chor bog‘ yaqinidan o‘tardi. Qabristonga ko‘zi tushgan ayrim qizlar yuzlariga mung tortib, Muqaddasga qarab-qarab qo‘yishsa, ayrimlari pichirlashib, g‘iybatlashib kelaverishdi.

Bir payt chor bog‘ga eltuvchi pastga engan so‘qmoqda Kenjining qorasi ko‘rindi. U tepaga — asfalt yo‘l tomon chiqib kelardi. May quyoshi qizdirayotgan esa-da, yengi uzun baxmal ko‘ylak, qalin kepka kiyan, ishchilar qo‘lqopida edi.

Yo‘lga chiqqach, meni imlab chaqirdi.

«Ha?» — dedim yoniga borib.

«Oting G‘aybullamidi?» — dedi tuproq yuqi o‘rnashgan qo‘lqopini echib.

«Adashmading».

«To‘rabek degan yigitning janozasi kuni keluvding, tanimdim. Biz avval ham uchrashganmiz. Eslaysanmi, oltinchi sinfimda maktablaringda yarim yil o‘qib ketgandim. Tosh temir akaning jiyaniman. Qorong‘i chor bog‘ etagida sinfdoshlarim bilan janjallashganimda, menga qochib ketishni maslahat berganding».

«Tanidim. Uzr, gaping bo‘lsa, tezroq ayt, ketishim kerak».

Kenji o‘tkir nigohini qadaganida, ko‘zlarida g‘ayritabiyy o‘t shu'lalandi. Buni birovga ta‘riflab berish mushkul. Angladimki, uning vujudida turq-tarovatiga zid holda qandaydir noma'lum kuch yashirin edi.

Darvoqe...

«Muqaddas qaysi biri?» — deb qizlarga qaradi u.

«Nima qilasan?»

«Lahadni men kavladim, o'sha kuni ko'rding, — dedi Kenji yuzimga bir qarich masofada yaqinlasharkan. — Oxirgi bo'lib men chiqdim... Muqaddas kerak. Qaysi biri?»

«Sen qazigan bo'lsang, shunga... nima bo'pti?.. Muqaddasga qanday daxli bor?» — dedim-u ichimga titroq kirdi.

«Lahadda nima ko'rganimni Muqaddasga aytishim kerak. Sendan qaysi biri deb uchinchi marta so'rayapman. Anavimi?»

Kenji nigohlari-la Muqaddasni bexato topdi. Men Muqaddasga yetib, yosh go'rkov chaqirayotganini aytdim.

«Kim o'zi u? Go'rkov deyapsanmi, G'aybull?» — peshonasini tirishtirdi Muqaddas.

«Qabriston bilan Qorong'i chorboqqa qorovullik qilayotgan yangi yigit... Toshtemir akaning jiyani... To'rabeckning joyini shu bola qazigan...»

Muqaddas o'pkasini to'ldirib nafas yutdi-yu, bir zum jim qoldi. Xavotir ingan ko'zları goh menga, goh Kenjiga boqardi.

«Nima gap, Muqaddas?» — to'xtashdi qizlar.

«Sizlar ketaveringlar... G'ayulla, yur-chi!» — deya Muqaddas men bilan birga Kenjining oldiga keldi.

Go'rkov oyoq muskullari tortishib qolgandek ikki qadamni zo'rg'a tashlab, bukilgan qaddini ko'tardi. U bizga boqqanida, nigohida hamon sovuqlik ufurardi.

«Sen nariroqqa bor, — buyurdi Kenji menga. — Muqaddasga aytar gapim senga taalluqlimas».

«Aytaver, shu yerda turaman», — dedim unga.

«Mard bo'l, uka, — g'ijindi Kenji. — Juda ko'p chaynalarkansan. Bu singlimizda muhim gapim bor desam, sen qulq solmoqchisan».

«Gapiring... Birga eshitamiz», — Muqaddasning lablari qimtildi.

Kenji unga sizlab murojaat etdi:

«Singlim, qabr qanday qazilishini bilasizmi?»

Muqaddas ikkimiz hayron bo‘lib, bir-birimizga qaradik.

«Nega mendan qabr qazilishini so‘rayapsiz?» — dedi Muqaddas.

«Iltimos, savolimga javob bering, bu — muhim».

«Internetda rasmiga ko‘zim tushuvdi, — deb javob berdi Muqaddas. — Kinolardagidek handaqla o‘xshamaydi, bir yonida maxsus xonasi bo‘ladi».

«To‘g‘ri, avval chuqur kavlanadi, keyin o‘ng tomon devori o‘yilib, uya qaziladi, mayit shu uyaga, ya’ni lahadga qo‘yiladi. To‘rabekning lahadini kavlashda qishlog‘ingiz go‘rkovlarining kuchi yetmay qoldi, chunki tuproq tagi cho‘qirtosh ekan. Mayitni olib kelishayotganiga ko‘zim tushib, mahtal bo‘lmasin deb, o‘zim lahadga tushdim-da, ishni oxiriga yetkazdim».

Muqaddasning ko‘zlari pirpirab, achchiq yutindi.

«Bu gaplarni nega menga aytyapsiz?»

«U yerdan chiqayotganimda, qabr devorida «M» harfini ko‘rdim», — dedi Kenji.

Ichim shuv etdi. Tamom! Muqaddas hozir chinqirib yig‘lab yuboradi.

Yo‘q...

Muqaddas yig‘lamadi. Peshonasini qashib, asfalt yo‘ldan ko‘z uzmay, bir nafas o‘yga toldi. Kenji qassob molga qaragan kabi unga tikilib qolgandi. Men jim edim. Bu yigitning qarshisida shijoatim yo‘qolib, yuvosh tortganimga tushunolmasdim.

Muqaddas ketmadi, yig‘lamadi ham.

«Qabr devoridagi «M» menmanmi?»

«Sizni tanimasam, nima uchun «o‘scha sizsiz» deyman? Hayron qolganim, «M» harfini kim yozdi? Lahaddan oxirgi bo‘lib men chiqqanman. Aniq bilamanki, hech kim yozmadi. Qabr devoriga yozuv yozib, o‘yin qilishmaydi. Mayitni qabrga qo‘yuvchilar devordagi yozuvga e’tibor

berishmadi. Men ham aytmadim. Shov-shuvni yoqtirmayman. Buning ustiga bobongiz «Kim bu bola?» deb tergab qoldi, chalg‘idim».

«Shu gaplaringizning evaziga nima qilishim kerak?»

«Hech narsa qilmaysiz. Bobongiz mening ishimdan qoniqib, Mahmud akaga yordamchilik qilishimni aytdi. Anavi chorborg‘ni yo obod qil, yo qurit, dedi. Ishga kirish-ganimga besh kundan oshdi. Besh kundan beri qishloqlaringiz go‘rkoviman. Qorong‘i chorborg‘ning bog‘boni endi menman».

«Xo‘s?»

«Kecha Qorong‘i chorborg‘ning chakalakzorini tozalayotib, huv anavi sadaqayrag‘och tagida o‘tirib, ko‘zim ilindi, — deb Kenji pastlikdagi qarovsiz bog‘ning o‘rtasida daraxtga ishora qildi. — Shu kungacha sharpa, jin, arvochlarga — hech biriga ishonmasdim. Maktabda o‘qib yurgan davrimda otam, onam vafot etib ketishgan. Ularning qayerlar-dadir ruh shaklida tirik ekaniga ishonchim yo‘q edi... Singlim, tushimda sizni ko‘rdim... «M» harfining siri tushda ayon bo‘ldi...»

Muqaddasning rangi o‘chdi. Menga ko‘z qirini tashlab:

«G‘ayulla, sal nariga borib turasanmi?» — dedi zaif tovushda.

Aka, men ulardan uzoqlashdim. Qolgan gaplari eshitilmadi...

G‘ayulla hikoya qilishdan to‘xtab, deraza yoniga surildi. Pardani surib, pastga — mavzemizning eng shirin taomlari pishiriladigan oshxonalarga boqdi.

— Qorin qalay? — degandim, u pardani yopib, yana bur-chakka yurdi.

— Qorong‘i chorborg‘ voqeasiga qiziqmayapsizmi? — ko‘zlar yiltilladi G‘ayullaning.

— Qiziqyapman. Nazarimda, sen qiyalyapsan.

— Ha, ko‘p qiyaldim. O‘sha kuni sal nariga borib, Muqaddasni kutdim. Kenji va Muqaddas gaplashayotganlarida

yoqimsiz shamol esdi. Asfalt ustiga o‘rnashgan changni havoga ko‘tarib, yuzimga urdi. Bizdan boshqa hech kim qolmadi. Hatto qushlar ham g‘oyib bo‘lgandi. Qishloqning shifer tomlariga, tilsiz teraklarga, huvillagan ko‘chalarga, olisdagi qo‘ng‘ir tog‘larga nazar tashladim. Nigohim tiriklar safidan o‘chib, bir uyum tuproqqa aylangan odamlar shahri – go‘ristonga, undan esa pastlikdagi quyuq daraxt-zorga – Qorong‘i chor bog‘ga qadaldi. O‘lim qoshimiz va qovog‘imiz orasida edi. Kim qancha yashashini bilmaydi, u yoqda ne kechmishlar boshiga tushishini ham...

Muqaddas va Kenjida nigohimni to‘xtatdim. Ular qimir etmay gaplashishardi. Muqaddasning etagi shamolla hilpiradi. Kenji haykaldek qotib, kiprigi-da qilt etmay so‘zлади, so‘zлади, axiyri Muqaddas peshonasiga tushgan sochini sidirib, unga nimadir deb javob berdi, Kenji bosh irg‘adi.

Yuragim ezilib, qishloqqa yuzimni burdim va bir da-qiqacha garangsib turdim.

«Ketdikmi?» – dedi Muqaddas.

Kenji so‘qmoqdan enib ketgandi chog‘i, ko‘riñmasdi.

«Nima deydi? «M» harfi rostdan sen ekansanmi?»

«Qo‘y, gapirma! Birovlargayam aytib yurma! – dedi Muqaddas qadamini tezlatib. – Muhimi, uni ko‘ndirdim».

«Nimaga ko‘ndirding?»

«Sahnaga chiqib, ofitsiant rolini o‘ynaydi».

Hamma gapni kutsam-da, bunisi xayolimga kelmagandi, nihoyatda ajablanib:

«Shu yigit-a?» – deb yubordim.

«Unga nima qilibdi? – Muqaddas hayronligini yashirmadi. – Rolga mos. Xuddi shunaqa yigit ofitsiant bo‘lib, patnis ko‘tarib kiradi».

«Qanaqasiga?»

«G‘aybulla, o‘zing o‘ynamading, ko‘p savollar beraverma. U menga qabriston haqida gapirdi, men teatr haqida.

Yigit bechora umr bo'yи san'at nimaligini bilmay kelyapti.
Go'rkovlikdan bo'sh vaqtida bir rol o'ynasin».

«Buni hazm qilish qiyin».

«Hecham qiyinmas. U uch yil shaharda yurib, teatrni
ko'rmagan. Demak, dunyoqarashida kasallik bor. Ammo
davolash mumkin».

«Qishloq qabristonining qorovuli litseyga kelib, sahnada
rol o'ynashi g'alati-ku, Muqaddas!»

«Sendek fikrlasam, dunyoda g'alati narsaning o'zi yo'q.
Yer sharining hech nimaga tayanmay, muallaq turgani
g'alati emasmi? Yashayotganimiz-chi? Gapirayotganimiz,
ayniqsa, ko'rayotganimiz-chi?! Yumaloq, yaltiroq a'zomiz,
ya'ni ko'zimiz miyaga tasvirni uzatadi! Bo'lishi mumkin-
mi? Sendek fikrlasak, go'shtga o'xshash to'qimaning tas-
virni aks ettirishi aslo mumkinmas!...»

«Bo'ldi, gapirmadim! Go'rkov kelib, qo'shiq aytsin,
kuylasin, brek-dansga tushsin! Muhimi, sen sog'-salomat
bo'lsang bas».

Muqaddas sumkasini yelkasiga qulayroq qo'ndirdi. Shu
kundan boshlab u va Kenji o'rtasida biz tushunmaydigan
rishta paydo bo'lgan edi.

Haqiqatan, oradan ko'p o'tmay, guruhimiz qizlari
«Oshxona» intermediyasini namoyish etgani litsey sahnasi-
ga chiqishdi. Ofitsiant rolini go'rkov ijro etishini sanoqli
odamlargina bilishardi.

Buni qarangki, Ahmadqulov ham litseyga kelib, faollar
zaliga tashrif buyurgan va qo'llarini chalishtirib, orqadagi
o'rindiqlarning birini egallagandi. Chol burungidan-da za-
monaviy kiyingan, oq shim, egnida qizil gulli yengi kalta
ispancha ko'yak, boshida kovboylar shlyapasi, og'zida
saqich, hatto bo'ynida kumush zanjir yaraqlardi. Yanada
kekkiyib o'tirishidan angladimki, arman konyagidan otib
olgan. Muqaddasning aytishicha, bobosi hali-hanuz qim-
matbaho ichimliklar ichadi va kayfi borligida ana shunday
uchiga chiqqan oliftaga aylanadi.

«Bovang...» — dedim Muqaddasga.

«Ho‘kizim tuqqan yili saratonda qor yoqqandi», — deya
Muqaddas ham hayratini yashirolmadi.

«Oshxona» intermediyasida Muqaddas kambag‘al, sho‘x qiz, qo‘shti qishloqlig Nozim degan qiltiriq yigit soxta oshiq rolini o‘ynardi. Nozim Muqaddasni boyning qizi degan gumonda xushomad ustiga xushomad uradi. Ik-kisiga xizmat qilayotgan ofitsiant yigit (Kenji) ensasini qotiradi, chunki u qizning qo‘shtisi bo‘lib, baridan boxabar va eng muhimmi, sohibjamolda ko‘ngli bor edi. Qiz ofitsiantga «indamay qo‘ya qoling» degan ma’noda ishora qilishdan charchamaydi. Bu rollar misolida boylikka o‘chlik, subutsizlik, yolg‘onchilik, nomardlik hajv ostiga olinishi kerak edi. Nihoyat, qiz barcha haqiqatni soxta oshiqqa ro‘y-rost aytadi, soxta oshiq undan oshkora yuz o‘girib ketayotganda, ofitsiant chidayolmaydi va Nozimni bitta qoldirmay ovqat eyishga majburlaydi. «Sevging soxta bo‘lsa bordir, ammo bu ovqatlar haqiqiy, ularni isrof etmaslik kerak», deydi ofitsiant.

Ha, senari bo‘yicha bari shunday edi.

Zal chiroqlari o‘chirildi. Parda ko‘tarilib, mo‘jaz tamaddixona namoyon bo‘ldi. Muqaddas va Nozim oshiqmoshiqlardek yetaklashib chiqishganida, zalni masxaromuz qiyqiriqlar, hushtaklar bo‘roni tutdi. Go‘yoki tomoshabinnlar maymun, cho‘chqa va daydi itlar edilar.

Yigit va qiz o‘qishga o‘tish, kasb egallah, hayotdan o‘z o‘rnini topish haqida hazil-huzulga yo‘g‘rilgan, ammo achchiq haqiqatga to‘ydirilgan mavzuda suhbatlashishdi. Hartugul, daqiqa o‘tmay shovqin-suron tindi. Sahnda o‘zlarini ko‘rayotgan tomoshabinnarning tuturuqsizlik hukm surayotgan ong-shuurlari uyg‘onib, sekin-asta jimb qolishdi. Nozim qanday bo‘lmasin tezroq mashina olishni, birovning puli yordamida o‘qishga o‘tishni, boy xonadon qiziga uylanib, qaynotasining ko‘magida mansabga o‘tirishni kosa tagida nimkosa qilib gapirardi. Litseyda

o'qish ham, avvalo, obro' uchun edi. Qiz esa rostgo'ylik va muhabbatni istardi.

Oq ko'yak, qora shim, kapalaknusxa bo'yinbog' taqqan ofitsiant — Kenji sahnaga patnis ko'tarib chiqqanida, zalga og'ir jimlik cho'kdi. Kutilmaganda go'rkovni ko'rgan tomoshabinlar shivirlasha boshlashdi. Men Ahmadqulovga o'girildim. Ahmadqulov shosha-pisha ko'zoynagini taqib, qovoq uygancha tikilib qoldi. Bu paytda soxta oshiq «sizing barcha boy qarindoshlaringiz haqida eshitganman» deb boshqa bir qiz bilan adashtirib, Muqaddasga xushomad urishning avj nuqtasiga chiqqandi.

Kenji ularga bukchaymasdan va oqsoqlanmasdan yaqinlashdi.

«Nima buyuradilar?» — so'radi u hech kim kutmagan nazokat va sopolik bilan.

Muqaddas va Nozim bir zum angrayib qolishdi.

«Birinchiga yurak», — dedi Nozim.

«Sizga-chi? — deya daftarchasiga yozayotgan on Kenji qizga qaradi. — Sizga ham yurakmi?»

«Yo'q, hasip!» — xitob qildi Muqaddas.

Senariy bo'yicha Kenji «Nasib!» deb baqirish o'rniga nim kulimsiradi va:

«Qichqirish shart emas, yaxshi qiz, — dedi mayin ohangda. — Shusiz ham nimani yoqtirishingizni bilaman. Baqiroq qizlarga va baqiroq yigitlarga achinaman, xolos».

«Yo'g'-e! Bunday gap... yo'q edi-ku?» — kift uchirdi Muqaddas.

«Siz faqat oldindan belgilab qo'yilgan gaplarni aytasizmi? Bu yer tomoshagoh emas, hayot deb o'ylang. Sizni tанидим, litseyda o'qiysiz, aqli, iste'dodli qizsiz! Oshxonamizga manavi qalbsiz yigit bilan kirib, gap talashib o'tiribsiz! Nega? Yigitlarga qo'shilib qizlar ham maydalashib ketyaptimi?»

«Ofitsiantmisiz, ofitsiantligingizni qiling! — Muqaddasning jini qo'zidi. — Balki go'rkovman ham dersiz?!»

«Muhimi, muhabbat go‘rkovi emasman».

«Muhabbat? — ko‘zlarini ola-kula qildi Muqaddas.

— Voy, bu kishimni qaranglar! Menga muhabbatdan lof uryapti! Kelib-kelib ofitsiantga turmushga chiqamanmi? — qiz Nozimni turtdi. — Biror narsa desang-chi!»

«Hm-m... Rostdan go‘rkovga o‘xsharkan», — dedi Nozim masxarabozlarcha lab burib.

Garangsigan zal gurillab kulib yubordi.

«Birinchidan, muhabbatdan lof urmadim, — dedi Kenji. — Ikkinchidan, turmushga chiqishni taklif etmadim. Mana, oshig‘ingiz yoningizda. U bo‘lmasa boshqasi. «Made in nomardlik». Menimcha, hammangiz bitta zavoddan, aniqrog‘i, bitta maktabdan chiqqansizlar. Mardlik sifati yoshlaringizga ham, keksalaringizga ham yetishmaydi. Bu oshxonaga bugun ishga o‘tdim, aslida molxonaga o‘tsam bo‘larkan. Quloqlarim va ko‘zlari pand bermagan bo‘lsa, mollar ayrimlardan ko‘ra siporoq».

«Sizning... tomingiz ketmaganmi mabodo?» — g‘azablandi Muqaddas.

«Kimning tomi ketgan? Oshxonamizga kelib, bir yolg‘onchi bilan uchrashib, siz ham yolg‘on qo‘sib, tomosha ko‘rsatyapsiz. Qachon haqiqatni gapirishga, yurakka quloq solib yashashga, yon-atrofingizda muttahamlar emas, mardlar ko‘payishiga erishasiz? Kechirasiz, men boshqacha hayotni qabul qilolmayman, shuning uchun hayronligimdan gapiryapman».

«Boring! Yurak bilan hasipni keltiring!» — chiyilloq ovozda buyurdi Nozim.

Kenji yana nim kulimsiradi. Intermediya shu taxlit boshidanoq senariyidan chiqib ketdi. Senariyada Kenji soxta oshiqning shunchaki yoqasidan bo‘g‘ishi yozilgandi, biroq yoqadan bo‘g‘ish bilan kifoyalanmay, bir qo‘lda dast ko‘tarib Nozimning oyog‘ini poldan uzdi. Zaldagi olomon qahqah otib kului.

«Multfilm bo‘lardi, — dedi Kenji dona-dona qilib, —

«Sohibjamol va maxluq» degan! Ko'rgan bo'lsang, maxluqning ichida tavbasiga tayangan sofdir yigit yashaydi. Men ham maxluqman. Hammangning ko'zingga jirkanch ko'rinsam-da, ichimda shahzodaman...»

«Maxluqjon, uni qo'yvoring», — yalindi Muqaddas rolga kirishib, qo'llarini ko'ksiga juftlarkan.

«Qo'yvoraman, chunki men... go'rkov emasman, u esa mayit emas, — deb Kenji Nozimni polga tushirdi. (Soxta oshiq parda ortiga juftakni rostlab qoldi.) — Qaytmas dunyoga emas, qaytar dunyoga qo'yvordim. Tavba qilishga unda imkoniyat bor».

«Siz ham tavba qiling. Bekor maxluqqa aylanmaganingiz ko'riniib turibdi».

«Maxluq tugul, odam ham emasdim. Sizni bir ko'rishda sevib qoldim-u o'zimni o'zim tanidim, gunohlarimga tavba qildim, ha, shu yerdayoq tavba qildim. Maktabingizda o'qiganman, qishlog'ingizning suvini ichganman. Xuldas, beburd yigitlardan voz keching, sizga ular emas, men uylanaman, olis tog'lar ortidagi qasrimga birga ketamiz...»

Ortinga o'girilganimda Ahmadqulov isitmasi chiqqandek xo'mrayib o'tirardi.

«Boyligimga uchma, maxluqjon!» — dedi Muqaddas kuyib-pishib.

«Nimalar deyapsiz, boylingiz umuman kerakmas, — qo'l siltadi Kenji, — sha'n-shavkatingiz ham! Odam odamiyliyi bilan qimmatlidir. Qolaversa, sizda boylik yo'q. Chunki vaqt shamoli uchirib ketadigan birovlarning changini boyligim deyish xato. Eng katta boylik — sof tuyg'ular. Kir tuyg'ularning oxiri balchiq!»

«Sof tuyg'ular deganda nimani tushunasiz?»

«Hozirgina aytdim, sof tuyg'ular deganda boylikni tushunaman», — deb javob berdi Kenji.

«Unda nega oddiy ofitsiant bo'lib yuribsiz?»

«Unda nega yolg'onchi yigitlar bilan uchrashib yuribsiz?»

«Mening xohish-irodam bilan sizning kasbingiz ne chog‘lik aloqador?»

«Ofitsiantlikmi? Pulini to‘lagan noz-ne’matingizni men dasturxoningizga keltirib beraman. Na pulini to‘laganman, na pishirganman. Endi tushungandirsiz, yaxshi qiz?»

«Yo‘q, hech vaqoni tushunmadim.»

«Go‘rkov deb ham guman qildingiz. Tasavvur qiling, men go‘rkovman. Go‘rkov ham dafn etiladigan mayitni na tug‘dirgan, na o‘ldirgan...»

«Voy-y... mavzuni o‘zgartiring! Baribir tushunmadim. Falsafangizning ma’nosni nima o‘zi?»

«Ma’nosni shuki, «Nega men ofitsiantman?» degan gapni «Nega men odamman?» deb tushunish va har kim hayotda o‘z o‘rniga xuddi shohlar taxtga egalik qilgani kabi ega ekanini unutmaslik! Chunki odam bo‘lish baxt! Biz it, cho‘chqa, maymun emas, aynan odammiz!»

Hazil-mazax tariqasida namoyish etilgan intermediya o‘quvchi yigit-qizlar va muallimlarni hajv qilish o‘rniga boshqa tomonga burilib ketgan edi. Go‘rkov mening o‘rnimga sahnaga chiqdi. Hech qachon damini sezdirmaydigan gaplarimni aytayotgandi. Axir, bu gaplar yuragim tagidagi g‘aflat sandig‘ida yotardi-da. Kenjining har bir gapi, har bir qilig‘i meniki edi. Boshqalar hayron qolayotgan bo‘lsa-da, zig‘ircha hayratlanmayotgandim. Shunday g‘ashim keldiki, o‘z-o‘zimdan ijürg‘anib, ko‘nglim aynidi. Kenji oltinchi sinfdaligida G‘oztepa qobig‘ini yorib tashlagandi, hozir ham qoliplarni sindirdi.

Tomosha tugadi. Aktyorlar pardasida ortiga o‘tib ko‘zdan yo‘qolishdi, sahnaga qo‘sishchi qizlar chiqishdi. Senariyni buzgani uchun Muqaddas Kenjiga nimalar deganini eshitmadim, ammo nazarimda u go‘rkovdan xafa emasdi.

Ahmadqulov biror teskari gap aytsa kerak, deb poyladim. Zaldan chiqayotganida, boboga atayin yaqinlashdim.

«Muqaddasni bir daqiqaga chaqir», — dedi chol.

Neverasini zudlik bilan aytib keldim.

«Qizim, anavi go'rkov qani? – qoshlarini chimirdi Ahmadqulov. – Rol o'ynashga sen ko'ndirdingmi?»

«Ha, men, bobojon. U ketdi. Ishlari ko'p ekan».

«Nega bunday qilding? Qon bosimi oshib, o'lib qolsin deyapsanmi?! O'zi shu teatringga mutlaqo qarshiman. Bo'sh vaqtin bo'lsa, repetitorlariningga bor! Yozda imtihonlaring! Go'rkovni ofitsiant roliga majburlabsan! Shu ham ishmi?!»

«Majburlaganim yo'q, taklif etdim...»

«Kimligimni yaxshi biladi, shunga yo'q deyolmagan. Yo'q deyolmaslikka majburlash bu!»

«Bobo-o-v, nega doim shunaqa o'ylaysiz-a? U boshqacha yigit! Sizni deb kelmadi, axir...»

«Bas! Uyga borganda gaplashamiz!»

Ahmadqulov yo'lak oxiridagi eshikka shoshildi. Uf tortgan Muqaddas menga dedi:

«Intermediya qanday chiqdi? Yomonmas-a?»

Sof hislarga cho'milgan pok gaplarimni yana aytolmadim. Yillar mobaynida yomonlarning kuchi bilan ichimda qurilgan qafas panjaralari ancha mustahkam edi va insofimni ozod etishni istamasdi.

«B... bo'ladi... lekin go'rkov...» – deb chaynaldim.

Muqaddas aql o'rgatishimga zor emasdi. Burildi-yu kiyimxonaga jo'nadi. O'sha kuni Muqaddasga sevgi izhor qilib, kelgusida uylanish haqida aytishga azm etdim. O'ilaviy sharoitim, Ahmadqulovning shartlari, o'qishga o'tish-o'tmasligim, kasb-hunarim – bular haqiqatan muhitning soxta qomusidagi qalloblarning bandlari edi. Men qafasni sindiraman, hech kimga taassub solmay, yuragimdag'i insonni maydonga chiqaraman.

Afsuski...

Ertasiga – yakshanba kuni, tush chog'i Muqaddas ovqat solingan tugunchak ko'tarib Qorong'i chorboqqa boribdi. Kenji g'oztepaliklarning ota-bobolari yotgan go'ristonada ishlayotganidan beri qishloqdagi ayrim insofli xonadon-

lar navbati bilan ovqat chiqarayotgandi. Bu navbatda Ahmadqulovning xonadoni yo‘q edi. Ichimga cho‘g‘ tushdi. Muqaddas o‘la qol-sa ham qabristonga ovqat olib bormas edi, hatto bobosi majburlasa ham. Nega u o‘zgarib qoldi? Nahotki, qizlar Kenjiga o‘xshaganlarni yoqtiradi?

Seshanba kuni edi. Litseydan kelib, uyda bir soatcha u yoqdan bu yoqqa yurdim. To‘rabekning o‘limi menga yo‘l ochgan edi. Otimni qamchilamasam, keyin pushaymon yeyman. Qachongacha Muqaddas mening tengim emas deb yashayman? Kenji bu yerda ortiqcha, ha, ortiqcha. Men turganda Ahmadqulovga shu Kenji kuyov bo‘ladimi?

Har ehtimolga qarshi qayrilma pichog‘imni cho‘ntakka soldim. Velosipedimni minib, Qorong‘i chorbog‘ sari jo‘nadim. Muqaddas kimnikiligini dadil gapiradigan fursat kelgandek edi. Bir ko‘nglim Kenjining unga befarqligiga ishonardi. Balki sahnadagi gaplarni Muqaddas o‘rgatgandir va bizni — hissiz yigitlarni uyqudan uyg‘otmoqchidir...

Velosipedni qabriston simto‘riga suyab, darvozadan kirdim. Kenji yo‘laklarni tozalab, qabrlar atrofidagi yan-toqlar-u shuvoqlarni chopib, saranjomlagandi.

Qabriston o‘rtasidagi yo‘ldan yurilsa, do‘nglikka chiqillardi. Do‘nglik usti yarim gektarcha tekis maydon bo‘lib, do‘nglik atrofi qabrlarga to‘lgach, endilikda mayitlar shu maydonga dafn etilayotgandi. Maydon etagidan narigi yoqqa — soy tomonga tushilardi. Xuddi shu yerdan Qorong‘i chorbog‘ boshlanardi. Kenji Qorong‘i chorbog‘da emas, shu maydonda o‘ralashayotganini boyta litseydan qaytayotib, ko‘rgandim. Atrofga alanglab, To‘rabekning qabridan sal narida muk tushib o‘tirgan Kenjiga ko‘zim tushdi.

Ortidan yaqinlashganimda, qadam saslarimni eshitib, boshini burdi. Avval telbavor iljaygan yuz-ko‘ziga, keyin qo‘llari silayotgan narsaga qaradim. U Ikkinchı Jahon urushidan so‘ng yo‘l qurilishiga keltirilganida o‘lgan asirning qabrtoshi edi.

«Qishloqda mendan boshqa begona ham bor ekan, — dedi u. — Qara, toshni kavlab, to‘g‘rilab o‘rnatdim. Bechora begona tuproqda yotibman deb bezovta edi. Ustidagi mog‘orni artib, nimani ko‘rdim, de».

«Nima ekan?»

«Yozuv».

Oldinga yana bir qadam tashlab, qabrtoshda chindan-da allaqanday yozuv borligini ko‘rdim.

«Yapon bo‘lsa kerak, — dedi Kenji. — Mahmud aka ning aytishicha, yo‘l qurilishida yapon, venger, rumin asirlari ishlagan. Qishloq elliginchi yillarda barpo etilganini hisobga olsak bu qabriston aslida asirlarniki».

Kenji telefonini chiqarib, toshni suratga tushirdi.

«Yapon tili o‘qituvchisiga yuborib, nima deb yozilgani ni so‘rayman, aniqrog‘i, singlisiga jo‘nataman, opasidan so‘rab, bilib beradi. Mabodo yapon tilini bilmaysanmi?»

Qo‘llarimni chalishtirib, unga nafratomuz boqdim. Kenji darhol tushundi va oyoqqa turib, sahna uchun qirtish langanidan beri ustara tegmagan soqolini qashidi. Ko‘zlar kului. Ko‘zlar masxaraomuz kului.

«Yapon tilini bilmaysanmi, deb jiddiy so‘radim, — dedi u. — O‘qishga shart-sharoit bor, davlat litsey ham qurib berdi. Maza qilib ilm o‘rganmaysanmi?»

«Aqlilik qilma, Kenji! Nega kelganimni tushunding!»

«Kenji? Yo tavba, laqabimni qayoqdan bila qolding?»

«Buni Toshtemir tog‘angga borib ayt!»

«To‘xta, to‘xta, odatda qabristonga hayit kunlari yoki odam o‘lganida kelarding. Bugun qayoqdan quyosh chiqdiyu nega momaqaldiroq guldirayapti desam, ichingda darding to‘lg‘anyapti ekan-da. Hoynahoy, Muqaddas haqida gapirmoqchisan. To‘g‘rimi?»

«Gapni ko‘paytirma! Qisqasi, sen undan nari yur!»

«Sabab?»

«U baribir meniki bo‘ladi».

Kenji To‘rabekning mozoriga nigoh tashlab qo‘ydi-da, dedi:

«Uka, o‘pkangni bos! Yur, chorboqqa tushamiz. O‘tganlarning qabri oldida tortishmaylik».

Kenji meni maydon etagiga boshlab keldi. Simto‘sinqning chirmoviq va kovul bosgan joyidan eshik ochgan ekan, ikkimiz Qorong‘i chorboqqa o‘tdik. Kenji bog‘ ichidagi chakalakzor o‘rtasidagi yo‘lni tozalagan ekan, so‘qmoqdan sekin pastladik. Yigirma qadamlar ichkarilab, o‘ngga burildik. Ko‘zdan butkul pana joydagi supadek maydonchaga eski ko‘rpacha to‘shalgan, yopiq dasturxon chetidagi kosadan qoshiqning bir uchi ko‘rinib turardi. Chigirtka chirillab, ari g‘ing‘illadi. Huv naridan, har kuni biz litseyga qatnaydigan tarafdan mashina gurillab o‘tdi, ammo yo‘l u yoqda tursin, qishloq teraklarining uchi ham ko‘rinmadi. Haqiqiy ovloq go‘sha edi.

«O‘tir», — dedi Kenji.

«O‘tirmayman, — deb qo‘limni cho‘ntagimga soldimda, pichog‘imni paypasladim. — Haligi gap! O‘zing avval G‘oztepada yashagansan, maktabimizda o‘qigansan, qishloq yigitlari kechirmasligidan xabardorsan, nima kerak Muqaddasning atrofida o‘ralashib?! Hatto men uning tengi emasman, sen kim bo‘libsan?»

«Kimligimni aytaymi?»

«Ayt».

Kenji gapirishga og‘iz juftlagandi, telefonining ekranini yorishdi.

«Buni qara! — dedi Kenji xabarni o‘qib. — Hammang kelishib olganmisan deyman?»

«Menga gapiryapsanmi?»

«Gapimni eshitgan bo‘lsang, senga ham taalluqli».

Kenji telefon ekranini tumshug‘imga yaqin tutganida, «Kenji Aina» degan yozuvni o‘qidim. Undan oldingi xabarda «O‘zingga qabrtosh yasatdingmi? Undagi yozuv...» degan gap bitilgandi.

«Aqliman deb o'ylama, — dedim men. — Qishloq ha-qida ham sahnada bir nimalar deding. Kim mard, nima nomard, o'zimiz bilamiz. To'rabek avariya qilgani ham menga bir tiyin! Bu — Muqaddas u bilan yurgan, oshiq-ma'shuq degani emas, shuning uchun ko'nglimni uz-madim. Muqaddas tortinmaydi, gap-so'z bo'laman deb qo'rqlmaydi, erkin o'sgan sho'x qiz, To'rabek «yur, muz-qaymoq yeb kelamiz» desa, Muqaddas «rayon»da biror ishi bo'lGANI uchunmi, tayyor mashinaga chiqsa chiqqandir. Seni ofitsiant roliga ham shunchaki chaqirdi, xomta'ma bo'lma! Qisqasi, qishlog'imizdan ket! Shu yaxshi senga!»

Kenji jilmayib qo'yib, telefonini cho'ntagiga soldi.

«Hayotda nima yomon?» — dedi u.

«Nima yomon?» — o'graydim men.

«Xudbinlik».

«Meni xudbin deyapsanmi?» — g'azabim toshdi.

«Nega doim ortiqcha savollar beraverasan-a? Xudbin-lik yomon deb senga aytyapman, daraxtlarga emas. Esing-dami, o'shanda bolalar meni do'pposlash uchun bog'ning pastki darvozasi oldiga — soy bo'yiga olib tushgandi. Sen nima deb maslahat berganding? Qochib ket deganmiding? O'shandayoq qochib ketmagan odam endi bitta do'q ursam quyonning rasmini chizadi, deb o'layapsanmi?»

«Katta ketma! Birinchidan, senga yaxshi bo'lsin degan-man. Ikkinchidan, men avvalgi G'aybulla emasman!»

«Bekor gap. Yillar o'tsa ham o'zgarmagansan. Ko'zlarining aytib turibdi».

«Ha, sahnaga chiqmaguningcha o'zgarmagandim. Sah-naga chiqib, ko'p gapirib qo'yding. Endi o'zgardim».

«Qiziq, mening sahnada ofitsiant rolini o'ynashim seni o'zgartirdimi?»

«Qiziq emas! G'oztepada nima bor o'zi senga?! Bor-yo'g'i mardikor, go'rkovsan! Ahmadqulov u yoqda tursin, podachi ham qizini bermaydi! Buni tushunish uchun kal-langni ko'p ishlatishing shartmas!»

«Kimligimni eshit, uka. Men odamman! Shunday odammanki, senga o‘xshab mansab, boylik, kasbga qarab ish tutmayman. Qobig‘imga ham o‘ralib olmaganman. O‘zim ma‘qul deb topgan ishimni qilaman. Agar To‘rabek o‘Imaganida, Muqaddasga uylanardi, sen dardingni ichingga yutib yasharding, To‘rabekka g‘ing deyolmasding. Muqaddasga uylanaman deyishing uchun, avvalo, birovlar emas, «uning tengi emasman» degan o‘zingning fikring to‘sinqin bo‘lardi. Muqaddas erka o‘sgan sho‘x qiz ekan, qishloq qabristoni, manavi Qorong‘i chor bog‘... umuman, soy ko‘prigi, qishloq yo‘llari-chi? Ular shunchalik nopol joylarmi, obod qilishni o‘zlaringga teng ko‘rmaysanlar?»

«Muqaddasga qabriston, chor bog‘, yo‘llarning nima aloqasi bor?!»

«Muqaddasga emas, sen va senga o‘xshaganlarga aloqasi bor. Muqaddas bizning tengimiz emas, Ahmadqulov bizni kuyov qilmaydi deb o‘ylagan kimsa qabristonni, Qorong‘i chor bog‘ni, ko‘chalarni tozalashni ham o‘ziga ep ko‘rmaydi, o‘zicha kiborga aylanib, bularni past ish deb biladi. Mardikor, go‘rkov emishman! Shu ham gapmi? Men emas, sen bajarishing kerak edi bu ishlarni. Hoynahoy, Muqaddasga ham yuragingdan sevgi izhor qilmagansan, men bilan sahnada rol o‘ynagani uchun chidolmayapsan. Bilib qo‘y, shu qishloqda, shu atroflarda qancha yoshlар sevishadi, turmush qurishadi yoki omadlari chopmay turmush qurishmaydi, sevgi ikki holatda ham o‘lda-jo‘lda qolib ketadi. Nega? Sen va senga o‘xshaganlarning sevgisi haqiqiymas. Sahnadagi gapimni yana aytaman – sof tuyg‘u yo‘q senlarda! Sof tuyg‘u bo‘lganida davlat qurgan litseyda a’lo baholarga o‘qib, sahnada rollar o‘ynab, bo‘sh vaqt laringda bog‘ni hashar bilan yashnatib, ko‘chalar ingni ham toza-ozoda qilardinglar».

«Bu ishlar litsey o‘quvchilarining ishimas!»

«Bu ishlar boshqalarning ham ishimas. Ko‘rib turibman».

«Unda ko'zlarin ko'r ekan!»

«Aksincha, sen ko'rsan. Mana, ahmoqona dunyo-qarashing bilan ustimdan kulyapsan. Bundan xulosaki, sen qishlog'ingning bo'lajak eng katta bosh ahmog'isan! Qishlog'ing seni qanday baxtsiz va mayda odam qilib qo'ygan bo'lsa, sen ham kelgusida avlodlaringni shunday baxtsiz va mayda shaxsga aylantirasan!»

«Senga ham, fikringga ham tupurdim!» — deb pichog'imni mahkamroq ushladim.

Kenji bir qadam tashlagan edi, qo'limni cho'ntagimdan chiqarib (chiqarayotganimda, qayrilma tig'ni ochib), zarba urdim...

Uni nega o'ldirmoqchi edim? Men kutgan gaplarni aytishi, Muqaddasdan ko'ngil uzishi, «tengi emasman, kunimi zo'rg'a ko'rib, yosh boshim bilan go'rkovlik qilyapmaň, To'rabe o'ldi, endi sen unga uylan», deyishi, ayniqsa, sahnada aytgan gaplari uchun uzr so'rashi, yana bir muhimi, mendan qo'rqliki kerak edi.

U birortasini ado etmadni. Qaytanga, beting-ko'zing demay shartta-shartta aytib tashladi. Qamalishni o'ylamadim. Umuman, hech narsani o'ylamadim. Umr bo'yi men emas, boshqalar g'olib chiqishi jonimga tekkandi.

...Hech bo'lmasa, Muqaddasga uylanolmaydi!

Ha, Kenji aybdor emasdi.

Kenjining omadsizligi — mendek nochor alamzadaga duch kelgani edi.

V

O'shanda dasturxonga fotiha o'qilib, Kenji va Hasan gazchi o'rinalidan turib, anhor bo'yidagi oshxonadan to'g'ri notariusning huzuriga jo'nagan edilar. Hasan gazchi o'z qo'li bilan imzo chekib, Kenjidan yigirma ming dollar qarz olganini rasmiylashtirdi.

Tashqariga chiqqanlarida, gazchi uy kalitini uzatdi.

— Bu senga, ukam. G'oztepaga borib, ishni bitirib qayt-

ganingdan so'ng mabodo uyni qaytarib olib qo'yaman deb tentaklik qilsam, yigirma mingni cho'z deb sudga berasan. Hujatni bekit. Kelishuv bo'yicha har ikki tomon majburiyatni bajaradi. Hozir borib uyni ko'ramiz. Keyin sen topshiriqni bajarishga, men xushxabarni kutishga ketaman.

- Sud bo'lmaydi, Hasan aka, — bosh chayqadi Kenji.
- Chunki menga ishonasan.

— Ishonmagan taqdirimda ham, endi uyni qaytarib ololmaysiz. O'zingizga ma'lum, davlat qonunlardidan tashqari ko'chadagi qonunlar ham kuchda.

— Hazillashdim, — ko'zları xiyol qisildi gazchining. — Meni chaqding-a? Bugundan boshlab cho'qintirgan otangman, unutma! «Mabodo» ham uyni qaytarib ber demayman. Kelishuv bo'yicha qizga uylanasan, Ahmadqulov nevarasining yo'ldan urilganini eshitib, ta'zirini eydi, ish pishadi. Bu uy shusiz ham menga nasib etmasdi. Senga buyurganga o'xshaydi.

Ular galareyka uyni borib ko'rishdi. Pod'ezd bolaschaqaning, xotin-xalajning shovqiniga to'lgan, zinalarda tashlandiq qog'ozlar, sigaret qoldiqlari, baklashkalar, pista po'choqlari yotardi. Hech kim yashamagani uchun chang bosgan bir xonali uy sukut saqlardi.

— Uch-to'rt yil avval ijaraga qo'ygandim, yoqmadi, — ko'zgudagi changni barmog'i-la artdi Hasan gazchi. — Muammosi ko'p ekan. Hayotingni shu yerda qaytadan boshla! Pod'ezddagi shovqin-suronga e'tibor berma, bu-naqa uylarning oshxonasi derazasi zinaga qaragan, o'rganib ketasan. Axir, endi Toshkentda, kichik xonali galareyka bo'lsa-da, o'z uying bor. Gapning po'stkallasini aytganda, sen u qizning eng avval qalbini o'g'irla. Toshkentda uying borligini, go'rkovlikdan boshqa ishlar qila olishingni Ahmadqulov adoyi tamom bo'lguncha sir saqlaysan. Ish bitgach, xohlagan kasbingda ishla. Hech kimga uying borligi, o'g'ri emasliging haqida hisobot berma. Yashashingdan bilsin kimligingni, hisobotingdan emas. Tushunding?

— Qiz men bilan baxtli bo'lsa, dushmaningizning avlodiga uy sovg'a qilgan bo'lib chiqmaysizmi?

— Senga aytdim, Kenji, qiz menga dushmanmas, u xohlagancha baxtli bo'laversin. Hamma gap katta eshakda. Katta eshak nevarasi uyidan qochib, qandaydir mardikor yigit bilan Toshkentda yashirinchayashab yurganidan o'la qolsayam sevinmaydi. Menga ko'zi tushganidayoq barini tushunadi. Ammo menga ko'zi tushishi uchun infarkt yoki insult bo'lmay, tik oyoqda qolishni uddalasa, albatta.

Ikkovi g'ala-g'ovur galareyka uyni ortda qoldirib, masinaga o'tirishdi.

Kenji yigirma daqiqa yo'l yurib, mamlakat poytaxtidan o'zi istiqomat qilayotgan shaharga yetib keldi. Ijara uysa kirib, hammasini bir boshidan o'ylab olish uchun karavotiga cho'zilmoqchi edi, telefoni jiringladi. Diskotekadan sherigi qo'ng'iroq qilmoqda edi.

— Kenjaqul, o'rtoq, bugun ertaroq kel, — dedi u. — Shef majlis o'tkazmoqchi. Toshkentdag'i diskotekada ikki kishi pichoqlangan, shunga sen bilan meni qog'ozda ishdan bo'shatmoqchi. Ertaga birof muammo tug'ilsa, shefga boshhog'riq bo'lmaymiz. Bular bizda ishlamaydi, deb suvdan quruq chiqadi. Amalda o'sha maoshni olaveramiz. Nima deding?

— Shusiz ham ishdan bo'shadim. Bugun bormayman.
— Hazillashyapsanmi? Seni zo'rg'a joylagandim-ku!
Keyin qaytib olmaydi.

— Qisqasi, qo'riqchilik qilmayman.
— Nima, ofitsiantlikka qaytmoqchimisan? Endi muloyimmushuklik qo'lingdan kelmaydi, o'rtoq! Kafolat bera-man!

— Balki ofitsiant bo'larman, balki go'rkov, peshonada yozilgani.

— Mastmisan? Qanaqa go'rkov?

Kenji xayrlashgach, telefon tugmacha-sini bosdi. Biroq

tinchini buzish navbati eshik qo‘ng‘irog‘iniki edi. Uf tortib, eshikni ochganida, uy egasi — kalta sochi oqargan, labini doim qip-qizil anor suviday bo‘yab yuradigan Guljana opa ro‘parasida namoyon bo‘ldi. U yapon tilidan dars beruvchi opasining Chirchiqdagi uylaridan birini hammaga o‘zining uyi deb ko‘rsatar va ijaraga qo‘yib, pul ishlardi.

— Bugun uchta yigit keladi, — dedi u, — yo ular bilan birga turasan, yo chiqib ketasan. Yolg‘iz o‘zing baribir hamma pulni to‘lolmayapsan.

— Yangi ijarachilaringizni opkelavering. Men ketaman.

— Kvartirama-kvartira yurish joningga tegmadimi, Kenjaqul? Agar ketsang, seni taniganimdan beri o‘ninch marta ko‘chasan. Shuni unutmaki, bizda ijara haqi Toshkentdan arzon. Toshkentga borsang, burning yerga ishqalanadi.

— Opa, Toshkent o‘z yo‘liga. Men qishloqqa ketyapman.

— Kuningni ko‘rolmay yana yalinib kelish uchunmi?

Aytib qo‘yay, qaytsang kvartira-pvartira topib bermayman!

Guljana opa ketdi. Kenji eshikni yopganida, xona huvilab qoldi. Yigitning nazarida go‘yo uyda o‘zi ham yo‘qdek edi. Shiftga termulib, uzoq yotdi. Kenji odam evolyutsiya natijasida qirq ming yilda ongli mavjudot bo‘lib shakllangan deb hisoblardi. Birov islomni, boshqasi nasroniylikni maqtasa, ikkisiga ham ishonmasdi, lekin yuragining bir chetida — sokin zulmat qa’rida bir chiroq miltillardi. Chiroq xira yoritganda, yurak kunjaklariga suyangan ikki ulug‘ siymo — biri otasi, ikkinchisi onasi gavdalanardi, sog‘intirgan yuzlar bir nafas mahzun jilvalanardi. Shunda Kenji qachonlardir tan oladigan haqiqat yaqinlashayotganini his etardi. Ota-onasi tirilmaydi, ammo ular butunlay yo‘q bo‘lib ketmagan...

Bu dunyoning siri — abadiyat bor. Shovqin-suronli zamonlar xotimasida mangu sukunat yotadi. Shunday sukulatki, hattoki g‘unchalagan g‘umbaklar ochilayotgani eshitiladi. Bu g‘umbaklardan umid kapalagi uchib chiqadi.

Bepoyon sahrolarni kezib chanqagan kapalak olis ufqda jannatning bir parchasini ko'radi. Ehtimol, ul makonda ota-onasi kutayotgan bo'lar...

Kenji uzundan-uzoq sukunatga talpinayotgan edi. Toshkentga bosh olib kelgan yili kun ko'rish uchun yomon-larga qo'shilgandi, hozir esa kun ko'rish uchun, aksincha, yaxshilarga ergashmoq darkorligini tushundi. Olatasir mu-siqa, ichkilikbozlik, ko'chadagi baqir-chaqir, mushtlashish — bular halokat universitetiga kirish uchun topshirilayot-gan imtihonlar ekaniga aqli etdi.

...Erta tongda yo'lga chiqib, yo'l-yo'lakay Toshkentdag'i galareyka uyga kirdi. Barcha yangi kiyimlarini katta sum-kaga joylab, shu yerda qoldirib, eskilarini egniga kiydi-da, qishloqqa jo'nadi. Tush chog'i tog'asining G'oztepa qishlog'iga kirib kelganida (maktabning oltinchi sinfida o'qigan damlaridan hisoblasa), oradan sakkiz yilcha vaqt o'tgandi. Qishloq o'zgarmabdi, o'sha xalq, o'sha odat, o'sha fe'l-atvor. Chekkan, ichgan odamlar tez-tez uchray-di. Begonaga angrayib qaraydilar, mastlar zo'ravonlik qil-moqchidek o'qrayadilar, tashvishdan ezilgan xotinlar al-laqayoqqa shoshilishadi, eski kalishini sudragan momolar yelkalariga ishtonsiz nevaralarini opichlab, almisoqdan qolgan ig'vo gaplarni chaynashadi.

Toshtemir tog'asi uyi orqasida g'o'la ustida nos chekib o'tirgan ekan, Kenjini tanib, nosini tuflab, oyoqqa qalqdi.

Kenji bir piyola choy ustida maqsadini aytди:

— Shaharda ul-bul ishlarni qilib yurardim, bo'lmadim. To'g'ri siznikiga kelyapman. Uyga bormadim. Siznikida vaqtincha yashab tursam, menga ham ish-pish topilar.

Toshtemir tog'asi Kenjining ota-onasidan qolgan hov-lini amakisi egallab olish xavfidan ogohlantirib, bir soat ma'ruza o'qidi.

Shunday qilib, Kenji o'z ixtiyori bilan keldi, ammo Toshtemir tog'asi aytgan ishlarning birortasiga ruyxush-

lik bermadi. Istalmay bajarilayotgan ishlarga nazar solgan tog‘asi achchiqlandi:

— Shaharda ham shunaqa ish qilgansan-da, haydab solishgan!

— Rostini aytsam, hech kim xalaqit bermaydigan tinch joyda ishlasam, — dedi Kenji horg‘in ohangda.

— Qo‘ysang-chi odamovilikni! Unaqa ish dunyoda yo‘q!

— Anavi bog‘ni berisharmikan? Berishsa, jon kuydirib ishlardim.

— Qaysi bog‘ni?

— Qorong‘i chorbog‘ni.

O‘shanda Toshtemir tog‘asi beixtiyor qabriston tomonga qarab, angraygandi.

— Jinni bo‘ldingmi?! Qorong‘i chorbog‘ni boshingga urasanmi?

Kenji Toshtemir tog‘asinikiga kelgan o‘sha kezlari, ko‘p o‘tmay To‘rabek yoniga Muqaddasni o‘tirg‘izib, tuman markaziga shoshilgan edi. Musiqa baland edi, dil esa mast. Ko‘prikan o‘tilganda, yo‘l o‘ngga qayrilgan edi, To‘rabek gazni bosdi.

— Baribir senga uylanaman, Muqaddas!..

So‘nggi so‘zi shu bo‘ldi.

Ertasiga janoza kuni Kenji qabristonga kelib, go‘rkovlarga ilk bor ko‘maklasha boshladi. Uni hech kim taklif etmagan-di, tuzuk-quruq tanimasdilar ham. Yigitning go‘rkovlikka ixlosi borligini Mahmud aka payqab, yelkasiga qoqdi.

— Bir kun kelib hammamiz tuproq tagida yotamiz, rahmat senga, savobning kattasini olyapsan.

Mayit qo‘yiladigan lahadga go‘rkov yotib ko‘rib, uzunligini chamalashi kerak edi. Kenji buni ham uddaadi: Muqaddasga uylanmoqchi bo‘lgan yigitning jasadi o‘rniga bir zum cho‘zildi. Tashqarida kun qizigan mahal lahad ichi salqin va... Kenji oxirgi paytlarda orzu qilgan mahzun osudalik hukm surardi.

Uxlab qolish hech gap emasdi.

Tobutni keltirdilar. O'sha kungacha Kenji qishloq oralab, goh do'konda, goh choyxona oldida Ahmadqulovni – bu ishlar uchun Kenjini yollagan Hasan gazchining dushmanini zimdan kuzatgan edi. Lahaddan chiqib, to'da orasidan birinchi bo'lib baayni Ahmadqulovga ko'zi tushdi. Ahmadqulov unga qabristonda ishlashni, Qorong'i chorborg'ni obod qilishni topshirishi tushiga ham kirmagandi. Ichida xursand bo'ldi. Cholning o'zi olisdagi Hasan gazchiga yordamlashib yuborayotgandi. Biroq Kenji shusiz ham Qorong'i chorborg'ni – dunyoning kimsasiz bog'ini obod qilishni, hech qanday Hasan gazchisiz, Ahmadqulovsiz gullatishni ko'ngliga tugib ulgurgandi. Zero, bu niyati jannat sari birinchi qadami edi. Ha, o'shanda umrida ilk marta jannatni – bolaligida o'zicha tasavvur qilgan afsonaviy diyorni yaqindan tuydi. Kechagina Chirchiqdagi diskotekada ishlab yurgan odam aroq va sigaret isi tutgan shovqin-suronli olamdan shuvoqlar anqiyotgan, sukunatga burkangan qabrlar diyorida paydo bo'lib qolganiga yo'ydi buni. Haqiqat shu yerda edi. Diskotekada javlon urayotganlar ham bir kuni yolg'on damlarini ortda qoldirib, chin makonlariga – o'z qabrlariga keladilar. Boshqa yo'lning sira iloji yo'q. Shunday ekan, nag'ma sadolari ostida ming bor qilpanglagandan ko'ra o'ziga yaxshiligi tegadigan foydali ishlar qilganlari ma'qul emasmi? Shu tobda bu tepalik G'oztepaning o't-o'lan qoplagan sal kam qarovsiz qabristoni ekanligiga qaramay, dunyoning mo'jizakor maskani kabi viqorli, sirli, farahbaxsh tuyuldi. Qabristondan o'tib, Qorong'i chorborg'ga tushiladi. Sal kam chakalakka aylan-gan bog' gullatilsa, yashnatilsa, ehtimol, u yog'i... jannatga ulanib ketilganini ko'rish mumkindir...

– Ajoyib missiya!.. – dedi Kenji.

Ammo o'z gapi o'ziga xunuk tuyuldi. Taqdir Kenjini Hasan gazchiga ro'para qilish orqali bu yoqlarga uloqib

kelishga majbur etsa etgandir, asosiy gap — yigitning yuragida edi. O‘ylab ko‘rarkan, aslida yigirma ming dollar yoki tekin tushadigan uy uchun kelmaganini anglab hayron qoldi. Mastlardan, yolg‘onchilardan, tanfurushlardan, oxiri voy hayotdan, ishrat g‘amida yashaydigan tuturuqsiz qavmdan charchagan edi. Qabristonga kirdi-yu yelkasidagi tog‘ birdan ag‘darilib, o‘zini qushdek yengil sezdi. Ko‘nglidan «bu yerlarni Hasan gazchining rejasি bo‘yicha emas, o‘zim xohlab obod qilaman» degan masrur o‘y o‘tdi. To‘rabekni dafn etishgan kuni Ahmadqulov aytgan taklif ham Kenji uchun xuddi Hasan gazchining topshirig‘i kabi kerakli, ayni damda hech qanday keraksiz gap edi. Axir, shusiz ham Kenji mudrayotgan xalqning qabristonini obod qilishga, bog‘ini yashnatishga yeng shi-margandi-da. Keyin... anavi qizni olib ketgach (balki olib ketmas), qaysi sohadan ish topsa ishlaydi. Ehtimol, sha-harda ofitsiant bo‘lar. Harholda Toshkentga bиринчи мarta borganida ko‘rimsiz bir oshxonada ofitsiantlikdan ish boshlagan, o‘g‘rilar bilan tanishib, kasbini tashlab ketguncha patnis ko‘tarib xo‘randalar va oshpazlar o‘rtasida zir qatnagan. «Sen bu yurak, bu kuch bilan ofitsiant bo‘lma, yarashmaydi», degandi Raxa va unga dastlab Toshkentdagи diskotekadan ish topgandi, Hasan gazchi ham ilk marta uni o‘sha yerlarda tanigan, bilgan, eshitgan, so‘ng Ugam daryosi yo‘lida Kenjining ulfatlarini ko‘rib qolib, qishloqlik bolani surishtirgan, daryo bo‘yidan topib kelgan. Keyinchalik Kenji to‘dani tark etsa-da, boshqa bir tanishi orqali, harholda Toshkentdan bo‘lmasa-da, Chirchiqdan baribir o‘shanaqa kasb — diskotekadan ish topgandi...

Kenji G‘oztepaga kelib, umrida bиринчи мarta go‘r qaziganidan so‘ng, ko‘p o‘tmay, ertalab litseyga ketayotgan Muqaddasni uchratdi. Qiz tasavvuridan butunlay boshqacha emasdi, lekin ko‘zlari... Uning ko‘zlarida Kenji shu vaqtgacha hech qaysi qizda ko‘rmagan ilohiy xayri-

xohlik barq urib turganini ko'rdi. Men insonman, senga insonday muomala qilaman, sen ham inson bo'lib qol, degan ma'noni tushundi. Qiz odamlarga ishonardi, odamlarni g'aflat uyqusidan uyg'otishni istardi, eskirgan hayotni rangli bo'yoqlarda bo'yash orzusida edi. Kenji angladiki, hech qachon bu qizga uylanolmaydi, olib qochishga ham vijdoni yo'l qo'ymaydi, shu bilan birga Hasan gazchiga qilgan lafzidan ham kecholmaydi, alalxusus, oqim bo'ylab suzaveradi. Eng muhimi, qachonki, qizning o'zi biror hukm chiqarsa, Kenjining hayoti o'zgaradi.

— Bugunoq gaplashaman, — dedi Kenji.

Tush chog'i sadaqayrag'och tagida uxbab qoldi. Qorni och edi. Uning befoyda ishda ishlayotganidan g'azablangan tog'asi to'nini teskari kiygan, qishloqdan ham hech kim ovqat keltirmagan kun edi. Bir payt tush ko'rdi. Ota-onasi tirik emish. Kenji go'r qaziyotgan mish. Kimga ekanini bilmasmish. Bir xayoli o'ziga qabr qaziyotgandek taassurot qoldirsa, bir xayoli — go'r ota-onasiga emish. Keyin «M» harfiga ko'zi tushdi. Bu Hasan gazchining uyi devoriga yozilganmi, lahad devorigami, farqlayolmadi. Ijara uy egasi bo'lmish qizil labli Guljana opa ham allambalo va'zlarni o'qidi. «M» harfi yaponcha ekanini uqtira boshladi. Aloq-chaloq tushlari qorishib ketdi...

Cho'chib uyg'ondi. Oftob yuziga tushgandi. Kenji atrofga jonsarak boqdi. Jonini jabborga berib ishlashi kerak edi. Xarob bog'ni obod qilmasa, abadiy yashnagan bog'larga yetolmaydi. «O'zing bir kichik bog'ni obod qilmagansan, nega endi abadiy bog'ni orzu qilyapsan?» deb kimdir malomat toshini otishini yuragi sezdi.

Och qorniga qaramay qo'liga yana ketmonini olgan edi, o'quvchilarning litseydan qaytayotganiga ko'zi tushdi. Chorbog'dan chiqib, soy bo'yidagi so'qmoqdan asfalt yo'lga ko'tarildi. U G'oztepaga kelgan kunlari Muqaddasning atrofida o'ralashib yuradiganlarni surishtirgan va sinf-

dosh yigit — G‘aybullani orqavarotdan tanishtirishganida, ko‘p yillar avval Qorong‘i chorbog‘ oldida qochib ketishni maslahat bergen qiltiriq bolakayni eslagandi.

Darvoqe, o‘scha kuni — Kenji so‘qmoqdan chiqib, aynan G‘aybullani gapga tutdi. G‘aybulla sal narida ketib borayotgan Muqaddasni chaqirib berdi. Kenji yolg‘iz gaplashishga ko‘ndirishning boshqa yo‘lini topolmagani uchun ham lahad devoridagi «M» harfidan og‘iz ochgandi.

— Xo‘sh, «M» harfining siri nima ekan? — so‘radi Muqaddas G‘aybulla nariroq ketgach.

— Avvalo, sizdan uzr so‘rayman, singlim, — dedi Kenji.

— Yolg‘oningiz uchunmi?

— Ha, «M» harfini tushimda ko‘rgandim. O‘ngimda... lahad devorida hech qanday yozuv yo‘q edi. Yigitingiz va-fot etganidan afsusdaman. Ta’ziyamni qabul qiling.

— U mening yigitim emassi. Sizda, boshqalarda — hammangizda men haqimda bir xil o‘y, bir xil xayol, bir xil g‘iybat. Nima, qiz bola litseyda o‘qiydigan tanishining mashinasiga o‘tirishi mumkin emasmi? Unda qizlarga alohida, o‘g‘illarga alohida litsey qurib, umuman gaplash-tirmay qo‘yishsin! Rulida biror yigit yoki erkak bo‘lgan mashinaga qiz bola umuman chiqmasin, degan qonun qabul qilinsin!

— Ikkala fikringiz ham noto‘g‘ri, — muloyim ohangda e’tiroz bildirdi Kenji.

— Qaysi fikrlarim? — Muqaddasning bir qoshi ko‘tarildi.

— Avvalo, siz haqingizda yomon xayolda emasman. Keyin, o‘g‘il bojalarga alohida, qizlarga alohida litsey qu-rish muammoning yechimi emas...

— To‘xtang, to‘xtang, ertalab sizni ko‘rganday bo‘luvdim. Kimsiz?

— Ismim Kenjaql. Toshtemir tog‘amnikiga kelgandim, qabristonga qorovullik qilyapman, Qorong‘i chorbog‘ning ham bog‘boniman. Umuman olganda, Mahmud aka bilan

Azamat QORJOVOV

men... go'rkovmiz. «M» harfi sizsiz demoqchi emasman. Men tushga ham, narigi dunyoga ham ishonmasdim. Bu yerga kelib, o'ylanib qoldim. Hech narsa bekordan-bekor emas. Tushga ishonmoqchiman. Narigi dunyoga ham. Nima deysiz?

— Men biron nima deyishim kerakmi? Nega chaqirdingiz? Tushingizdagи «M» men bo'lib chiqqan taqdirimda ham, sizga hech qanday aloqasi yo'q.

— Urimda birinchi marta qabr qazidim, Muqaddas! U ham siz bilan birga halokatga uchragan yigitning go'ri edi. Qishlog'ingiz g'iybatni yoqtirarkan. Tushimda «M» harfini ko'rib, siz bilan gaplashishga qiziqdram. G'iybatlar ta'siriga tushib qolmagan bo'lsin-da, dedim. Bor gap shu. Qanaqa qiz ekan, nega aynan men uning yigitining... uzr, ham-rohining qabrinii qazidim, ismining bosh harfi tushimga kirishiga sabab nima?.. Shunaqa savollar...

— «M» men deb yuz foiz ishonibsiz-da?

— Unchalik emas. Qisqasi, bir gap aytaman: mish-mishlarga, g'iybatlarga e'tibor bermang, o'z yo'lingizda davom eting, yaxshi qiz ekansiz. Sizning baxtli bo'lishingizni istayman.

— O'zingiz ham yomonga o'xshamaysiz. To'g'risini ayting, boshingizga nima muammo tushib, bu ahvolda yuribsiz?

— Mening muammom boshqa yerda. Hozir xudoga ishonish uchun ozroq dalda kerak. Shu daldani siz bera qoling, xudoga ishonay. Odamlarni dafn etayotganimda, ular aslida qayoqqa ketayotganlarini bilsam deyman... Yo'q, bila-man, ishonsam deyman. Bundoq olib qaraganda, ikki o't orasida qolib ketdim.

— Xudoga ishonish «imon» deyiladi, aka..

— Menda imon yo'q edi, lekin yaxshi odam bo'lishni ko'p o'ylardim. O'ylardimu qo'limdan kelmasdi. Yomonlikdan kechsam ham, baribir atrofimdan yomonlar arimasdi... Hayotimni o'zgartiryapman.

— Yaxshi odam narigi dunyosini boy bermaslikka harakat qiladi. Siz ham shuning harakatida bo‘ling. Xudoga ishonsangiz hech qayeringiz kamayib qolmaydi. Yashashingizga ham xalaqit bermaydi. Bir hikoyatda aytilganidek, xudo bor bo‘lsa, yana-da yaxshi, yo‘q bo‘lsa, baribir hech nima yutqazmaysiz. Har ikki holatda ham imon, savob, ezgu ishlar yoningizda qoladi. Yomon bo‘lsangiz, xudo bor bo‘lib chiqsa, tamomsiz. Go‘r qazib, yiqqan savobingiz u dunyo azoblaridan bir kun ham himoya qilolmasligi mumkin.

- Bu gaplarni Ahmadqulov... bobongiz o‘rgatganmi?
- Farosat maktabida o‘rganganman, siz shu yoshga kиrib endi o‘ylab ko‘ryapsizmi?! Xullas, gap-so‘zlariningizga qaraganda, go‘rkovlik kasbingiz emas, meni aldamang.
- Buning tarixi uzun.
- Ota-onangiz vafot etgani uchunmikan, desam, ular G‘oztepa qabristonida emas, shundaymi?
- Shunday, singlim. Menga Qorong‘i chor bog‘ni obod qilish hammasidan yoqib tushdi. Go‘rkov, qabriston qorovuli va bog‘bon rollarini o‘ynayotgandekman. Ammo bu rollarimga qattiq kirishib ketdim. Ikki o‘t orasidaman deb rolimdan kechaymi, kechmaymi, deb ikkilanayotganimni nazarda tutyapman. Kechsam, nega kirishdim?.. Muqaddas, siz bilan gaplashib yengil tortdim, katta rahmat. Vaqt-i-soati kelsa, meni tushunasiz.
- Rahmatning katta-kichigi bo‘lmaydi. Rahmat tegdimi, bas, rahmatni katta-kichikka ajratishning iloji yo‘q. Hatto, kollejda ham o‘qimaganga o‘xshaysiz?
- O‘rta maktab ma‘lumoti bilan yashayapman. Rahmatni shunchaki minnatdorchilik deb bilardim.
- Muqaddas jilmayib:
- Umringizda hech qachon rol o‘ynamagan bo‘lsangiz kerak? — dedi. — Go‘rkovlik qilayotganingiz xuddi roldek tuyulgani menga qiziq. O‘zi hayotdagisi o‘rnimiz — rol. Xohlaysizmi hayotga qaytishni?

- Xohlayman, lekin men hayotda emasmanmi?
- Intermediyamdag'i ofitsiant roliga yigit kerak edi. Siz ofitsiant bo'la olasizmi? Hayot deb san'atni aytyapman.
- Ofitsiant? — qulqlariga ishonmadi Kenji.
- Ha, ofitsiant. Siz litsey sahnasida ofitsiant rolini o'ynab berasiz. Menda rejissorlikdan oz-moz bor. Bir qarashdan sizga go'rkovlik emas, ofitsiantlik yarashishini bildim. O'ynaysizmi?
- Axir, men... rostdan go'rkovlik qilyapman...
- Nima bo'pti? Sizning qo'lingizdan keladigan ishni qanday yo'q deysiz, aka?

Kenji qizning shijoatiga va sezgisiga qoyil qoldi. Muqaddas hayotda g'ayrat bilan yashar ekan, eski qoliplarni sindirishda ham g'ayrat ko'rsatmoqda edi.

Shu tariqa, o'shanda Kenji litsey sahnasida ofitsiant rolini, aslida esa hayotdag'i o'zini o'zi o'ynadi. Qizning har bir xatti-harakati, har bir gap-so'zi rom etar, ko'rmas rishtalar bilan chirmab borardi. Ofitsiantlik chog'larida u hech kimga bunchalik erkin so'zlayolmagan edi. Muqaddas... Muqaddasda gap ko'p. Balki Muqaddasning o'mida boshqa qiz bo'lganida Kenji nafaqat senariydagi gapni aytardi, umuman sahnaga ham chiqmasdi.

Ertasiga qiz ovqat, non, salat, choy solingan idishni katta oq dasturxonga o'rabi Qorong'i chorboqqa kelganida, Kenji bog'ni chakalaklardan tozalab, eski baklashkadan suv ichayotgandi. Odam sharpasini payqab, o'girildi-yu buloq suvi tomog'iga tiqilib, o'qchib yubordi. Muqaddas yengi kalta atlas ko'yakda edi, boshida zarrin yashil ro'mol. Bo'ynidagi tilla zanjirga tushgan ostob nayzasi ko'zni qamashtirgudek shu'lalandi.

Qiz salom bergach, bugun o'zi ofitsiantlik qilayotganini aytib kulimsiradi.

- Ovqatsiz qolganimni qanday bildingiz? — so'radi Kenji.

- Ko‘chamizdagilar navbati o‘tganini bahona qilib tortishayotgani qulog‘imga chalindi, — dedi Muqaddas. — Ilon ko‘p deyishgandi, yo‘qmi ishqilib?
- Ilonlar obod joylardan qochadi. Ko‘ryapsiz, hamma-yoq qirtishlanyapti.
- Mahalla raisiga aytdim, endi siz tushiksiz qolmaysiz,
- Muqaddas tugunni yerga qo‘yib, ochishga unnadi. — Qabrlar shu qishloqni, obod qilishga kelganda esa odamlarimizning bariga bahona tayyor. Begona odam kelib qilib berishi kerak!.. Qorong‘i chorboqqa «rayon»dan bir yigitni olib kelib, o‘ldirib ketishganini eshitganmisiz?
- Ish boshlagan kunim Mahmud aka gapirganday bo‘luvdi.
- Qizlarimizning «qilig‘i»ni-chi?
- Hm-m... Uyatli voqeа.
- Uyatli emas, fojia! Yigirma birinchi asr fojiasi! — Muqaddasning jahli chiqsa, xiyol qizararkan. Dasturxonni ochib, tushlikni hozirlab, davom etdi: — Qorong‘i chorbog‘da hech qanday ins-jins, arvoh, sharpa, sariq qiz, ajina yo‘q. Xudoyim mehribon. Xudoyim bunaqa sodda emas, qandaydir kichkina bog‘ ichiga sirli maxluqotlarni oshkora keltirib! Nima bexosiyatlik bo‘lsa, odamlar qilgan! Shu qishloqning odami, «rayon»ning odami! Qizlarga balo bormidi?! Shundoqqina tepangda ota-bobongning mozori! Sen nima sharmandalik qilyapsan deydigan vijdon bormikan ularda? Uchtasi homilador! Bir yilda uchtasi! Shaharda diskoteka degan joylar bor, tushunsa bo‘ladi buzuqxonalarни. Lekin... lekin Qorong‘i chorbog‘ axir... qabriston bog‘i-ku, aka! Bog‘da bo‘lgan ishlar diskotekani ortda qoldiradi! Diskotekalarni yopib qutulish mumkin, bog‘ni-chi? Anavi soy bo‘yini-chi?
- Obod qilsak, ilonlar kabi shayton ham qochadi, — dedi Kenji.
- Shayton? U haqda qachondan beri bilasiz?

Azamat QORJOVOV

- Bolalagimdan beri.
- Borligiga ishonarmidingiz?
- Ha, — javob berdi Kenji.
- Demak, ateist emas ekansiz-da?
- Qaydam... — yelka qisdi Kenji baklashkadan suv quyib, qo'lini yuvarkan. — O'zingiz-chi? Xudojo'y qizmisiz yo... menga o'xshab yarim ishonib, yarim ishonmay yurgan «yevropalik»misiz?
- Astag'firullo, men ikkilanmayman, — o'tkir nigohini qadadi Muqaddas.
- Uzr, sizning qandayligingizni tushunolmayapman. Bir yoqda xudojo'ylik, bir yoqda san'at. Hatto, qabriston qorovuliga rol o'ynatdingiz.
- Hamma xatolik shunaqa fikrlashda, — deb Muqaddas dasturxonidan uzoqlashib, ozoda joyga o'tirdi. — Oling, aka! Qorningiz ham tatalab ketgandir? Bobom yahudiy-larni maqtaydi. Ulardan olimlar ko'p chiqarmish, Nobel olganlar ham asosan yahudiylar ekan. Men bobomga muslimon qizi biryo'la dinda ham, ilmda ham, san'atda ham o'z iste'dodini ko'rsatishi mumkinligini isbotlayman. Faqat sportga sal uquvim yo'q. Ochig'i, vaqtim yetmaydi.
- Bobongiz ateistmi?
- Ahmadqulov zamona odami, — dedi Muqaddas bobosining familiyasini kinoya ila tilga olarkan. — Sovet davrida kommunist, mustaqillik zamonida xudojo'y oqsoqol.
- Kenji kartoshka qovurmadan tatirkan, qizning quvligi kulgisini qistatdi.
 - Ja obro' talashadi deyishadi, rostmi?
 - So'ramang.
 - Bu yoqqa kelganingizni biladimi?
 - Bilsa o'ldiradi. Qochadigan joy topolmay, doim jahl bilan uy supuraman, men bechora.
- Shunda Kenji cho'ntagiga qo'l solib, Toshkentdag'i uying kalitini oldi-da, Muqaddasga irg'itdi.

— Mang. Bu uy sizga.

Muqaddas kalitni ilib olib, hazil deb o‘yladi va aylantir-gancha tomosha qildi.

— Bobomning obro‘ talashishini nega o‘yladingiz?

Tinchlikmi? — yer ostidan boqdi u.

— Tinchlik, — qovoq uysi Kenji.

— Meni «singlim» degansiz. Yigitlarning lafzini hurmat qilaman.

— Sizningcha, men kimman?

— O‘g‘ri, — deb javob berdi Muqaddas.

— O‘g‘ri? Men-a? — hayratdan yoqa ushladi Kenji.

— Nega hayron bo‘lyapsiz? — so‘radi Muqaddas. —

Sizning botiningizda «o‘g‘ri» degan obraz yashayapti. Yolg‘onmi?

— Hayron bo‘lganim... o‘g‘ri emasman-u, ammo ularga yaqin ekanligimni to‘g‘ri topdingiz. Maktabni bitirib, Toshkentga ketganimda, bir odam ko‘p yaxshiliklar qilgan. Umri yetimlikda o‘tgani uchun menga rahmi kelib, savob bo‘lsin deganmi, ancha-muncha yordamlashgan. Ish topib bergen, bo‘sh turgan kvartiraga joylashtirgan. Keyin bilsam u odam eski o‘g‘rilardan ekan.

— Shunaqa deng... — qovog‘i uyildi qizning ham. — Shogird tushdingizmi?

— Yo‘q, men o‘g‘rilik qilmadim. Lekin, baribir, o‘g‘rilarga sherikman, ularning davrasida yurganman. Keyin qishloqqa qaytib keldim. Qishlog‘im odamlari meni shaharga ketib, yo‘lini topgan, deb o‘ylasharkan. Otpus-kaga kelgan odamdek o‘z qishlog‘imda o‘zim mehmonga o‘xshab yurdim. Bari ish so‘rab kelaverdi, bolasi pul topishi kerak, ukasi pul topishi kerak, jiyani, qaynisi... Mehmon ham gapmi, o‘z uyimda kelgindidek yashadim. Ularga pul zarur bo‘lsa, men mehrga zor edim. Yetimligimni unutib, bag‘rimga shamol tekkandi, eski hammom, eski tos deganlaridek, yuragim ezila boshladi. Yana shaharga qaytib ketdim.

- Endi esa bizning qishloqqa go'rkov bo'lib kelishin-gizga sabab nima?
- Mana shu chorbog'ni gullatishga qaror qildim, — Ken-jining ko'zlarini o'ychan boqardi. — O'sha kuni go'rkovga yor-damlashganimda, umrimda birinchi marta qabr qazidim. Ko'nglimda qandaydir yoqimli halovat his etdim. Qorong'i chorbog' ham o'ziga chorladi. Bog'da qancha ishlayman, qishlog'ingizda qancha vaqt yuraman, bilmayman. Ammo ketgunimcha ishlayman, aynan shu yerda ishlayman. Yigirma bir yoshdaman. Bo'ydoqman. Ota-onadan erta ayrliganman. O'zimizning qishloqda bitta amakim bor, xolos. Sizlarning qishloqlaringizda esa... Toshtemir tog'am. U kishi tug'ishgan tog'am ham emas, onam rahmatlining amakivachchasi. Hayotning o'zi biror yo'l ko'rsatadi deb kutyapman. Xullas, shunaqa gaplar, Muqaddas. Sizni deb xudoga imon keltirdim, minnatdorman sizdan.
- Aynan meni deb emas. Bunaqa gaplarni gapirmang.
- Ko'nglingizga tekkan bo'lsa uzr. Xursandmanki, olamda izsiz yo'qolib ketmayman. Qachonlardir u yoqlarda ham yashayman. Bu yarmi qorong'i, yarmi chala yoritil-gan dunyodan u yoqdagi abadiy nurafshon dunyoda odam ko'p, tanigan-bilganlarimiz son-mingta. Masalan, ota-onam bilan uchrashaman, bobo-momolarim bilan. Hatto, Amir Temur davridagi kimlar mening bobolarim yoki mo-molarim ekanini so'rab, bilib olaman, o'z ko'zlarim bilan ko'raman.
- U dunyo haqida ochiq gapirishga faqat tentaklarga ruxsat berilgan, aka, siz sog'siz, jiddiyroq bo'ling. Menga bir narsa qiziq, rol o'ynayotganingizda oyog'ingiz oqsa-madi, qaddingizni ham tik tutdingiz? Hozir ham shunday tuyulyapti.
- Mana, tuzingizdan tatidim, — jilmayishga urindi Kenji. — Rollarim davom etsa ham, sizga yomonlik qil-mayman. Ha, endi yomonlik qilmayman. Tuzini yeb, tuz-luqqa tupurish yigitga xos emas.

- Nahotki, hozir go‘rkov rolini o‘ynayotgan bo‘lsangiz?
- ko‘zлari pirpiradi Muqaddasning.

— O‘ynayapman, o‘ynayapman, — deya Kenji o‘rnidan turib, gavdasini tik tutgan holda raqsga tushdi. — Qalay? Qaddi buzik, oyog‘i oqsoq yigit emas ekanmanmi?

Muqaddasning yuzi yorishgandi, birdan mahzunlik rassomlari bezadi.

— Sizga bu «artistlik» nima uchun kerak? — dedi u. — Maqsad nima? Aytib qo‘yay, odamlarimiz yomon tomoshabin. Bu teatringiz bilan ularni o‘zgartirolmaysiz. Litseyda ham ko‘rdingiz-ku.

— Hammasi qo‘lingizdagи kalitga borib taqaladi, — Kenji kalitga imo qildi va o‘zini bilmagan holda sirni ochib qo‘ydi: — Litseydagи tomosha o‘quvchilar uchun edi, bobongizga emasdi. Uyning manzilini aytaman. Toshkent shahri, Yunusobod tumani, «Suyun-Savdo» supermarketi orqasidagi kvartaldagi yetmishinchи uy, yetmishinchи xondon. Bir eshitgandan eslab qolinadigan manzil.

Biroq Muqaddas «litseydagи tomosha o‘quvchilar uchun edi, bobongizga emasdi» degan gapga e’tibor qaratmadи.

— Yunusoboddagi siz aytgan supermarketni ko‘rganman, kirganman. Uning yaqin joyida xolamning qaynisi yashaydi, xolam bilan ikki marta borganmiz. To‘g‘risini aystsam, sizni «odamlarimizning ko‘nglidagi g‘aflatni o‘g‘irlayotgan ijobjiy ma‘nodagi o‘g‘ri» demoqchi edim. Chin o‘g‘rilarga hamtovoq ekanligingiz tushimga ham kirmagandi. Afsus.

Kenji o‘zini oqlamadi, Hasan gazchining siri xususida ham lom-mim demadi. Muqaddas kalitni Kenjiga qaytarib bergach, dedi:

— Meni kuzatmang, o‘zim ketaman.

Muqaddas bog‘ni tark etdi. Yosh go‘rkov jiydaga suyandi-da, o‘yga botdi. Nima qilish kerak? «Bu topshiriq menga to‘g‘ri kelmadi» deb Hasan gazchiga qo‘ng‘iroq ursinmi? Lafz nima bo‘ladi? Qachondan beri Kenji uddala-

yolmaydigan ishni bo'yniga olib, yarim yo'lda latta chay-nab qolgan? Yoinki tuzluqqa tupurib, Muqaddasni olib qochselmadi? Qizni chaqirsa, ertaga yo indin ovloqqa o'z oyog'i bilan keladi. Biroq bunisi ham nomardlik. Aftidan Hasan gazchi Qorong'i chorborg' yo'li buzuqlarning fahsh makoniga aylanganini to'yga kelganida eshitgan, u Kenji aynan shu yerda o'ralashib yurib, Ahmadqulovning jondan aziz navniholini badnom qilishini istagan. Bu – nafratga loyiq edi. Ha, Kenji o'zi ham kechagina tegrasidagilar kabi bitlagan maxluqqa aylanib borayotganini, illo taqdirning rahmi kelib, ikki yo'ldan birini tanlashga imkon bergenini anglab yetdi. Endilikda Muqaddasga yomonlik qilolmasdi. Qiz Kenjining jon joyidan tutib, «meni «singlim» degansiz, yigitlarning lafzini hurmat qilaman» dedi, ha, singling-man, dedi. Demak, bundan keyin Muqaddasga tug'ishgan singlisidek qarashi shart. Aks holda Kenji botinan va zohiran yigit emas, so'zidan qaytgan nojins yoxud balchiqdag'i iflos cho'chqadan farqi yo'q maxluq bo'ladi-qoladi.

Dushanba kuni Kenji ishga jo'nashga tarad-dudlanayotganida, Toshtemir tog'asi ayvonga chiqib, uzoq kerishdi.

— Jiyan, — dedi u qo'shnining tomorqasida hangrayotgan eshakka tikilib, — shunday yuravermoqchimisan tekinga ishlaydigan go'rkov bo'lib?

— Yo'q, vaqtি-soati kelsa, tog'a, hammasi yaxshilikka o'zgaradi. Siz sabr qiling, xo'pmi?

Tog'a uning dadil javobidan sergak tortib, angrayib qaradi. Kenji qaddini tik tutib, xuddi qo'riqchilik davridagidek ko'zlarida o't yonib qarab turardi. Boz ustiga oq-soqlanmasdan ikki-uch qadam tashlab, kirlagan arqondagi sochiqqa artindi.

— Bukrini go'r to'g'rileydi, deb eshitgandim. Adashmasam... sen go'ristonda ishlab, kundan-kunga o'zgarib boryapsan.

— Hozir bu haqda gaplashmaylik, aytyapman-ku sabr qiling, deb. Hammasi keyin... — Kenji ko‘z qisib qo‘ydi.

Shundan so‘ng choy ham ichmay ko‘chaga chiqdi. O‘zi Kenji tog‘asinikida choy ichmay qo‘ygandi. Qabriston qorovulxonasi uch xonali bo‘lib, birida tobutlar va ketmon, kurak, bellar saqlanar, ikkinchisi aslida kichik masjid uchun mo‘ljallab qurilgan, keng, yorug‘ xona edi, bo‘shturardi. Kenji so‘l qanotdagi uchinchisida — Mahmud aka xalqdan ko‘rpacha, gilam, palos, choynak-piyola, termos yig‘ib tashkil qilgan xonada hordiq chiqarar, choy ichardi. Dastlab kelgan kuni Qorong‘i chorborg‘dan, ayniqsa, tobutlar saqlanadigan xonadan ko‘pchilikning cho‘chishi kulgisini qistatardi, mazax qilishdan o‘zini zo‘rg‘a tiyib, go‘rkovlik rolini qo‘ldan kelgancha ijro etardi. So‘ngra dilida imon chirog‘i yongach, u qabristonni va Qorong‘i chorborg‘ni chin dildan obod qilish kerakligini anglatdi, tobutxonaga esa istehzo bilan kulib qaramaydigan bo‘ldi. Tobutxona bir vaqtlar tirik bo‘lgan, Kenjidek nafas olgan, o‘ylagan, yig‘lagan, kulgan, yegan-ichgan bechora bandalarning loshlarini Qiyomatgacha qo‘nim topadigan manzilga tashiydigan yog‘och otlar otxonasi edi.

O‘sha kuni qabristonga shoshilarkan, yo‘lda qo‘llarini orqaga qilgancha g‘o‘dayib turgan Ahmadqulovga duch keldi.

— Go‘rlarni ta’mirlashga ketyapsanmi? — gap qotdi chol.

— Assalomu alaykum, — ko‘rishish uchun qo‘l uzatdi Kenji.

— Bugun dushanba, go‘rkovlar bilan ko‘rishmayman, — dedi Ahmadqulov. — Oting nimaydi?

— Kenjaqul.

— Menga qara, Kenjaqul, har kim o‘z o‘rnini bilishi kerak. Hayot o‘zi shunaqa. Kecha nevaram senga ovqat pishirib boribdi. Undan avval o‘zing yo‘lini to‘sib, bir bollar deb boshini aylantiribsan. Boshini aylantirgansangi, sahnaga chiqib, bir qulsifat ofitsiant rolini o‘ynading.

— Sizga yoqmasligini tushunaman...
— Gapni bo'lma! Roling ham, go'rkovliging ham bir tiyin! Ha, bir tiyin! Muqaddasga ham tayinladim, sen-ga ham aytyapman. Agar ikkovingni yana birga ko'rsam yoki gaplashibdi deb eshitsam, o'zingni Kattaqo'rg'onda ko'rasan. Tushundingmi?

— Tushundim.

— Mozorni tozalab, bog'ni ko'rkamlashtirib, keyin mahalla raisi bilan hisob-kitob qilasan-da, quriysan! Qishloq-da qorangni ham ko'rmay!

— Kelishdik, — dedi Kenji bosh silkib.

Ertasiga — seshanba kuni soat to'qqizlarda mahalla idorasiga chaqirishdi. Kenji kirib borganida, yolg'iz o'tirgan badqovoq rais bir oz maqtadi.

— Zo'r tozalayapsiz, eshitdim, «rayon»ga ketayotib, yo'ldan turib qaradim, — dedi u. — Xalqdan pul yig'ib bera-man, quruq qo'yamaymiz. Toshtemirga ham aytib qo'ying, fe'li tor-da, hadeb menga aqchani pisanda qilavermasin.

— Xotiringiz jam bo'lsin, — dedi Kenji raisga ham ko'z qisib qo'yishdan o'zini zo'rg'a tiyib.

— Fashistlardan qolgan qabrlarni buzib tashlaysizmi, qissqasi, nimadir o'zgartirish kiritish kerak-da, uka. Ahmadqulov ham shu fikrni aytyapti. Otaxonni yaxshi taniy-siz, qishloqda gapi gap. Bizning qabriston — faqat bizniki bo'lishi kerak, deydi. Ahmadqulov hajga ham bormoqchi. Qabriston, masjid, ma'raka deyaverib, jonga ham tegib ket-di. Nima qilamiz?

Bu gap Kenjiga g'alati tuyuldi.

— Mozorotda fashistlarning qabri yo'q. Ikkinchı Jahon urushidan keyin keltirilgan yapon asirlari dafn etilgan, xolos.

— Ishqilib, bizga begonami, bo'ldi-da! Oltmish-yetmish yil o'tib, shundoq ham tekislaniib ketgan, yana nima kerak?!

— Birining qabrtoshi turibdi.

— Ko‘rganman, qo‘lbola qabrtosh. Qisqasi, Ahmadqulov nima desa shu. Yetmish yil oldingi qabrlarning egasi yo‘q, yerni tekislاب, o‘zimizning marhumular uchun tayyorlayvering!

— Eski qabrlar nima joyni ham egallardi. Ahmadqulovga ham, boshqalar ham joy bemalol etadi-ku, rais bova?

— So‘ksangiz so‘king, faqat aql o‘rgatmang, yigitcha!

Kenji o‘sha kuni rais aytgan ishlarning mutlaqo teskarisiga qo‘l urdi: eski qabrlar atrofini tozalab, mung‘aygan yolg‘iz qabrtoshni qulayroq o‘rnatdi. Toshdagи yozuvni artib, unga termulib qoldi. Bu yerda yotgan odam o‘z vatanida emasdi, ammo yetmish yildan beri shu qabristondan makon topgan, tamom, gina-kuduratdan ma’ni nima? Uning g‘urbatda, yo‘l qurilishida ishlab, asirlikda o‘lganini o‘zi jazo emasmi?

— Men va sen bu qishloqqa begonamiz, — dedi Kenji toshni silab. — Odamlarning nazarida shundaymiz. Aslida esa hammaning borar joyi bir... Umuman olganda, o‘rningda bo‘lganimda, men ham armiyaga yozillardim, urushga ketardim, begona yurtlarda o‘lardim... Qara, ham-mayoq tinch, osuda... Hatto, meni armiyaga ham olishmadi...

O‘sanda Kenji qabrtosh oldida cho‘k tushib o‘tirganida, G‘aybulla qabristonga alamzada holda kelib, «Kenjaqul» emas, «Kenji» deya murojaat qildi. Haqiqatan, Kenji hayron qoldi. Laqabi shu qishloqqa ham yetib kelibdi-da. Toshtemir tog‘asidan eshitgan emish. Mayli, tog‘asiga o‘zi aytgan.

O‘sha kuni ikkisi Muqaddas xususida tortishib, Qorong‘i chorboqqa tushdilar. Kenji qabrtosh suratini telegramdan yuborganiga hayal o‘tmay, Chirchiqdagi Guljana opa ikkita xabar yubordi. Biri: «O‘zingga qabrtosh yasatdingmi? Undagi yozuv...» Ikkinchi xabar: «Kenji Aina».

Kenji G‘aybulladan ehtiyyot bo‘lishi kerak edi. U boyadan

beri bir qo'lini cho'ntagidan chiqarmayapti, qurollanganga o'xshaydi. Biroq ayni damda Kenjining xayolining yar-mi ijara uy sohibasida edi. G'aybullla laqabini Toshtemir tog'asidan eshitgan ekan, ijara uy egasi-chi? Faqat Hasan gazchigina uni, ya'ni Kenjaqul Oynaqulovni hazillashib «Kenji Oyna» degandi. Bundan chiqdi, Hasan gazchi Kenji yashagan o'sha uy egasini tanirkana-da? Nega ikkisi Kenjini bir xil nom bilan atayapti?

Kenji pichoq zarbasiga tayyorlandi. Diskotekada ish-lab yurgan kezlari bunday xildagi raqiblardan yaxshigina himoyalana olardi, yillar ichida ko'zi pishidi, qo'llari o'rgandi.

— Sen qishlog'ingning bo'lajak eng katta bosh ahmog'isan!
— dedi Kenji o'shanda. — Qishlog'ing seni qanday baxtsiz va mayda odam qilib qo'ygan bo'lsa, sen ham kelgusida avlodlaringni shunday baxtsiz va mayda shaxsga aylantirasan!

— Senga ham, fikringga ham tupurdim! — tishlarini g'ijirlatdi G'aybullla.

Kenji jo'rttaga bir qadam tashladi. Qadam tashlagan-dayoq hamla bo'lishini juda yaxshi bilgandi.

...Urdi!

G'aybullla chaqqonlik bilan pichoq urdi!

Qamalsam qamalaman, hech bo'lmasa bu yigit Mu-qaddasga uylanolmaydi, deb o'yladi.

Kenji esa gavdasini xiyol chetga olib, bilagidan tutishga ulgurdi, lekin pichoq biqinini tilib o'tdi. Kalla qo'yib, o'z navbatida tirsak bilan jag'iga tushirdi. G'aybullla ortiga gan-diraklab, yiqildi. Keyin qonayotgan burnini ushlagancha Qorong'i chorboq oralab pastlikka — soy bo'yiga qochdi.

— Biqinni eyishga sal qoldi-ya, yaramas, — to'ng'illadi Kenji tilingan terisiga boqarkan. — Mayli, hechqisi yo'q, bitib ketadi.

Telefonidan Guljana opani topib, qon yuqqan boshmaldog'i bilan ustidan bosdi. Antennani ko'rsatuvchi belgilari teparoqqa chiqishga undadi. Kenji Qorong'i chorboq'dan

yuqoriroqqa — qabriston maydoniga ko‘tarilganida, ayol go‘sakni oldi.

— Laqabimni qayoqdan bildingiz desam, Hasan aka bilan osh-qatiq ekansiz-da? — dedi Kenji. — Ayg‘oqchining uyida yashayotganim tushimga ham kirmagandi, opa!

— Nimalar deb valdirayapsan?

— Kenji Oyna deb xabar yuboribsiz, meni faqat Hasan gazchi Kenji Oyna degan.

— Obbo jinni-ey! Hasan gazchi degan odamni tanimayman! Kim seni «Kenja Oyna» degan, sariq chaqalik ishim yo‘q. Telefoningga yaxshilab qara, u «Kenji Aina» deb yozganman. Telegramdan yaponcha yozuvli qabrtoshning suratini yubordingmi? Yubording. Toshdagi yozuv «Kenji Aina», bilding?! «Kenji», — bu yaponcha ism, «Aina» familiyasi. Opam yapon tilini bilishidan xabaring bor, mana yonimda o‘tiribdi. Yaponiyaga ham necha marta borgan. Yapon askarining qabri topilganini Yaponiya elchixonasiga aytsinmi?

Kenja bildiki, hayotda nimadir o‘zgarmoqda.

— Ismi Kenjimikan? — so‘radi ishonqirmay.

— Ha, Kenji. Bu ism yaponchada «ikkinchi o‘g‘il» degan ma’noni bildirarkan. Sen esa Kenjaqulsan, kichik bolasan, eng kichigi.

— Lekin mening akam bo‘lgan, chaqaloqligida ko‘p turmay, vafot etib ketgan.

— Demak, senga xudo yashashga ruxsat bergan. Ruxsat berilganki, tiriksan. «Feysbuk»ka kir, rasm qo‘ydik, ko‘rasan odamlar qanday sharhlar yozishayotganini. Buni yaponiyaliklarga ko‘rsatish kerak, deyishyapti... Bo‘pti, yonimda odamlar bor, boshqa payt gaplashamiz. Tavbangga tayansang, qaytib kelarsan. Senga oshiqlar ko‘p ekan. Uylantirib qo‘yamiz.

Kenjining nigohi qabrtoshga tushdi. Nazarida qabrtosh yanada oqarib ketgandek edi.

Tosh qarshisiga borib, tiz cho'kdi.

— Salom, adash, — dedi Kenji. — Ehtimol, sen yaxshi odam bo'lgandirsan, o'zing yashagan davring urush komiga majburan tashlagandir, meni esa tinchlik qo'yniga qo'yib yuborishdi. Komandirim ham yo'q edi, majburiyatim ham, davlat chaqirig'i ham... Urushdagi yaxshi yo'l bilan tinchlikdagi yomon yo'l — bari bir xil manzil ekan... Menda ham iloj yo'q edi, ammo qaytdim... Yaxshilikka qaytdim...

VI

Ko'zimni bir zumga yumib, stul suyanchig'iga yelka tashladim. Qarshimda o'tirgan notovon yigit — G'aybulla jamiyatning qaysi toifasidan ekanini ko'rib turardim. Sinfimizdagi yomon bolalar bizni chalasavod qildi, bezoriga aylantirdi, sigaret chekishga, aroq ichishga o'rgatdi, qishlog'im muhiti shunaqa badbin edi, deganida, yanglishgandi. U sinfdosh qizni — Muqaddasni sevgan, aniqrog'i, ko'ngli bo'lgan, ammo o'z ishqiga o'zi ishonmagan edi. Shunday ekan, uning ezgulikka ishqisi, vijdonga ishqisi, Yaratganga ishqisi, xalqiga ishqisi — bari xuddi Muqaddasga bo'lgan ishqisi kabi zaif edi. Shuningdek, ilm-fanga muhabbati ham aro yo'lda balchiqqa botib, o'zida olg'a kuch topolmagach, aybni boshqalardan, xususan, bezori sinfdoshlardan axtargan edi. Bularning bari zaif fe'li orqali namoyon bo'lsa-da, aslida fe'lini o'zgartirish, ha, ma'lum bir foizlargacha o'zgartirish mumkin edi. Sherga aylanmasa-da, bo'ridek yashardi. Ammo nega o'z katagida qichqiradigan jonsarak xo'rozcha edi u? O'zidan kuchli To'rabej kabilar Muqaddasga og'iz solib, ilakishib yurgnida, miq etolmadi-yu mardikorlikka kelgan yetim yigit — Kenji qobiqni yorib chiqqanida chidayolmadi. O'zi q'sha kuni litsey sahnasida rol o'ynamadi, rol o'ynab, maqsadiga erishganlar g'ashini keltirdi. Barchasi yig'ilib, oxir-oqibat G'aybullaning Qorong'i chorboqqa borib, Kenjiga pichoq urishiga olib keldi.

— Xo‘s, keyin-chi? — deb so‘radim mehmondan. — Kenjini o‘ldirib qo‘ydingmi?

G‘aybullha hikoyasini davom ettirdi:

— Hammasi ko‘z ochib-yumguncha sodir bo‘ldi. Kenji zARBIMNI qaytarib, avval o‘xshatib kalla qo‘ydi, so‘ng tirsagi bilan bir urib yerga qulatdi. Tajribali ekanini sezgandim, ammo ishonmagandim. Ko‘zimdan o‘t chaqnab, burnimdan qon ketayotgandi. Ovloq makonda ikkimizni ajratib qo‘yadigan kimsa yo‘q. Tag‘in pichog‘imni olib, jahl ustida o‘zimni so‘yib tashlamasin, deb qochdim. Qorong‘i chorbog‘dan chiqib, so‘qmoq bo‘ylab ancha joygacha yugurib bordim. Kenji meni quvmayotganiga ishonch hosil qilgach, to‘xtadim va yuvindim. Keyin soyning narigi tarafidagi asfalt yo‘lga chiqib, qabristonga qaradim. Kenji Qorong‘i chorbog‘dan tepaga chiqib, soldatlardan qolgan qabrtosh oldida cho‘kkalab o‘tirganini ko‘rdim.

Asfalt yo‘ldan yana pastlikka tushib, qo‘lbola ko‘priдан o‘tdim-da, qabriston yaqinidagi amakining molxonasi orqasidagi tor yo‘lakdan to‘g‘ri qabriston darvozasidan chiqdim. Velosipedimni olib, uyg‘a jo‘nадим.

«Kim bilan urishding? Betingga nima qildi?» — so‘radi ayvonda chirigan olmalarni to‘g‘rayotgan onam.

«Kim bilan urishaman?! Velosipeddan yiqildim, ena», — dedim ichkariga shoshilib.

«Otang olib kelgan qayrilma pichoqni ko‘rmadingmi?»

«Ko‘rmadim!» — zarda qildim onamga.

Chorshanba kuni litseyga bormasam, eng avvalo, uyda onam shubhalanardi. O‘lganimning kунидан darsga jo‘nадим. Bugun qamoqda bo‘lishim kerak edi. Omadim chopib, Kenjini o‘ldirolmadim. U, hatto, militsiyaga arz qilmagan edi.

Kimdandir kaltak yeganimni litseydagilar bildi, alday-olmadim.

«Hech kimga aytmasalaring, rostini gapiRAMAN», — dedim jo‘ralarimga.

So'ngra Kenji bilan yakkama-yakka olishganimni qo'shib-chatib so'zlab berdim. Pichoq haqida lom-mim demadim. Do'stlarim hayron, Kenji bir kosa ovqatga zor mardikor, hech kimi yo'q yetim emasmi? Bu qishloqqa sig'indi bo'lsa, qanday qilib meni do'pposlashi mumkin?

«U Muqaddasning boshini aylantirib yuribdi, shunisiga chidayolmadim», — dedim alamdan bo'zarib.

«A? Muqaddasni? — battar hayratlanishdi ular. — O'sha chuvrindi-ya? Dabdalasini chiqarib urish kerak!»

«Qanday urasan? U go'rkov-ku! Qabristonga ham qorovullik qilyapti», — e'tiroz bildirdi biri.

«Sulayish aka spirit sotadi...»

«Vino ham, bolalar!»

«Ichib, urishamiz! Go'rkovmi, g'assolmi, bizga farqi yo'q! Akamdan eshitdim, tog'dagi ammamlarning to'yiga borib, ichib mast bo'lgan ekan, to'rtta bolani bir o'zi uribdi».

«Bo'pti, jo'ralar, — dedim men. — Faqat bugunmas! Chunki yuzimning ko'kargani ketishi kerak. Bo'lmasa, janjalni eshitgan kattalar yuzi bugun ko'kargan deb o'ylab, «shuncha jo'rang bilan borib, qashqa bo'lib qaytdingmi?» deb ustidan kulishadi».

«Litseyni bitirganimizdan so'ng qilamiz bu isjni! — taklif tashladi to'daboshimiz. — Oz qoldi! Ichganimizni, janjallahganimizni direktorlar eshitgani bilan hech narsa qilolmaydi! Chunki biz bitirgan bo'lamiz!»

Mushtlashuv kuni, ya'ni qasos ortga surildi. Bir necha kundan so'ng Kenji Qorong'i chorborg'ni o't-o'lanlardan, chirigan butoqlardan tozalab, simto'siqlarni tikladi. Yuqori hududdagi dala uvatidan o'tgan ariqdan ham suv keltirdi. Endi ariq suvi qabriston chetidan oqib o'tib, Qorong'i chorboqqa tushar, daraxtlarning chanqog'ini qondirib, soyga quyilardi. Mahmud akaning do'konda gapirishicha, Kenji u bog' yana buzuqchilik uyasiga aylanmasligi uchun dastlab soy bo'yidagi eshikni simto'siq bilan butunlay

yopib tashlamoqchi bo‘libdi. Kim boqqa kirishni ixtiyor etsa, qabriston oralab o‘tarmish. Biroq hech kim kunduz ham boqqa kirmay qo‘yadi va «Kenjining ravzasi» unutiladi. Aksincha, soy tomondan yo‘lni ochib qo‘ysa, kechasi yana aroqxo‘rlar, nashavandlar, xiyonatchi erkaklar, oshiqma’shuqlar kelishi mumkin ekan. Bizga o‘xshaganlar-ku tayyor bog‘ning norasmiy egalari bo‘lamiz-qo‘yamiz.

«E, shu tentakka tushunmadim tushunmadim-da, — dedi do‘kondagi mastlardan biri. — Tomi ketib, boshi aylanib qolganmi, nega buncha qabristonga yopishib oldi? Bir qarasang, tappa-tuzuk bolaga o‘xshaydi, bir qarasang, o‘zining foydasini bilmaydiganga. Biz baribir boraveramiz, tikanli sim qo‘ysa ham. Endi-i, «mayovka» qiladigan boshqa joy ham qolmadi-da».

Mastning gapida jon bor edi: yomonga to‘sinq yo‘q. Mahmud aka soy tomondagi simyog‘ochga projektor o‘rnatishni taklif qilibdi, lekin Kenji boshqa bir fikrda to‘xtalibdi. U G‘oztepa qishlog‘iga pand-nasihat qilish — eng yaxshi yo‘l deb topibdi. «Projektor nuri bilan ham, simto‘sinq bilan ham to‘xtatib bo‘lmaydi», deganmish.

«So‘nggi qo‘ng‘iroq» kuni odmi qora shim, oq ko‘ylak kiygan, boshiga do‘ppi qo‘ndirgan Kenji litseyga kelib, direktor bilan gaplashgach, so‘zga chiqdi.

«Men, — dedi u mikrofon tutib, yuzlab o‘quvchilar safiga ko‘z yogurtirarkan, — qishlog‘ingiz qabristonida go‘rkovman, sizlar «Qorong‘i chorborg» deb ataydigan boqqa qorovullik ham qilayotganidan xabardorsiz. Ko‘pchililingiz «Nega bu yigit shunaqa past ishni tamladi ekan?» deb o‘layotgandirsiz? Bilasizlarmi, shaharda tuproqning kichik zarrasi ham kiyimga tegmaydigan ozoda binoda ishlardim. Avvalgi ish joyimni ko‘rsangiz, og‘zingiz ochilib qolardi, hecham ketgingiz kelmasdi. Ayniqsa, siz — yoshlarning ko‘pchililingiz qiziqib qolardin-giz. Ammo men ketdim. Nima uchun? Chunki atrofim-

da o'liklar emas, tiriklar, tirik bo'lganda ham, ajabtovur «tiriklar» juda ko'p edi. Ko'pchiligini ma'naviy jihatdan tirik deb bo'lmasdi, allaqachon ruhi o'lgan odamlar edi. Men ham ularga qo'shilib o'lib borayotgandim. Nimadir meni qiyndi. Hayot ko'zimga zerikarli, fayzsiz ko'rinaridi. Qishloqlaringizga bosh olib kelib, eng oddiy ishlarni ham qilib yurdim. Birinchi marta qabr qaziganimda, hammasi o'zgarib ketdi. Halol yashashni istadim va mana ko'rib turibsizlar, tirikman. Ha, men endi ma'nан tirikman. Kimki yolg'ondan qo'rmasa, vijdonni, imonni bilmasa, u sekin-asta o'lib borar ekan. Ruhi o'lgan yoki ruhi majruh odam xohlasa ichadi, xohlasa chekadi, xohlasa boshqacha kayfsafo qiladi. Unda lafz bo'lmaydi, unda vijdon, or-nomus, Xudodan qo'rqish, kattalarni hurmat qilish bo'lmaydi. Hatto, bu dunyodan o'tib ketganlarning ham hurmatini bajo keltirmaydi. Men o'ylagandimki, Qorong'i chor-bog' bilan qabristonni obod qilishimga qishloq yoshlari, o'zimning tengqurlarim qarab turmaydi, yordamlashadi, axir ularning ota-bobolari, ustozlari, qavmu qarindoshlari, do'stlari yotibdi u yerda. Yo'q, chuchvarani xom sanagan ekanman. Ular hasharni majburiy mehnat, obodonchilikni birov qilib berishi kerak deb o'ylasharkan. O'zi toza-ozoda qilmagan joyni bulg'ashi esa aqlga sig'maydigan ish! Bu bilan men ishlarimni minnat qilayotganim yo'q. Litseyga kelishimdan maqsadim — Qorong'i chor-bog' masalasi. Uning soy tomondan kirish qismini yopib tashlash, kechasi boqqa kiradigan ayrim kimsalarni ko'rish uchun projektor o'rnatish — bularning bari menga yoqmadi. Nima uchun bog'ni qattiq qo'riqlash kerak? Kimlardan qo'riqlash kerak? Aksincha, hamma eshiklarni ochib qo'yib, odamlarning yuragidagi yomonlik eshigini yopish to'g'ri bo'lmaydimi?! Men shaharda ishlagan joyni ayrimlar «buzg'unchilik uyasi» deb atashardi. Biroq bunday atash noto'g'ri ekaniga G'oztepaga kelib amin bo'ldim. Buzg'unchilar bor ekan,

nafaqat men avval ishlagan joy, hatto qabriston biqinidagi bog‘ ham buzg‘unchilar makoniga aylanishi mumkin. Eshitishimcha, tuman markazidan ham kechasi kimlardir kelib, Qorong‘i chorbog‘da kayf-šafo qilib ketisharmish. Ularga kim o‘rgatgan Qorong‘i chorbog‘ shunaqa makon deb? Shu qishloq odamlari, albatta. Ha, begonalar emas. Siz vataningizni qanday ko‘z bilan ko‘rib, qanday makonga aylantirsangiz, begonalar ham shunday ko‘z bilan ko‘rib, shunday makonga aylantirishadi. Sizlarga taklifim, hurmatli bitiruvchilar, bundan keyin Qorong‘i chorbog‘ni jannatning bir parchasi deb qarang! U yerga bekinib sigaret chekish, oshiq-ma’shuqlar uchrashishi, kap-katta odamlarning daraxtlar soyasida o‘tirib, pivo ichishi, sigaret chekishi, atrofni pista po‘choqlari-yu sigaret qoldiqlariga, shisha idishlari-yu boshqa allambalo narsalarga to‘ldirib, chiqindixonaga aylantirib yuborish inson bolasiga yarashmaydi. Bog‘ oralab ozroq tepaga ko‘tarilsangiz, o‘liklar shahriga chiqiladi. Nahotki, qabrlarning hurmati bo‘lmasa?! Men ketaman. Ertaga bo‘lmasa indin qishloqni tark etaman. Bog‘ingizni ham, qabristoningizni ham sizlarga topshiraman. Hamma meni tushundi deb o‘yayman. Biringiz yomon bo‘lsangiz, ikkinchingiz yaxshi bo‘ling!

Shundan so‘ng Kenji tantanavor nutqini yakunlab, barchamiz bilan xayrslashdi-da, davrani tashlab chiqib ketdi. Bunday nutqini to‘yda ham aytdi, mahalla yig‘ilishida ham.

Biz esa...

Litseyni tugatib, uni kaltaklash uchun bir to‘da bo‘lib Qorong‘i chorboqqa bordik. Borishdan avval vijdonimizni o‘ldirish uchun Sulayish akanikiga kirib, uyi orqasidagi teraklar orasida ichdik. Bu paytda boshqa qishloqlardagi tengqurlarimiz universitetlarga hujjat topshirish tashvishi bilan yurgandi.

Kenjini qabristonda ushlashimiz kerak edi. Asfalt yo‘ldan

qarasak, Kenji qabristonda yuribdi. Biz so'qmoqdan soy bo'yiga yugurib tushib, ko'prikan o'tib, Qorong'i chor-bog' eshigiga yetdik. Do'stlarim bog'da, pistirmada kutib turadigan, men Kenjini chaqirib keladigan bo'ldim. Bog' oralab tepaga ko'tarildim va qabriston maydoniga chiqdim. Qarasam, allaqayoqdan Ahmadqulov paydo bo'lib qolibdi.

«Muqaddas bilan gaplashma deganmidim?! — o'shqirdi u. — Degandim! Kecha Toshkentga ketishdan avval ham sen bilan gaplashib turganini ko'rganlar bor! Muqaddas xolasining qaynisinikida kvartirada turib, o'qishga tayyorlanishi kerak edi. Hammasini gaplashib qo'ygandim. Bugun qo'ng'iroq qilyaptiki, u mustaqil hayot kechirmoqchi emish! O'zi uy topgan mish! Unga sen uy topib bergan-mishsan!»

Ahmadqulovning ko'zi menga tushib, qahrini sochdi:

«Ha! Nega serrayib turibsan?! Nimaga kelding?»

Men gapirishga og'iz juftlagan edim, qabristonga eltuvchi yo'lda mashinalar ko'rindi. Ikkiasi xorijiy rusumdag'i «jip» edi, oldindagisi militsiya mashinasi.

Mashinadan tushganlar orasida mahalla raisi, fotoapparat tutgan jurnalistlar, shuningdek, kichik oqish shlyapa kiyan yaponlar bor edi. Bunaqa bo'lishini kutmagan edim. Ortinga qaytib, Qorong'i chorboqqa tushdim. Kenjini do'pposlash rejamiz barbod bo'lgach, biz daraxt shoxlarini sindirib, pista po'choqlarini tashlab, uy-uyimizga qaytdik.

O'sha kuni eshitdik, Muqaddas Kenji Toshkentdan topgan uyga joylashib, bobosidan mustaqil ravishda hayot boshlabdi. Huquqshunoslik institutiga emas, Teatr institutiga hujjat topshiribdi.

Yana bir hayratlanarli voqeа: yaponlar Ikkinci Jahon urushidan so'ng bedarak yo'qolgan askar — Kenji Ainaning qabrini topishda yordam bergani va uning qabrini obod qilgani uchun Kenjaqulga mukofot pul berishibdi. Bu pulga u uylanishi va mashina ham olishi mumkin ekan...

G‘aybulla chuqur tin olib, devorga suyandi.

- Demak, ikkisi... Kenji bilan Muqaddas topishibdi-da?
- so‘radim men G‘aybulladan.

— Yo‘q, Kenji... Kenjaql uylanmadi... — ming‘illadi G‘aybulla derazadan mo‘ralab. — U huv ana... pastdagি oshxonada ofitsiantlik qilib yuribdi. Muqaddas esa kecha o‘qishga o‘tdi... imtihonining javobi chiqibdi... Men Kenjidek bo‘lmoqchiman... Nomim yigit, xolos... Ichim tuturuqsiz, ichim nomard, iflos, qo‘rroq, ikkiyuzlamachi...

G‘aybullani ergashtirib, pastga tushdim. Oshxonada bir-ikki ko‘zim tushgan qiyiq ko‘z, xushmuomalali yigit G‘aybulla so‘zlab bergen hikoyadagi Kenji ekan meni hayron qoldirdi. Yonginamizda shunaqa afsonaviy yigit ya-shashini bilmagan ekanman.

Kenji oq peshband tutib, patnis ko‘targancha bizning oldimizga keldi. Avval salom berdi, keyin G‘aybullani tanib, jilmayib qo‘ydi-da, so‘radi:

- Nima buyurasizlar?

Men aytdim. Bosh egib o‘tirgan G‘aybulla birdan o‘rnidan turib, Kenjini quchoqlab oldi-da, yig‘lab yubordi.

— Kechiring meni, Kenjaql aka... Siz... siz mard yigit-siz... Biz nomardlarni kechiring... Iloji bo‘lsa, shogirdlikka oling... O‘tinib so‘rayman...

Kenji yana jilmaydi.

VII

O‘shanda Hasan gazchi singlisining uyida bir qiz yasha-yotganini eshitgach, Kenjiga qo‘ng‘iroq qildi.

- Qushchani o‘g‘irlab keldingmi?
- Sal boshqacharoq bo‘ldi, — dedi Kenji. — Borganda gaplashamiz, aka.
- Qanaqa «sal boshqacharoq»?
- Muqaddas endi mening singlim. Biz aka-singil tutindik.

— Nima? Shartnomani buzdingmi, Kenji?
— U endi Ahmadqulovning yo'rig'i bilan yashamaydi.
O'qishga kiradi, talabalar yotoqxonasiga ko'chib o'tadi, kim
bilan ahslashsa, o'shangal turmushga chiqadi. Shuning o'zi
dushmaningizga jazo emasmi? Xudoga ishonaman deysiz-
u, qasosni o'ylaysizmi? Qolaversa, qiz bobosining qilmishi
uchun javobgar emas.

— Bo'shsan, Kenji! Men boshqa yigit bilan shartnoma
tuzaman!

O'shanda Kenji G'oztepa qishlog'i qabristonini ham,
Qorong'i chorborg'ni ham tashlab, taksiga o'tirdi-da,
Toshkentga o'qdek uchdi. Muqaddasga qo'ng'iroq qilib,
eshikni hech kimga ochmaslikni buyurdi.

U epladi.

U qizni qutqardi.

U yaponlar bergan pulni faqat yaxshi insonlarga sarf-
lashni niyat qilib, o'zi bir oshxonaga oddiy ofitsiant bo'lib
ishga kirdi.

Muqaddas o'qishga o'tgach, Kenjini axtarib kelibdi va
sahnada go'rkov rolini o'ynashni taklif etibdi.

— Mening rolim hali oldinda, — deb javob beribdi Kenji
ko'z qisib. — Sizga esa, singlim, o'qish va ishlaringizda
omad tilayman.

Ular aka-singildek xayrlashibdilar.

TELBA KELINNING KUNDALIGI

I BOB

*Ko‘zlarimni ochsam to‘rt devor,
To‘rt devorda qirq yillik umrim...*

Bugun kundalik yozishga kirishganimning birinchi kuni. Ko‘zlarim qog‘ozdagи yozilmagan, lekin ko‘zimga ko‘rinayotgan satrlarda. Shu ko‘rinmas satrlarni bo‘yab chiqyapman. Haqiqatan ajabtovur matn tizildi:

Baland devorlar...

Tikanli simlar...

Minoralarda soqchilar...

Allaqayerdan menga o‘xshagan xotinlarning faryodi eshitiladi, ammo men xotirjamman...

Kecha kimdir «jahondagi eng dahshatli ayol» deb ataganini eshitdim. Ha, u meni shunday deb atadi. Kuldim. Yer sharidagi qo‘rqinchli bir do‘zax tubiga – qamoqxona tagidagi kameraga keltirilganidan beri bugun ilk marta qo‘limga qalam olganman va hech qayooqqa qaramay (kamerada qaraydigan manzaraning o‘zi yo‘q) jim o‘tirib yozyapman. Daftaramni «Kundalik» deb atayman. Aslida boshimdan kechirgan qora kunlar bitilgan qissa, oddiy qilib aytganda, katta bir kitob. Boshimdan kechirganlarim haqidagi kundalikni kelgusida o‘qir ekanlar, kimdir «Baxtsiz ayolning qismatnomasi», «Bir sho‘rlikning achchiq hayoti», hatto «Qotil kelinning jinoyatlari» deb atar. «Telba kelining kundaligi» yoki «Savdoysi juvonning boshiga tushgan savdolar» ham deyishar. Men savdoysi ham, qotil ham emasman. Qo‘ydi-chiqdi, urish-janjal, turli boshqa nizolar sabab kimnidir o‘ldirib qo‘yib, qamoqqa tushgan ayollar haqida ko‘p eshitganman. Ularning toifasiga kirmayman.

Muhimi, nimani bilsam, nimani ko'rsam, o'shani yoza-man. Bir jurnalistga «Mening hayotim haqida kitob yozing», deganimda, va'da berdi-yu qaytib qorasini ko'rsatmay ketdi. «O'zim yozsam-chi» dedim. Balki dard-u g'amimni avvalroq qog'ozga tushirganimda, bir oz yengillashib, bu ko'ylarga tushmasmidim? Mana, hozir yozyapmanu ha-qiqatan ham yengillik sezyapman.

O'zi menga nima bo'ldi? Qachon esim kirdi-chiqdi bo'lib qoldi? Hayot – begona tomoshagoh. O'zimni chetda his qilaman. Vujudim mendan ajralib ketgandek. Begonaga aylangan hayotga istehzo bilan kulib qarayman. Ha, yana kulaman. «Jahondagi eng dahshatli ayol» deyishgandagi kabi... Borliq va jamiki tiriklik allanechuk kulgili!.. Hamisha kulgili deyolmasam-da, baribir kulish mumkin...

– Nega kulyapsiz, Nigora? – so'radi nazoratchi xotin qo'limga kishan taqib.

– O'zim shunchaki... – deb battar kulgim qistadi.

– Kulish kerak, faqat o'z o'rnila, – dedi u. – Hozir sizni Beshinchি tergovxonaga olib boraman. Maxsus komissiya to'plangan. Sizning taqdiringizni hal qiladigan kishilarni ko'rasiz. Tag'in ularning huzurida ham ku'mang.

– Nima uchun?

– Oralarida Toshkentdan kelgan shifokor ham bor. Eringizni qanday o'ldirganingiz haqida so'raganlarida, jilmaysangiz, bilasizmi, ahvolingiz chatoq bo'ladi. Anavi ikkinchi qurban ni ham qanday o'l dirganingizni so'rashadi. Ular savol berishganida ku'mang. Ayniqsa, qotilliklar haqida gap ketganida, kulish u yoqda tursin, afsuslanib yig'lang. Sizga maslahatim shu.

– Nima uchun kulmaslik kerak?

– Yana so'raysiz-a? Nahotki, tushunmayapsiz? Aksincha, siz yig'lang, afsusda ekaningizni ayting, kechirishlarini so'rang. Agar kechirim so'ramasangiz, oqibati fo-jiangiz bilan yakunlanadi. Tushundingizmi? Oddiy qilib aytsam, barcha jinoyatlariningizni to'plab, hukm chiqarilsa,

otilasiz. Baxtingizga bizda o‘lim jazosi yo‘q. Ruhiy jihat-dan sog‘lom emasligingiz hisobga olinmaydi. Bir oilaning namunali kelini edingiz. Yaxshi kunlaringizni eslang! Qachon va nima uchun bunchalik yovuzlashib, aqlingizni yo‘qotib qo‘yganingizni, mayli, hozircha yodga olmang. Yoki umrbod unutganingiz ma‘qul.

- Nega kechirim so‘rayman?
- Siz qotilsiz, axir.
- Kimlarni qachon o‘ldirib qo‘yganimni eslolmayaman-ku, shunda ham qotil bo‘lib qolaveramanmi?

Nazoratchining erkaklarnikidek xunuk yuzi yanada badbashara, qora ko‘zları ola, oq tishlari so‘yloq bo‘lib ko‘rindi. Ro‘mol o‘ramagani-chi! Ayol ham shunaqa beibo bo‘ladimi? Ayol emas, erkak bu, naq erkakning o‘zginasi. Beton devorlar-u qalin panjaralar orasida ishlab erkaklashib ketgan. Yo‘q, erkak emas. Agar erkak bo‘lganida, shu o‘tgan kunlar ichida unga ham biror yomonlik qilishga urinardim. Kishan qo‘l-oyog‘imdadir, og‘zimda esa qufl yo‘q. Tishlayman... Quturgan itdek tishlayman...

Shu payt negadir tilim aljiradi:

- Mening aybim yo‘q... Ayting, qo‘yib yuborishsa, uyimga ketaman... Uyim ham endi yo‘q... Ota-onamnikiga ketaman... O‘sha yer yaxshi... Bu yerlardan charchadim, opa...

Nazoratchi xotin qo‘limdagи kishanim mahkammi yo omonatgina turibdimi, tekshirib ko‘rdi.

Qulog‘im ostida aks sado yangrab turardi:

- Siz ikki kishini o‘ldirgansiz...
- Ikki kishini o‘ldirgansiz...
- Ikki kishini...

U bekorga kameradan chiqarmasidanoq qo‘limga kishan taqmadi. Kishanning ovozi yoqimsiz g‘irtilladi. Qachon qarama, shu ahvol. Men shu qadar xavfli, shu darajada yovuz maxluqmanmi?

To‘satdan o‘pkam to‘lib, yig‘lab yubordim.

Azamat QORJOVOV

— O'zingizni bosing, Nigora, yillar o'tib, bu kunlarni unutasiz, — yupatdi nazoratchi. — Hozir siz bilan gaplashshadi. Harholda bekordan-bekorga bunaqa bo'lib qolmagansiz. Siz jabr ko'rgan ojiza ayolsiz, shunisini hisobga olsa, kamroq berishar. Aytdim-ku bizda o'lim jazosi yo'q deb. Qolaversa, sizdan ko'p o'tirganlar bor bu «borsakelmas»da.

— Ular kim? — hiqilladim men. Ko'z yoshlarim mahbusona ko'kish libosimga tomib, qora dog'lar hosil qildi.

— Biri ichki ishlar idorasi podkolkovnigi, uchtasi tergovchi, ya'ni biri prokuratura xodimi, beshinchisi Toshkentdan kelgan. Ko'zoynakli erkak, ruhiy kasalliklar bo'yicha mutaxassis. Orasida advokatingiz yo'q. Chunki bu shunchaki oddiy tergov emas, sizni o'rganishmoqchi, aql-hushingiz joyidami, yo'qmi, yana bir marta o'zingiz bilan gaplashhib ko'rishmoqchi. Tayinlaganlarim esingizdan chiqmasin. Xonaga kirganingizda zinhor-bazinhor kulmang, jazavaga tushmang, aql-hushli uy bekasidek muloyim bo'lib o'tiring.

— Men anavilarni so'radim...

— Kimlarni?

Negadir boshim ila kun botish tomonga ishora qilib, g'udrandim:

— Ularni...

— Aniqroq gapirsangiz-chi!

— O'lganlarni, — dedim tilim zo'rg'a aylanib.

— O'ldirganlarim kimlar edi, demoqchimisiz?

— Ha, — deya bosh silkidim.

Shunda boshim o'zimga bo'ysunmay qayta-qayta silkinaverdi, tilim «Ha, ha» der, ko'z yoshlarim qurib, labim jilmayar, o'zimni to'xtatolmas edim.

Nazoratchining rostmana jahli chiqdi.

— Men ularning ayg'oqchisi emasman, — dedi bilagimdan mahkam qisib. — Sizga opalik qilib, o'z ishimni xavf ostiga qo'yib, maslahat bersam, nega o'zingizni telbalikka solasiz? Agar shu qiliqni ikkinchi qavatda, komis-

siya oldida ham takrorlasangiz, umrbod qamoqda o'tirasiz. Holingizga maymunlar yig'laydi. Odam o'zini sal bo'lsa-da qo'lga olishi kerak.

Miyam lo'qillardi. Eslashga urindim. Hatto, bu qamoqxonaga qanday kelib qolganimni ham eslolmadim. O'tgan kunlar mobaynida hushim o'zimda bo'lgan, shuning uchun ruhiy kasallar shifoxonasiga emas, turmaning ayollar bo'limiga keltirishgan, ammo ko'p o'tmay «Balki u chindan ham telbadir?» degan savol tug'ilgan va maxsus komissiya tuzilgan. Hozir shu masala bo'yicha meni beshinchi tergovxonaga olib borishmoqchi.

Ko'z oldimdan bo'ri lip etib o'tdi. Ko'zlari sovuq boqardi, og'zidan bug' ufurilardi.

— Bo'rini esladi, — dedim.

Nazoratchi eshik sari yetakladi.

— Eringizning ismi Bo'ri. Demak, ismini esladingiz.

— Yo'q, haqiqiy bo'rini ko'ryapman... So'qmoqda...

O'sha kecha qalin daraxtzorda edik. Oldinga qarab choppib ketyapman... Havo sovuq edi... Uni nega o'ldirganman? Tushunmayapman... Ha, men bo'ridek vahshiyga aylanib qolgandim... Kim edim? Undan oldin kim edim?..

— Oilangiz uchun qasos olmoqchi bo'lgansiz.

— Oilam uchun? Axir, erim oilam emasmi?

— Eringiz oilangiz emasdi, — dedi nazoratchi.

Boshim g'uvillab, ko'z oldimni sekin-asta pardal qopladi. Turmaning tosh polidan ko'z uzmay ketarkanman, yuragimni bir o'y timdalardi: «Nahotki, o'z erimni o'ldirganman? Bu ham yetmagandek yana bitta odamni... U... u kim edi? Ikkinch qurban kim?.. Endi nima bo'ladi? Men sho'rlikka nima bo'ladi?..»

— Rostdan o'ldimi? — so'radim to'xtab.

— Yuring, mahbus, — oldinga undadi nazoratchi.

Qarshimizdan harbiylarnikiga o'xshash kiyimdag'i bir erkak kelardi. Nazoratchi xotin meni devorga qaratib qo'yib, u bilan salomlashdi.

- Beshinchi tergovxonagami? — dedi haligi erkak.
- Ha, shunday. O'zingiz-chi? — dedi javoban nazoratchi.
- Yerto'laga.
- Mahbuslaringizning ahvoli qanday?
- Bir navi. U yana yig'ladimi?
- Eslolmayapti.
- Meniki ham xotinini o'ldirganini eslolmagandi, eslatib qo'yishdi.
- Bahona topib, karserga tiqqansizlar-da?
- Yo'q, aldashdi. Xotinining xiyonati aks etgan soxta videotasvirni ko'rsatishdi. Ekranga qarab g'azablanganini ko'rsangiz edi.
- Mening mahbusimning asabi yaxshimas, — dedi nazoratchi. — Uni davolatmasalar, kasali o'tib ketib, bir umr hech narsani eslolmaydi. Qarang ahvoliga! Es-hushi joyidamas. Ahvoli shu bo'lsa, meni ham o'ldiradi.
- Es-hushi joyida bo'lganida shuncha ishlarni qilarmidi! Uning bu yerda qolishi hammamiz uchun xavfli. Birinchi o'rinda siz uchun.
- Ammo hozir men bilan opa-singildek.
- Ishonmang. Bu ayol hozir nimani o'ylayotganini qayerdan bilasiz? Qisqasi, ehtiyyot bo'ling. Menga shunday tuyulayaptiki, qamoqxonadan qochib keta oladi. U siz-u bizga o'xshagan odammas. Bir kun kelib odammmasligini yana bir marta isbotlaydi. Kasofatning dastidan boshqalar qurbon bo'lmasa go'rga edi.
- Uni yo'q qilibgina qutulamiz demoqchimisiz?
- Achinarlisi, uning yana qirq yillik umri bo'lishi mumkin. Qirq yil qo'riqlash oson deysizmi?
- Ularning suhbatini eshitib, bu qamoqxonaga kecha yoki undan avvalgi kun emas, qirq yil burun kelganimni eslagandek bo'ldim.
Qirq yil!
Qirq yil...

II BOB

*Yor-yor aytar yer qa‘rida yangalarim,
Yog‘iladi omad so‘rab tangalarim...*

Bugun yana kundaligimni davom ettiryapman. Yana satrlar, satrlar...

O‘sha kuni Beshinchi tergovxonaning ikkinchi qavatida besh daqiqa kutib turishimizni buyurishdi. Nazoratchi meni yana devorga qaratib qo‘yib, tik oyoqda kuttirsa kerak deb o‘ylagandim, yo‘q, yo‘lakdagи yakkay-u yagona o‘rindiqqa boshlab bordi. Bu suyakdan yasalgan o‘rindiq edi.

— O‘tiring, — dedi u.

Men qurollangan ikki bahaybat erkakka qarab qo‘ydim. Ular mendan ko‘z uzmay turishardi. Mahbus tashiydigan mashinada ham, bu yerda ham mening har bir xatti-harakatimdan boxabar bo‘lishda davom etishardi. Hoynahoy, kuchlari yetmagan taqdirda otib tashlash uchun to‘pponcha taqib olishibdi.

— O‘tiring, — dedi yana nazoratchi.

O‘tirdim-u ko‘zlarimni yumdim.

— Uxlamang.

— Eslash uchun ko‘zlarimni yumdim, — dedim men.

Shu payt mo‘jiza yuz berdi. Lop etib yoshligim yodimga tushdi, aniqrog‘i, kelinchaklik davrim. Esladim, esladim, uch opa-singilning o‘rtanchasi edim. Hammamiz yoqasi yopiq, engi va etagi uzun ko‘ylaklarda, ro‘mol o‘rab yurardik. Bari ostin-ustun bo‘lib ketgan kunlardan sal avval mening to‘yim bo‘lgandi... Qulog‘imga «yor-yor» sadolari oqib kirdi:

Hay-hay o‘lan, jon o‘lan, o‘lanchi qiz, yor-yor,

Va‘dasida turmagan yolg‘onchi qiz, yor-yor...

Dimog‘imga doshqozondan taralgan tutun isi urilib, xotin, bola-chaqanining g‘ala-g‘ovuri eshitildi. Ko‘zimni

ochdim. Endi ko'zim o'ngida ikki bahaybat soqchi va nazoratchi xotin emas, olislarda qolgan to'yim manzarasi jonlandi. Xotin-qizlardan narida kostyum, oq ko'yak, do'ppi kiygan mahalla erkaklari, qarindosh yigitlar ham ko'rindi. Bir ajoyib to'y edi. Men to'y olomoni orasidan o'zim ko'rishni istagan odamni axtardim. Uning qorasi hech qayerda ko'rinxasdi...

- Bir nuqtaga tikilib qoldi, - dedi erkak.
- Kiprigi ham qilt etmayapti, - xavotirlandi ikkinchisi.
- Nigora! - deb chaqirdi nazoratchi.

To'yim kuni o'tmish tubiga ravona bo'lib, men yana Besinchili tergovxonaning ikkinchi qavatida qo'llim kishangan holimga qaytib qoldim.

- Ichkariga kiramiz, - dedi nazoratchi. Ikki erkak ikki yonimdan kelib, bilaklarimdan tutishdi.

Ostona hatlab, boshimni ko'tardim. Ikki yonimdag'i ikki yanga o'rnida ikki bahaybat soqchi turgani g'azabimni qo'zg'ay boshlagandi. Biroq men o'tmishdagi to'yimdan axtargan odam - kabinet to'ridagi erkaklar qatorida o'tirardi. Endi u avvalgi yigit emas, kamida fan doktori. Egnida o'ziga yarashgan yap-yangi kostyum. Ko'zoynagi haqiqiy rahbarlarniki. Yillar o'tib, to'lishibdi, oppoq bo'lib semiribdi, oilasi ham baxtdan sarmast bo'lsa kerak.

- Nigora, sog'lig'ingiz yaxshimi? - so'radi u.
- Sen so'ragandan beri yaxshi, - deb negadir sensirab javob berdim. Buning ustiga lab-lunjimni ham yig'ishtirolmadim. G'alati iljaydim shekilli, nazoratchi xotin darrov yelkamga qo'lini qo'yib, shivirladi:

- To'g'ri muomala qiling.
- Hmm... - dedi kostyumlari erkak.

Men esa uning ismini esladim.

- Ergash, to'yim kuni qayerda eding? - dedim ko'zlariga tikilib.

- Ismim yodingizda ekan. Bu - yaxshi, - dedi u.

Erkakning yuziga g‘azab bilan boqdim. Afsuski, uning yuz-ko‘zi xushsurat edi, istarali edi. Shunga nima bo‘pti? Balki u haddan tashqari baxtli bo‘lgani uchun istarali ko‘rinar? Mening turqim sovuqligi aybimmi? Holbuki, turqim sovuqligi hali aniqmas, o‘tmishim kabi mavhum. Ko‘nglim aytyapti: men go‘zalman. Hammang tentaksan.

— Shuncha voqealardan keyin ismingni eslaganimga hayron qolyapsanmi? — dedim unga. — Meni qarg‘ading, to‘g‘rimi? Shu ahvolda ko‘rishni istading, shundaymi? Toshkentda o‘qib katta odam bo‘lib ketibsan. Baxtlisan, orzularing ushalgan. Lekin... — Miyam yana lo‘qilladi. — ...lekin katta xato qilyapsan! Sen qanchalik baxtli bo‘lma, meni yenga olmaysan. Sendan ancha olisdaman va butunlay boshqa olamman. Sirtim kir bo‘lsa ham, botinim toza. Men shundayligimcha qolaman! Taqdirni emas, o‘zimni o‘zgartirish kerak bo‘lgan kun kelsa, bilib qo‘y, ikkalasini ham o‘zgartirmayman! Seni o‘ldirmayman, omon qolasan. Xohlaganingcha yashaysan bu g‘addor dunyoingda. Bitta shart bilan o‘ldirmayman! Kulma!.. Ustidan kulma!.. Kelishdikmi, Ergash?

Ko‘zlarim yoshlandi. Nazoratchining gapi esimda edi. Hech qachon dod-voy solib yig‘lamaslik! Hech qachon yuzimni tirnab, yumdalab, og‘zimdan tupuk sachratib, ko‘zlarimni olaytirib, jinnilarga o‘xshab dumalamaslik!

Ammo qotillik uchun kechirim ham so‘ramayman. Men o‘ldirgan ikkinchi odam kimligini bilib olsam, bas. Yo‘q, yo‘q, u otam bo‘lib chiqsa-chi? Bilib olganimdan ne naf? Yuragim sabrsizlanyapti.

Dilimda shu so‘zlar jarangladi:

Astag‘firullo...

Astag‘firullo...

Birdan jimib qoldim. Qo‘l-oyoqlarim qaltirayotganini sezdim. Kishanlarim shiqirladi. Xonadagi har bir odamga, hatto devorga ilingan bir amakining portretiga ham

qaradim. Negadir shu onda portretga ko'zimni qisgim keldi. Keyin portret men haqimda yomon xayolga bormasin deb tishimni tishimga bosdim. Xonada bitta o'lik bor edi. U ham mana shu — portret. Portret va qabrtoshning farqiga endi aqlim yetdi: portret devorga ilinadi, qabrtosh esa mozor ustiga o'rnatiladi.

— Xudoyberdieva Nigora, siz... — deb murojaat qildi menga militsiya podpolkovnigi.

— Kim u? — dedim atrofga alanglab.

Eh, boshim yana liqillashga kirishdi. «Buncha liqilla-masang, essiz bosh?»

— Siz Xudoyberdieva Nigorasiz, — dedi podpolkovnik.

— Ikki kishining o'limida ayblanib, qamoqqa olingansiz. Menga shu narsa yoqmayaptiki, suddan oldin o'zingizni g'alati tutyapsiz. Mana, hozir ham aytyapsiz, Xudoyberdieva Nigora kim deb. Albatta, bu sизsiz. Jinoyat kodeksi-ning...

— O'rtoq podpolkovnik, iltimos... — deya Ergash unga uzrxoh qaradi. So'ngra mehr ingan nigoh ila menga tikildi. — Nigora, sizga osonmas, tushunaman. «To'yim kuni qayerda eding?» deb so'radingiz. Men odamlar orasida edim.

— Astag'firullo, — dedim men.

— Nega istig'for aytyapsiz? — so'radi Ergash.

— U otam bo'lib chiqishidan qo'rqiypman.

— Kim otangiz bo'lib chiqadi?

— U, — deya men kun botishga ishora qildim.

Xonadagilarning barchasi — soqchilar ham — kun botish tomonga hayron bo'lib nigoh tashladilar.

— Qayoqqa ishora qilyapsiz? — sekin, bir oz vahima aralash so'radi Ergash.

Nazarimda, u mening ruhiy ahvolimdan haqiqatan ham xavotirda edi.

— O'lim yuz bergen tomonga, — javob berdim ko'zlaridan ko'z uzmay.

- O‘lim qaysi tomonda yuz bergan?
- Kun botish tomonda, deyapman-ku, qulog‘ing eshitadimi?

Podpolkovnik va boshqa tergovchilarning yuzi yorishib, bir-biri bilan ko‘z urishtirishdi, qora kostumli tergovchilardan biri daftariga allanimani yozib qo‘ydi.

- Demak, ularning o‘liklarini kun botish tomonda ko‘rgansiz, tushunarli, — qovoq uydi Ergash. — Aynan qayerda ekanini aytolasizmi, Nigora? Masalan, daraxt, tepalik, yo‘l, mashina, nimani eslolasiz?

- Aytaymi?
- Ayting.
- Aytaymi?
- Ayting, Nigora.

Men xonadagilarga ko‘z yogurtirdim va dahshatli bir sirni payqab qoldim. Aftidan men o‘ldirgan odamlarning murdalari hali-hanuz topilmaganga o‘xshaydi. Bular tomosha qo‘yib, mendan aldab so‘rab olayotgandilar.

Labim kului. Istehzoli kului.

- Ular o‘ldi, — dedim tavakkaliga. — Birini bolta bilan o‘ldirdim, ikkinchisini otib tashladim.

Aniqki, bu gapimni shunchaki tusmollab, alamdan so‘zlagan edim. Birovni bolta bilan o‘ldirganim yo otganim esimda yo‘q edi, lekin vaziyat birdan o‘zgarib, podpolkovnik yonidagilarga pichirladi:

- Ko‘rdingizmi, uning es-hushi joyida, hammasini biladi, tappa-tuzuk eslayapti.

Sheriklari bosh silkib ma’qullashdi.

- Yo‘q, Nigora, shoshmang, — tashvishga tushib qoldi Ergash. — Umringizda miltiq ushlamagansiz. Nega ot-dim deyapsiz? Ov miltig‘i qanday o‘qlanishi tugul, tepkisi qayerda ekanini bilmaysiz-ku?

- Bilaman, hamma narsani bilaman. To‘ylarda o‘ynaganman. To‘ylarda osh ham yeganman. Lazgiga o‘ynab beraymi? Xohlasang, barmoqlarimni qirsillataman.

Qotillik haqida gap ketayotgani yodimdan ko'tarilib, raqs tushmoqchi edim, nazoratchi xotin yana yelkamga qo'lini qo'ydi.

— Unday qilmang, Nigora, — dedi qulog'imga. — Bularga tupursangiz ham, menga tupurmang. Axir, opa-singil tutindik-ku. Meni sharmanda qilmang.

— Siz bu xonaga kirib kelayotganingizda quyoshni ko'rmagansiz, — dedi Ergash. — Uning qaysi tomonga botishini qanday bilingiz?

— Chunki Er shari sharqqa qarab aylanadi, natija-da Quyosh g'arbgan botadi, — so'zladim ishonch bilan.

— Xo'p. Siz hozir dunyodagi eng qattiq qo'riqlanadigan turmaning yer osti kamerasidan yopiq mashinada keltirildingiz, Quyoshni ko'rmadingiz, qanday qilib g'arbni aniqladingiz? Yer sharining qayoqqa qarab aylanishini bilish g'arbni bilish degani emas.

— Men dub emasman, sezaman.

Ergashning qoshlari xiyol chimirildi.

— Unda nega to'yingiz kuni mening qayerda ekanimni sezmadingiz?

— Nima?

— To'yingiz kuni qayerda ekanimni nega sezmadingiz?

Ergash meni mot qilgan edi. To'g'ri-da, nima uchun to'yim kuni uni odamlar orasidan axtarib topolmadim? Paranji orasidan faqat uni ko'rish uchun atrofga alanglagan edimmi? Peshonamdan o'pib xayrashayotgan otamni, yig'layotgan onamni, xotin-xalajlar-u bola-baqrалarni — barini tasavvur qildim. Ergash otamning jiyani, ya'ni ammasining o'g'lining o'g'li edi. Ha, bir oz uzoqlashgan qarindosh edik. Men unga turmushga chiqish u yoqda tursin, uzoqdan bir bor ko'rish uchun jonimni berishga tayyor edim. Yulduzim yulduziga to'g'ri kelmay, oxirgi lahzalarda bizni ajratib yuborishdi. O'rtada Bo'ri paydo bo'ldi. Men undan uchta bola ko'rdim... Ikki qiz, bir o'g'lim bor edi... Qizlarim ham, o'g'lim ham hali yosh edi...

Voh, bolalarim yodimga tushdi. Mening bolalarim!
Mening dilbandlarim! Bechora jigarbandlarim!

— Bolam... Bolalarim... — Qo'l-oyoqlarim, iyagim, to'rt mucham rostmana titray boshladи. — Ular mensiz nima qilishyapti?.. Qancha bo'ldi ularni ko'rmaganimga?.. Men ketishim kerak... Qo'yvoringlar!.. Qo'yvoringlar meni!.. Iltimos... O'tinib so'rayman... — Kutilmaganda ho'ngrab yig'lab yubordim.

Soqchilar aynan shu gapimdan qo'rqishar ekan. Shartta ikki yonimdan kelib, bilaklarimdan mahkam ushlashdi.

— Avval savollarga to'g'ri javob bering, — dedi kimdir.

— Qanaqa savol? Shunday paytda savolga balo bormi?
Menga bolalarim kerak, tamom-vassalom! Men onaman,
onaman, onaman!.. Ular qani?.. Nega hech narsa bilmay-
man?..

— Savollarga javob yo'q ekan, farzandlaringizni...

— Nimalar deyapsan?!

Boshimni ko'tarib, kim menga shart qo'yayotganini aniqlayolmadim. Harholda, Ergash emas. Yo podpolkovnik, yo yonidagi tergovchilardan biri.

— Savollarga javob bersangiz...

Bildimki, bularning tosh qalblari hech qachon erimaydi.
So'nggi chorani qo'llayman.

— Hammangni o'ldirib bo'lsa ham bu yerdan ketaman,
— dedim tishlarim g'ijirlab. — Bolalarim... mening bolalarim qani?.. Ularni topmasam, bittang ham tirik qolmaysan!
Aytinglar, ular qayerda?

— Qizini otganini eslayapti shekilli, — shivirladi podpolkovnik yonidagi prokuratura xodimiga.

Shu onda ko'zimga yana qorong'i o'rmon ko'rindi.
Kuz edi chog'i, ammo yer qordan oqarib yotardi. Bir mash'um kecha edi. Men qonga belangan holda uy tarafga yugurdim. Yalangoyoq edim. Kimdir meni o'sha kecha do'pposlagandi. Menden yuz qadamlar narida birov qo-

chib borardi. Mendenmi yoki mening ortimdan kelayotgan kasdanmi, bilolmadim. Nogohon o'q uzildi... Gumburlab ketdi ov miltig'i... Qochib ketayotgan sharpa yiqildi. Vujudi u qadar katta emasdi. Erparchin bo'lib yiqilayotganida, jajji qo'llari havoda qanday silkinib tushganini aniq ko'rdim. Yurak-bag'rim qon bo'ldi. Faryodim olis o'tmishdan portlab chiqib, quloqlarimga, so'ngra yuragimga urildi.

U kichkina odamcha edi.

Kichkina qizcha edi...

— Nima deding?! — deya podpolkovnikka xezlandim.
— Qaytar gapingni, iflos! Kim otdi?.. Kimni o'ldirishdi?..
Qizimnimi?! Gapir!..

Ikki soqchi ikki qo'limdan omburdek qisib to'xtatib qolishdi.

— Yolg'on! Bari yolg'on! — chinqirdim men.
— Nigora, bardam bo'ling... — dedi Ergash.

Bu gapi menga ta'ziya bildirish bilan baravar edi.

Hammani o'ldirib, birorta ham soqchini qoldirmay qirib tashlab, ozodlikka chiqish fikri miyamda chaqmoq-dek yaraqladi. U yoqqa — hurlikka chiqsamgina odamlar menga so'zlab berishadi, nima voqealar yuz bergenini tushuntirishadi, oilam sog'-salomat, qizcham ham omon. Ko'nglim sezyapti, qizimni, o'z qizimni, ona qizimni men otmaganman. Birov otsa ham o'limgan, yaralangan, xolos.

Biroq o'sha kecha u yiqilib, bir chiziq bo'lib qolgandi. Ishqilib, o'limganmikan?

— Ko'rmasam bo'lmaydi... ko'rmasam bo'lmaydi... — Vujudim shunaqa titradiki, soqchilar menga mahkamroq yopishdilar.

Bor kuchimni to'pladim. Bor kuchimni qo'limga emas, oyog'imga to'pladim. Ko'zlarimni chirt yumdim. Ko'zlarimdan yosh emas, bir tomchi qon dumalab tushdi. Tomirlarim bo'rtib, tanimda yovvoyi bir shijoat to'plandi.

— Olib ketinglar uni!.. Tez!.. — baqirdi podpolkovnik.

Ko'zimni bo'ridek ochdim. Podpolkovnikning rangi murdanikidek oqarib ketgan edi. Tovonimning bitta zarbi-la chap yonimdagи soqchining oyoq panjasini majaqlab tashladim, keyin aft-basharasiga tizzamda bir zarba berib, yiqitdim. O'ng yonimdagи soqchi esa qo'limni qayirishini oldindan bilardim. Shu sabab xuddi tomog'idan g'ippa bo'g'adigandek kishanli qo'limni ko'tardim. Tabiiyki, u qo'limni pastga bosib qayirmoqchi bo'ldi. Shunda yana bir chinqirib, yovvoyi kuchlarimni chaqirdim-da, aql bo-var qilmas tezlik bilan oyog'idan quchib, bahaybat gavdani devor tomonga surib borib, gursillatib devorga urdim. Kishanli qo'limni bo'yndan o'tkazib, bo'g'dim, bo'g'averdim. Uning to'pponchasini g'ilofidan sug'urib olib, ko'zimga ko'ringan barcha tirik jonni otib tashlashim uchun to'rtbesh soniya kerak edi. Buni uddalardim. Meni aqlim emas, iblis boshqarayotgan edi.

Xonaga otilib kirgan boshqa soqchilar bizni ajratib olisholmadi. Qo'llarimda ayolning emas, quturgan ho'kizning kuchi to'plangan edi. Tanimdan kaltak o'tmayotgandi. Soqchining hayotini saqlab qolish uchun boshimga uringtepib hushimdan ketkazishdi. Bir, ikki, uch... yetti... Yigirmanchi zarbadan keyin qo'llarim bo'shashib, ko'z oldim qorong'ilashdi. Qulog'imga endi na shovqin-suron, na miltiq ovozi eshitilardi. Yangalarim yor-yor aytishardi. Biroq bu yor-yorlar yon-verimdan emas, yer qa'ridan eshitilardi. Nima bo'pti shunga? To'yim-da yanga bo'lganlar allaqachon vafot etib ketishgan. Baribir to'yimdagи yor-yor bir ajoyib edi-da...

Men jilmaydim.

Soqchilarining musht va tepkilaridan momataloq bo'lgan yuzimga kulgi yarashdimi, yo'qmi, aytolmayman, harholda shishib ketgan lablarimdan yumalab o'tgan qon tomchilari qitig'imni keltirdi.

Yana bir narsani eslayman. To'yim kuni ustimdan

sho'roviy tangalarni sochishgan. Tangalardan biri toshga urilib, jingirlab ketgani va oyoqlarim ostiga dumalab kelgani hamon yodimda. Unda sho'ro davlatining gerbini ko'rganman.

...O'tmishda dumalagan tanga ovozini hozir yana eshitdim. U qamoqxonaning beton yo'laklaridan dumalab, allaqayerdag'i tuynukdan kanalizatsiya quvuriga tushdi. U yerda ham dumalashda davom etib, yumalay-yumalay keng bir xonada to'xtadi. Xona masjid kabi osuda va fayzli edi.

Ha, ozodlik yo'li bor edi. U hech qachon yo'q bo'lмаган.

Lablarim hamon jilmayardi.

— Kim mening oilamni o'limga mahkum etgan bo'lsa, men ham ularni o'limga hukm etdim, bir kun kelib, hammangni topaman, sizlarga jahannamdan joy tayyor, — dedim va qattiq uyquga ketdim.

III BOB

*Qizim degan, izim degan, otam bor edi,
Otam desam, yuragimda motam bor edi...*

Ayol qiladigan ish emasdi...

Kundaligimning navbatdagi bobini shu so'zlar ochib bermoqda:

«Ha, ayol qiladigan ish emasdi».

Rostdan shunday. Ayol boshim, ayol yuragim vahshiylashib, Beshinchi tergovxonada bir emas, ikki erkakni — o'zining soqchilik vazifasini sovuqqonlik hamda bemehrlarcha bajarayotgan ikki muzli kasb sohibini o'ldirib qo'yishimga sal qoldi. Qamoqxonaga kelmasimdan burungi xunrezliklar yetmasmidi? Yo'q, yetmaydiganga o'xshaydi. Aslida qonga emas, mehrga tashna ekanimni hech biri, o'sha Ergash ham anglamadi. Qolaversa, tilim qancha aljirmasin, qotilliklarni vijdonim ila bo'ynimga olmayman.

Hozirgi jazava davrimda bitta odam u yoqda tursin, butun bir olomonni ham kunpayakun qilib qo‘yishim hech gap emasdek tuyuladi. Nimadan kuyaman? To‘yim kuni esimda-ku, axir! Paranji yopingan qanday halim, qanday salim, qanday ilmli, iymonli qiz edim. Chumoliga ham ozor bermaydigan kelin bo‘lganimni ham, mana, elas-elash eslayapman. Kundaligimni o‘qiganingiz sayin o‘tmishimdag‘i barcha sirlar ochilib boraveradi, zero men sho‘rlik satrlarga tikilganim sari ulug‘ bir fojiam sirlari ham o‘z sahifalarini ochayotganini ko‘rib, dahshatga tushmoqdaman.

Menkim, Nigora Xudoyberdieva...

Menkim, Nigora Xudoyberdieva...

Yo‘q, bir gapni takrorlamasligim kerak. Muhibimi....

Yo‘q, muhibimi ham emas. Xullas, Beshinchchi tergovxona voqeasiga qaytaman. Kech. Ular menga nima yoqmasligini bilmay, kech qolishdi. Beshinchchi tergovxona desa avvalboshdan ko‘nglim aynirdi. Nazarimda, bunday tergovxonalarga uch-to‘rt marta emas, yuzlab marta keltirilgandim...

Xohlaysizmi, Birinchi tergovxonani eslayman.

Meni paranjiga chirmab, uzatib ketishgan kuni mutlaqo begona dunyoga tushib qoldim. Erimning do‘satlari maxluqlar ekan. Yer shariga o‘zga sayyoralardan odam qiyofasida maxluqlar tushib, bemalol ko‘chalarda yurganiga, to‘ylarda davralarni to‘ldirib o‘tirganiga, goh xaxolab kullahsa, goh bir-birini qo‘lansa so‘zlar bilan so‘kib, mushtlashishlariga, ayrimlari o‘zbekcha do‘ppi kiyib, kostyumi ostidan belbog‘ bog‘lab olganlariga hayron-u lol qoldim. Bu kelin telba ekan, dunyoda hech qanaqa maxluq yo‘q demang. To‘g‘ri, «maxluq» so‘zining ma’nosidan kelib chiqsak, o‘sim ham maxluqman, lekin men boshqa maxluqlar – vahimali daraxtzorlarda uchraydigan qonxo‘r mavjudotlardan so‘ylamoqdaman. Biri aroq ichib, gezarib tikilsa, ikkinchisi sigaret tutunini purkar, uchinchisi tili

tagiga nos tashlab, menga ko'zlarini lo'q qilib qarardi. Ota-onam menga bunday badbin dunyoni, nomahramga olayib qaraydigan erkaklarni ko'rsatmagan edi. Yigitlar qachon bunchalik manqurtlarga aylanib qolgani menga qorong'i. Biroq, eng muhimi, men manqurt emasdim. Er uyiga yetib kelib, ilk marta qadam qo'yishimdan avval to'y olomoni orasidan bir xotin ajralib chiqib, qulog'imga bir haqiqatni aytdi. Qanday haqiqat deysizmi? Men kutmagan haqiqat emasdi, kutgandim. Tushimga kirmagan desam-da yolg'on bo'ladi. Kelinlik paranjisiga o'rangan vujudimdag'i bezovta yuragim voqelikni to'ydan avval sezgan, «ishqilib, bari yaxshilikka bo'lsin, meni olovda aylantirmasinlar», deb hadiksirab turganim bir tahlikali dam edi.

— Kelinjon, — dedi begona xotin o'shanda ko'zlarini chaqchaytirib. — Hozir seni olov atrofida yetti marta aylantiramiz. Barcha gunohlarining to'kilib, jin-ajinalardan forig' bo'lib, uyga onadan tug'ilganday pok bo'lib kirasan. Senkim, ey kelinchak, bir kun kelib baribir gunohlariningni olov tozalaydi. Agar eringning tabarruk uyiga munosib kelinchak bo'lmasang, yonasan, bugun turmushing sharafiga yoqilgan shu olovda yonasan.

— O've, Sapi tentak! — qichqirdi xotinlardan biri. — Nari-roqqa bor! Kelinchagimizning boshini nimalar deb qotir-yapsan?! Qani, to'ydan tugunchagingni olgan bo'lsang, tuyoqqinangni bir shiqillat-chi!

Xotinlardan biri uning qo'lidan tutib, to'y olomoni orasiga sudrab ketdi. Keyin bu qora xotinni qirq kun ko'rmadim.

— Xayriyat... — dedim ichimda.

Biroq yanglishgan ekanman. Notanish yangalar meni olov atrofida yetti marta bo'lmasa-da, uch marta aylantirib, o'tga tobintirmoqchi bo'lishdi. Yangamning yengidan tortib, yig'lamsiradim:

— Iltimos, yangajon, ularga ayting, olov atrofida aylantirib, raqs tushmasinlar. Gunohlarim olovda to'kilmaydi.

Uni to‘kguvchi boshqa Zot bor... O‘tinaman, unday qilmasınlar... Mening e‘tiqodim boshqa...

Yangam gapimni erim tomondagilarga yetkazgan zahoti to‘y olomoni uvvos solib yubordi:

- Nega aylanmas ekan? Aylantiringlar!
- O‘zining urf-odatini o‘zining qishlog‘ida qiladi! Bu qishloqning nomini Boyjanjal deb qo‘yibdi! Hali hech qaysi kelin boyjanjalliklarni bo‘ysundirmagan!
- Biz kelin bo‘lganimizda, kim nima desa, indamab-miz-a! Hozirgi yoshlар chatoq-da, checha! Nima emish, olovda aylanmasdan uygа kirarmish!

Xullas, ular meni olovda aylantirishib, Bo‘rining bezatilgan uyiga olib kirishdi. Harholda, kimdir «bismillo» deb kirsin, degani qulog‘imga chalindi. Ancha yengillashib, chimildiqda o‘tirganimda, xabar keldi: «Kelinchak tayormi? Kuyov tashqarida kutyapti, sahnaga birga chiqadi!»

Kimga yolg‘on, kimga chin, menga bir to‘da qashqirsifat xotin-qizlar tashlanib, paranjimni yechib oldilar-da, ko‘ksi ochiq, yengi yo‘q, yelkasi beligacha yirtiq allambalo libosni kiydirdilar. Ularga shunday buyruq bo‘lganini angladim. Ko‘nglimga qaramadilar, yuragimga qaramadilar, hatto yuzimga ham qaramadilar. Bilaklarim, bo‘ynim, yelkam tugul, ko‘ksim ham yarimigacha ochilib qoldi.

Yig‘lab yubordim. Umidim Bo‘ridan edi. Bo‘ri bunga o‘lsa ham ko‘nmaydi, deb o‘yladim.

— Kelinchagim Madonnaga o‘xshab kiyinishini bir umr orzu qilganman, — deb u deraza tagida kimgadir gapirayot-gani qulog‘imga chalindi. — Aytinglar, tezroq kiyintirishsin! Ota uyida qanday qiz bo‘lgani bilan ishim yo‘q! Endi u mening xotinimmi, bas, boshqalarning xotiniga o‘xshab, el qatori yashaydi! Eskichaga o‘rgangan ko‘ngil yangichaga ham o‘rganadi. Bunday xursandchilikni xudo bergen. Eng muhimi, xudo ko‘nglimizda.

Dunyoga vaqtincha yashashga kelgan ikki qo‘lli, ikki

oyoqli, ikki ko'zli, ikki qulogqli, hatto ikki qalbli va ikki yuzli bandalar mening – endigina kelinlik uyiga umid-la qadam qo'ygan kelinchakning ustiga mag'zava ag'darishdan charchamasdilar. So'nggi ilinj Bo'ridan edi, ammo u nima dedi? Shumi men kutgan saodat, orzuyimdag'i baxt?

Yigitlarning ko'ziga tik qaramaganim, hech kimga gap qaytarmaganim, etagi va yengi uzun ko'yak kiyib, boshimdan ro'molimni yechmay yurganim, erkak-ayol aralashib, mayxo'rlik qilib, sigaret tutunini purkab, bir-birini quchib, atrofga nos tuflab, behayo hazillarni yog'dirib turgan davra ga yaqinlashmaganim er uyida mukofotga ravo ko'rilmadi. Olovda aylanmaslik kerakligini otam aytgan. Otamning nasihatni men uchun qonun. Bir umrlik yostiqdoshim esa begona olam vakili edi. Quloglarim Bo'rining o'z og'zidan eshitdi-ku. Bir-ikki yildan keyin emas, endigina qadamim yetgan chog'da.

— Xato, xato, xato... — pichirladi lablarim.

Balki hozir qamoqxonaning yer osti kamerasida o'tirib, asablarim pand berib o'tmish manzaralarini to'liq tasvir layolmayotgandirman. Xotiramda qolgani: to'ylar hovlida qilinardi, hammayoq payhon bo'lib ketardi. Kelin-kuyov «ZAGS»dan o'tgach, «Volga»da to'yxonaga, ya'ni tomorqasiga temir stol-stullar «P» yoki «III» shaklida taxlangan hovliga kelishardi. Kelinchak er uyiga tush chog'i yetib kelib, nikoh bazmigacha ikki-uch soat chimildiqda nafas rostlab, choy-poy ichib olardi. Kuyov esa tashqarida o'rtoqlari bilan to'y bazmiga tayyorgarlik ko'rardi. Stol-stullar qo'yilgan davra to'rida yarim metr ko'tarilgan sahna qurilgan bo'lardi. Sahnating ikki chetiga ikki ustunni ko'mib, yana bir terakni ko'ndalangiga mixlashardi, so'ng unga gilam ilinardi. Kelin-kuyovning ismlari shu gilamga paxtada yozilardi. Mening to'yimda gul dor qizil gilamga «Xush kelibsiz! Bo'rivoy va Nigoralarning visol to'yiga!» deb yozilgani esimda. Yozuvning yonida shampan vinosi aks ettirilgan bo'lib, ryumkaga vino tomchilari quyil-

moqda edi. Kim bu tasvirni paxtada aks ettirganini bilmayman-u, ammo Boyjanjal qishlog‘i ahli allaqachonlar ma’naviyat va san’atdan uzilib, manqurtlashib ketganini yurak-yurakdan tuyganman. Axir, men va Bo‘rining nikoh to‘yimiz edi. Bu to‘yning shampan vinosiga zig‘ircha, yo‘q, zig‘ircha emas, atom zarrasicha aloqasi bormikan? Odamlar aloqasi bor, deb o‘ylashardi. Nafaqat o‘ylashardi, shampan vinosisiz nikoh to‘yini tasavvur ham qilisholmasdi. Ular qanday xatoga yo‘l qo‘yishganini hali-hanuz anglab yetmaganlariga ishonaman. Bugun qamoqxonada yolg‘iz o‘tirib, ushbu satrlarni yozar ekanman, ishonch ila aytamanki, Boyjanjal ahli hamon o‘sha-o‘sha. O‘rtada men yo‘qlik qa‘riga quladim, oilamdan judo bo‘ldim. Ularning e’tiqodiga qarshi chiqmadim, ammo mening ham e’tiqodimni e’zozlash kerak emasmidi? Boyjanjalliklarga farqi yo‘q. Ichib mushtlashsa ham ko‘zi ochilmaydi, ichib avtohalokatga uchrasa ham g‘aflatda yashayveradi. Ular meni umr bo‘yi telba deb hisoblashadi, telbaligicha o‘lib ketdi, deyishadi. Ha, aynigan ko‘lmak edi bu qishloq. Men dunyoning mag‘zini kichik qizchaligimda anglab yetganimda, nahotki, ular qirq-ellik yilda ham hech vaqoni tus hunishmadi? Yoki mening o‘zim adashganlardanmanmi? Qaysi xatti-harakatim, qaysi o‘y-xayolim adashgan banda ekanimga dalil bo‘ladi?

Oppoq orzularim bor edi. Oppoq dunyoda yashardim. To‘satdan qora dunyoning o‘rtasiga otdilar. Taxminan peshinlarda hovlidagi stollar to‘liq bezatilib, «artis» deb ataladigan qo‘shiqchilar o‘z o‘rinlariga joylashib, sentimatorlarni ting‘irlata boshlashdi. Menga oq libosni kiydirib, chimildiqli xonadan chiqarganlarida, bo‘sag‘a xotin-xalaj, yigit-pigiltarga to‘lgan edi. Harholda, yarim yalang‘och oq libos ustidan harir mato tashlab qo‘yishgan, yuzimni ham harir chachvon qalbsiz olomondan, chala-yarim bo‘lsa-da, bekitib turardi.

Yanoqlarimdan duv-duv yosh oqib, telegramga najot

umidida mo'ltirab qaradim. Vo darig', ko'zlar suzilgan, birlariniki chaqchaygan yigitlar yarim halqa hosil qilib o'rab olishdi. Yon va orqa taraflarimdagina ayollar istehkomi qoldi, xolos.

- Chirolyi ekan.
- Ohuga o'xsharkanmi?
- Voy-vo', yosh narsa-ku? Bo'ri chatoq!
- Hurkyapti...

Yorug' dunyoga kelganimdan beri menga erkak zoti suqlanib qaramagan, gap otmagan, shilqimlik qilmagan edi. Ne tongki, o'sha mash'um to'y kunim kuyovnaykar niqobi ostidagi bir to'da erkaklarning nigohlari va gap-so'zlar hamlasida qoldim. Badanlar badanimga noxos tegib ketgan onda tok urgandek seskanib, o'zimni qayoqqa olib qochishni bilmadim. Aqldan ozmaslik uchun o'zimni nima deb ovutishim kerak edi? Qaysi madaniyatga moslashishim lozim edi? Madonnaning kiyimi emish?

- Madonna!.. — bo'kirishdi ular.
- Dilimda boshqa ism jarangladi:
- Madina... Madina opa... Madina opajon...

Darvoqe, men Madina opa degan ayolni tanirdim. Yuzko'zida har doim xotirjamlik, vijdonlilik, farishtalar meni kechirsin, hatto farishtalik zuhurlanib turardi. To'g'ri, Madina opa inson zotidan edi. Kun kelib, ajali etsa, u ham qora go'rga tushib, sekin-asta tuproqqa aylanadi. Jamoat oldida birovga qattiq gapirganini, yerga tuflaganini, g'iybata qilganini, sharaqlab kulganini hech kim ko'rmagan edi. Shu ayol haqiqiy jannati deb o'ylardim, haqiqatan, jannati bo'lسا kerak. Atrofimdagilar «Madonna! Madonna!» deb uvvos solganida, men butunlay boshqa ayolni — Madina opani eslaganim bejiz emasdi. Erkak zotiga tik qaramaslik kerakligini, qiz bola o'z ibosi, hayosi, xulqi, mehnatkashligi, shirin so'zi bilan qiz bola ekanini ota-onam ming martalab uqtirgan bo'lishsa-da, men aslida ayol qanday bo'lishini to'y-ma'rakalarda, ko'cha-ko'ylarda Madina

opaga zimdan ser solib, taqlid qilib, ko‘proq u zoti pokdan o‘rgangan edim. Madina opaning yalang‘och tizzalariga-yu yarim ochiq ko‘ksiga birorta nomahram erkakning ko‘zi tushmagandi, ko‘zi tushishi uchun aytilmish joylari ochiq bo‘lish kerak-da. Kiyinishda ham bekorga Madina opaga taassub solmagandim. Ham zamonaviy, ham hayoli. Idealim edi shu Madina opa. Mast-alastlar ko‘chada Madina opani uchratib qolishsa, baqir-chaqirni to‘xtatib, uzr so‘rashardi. Ichkiliklari uchun gunohga botishayotganini bilishar, lekin Madina opani xafa qilishsa, do‘zaxning tubiga tushib ketishlarini ko‘ngillari sezardi. Ularda tafakkur kasal edi, ko‘ngilning bir cheti sog‘ edi. Shu sog‘ joyi sezardi.

...Do‘ppi kiygan, qora kostumli Bo‘ri kelib, yonimda turgach, yangalardan biri:

— «Podrujka» qilib oling, — deb qo‘limni Bo‘rining tirsagidan o‘tkazdi. — Voy-ey, bu kelinimiz juda bo‘sh chiqdimi deyman-a? Odam ham shunchalik uyatchan bo‘ladimi? Qaranglar!

Sozandalar vangillatib musiqani boshlab yuborishdiyu kichik olomon bizni tashqariga surib ketdi. «To‘ylar muborak» degan qo‘shiq qulog‘imga «Qo‘ylar muborak» deyilayotgandek eshitilardi. Ha-da, kuyov o‘z ismi bilan Bo‘ri edi, men qo‘ydek yuvosh, qo‘ydek itoatkor. Olomon ham bo‘ri edi. Yolg‘iz men qo‘y. Orzularim uchun kurasholmayotgandim. Kurashish kerakligini o‘sanda miyam anglab yetmagandi, nogahonda boshimga tushgan yangicha madaniyat, yangicha xalq, yangicha dunyo oldida dovdirab qolgandim.

Stol-stullarga yaqinlashganimizda, Bo‘ri va men butkul erkaklar qurshovida qoldik. Ular bizni och hayvonlardek chor tarafdan o‘rab olishib, shayton ham tushida ko‘rmagan qiliqlar ko‘rsatib, raqs tushdilar. Tinimsiz hush-tak chalishardi. «Ha, Bo‘ri! Bugun nikoh kechang!» deb beparda ovozlarda bo‘kirishlarini eshitgandan ko‘ra yer

yorilib, yer ostiga kirib ketganim ma'qul edi. Butun bir xalq, to'yga kelgan jamiki erkak-ayol qarindoshlarim oldida sharmanda-yu sharmisor bo'ldim.

— Sinov... Dunyoning sinovi... Tezroq tugasini sinovlari...
— derdi titroq lablarim.

Bular holvasi ekan. Sahnaga chiqib, o'z stullarimizni egallab, o'tirgan ham edikki, allaqayoqdan bir dog'uli xotin keldi-da, avval yuzimdagi harir chimmatni, keyin eg-nimdagagi harir yopinchiqni yulqib olib:

— E, buncha yovvoyi-ya bu kelinimiz! — deya sahnadan tushib ketdi.

Olomonning ko'z o'ngida kuppa-kunduzi yarim ylang'och qoldim. Tosh haykalga aylandim. Vujudim qabr-toshdek sovib ketdi. Miyam lo'qillab og'rib, qayerda ekanimni goh bilib, goh bilmay o'tirdim. Go'yoki bu bir yomon tush edi-yu uyg'onolmayotgandim. Endi o'ylasam, esdan og'ish o'sha kundan boshlangan ekan. Bu voqealar girdobida chindan ham sekin-asta savdoyiga aylanib borayotgandim.

— Ota, meni kimlarga berdingiz? — dedi ichimdagisi ovoz.
— Bundan ko'ra o'ldirib qo'ya qolsangiz bo'lmasmidi? — dedi ikkinchi ovoz.

— Otajonim, qayerdasiz? — so'roqladi yana bir ovoz.
· Boshimni ko'tarib, to'y davrasidan otamni axtardim. Otam to'yda yo'q edi. Otam meni Boyjanjaldagi maxluqlar o'rtasiga yolg'iz tashlab, qochib ketgandek tuyuldi. Tug'ilganimdan kechagi kungacha meni tarbiyalab, oxir-oqibat qaysi gunohim uchun shu kunlarni qiziga ravo ko'rganini mushohada etolmadim. Umrimda birinchi marta padari buzrukvorimdan xafa bo'ldim. Bundan ko'ra umrbod erga tegmay, bir hujrada ibodat qilib, tarki dunyoda yashaganim avlo emasmidi?

Kechikdim. Men bu dunyoning do'zaxiga tushib bo'lgandim. To'y davrasiga qarash dahshat edi. Hozir aniq tasvirlab berolmayman. Ayrim manzaralar esimda. Ayollar,

erkaklar aralash-quralash bo‘lib o‘tirib, qadah ko‘tarishar, xaxolab kulishar, ba’zilar esa biror xotinning qo‘lidan ushlab, davraga tortib, xumordan chiqquncha o‘ynardi. Xotinlarning erlari ko‘rmaganga olib qadah ustiga qadah ko‘tarar yoinki qasdma-qasdiga o‘zi ham birorta begona xotinga yopishib, o‘rtaga chiqarardi-da, qo‘llarini yoyib, raqqosa qizlardek belini bilanglatib, o‘yinga tushardi. Agar liboslari bir xil bo‘lganida edi, qaysi biri erkak, qaysi biri ayol ekanini xatti-harakatidan iblis ham farqlayolmasdi. Kulib qarab turqanlarni ham ko‘rdim. Menga emas, begona erkak bilan o‘ynayotgan o‘z xotiniga.

Mana, o‘yinchı juvon suvsizlikda qolgan baliqdek to‘lg‘ana-to‘lg‘ana sarxushlikdan eshilgan kuyovnavkarlar orasiga kirdi. Ikkala qo‘li pullarga to‘ldi. Juvonning ko‘ksi ham pullarga to‘ldi. Uylangan ham qo‘l soldi, bo‘ydoq ham. Xotinining guvohligida ham qo‘l soldi, ota-onasining shohidligida ham.

Birdan yanada sho‘x, yanada tezlashgan musiqa jarangladi. Yigitlar og‘izlaridan suv oqib, ko‘zlarini olaytirib, do‘ppilarini qiyshaytirib, maymundek o‘yinga tushishda raqqosani ortda qoldirishdi. «Maymundek» deb yozyapman-u bu aslo o‘xhatish emas. Ular chindan-da maymunga taqlid qilishdi: oyoqlarini keng ochib, qo‘llarini yelkadan pastga tushirib, yoyib, boshlarini oldinga-orqaga o‘ynatib, yelkalarini qilpanglatib, og‘izlarini maymunchasiga cho‘zib «u-uv», «u-uv» degan tovushlar chiqarishdi. Buning ustiga ayrimlarining og‘izlarida sigaret ham cho‘g‘lanib turardi. Og‘zida sigaret, yer tepib o‘ynayotgan odam bolasini ko‘rib, til tortmay o‘lib qolmaganimga hayron edim.

Yo alhazar, bittasi o‘rtaga palos tashlab, shu palosda yotib o‘ynadi. O‘ynadi deb ham bo‘lmaydi, yotib olib qo‘l-oyoqlarini silkib, tutqanog‘i tutgandek tipirchiladi. Hamma kului. Hamma qarsak chaldi. Hamma pul sochdi, tanga sochdi. Hozir eslab yuragim qon yig‘layapti. Bu sharmandali tomoshalarni bolalar ham ko‘rayotgan edilar.

Norasida bolalar, beg'ubor qizchalar... Eh adashgan qavm! Mamlakatning kelgusi avlodiga eng ahmoqona tomoshani qo'yib berishayotgandi. «Sizlarni-ku sho'ro muhiti zaharladi, ammo siz nega begunoh bolalarni zaharlamoqdasiz?» deb faryod urgim kelardi.

— Yo Alloh... — deya oldim zo'r-bazo'r.

Adoyi tamom bo'lib, joyimda mastdek tebrana boshlaganimda, og'zining chetida nos yuqi qotib qolgan ikki yigit sahnaga gandiraklab chiqdi. Ular ro'paramda gezarib, sigaret tutunini puflab, bir chetga chirt-chirt tuflab olishib, so'ng Bo'riga shang'illashdi:

— O'v, Bo'ri jo'ra, qo'sha qari, tabriklayman!

— Quysang-chi anavidan!..

Ular shu vaqtgacha sharbat va gul vazalari panasida ko'rinnagan aroq shishasini ochib, to'rtta piyolaga quydilar. Ikkitasini o'zlariga olishdi, uchinchingisini Bo'riga tut-qazishdi. Bo'ri oldi. Bo'ri qadahni qo'liga oldi. Bu ko'z oldimda yuz berdi. Bugun nikoh to'yi bo'layotgan odam qo'liga oldi, ha, qo'liga qadah oldi. O'shanda jonim uzilib, to'y sahnasidan o'ligim tushishini orzu qildim. Yillar o'tib, oilamga nima tahdid solishini oldindan sezmagan esamda, xuddi shu qo'l cho'zish halokat ekanini aql-u shuurim aytib turardi.

— Xato, xato, xato... — pichirlardi hamon tilim.

Aqldan ozayotgan men sho'rlikka ham piyola tutildi. Qo'limni ham qimirlatmadim. Haligi ikki yigit Bo'rin quchoqlab, cho'lp-cho'lp o'pdi. Ularning og'zidagi nos yuqi Bo'rining lunjiga ko'chdi. Qulog'iga nimadir deyishdi. Keyin Bo'ri menga piyola uzatdi. Ahvolimga achinib, suv quyib berdi, deb piyolaga qo'l cho'zdim. Olgan zahotim yonimda farishta paydo bo'ldi. Bu farishta faqat menga ko'rindi. (Uning botini qamoqxonada keyinchalik tanishganim nazoratchi xotinga o'xshardi.)

— Tashla, Nigora! — dedi u. — Ichish tugul, yana uch soniya qo'lingda ushlab tursang, olovda yonib ketasan! Senga va farzandlaringga rahmim kelgani uchun aytyap-

man. Bu mast qiluvchi ichimlik emas, og'udir! Jannatdan judolik pattasi vazifasini bajaruvchi narsa! Mastlik haqiqiy ishqda ko'rindi! Aroq ichib mast bo'lish aslida mastlik emas, alahsirashdir. Mastlikni ishqdan axtar... ishqdan axtar... ishqdan axtar...

Ko'zlarim davraga boqdi. Butun davra menga tikilgan edi. Barchaning qo'lida piyola, hatto chollarning ham. Beshinchi tergovxonada Ergashga «sezaman» deganimda, «Nega to'ying kuni qayerda ekanimni sezmading?» dedi. Men ota uyidan uzatilib ketayotganimda, hovlimizdagi qarindoshlar orasidan Ergashni axtarib topolmagan edim. Biroq er uyidagi to'uda qo'limda aroq tutib turgan tang vaziyatda sezdim. Shunday aniq sezdimki, alang-jalang qarab, nihoyat, «Ш» shaklidagi to'y stollarining uchinchi, eng chekka qatori oxirida o'tirib, qo'lida piyola tutgan Ergashga ko'zimga tushdi. Ergashning ko'zlarida yosh g'iltillardi. U kelibdi. U mening to'yimga kelibdi. Qo'lida qadah...

Davra birdek qadah ko'tardi. Ergash achchiq jilmayib, ichma degandek sekin bosh chayqadi. Ergash bilan farish-taning gapi bir edi. Ergashning yuzida ham farishtanikidek yog'du bor edi. Men battar karaxt holga tushdim. Vujudim ko'zga aylanib Ergashning qo'liga tikildim. Ko'rdim. Pi-yolasidan bug' chiqqanini ko'rdim. U aroq emas, choy tutib o'tirardi. Mening qo'limdagi piyola-chi? Undan na bug' chiqdi, na mineral suvning sharchalari!

Yalt etib qaradim piyolamga. Dimog'imga badbo'y hid urildi.

— Iching-da endi, kelin, — irshaydi birinchi yigit.

— Mening tilak so'zimdan keyin ichmasangiz, ikki dunyoda ham rozi emasmiz, — xirilladi ikkinchisi. — Meni bular Barda deyishadi! Qani, oling! Gunohiga u dunyoda o'zim javob beraman!

Ko'zimga shayton ko'rindi. Piyola qo'limdan tushdi. Birdan ko'nglim ag'darildi. To'y sahnasida turib, yuzlab mehmonlar oldida o'qchib yubordim. Yaqinroqdag'i stoldan

yangalar chopib chiqib, meni tutib qolishmaganida, gursil-lab yiqillardim.

To'y yarmigacha zo'rg'a o'tirdim. Baribir bo'lmedi. To'y tugamasdan bizni sahnadan tushirib, meni chimildiqqa kuzatib qo'yishdi. Bo'ri:

— To'yim to'yday bo'lmedi! Kasal qizga uylandimmi men? — deb janjal qilganida, bir necha erkak:

— Jim! Unday dema! Ana, to'y davom etyapti! Ye, ich, o'yna! — deya davraga olib ketishdi.

Bo'ri tomorqasidagi bazm o'rtasiga kirib, shunaqa sakrab o'yinga tushibdiki, maymunlar ham hayratda qolibdi. Raqqosaga uyatsiz qiliqlar qilib o'ynagach, biz tomondan kelgan qolgan-qutgan mehmonlar ham «omin» deb turib ketishibdi.

Er-xotin qovushishini qirq kun orqaga surishga urinish-larim samarasiz yakunlandi. Bo'rining taniga kirib olgan yovuzlik qirq kun tark etmasligini yangalarga tushuntirdim. Bu yovuzlik qirq kun uning qonida saqlanadi, tamom, far-zandga ham o'tib, kelgusida oilamizda Bo'ridan ham bat-tar yovuz bir odam tug'ilishini aytdim.

— U rostdan telba shekilli? — shivirladi Bo'rining yan-gasi yonidagi ayolga. — Nega surishtirmay kelin qildilarin-giz, checha? Buning miyasi aynib qolganga o'xshaydi.

— Nima bo'lsa bo'ldi, Bo'ri bechora peshonada borini ko'radi, — xafa ohangda so'zladi ayol. — Otasi dindan dars beraman deb, miyasini zo'riqtirib qo'ygan.

Qamoqxonadan kishanlab chiqib, meni viloyat Ichki ishlar boshqarmasining Beshinchi tergovxonasiga olib borishgani haqida yozib, tuyqus Birinchi tergovxonani es-laganimdan ma'ni shuki, erimning o'z tergovxonasi bor edi. Bo'rining tergovxonasini hayotimdag'i Birinchi tergov-xona deb atayman.

— Sen bu yoqqa kel, — deb imladi bir kuni Bo'ri.

Ichkari xonaga kirdim.

— Gapimga yaxshilib qulq sol, — dedi Bo'ri ko'rsatkich barmog'ini o'qtalib, — bugun uyg'a jo'ralarim hormaga

keladi. Agar to‘y kuni dagidek hunar ko‘rsatsang, ayab o‘tirmayman. Shusiz ham to‘yni buzib, meni sharmanda qilding.

- Xo‘p, — deya boshimni egdim.
- Mung‘aymay ko‘zlarimga qara! — U iyagimdan ko‘tardi. — Dasturxon bezatiladi. Hamma narsa qo‘yiladi. Nimaiki buyursam, yelib-yugurib bajarasan. Xotinlari ham birga kelishadi. O‘zingga qarab, chiroyli bo‘yanib ol.
- Xo‘p.
- Bizning qishloqda magnitofonni qo‘yib, raqs tushadigan odad urfligini eshitgandirsan?
- Eshitganman.
- Valsni-chi?
- Yo‘q.
- Menga qara, gap bunday. Xullas, men jo‘ralarim uylanganda, hazilkashlarning shefi bo‘lganman. Nima erkalik qilgan bo‘lsam, ular ko‘tarishgan. Men ham ko‘tarishim kerak. Ibod degan do‘srimni taniysanmi?
- Yo‘q.
- Anavi... yuzida xoli bor yigit... U uylanganida, bir to‘da sinfdoshlar uyiga borganimizda, xotini bilan valsga tushganman. Biz — hammamiz juda qalin o‘rtoqlarmiz. Oralarimizdan qil ham o‘tmaydi. Ko‘rasan, xotinlari bilan ham do‘srimiz. Tag‘in yana bo‘limg‘ur xayollarga borma. Ko‘nglimizda kir yo‘q. Dindorliging tutib, bazmni rasvo qilma deyapman. Har kim xohlagani bilan o‘ynaydi.
- Nima uchun?
- Baribir tushunmading-a, g‘alcha?! Seni Ibod chaqiri-shi mumkin. Chaqirganda borasan.
- Meni? Nega chaqiradi? — Keyin erimning gapidagi dahshatli mazmunni anglab, seskanib tushdim va qo‘lidan xalos bo‘lib, ortga chekindim. — Siz... siz nimalar deyapsiz?
- Nega hamma narsaning yomon tomonini ko‘rasan-a? Biror yomon gap aytdimmi?

- Birga o'yna demoqchimisiz? Hech qachon!
- Meni sharmanda qilmoqchimisan, Nigora? Ular Bo'rining xotini yovvoysi, qoloq, tomi ketgan ekan, deb kulib ketishadi-ku, axir! Shunaqalarning ustidan o'zim kulib yurardim. Birovning ustidan kulgani uchun o'zi ham kulgiga qoldi, deyishadi! Yetmish yil masxara bo'laman! Shuni xohlaysanmi?
- Siz va o'rtoqlaringiz... hammangiz davolanishlaringiz kerak, — dedim chekinar ekanman.
- Nima? — hayron bo'ldi Bo'ri ustimga bostirib kelarkan.
- Sizlarga kasallik yuqqan. Do'xtirlar davolaydigan kasallik emas. Qalblaringiz kasal, ko'ngillaringizga yomon bir illat tushib, yarimini chiritib yuborgan.
- O'chir ovozingni, otincha!
- Kechirasiz, otincha emasman. Erim o'z xotinini begona erkak bilan valsga tushirishiga yo'l qo'yolmayman, xolos. To tirik ekanman, boshimda erim bor ekan, birorta erkak qo'llarimdan tutib, meni qucholmaydi. Chunki...
- Nima «chunki»?!
- ...chunki dunyoni go'zalligi bilan qabul qilgaman, chirkinligi bilan emas. Dunyoqarashimni hech qachon o'zgartirolmaysiz! Dunyoqarashim go'zallik tomon o'zgarsa o'zgaradiki, siz aytgan chirkinlik sari o'zgarmaydi!
- shunday deb tiz cho'kdim. — Mendan or qilsangiz, nafratlansangiz, uyalsangiz, mayli, hoziroq bo'g'ib o'ldiring! Lekin farzandlarim dunyoga keladigan uyga to'ng'izlikni aslo yaqinlashtirmang! Men odamman, axir! Odam avlodiman!
- Bo'ri yuzimga bir tarsaki tushirgandi, burnimdan qon oqdi. Bo'riga lafz qilgandim, o'ldirsa ham qarshilik qilmasligim darkor edi.
- Hali shunaqami? — dedi u yoqamdan bo'g'ib. — Unda eshit! Senga nega uylanganimni eshit! Otang nima uchun seni menga bergenini eshit!

- Otam sizni yaxshi yigit deb o'ylagan, — dedim men.
- He yo'q, men yomon emasman, sen ham, otang ham ovsarsarsanlar, — Bo'ri g'olibona ishshaydi.
- Otamga til tekkizmang!
- Ko'p qizlarni ko'rdim, shinadim, surishtirdim. Ular ichida eng ro'zg'orbopi, oilabopi, kir ko'ylaklisi sen ekansan. Qarindoshlarim qanday bo'lmasin, ota-onangni ko'ndirishlari kerak edi. Buni qara, ishimiz o'z-o'zidan yurishib ketdi. Otangning o'zi yordam bervordi. Bir og'iz so'rabdi, ichmaydimi, chekmaydimi, deb. «Yo'q, ichmaydi, chekmaydi, o'z tashabbusi bilan ferma ochdi, tadbirkor yigit», debdi menikilar. Otang ishonibdi. Otang ishonmagan taqdirda ham, tadbirkorligim yoqqan. Tushunarlimi?
- Otam yolg'onchi va munofiqlar yo'q deb yanglishgan. Aybi shu.
- Kim yolg'onchi va munofiq? Og'zingga qarab gapir, o'v! Bu «ishni bitirish» san'ati deyildi!
- Otamning ko'ziga qarashga yuzingiz qanday chidaydi? Otam, mayli, bir bandai ojiz. Otamdan boshqa Zotning yuziga qanday qarashingizni hech o'ylab ko'rganmisiz? Nega siz vijdonlar qiynaladigan kun borligiga ishonmaysiz? Qachon shunaqa bo'lib qolgansiz? Yomon go'dak bo'lib tug'ilmagansiz-ku, axir! Qayerdadir, qachondir zaharlangsiz!
- Otang pulga o'ch, mansabga uchadigan odam! Isbotlayman!
- Xato qilyapsiz.
- Biz kelajagi bor oilamiz, — haqoratlarda davom etdi Bo'ri. — Otang qizini badavlatroq joylarga beradiganlardan ekaniga yana qanday dalil kerak? Biz birinchilardan bo'lib ferma ochdik. Yaqin kunlarda eng katta, eng badavlat fermer bo'lamiz. Buni otang oldindan yaxshilab hisob-kitob qilib chiqqan.
- Kelajak? — deb hayronlikdan ko'zlarimni pirpiratdim.
- Bu ko'rayotgan kunlaringizning kelajagi nima ekanini,

nahotki, tushunmaysiz? Kelajak deganda men jannatni tushunaman. Fermangiz kengayib, mollaringiz ko'paygani sizga hech qanday huzur bermasligi mumkin. Agar...

— Nima agar?

— ...agar ko'nglingiz kelajakdan xotirjam bo'lmasa, ko'rgan har bir kuningizda «ishqilib, o'lib qolmay», «ishqilib, xudo kechirsin-da», «balki omadim chopib jannatga tusharman» degan xavotirda yashaysiz. Pensiyaga chiqqanda namoz o'qiyman, ishim yurishib ketsa, hajga boraman, deysiz, kimlargadir sadaqa, ehsonlar qilib, kelajakni sotib olishga urinasiz. Baribir xavotiringiz arimaydi. Sababi, siz noto'g'ri yashayotganiningizni ich-ichingizdan yaxshi bilasiz. Bilasiz-u tanlagan yo'lingizdan qaytmaysiz. Hatto, meni do'stingizga berib turmoqchisiz, valsga tushishga bo'lsada, berib turmoqchisiz. Buning dayuslik ekaniga aqlingiz yetmaydimi? Bugun do'stingiz yoniga chaqirganda borsam, siz tamomsiz. Shuni hech qachon unutmang! Dayusligingizning kechirilishi dargumon!

Bo'ri yoqamdan kuchliroq bo'g'ib, ko'zlarimga nafrat aks etgan nigohini qadadi. Uning ko'zları tubida qachonlardir yaxshi odamga aylanish mumkinligidan alomatlarni ham yo'q emasdi. Men shu alomatlarni ko'rdim. Ko'nglim yorishib, jilmaydim. Bechora erim o'zi tug'ilib o'sgan Boyjanjal qishlog'inining jamiki buzg'unchi odatlariy-u tarbiyatlarini ko'rib katta bo'lgandi. Dunyoda imon, diniy e'tiqod borligidan qishlog'idagi o'rta maktabda ham ta'lim berishmagandi. Nima qilsin sho'rlik? U o'yillardiki, xotinning gapiga kirmaslik lozim, ichish, chekish kerak, do'stlarimning xotinini quchib, valsga tushdimmi, endi ular ham mening xotinimni quchib, valsga tushadilar va hokazo. Ko'plab tu-shunchalar Bo'ri va boshqalarning dunyoqarashida noto'g'ri shakllanib, shu holida qotib qolgandi. Masalan, ular «to'y» deganda birinchisiga sho'rva, ikkinchisiga palov keltiriladigan, dasturxonga yaxna go'sht, salatlar qo'yilgan va al-batta ovqatdan oldin aroq tortiladigan, mayxo'rlik avjiga

chiqqanida, hamma turib, aralash-quralash o'ynaydigan bazmni tushunishardi. Mastlikda mehr jo'shib, bir-birini quchoqlab yig'lashlar, «do'stligimiz abadiy bo'lsin» deb tilak tilashlar, o'zining shirakayfligini el-u yurtga atayin namoyish etib, to'yning o'rtasida chayqalgancha gerdaiib turishlar o'smiridan tortib qarisigacha odat va orzu edi. Hatto, ular shunaqa ediki, qo'shni qishloqdagi ayrim kishilar to'yda aroq qo'ymasa, «qurumsoq», «mulla», «so'fi» deb birinchi ovqatni yegandan jo'nab qolishardi. To'y yarmiga yetmasdan odamlarning ketib qolib, bazmning sovishidan qo'rqqan mezbonlar iloji boricha mehmonlarning ko'nglini ovlashga chiranardilar. Aslida o'sha ketib qolganlarning to'ylariga borganda, aksincha, aroq bor ekan, deb birinchi ovqatini ham yemay turib ketish a'loroq ish ekanini anglab yetmasdilar. Ha, shunday bo'lishi mumkin emasmi? Modomki, inson o'ziga yoqqan narsa dasturxonda yo'qligini ko'rib, mehmondorchilikni tark etar ekan, vaqtি-soati keilib, uning to'yida, aksincha, o'ziga yoqmagan narsa dasturxonda borligini ko'rib, bazmni tark etishlari naqadar o'xshash-ku.

Shu tobda erimning ko'zlariga tikilib yurakdan sevindimki, Bo'rining hamqishloqlari orasida agar tarbiyat qilinsa, o'z xatolarini anglab yetadigan odamlar anchamunchani tashkil etishiga, shulardan biri erim ekaniga amin bo'ldim. Ularning fojiasi shundaki, birorta murabbiylari yo'q edi. Televizordagi gaplar bu qishloqqa ezmalik bo'lib yetib kelar, kitoblardagi nasihatlar shunchaki harflar jamlanmasi edi. Har kim o'z bilganicha ulg'ayib, armiyadan ham o'z bilgan dunyoqarashni yuqtirib kelib, umr bo'yi yet o'lkalarning yet g'oyalarini xalqi orasida yoyib yashagandi. Agar ajallaridan besh kun burun o'lib ketishmasa, ko'pchiligi yoshi qaytganda go'zal insonga aylanishlaridan rostdan ham umid qilsa bo'lardi. Go'yoki ular dunyoda yo Yevropa, yo Arabiston tomonlardagi urf-odatlar bor, ikkisidan birini tanlashimiz kerak, deb fikr qilardilar va

shimoldan kelgan shamolga ko'ksini osongina tutib qo'ya qolardilar. Yevropa-yu arab yurtlarini qo'y, ota-bobongning ham urf-odati, madaniyati, ma'naviyati bor edi, deydigan kimsa topilmasdi. Madaniyati va ma'rifati kuchli bo'lganki, dong'i ketgan ulamolar, allomalar, faylasuflar, shoirlar yetishib chiqqan edi, deb darsliklarda yozishsa ham quvvai hofizalariga yetib bormasdi. Boyjanjal qishlog'i mast bo'lib avtohalokatlarda o'ladigan marhumlarni, ichib olib mushtlashib qamoqqa tushadigan mahbuslarni, birov-larning xotinlarini yo'ldan uradigan zinokrlarni, to'ydan oldin ikkiyat bo'lib qoladigan yengiltak qizlarni, mol-mulk talashib yuzko'rmas bo'lib ketadigan aka-uka, opasingillarni yetkazib beradigan aholi punkti bo'lib tuyulardi menga. Eng qizig'i, buni qishloq ahlining o'zi tappa-tuzuk ko'rib, anglab yashardi...

- Nega kulyapsan, tentak? — o'shqirdi Bo'ri.
- Siz aslida yomon odam emassiz, — dedim men. — Qalbingizni davolay olsam, kun kelib, hammasini tushunasiz.

Bo'ri meni bir siltab xonaning burchagiga itqitdi-da, chiqib ketdi. Kaltak yeb, burnim qonaganini uydagilar ko'rmasligi kerak edi. Darhol yuviniib, uy yumushlariga ko'milib, kunni kech qildim. Bo'ri menga bir og'iz gapirmay do'kondan avval rangli ichimliklar, keyin vino-aroqlar ko'tarib keldi.

Yugurib borib, eshik oldida yo'lini to'sdim-da, tiz cho'kdir.

- Uyga faqat mening o'ligim ustidan o'tib aroq olib kirirasiz!

Hovlida yurganlar — qaynotam, qaynonam, qaynilarim, fermaning bir-ikki ishchisi, qo'shni xotinlar — barchasi taxtadek qotib qolishdi.

- Ablah! Kasal! — ilondek vishilladi Bo'ri ko'zlarini ola-kula qilib. — Hammaning oldida nimalar qilyapsan?! Tur dedim senga!

— Bu bomba, — dedim qo‘lidagilarga ishora etib. — Siz o‘zingiz yashaydigan uyga, farzandlaringiz ulg‘ayadigan tabarruk maskanga bomba olib kiryapsiz.

— E, tur-e, maraz! — Bo‘ri meni bir tepib, yonimdan o‘tib ketmoqchi edi, yana yo‘lini to‘sdim.

— Hoy, urishmanglar-a, urishmanglar!... — Qaynonam biz tomon lo‘killab chopib kela boshladi. — Shu kunlarni ham ko‘ramanmikan-a, men bechora?! To‘ylaring bo‘lgandan beri urish-janjaldan boshlaring chiqmaydi, uyatsizlar!

Bo‘ri avval onasiga, keyin boshqalarga alam bilan boqdi. Aftidan erimning gapini shu vaqtgacha biror ayol zoti ikki qilmagan, u xotiniga gapi o‘tmaydiganlarni azaldan kalaka qilib yurgan, endilikda o‘zi shu ko‘yga tushgan edi.

— Sen o‘lgansan, iflos! — baqirdi Bo‘ri menga. — Endi o‘liging ustidan o‘tsam bo‘ladimi, tomi ketgan?! — Keyin onasiga ham o‘shqirdi: — Kasal qo‘yday yuvosh, sochlari uzun, boshidan ro‘mol tushmaydi, hech kimga gap qaytarmaydi, haqiqiy xotin bo‘ladi, degan maxluqingiz shumi?! Bugun oxirgi ogohlantirishim! Agar yana yo‘limga to‘sinq bo‘lsa, urib o‘ldiraman! Yoki javobini beraman! Menga jinni xotinning keragi yo‘q!

Kechqurun sigirlar sog‘ilib bo‘lgach, birin-ketin juft-juft bo‘lib Bo‘rining do‘satlari xotinlarini ergashtirib kirib kelishdi. Shohona bezatilgan orqa uyning derazalarini ochib qo‘yishdi. Magnitofon ovozidan sho‘x qo‘shiqlar yangradi. Erkak va ayollarning kulgani, qadahlarning jarangi men yotgan xonaga ham eshitilardi. Do‘sstrarining xotinlari oshxona tarafga o‘tib, qaynonamga yuzma-yuz bo‘lishdi.

— Nigora yaxshimi? Ko‘rib chiqsak degandik. Uy bekasining o‘zi bu yoqda ko‘rpa-to‘sak qilib yotsa, biz uyida bayram qilsak g‘alati ekan-da, — deyishdi kelinlar.

— Hech qanday g‘alati tomoni yo‘q, — dedi qaynonam. — Nigora dori ichgan, hozir qattiq uyquda. Agar o‘tirishni buzib, ketib qolsalaring, Bo‘ri katta janjal yasaydi. Endi-i, ko‘ngilga olmanglar-da, yeb-ichib, o‘yin-kulgini

qilib, bolamning ziyofatini boshqalarnikidan kam qilmasdan o'tkazib ketinglar. Xo'pmi, asal kelinlarim?

— Xo'p, xo'p, momojon, — deb kelinlar chug'urlashib erlari o'tirgan xonaga shoshilishdi.

Kechki o'n birgacha baqir-chaqir, o'yin-kulgi tinmadi.

Otamni o'yladim. Padarim nechun bunday xatoga yo'l qo'ydi? Boyjanjal qishlog'i haqida otam muqaddam biror nojo'ya gap eshitmaganiga qanday ishonay? Yo qarindosh bilan quda bo'lmayman deb meni bu yoqlarga uzatib yubordimi? Ergash ham men uchun kurashmadidi. Nega?

Uyquni chaqirish uchun ko'zimni yumdim.

...Ko'zimni ochganimda esa katta-katta toshlardan bonyod bo'lgan ulkan qamoqxonaning qaysidir burchagidagi kimsasiz xonada g'ujanak bo'lib yotardim.

IV BOB

*Zax bir zindon burchida ko'z yosh to'kkан ayol bor,
Bu ayolda o'tmishdan qolgan sirli xayol bor...*

Ha, ko'zimni ochganimda, katta-katta toshlardan bonyod bo'lgan ulkan qamoqxonaning qaysidir burchagidagi kimsasiz xonada yotardim. «Qayerdaman?» deb so'radim o'zimdan. Keyin kechagi voqealar, ya'ni Beshinchi tergovxonadagi janjal ko'z oldimdan lip-lip o'tdi: nazoratchi xotin meni kishanlab, kameradan olib chiqdi, qamoqxona mashinasida yo'l yurdik, Beshinchi tergovxona yo'lagidagi o'rindiqda bir oz o'tirdim, ichkariga kirdik, beshta odam tizilgan, biri men avval uchratganim, o'zini podpolkovnik «Bir balo» deb tanishtirgan kishi, uchtasi notanish, beshinchisi esa Ergash...

Ergash!

Boshqa ish qilsang bo'lmasmidi? Kelib-kelib meni aynan sen tekshirishga keldingmi? Ko'rgani ko'zim yo'q! Sendan nafratlanaman...

Yo‘q, negadir seni yana ko‘rgim kelyapti. Nikohimga xiyonat emas, tarbiyamdan chekinish ham emas. Shunchaki toshdevorlardan charchadim, begonalardan charchadim, notanish turqlardan charchadim. Unutma, seni yorug‘ dunyo tuproqlariga ko‘mib kelganman. Sharpang bilan gaplashmoqchiman...

Kamera ichiga alanglayman. Beshinchi tergovxonadagi janjalimdan so‘ng temir qafasga emas, yorug‘ xonaga qamab qo‘yganlari nimasi? Derazalari katta, panjaralar ham boshqacha, oralari ochiq-ochiq, oqqa bo‘yalgan. U yoqda – avval yashaganim yerosti kamerasida devorni o‘rgimchak ini qoplab, eshikning bo‘yoqlari ko‘chib tushgandi. Yangi kamerada hid ham o‘zgacha. Hammayoqqa dorilarning badbo‘yi urib ketibdi. Ergash turma boshliqlariga biror nima degan shekilli.

Hm-m... O‘zbekistonning poytaxti Toshkent, ikki karra ikki to‘rt, oq rangning teskarisi qora, Ramazon oyidan boshqa oylarda tutilgan ro‘za nafl, lo iloho illolloh...

Shukr, es-hushim joyida, mana, eslayapman, kalima ham keltiryapman.

Tosh karavotimdan turib, bir chetga – yozuv stolimga sudralib borib, tirsaklarimni tayadim. Qiziq, yozuv stolimni qachon olib kirishdi ekan? Uzoq uxbabman. Tinchlantiruvchi ukol qilishdimikan? Bilaklarimda o‘nlab ignalarning izi... Ko‘nglim ham aynib turibdi... Ukol qilishdan tashqari allaqanaqa tabletkalarni ichirishganga o‘xshaydi.

Yozishga kirishdim: Bo‘rining uyidagi kelinlik davrim g‘urbat va qyinoqlarga to‘la edi. Biror kun halovat ko‘rmadim. Ular ro‘zg‘orimiz obod, hammamiz sog‘-salommatmiz, bundan chiqdi, bizdan baxtli insonlar yo‘q deb o‘zlarining ustidan o‘zları hukm chiqarib qo‘yishgandi. Nazarimda, fermadagi mollar ham shunaqa o‘ylasalar kerak: yemishimiz bor, sog‘lommiz, sutimiz vaqtida oqib turibdi, buzog‘imiz ham emyapti, mo‘rayapmiz, mo‘-o‘, mo‘-o‘... ma‘a-a-a!..

Yo'q, oxirgisi echkiniki. Agar echkining ma'rashi bilan molning mo'rashini aralash-quralash qilib yozsam, kundaligimni o'qiganlar rostdan telba deyishadi.

Men sog'man.

Hech kimni o'ldirmaganman.

Kimda-kim ezgulikdan tarbiya olgan bo'lsa, umrbod qushga ham ozor bermaydi. Magarki, manqurtlar borbudini tortib olishsa ham...

— Bo'ri, mening ma'naviy qotilim bo'lib chiqdilaring,
— dedi og'zim. — Baxtimni tortib oldilaring, imonimga kuchlaring yetmadi...

Shu payt temir eshikdag'i pechkaning eshikchasi-ga o'xhash darcha ochilib, soqchi mo'raladi. Yozuvdan to'xtab, ko'zlarimni tosh devordagi bir nuqtaga tikib, jimgina kutdim. Eshikka atayin qaramadim. Ko'zimning qiri ila yon tomonni ko'ryapman, soqchi ham jim kuzatyapti. Hozir tuynukni yopib qo'yadi yoki kimdir kameraga kira-di. Qaysi voqeа yuz berarkan?

Ikkinchisi voqe bo'ldi. Qulflar uzoq shiqirladi va og'ir eshik g'iyqillab ochildi.

— Xudoyberdieva, turing joyingizdan! — amr etdi soqchi.

Ruchkani daftар ustiga tashlab, oyoqqa qalqdim. Shunda negadir ko'zguga qaragim keldi.

Ko'zgu!

U meni o'z oynasida ko'rsatadi. Nega oldinroq xayolimga kelmadи? O'zimni ko'rishim mumkin. Ha, men o'zimni o'z ko'zim bilan ko'rishim mumkin! Ko'zguga qarasam taniyman, o'zimning tashqi ko'rinishimni ko'rib, o'tmishimni to'liq eslayman, eslayman, eslayman...

— Ko'zgu, — dedim soqchiga boshimni burib.

— Nima? — qulqlariga ishonmagandek so'radi soqchi.

— Menga ko'zgu bering!

— Ey xudoyim, faqat mening smenamda emas!.. — deya soqchi eshikni gumburlatib yopib, yo'lak oxiridagi kimgadir xitob qildi: — U ko'zgu so'rayapti!

Bir necha kishi tapir-tupir yugurib keldi. Ko‘zguni bekor tilga oldim-da. Menimcha, avvallari ham ko‘zgu so‘raganman va Beshinchি tergovxonadagidan-da fojiali voqeа yuz bergen.

Ular eshik ortida g‘o‘ng‘ir-g‘o‘ng‘ir qilib, allanimalarni maslahatlashishdi. Taxminimcha, ichkariga bostirib kиrishga tadorik ko‘rib, kim qanday harakatlanishni kelishdilar. Muqaddam qamoqxonada ko‘zguga bog‘liq qanday mashmashani sodir etganimni endigina eslashga urinmoqchi edim, eshik g‘iyqillab ochildi.

— Xonangizda ko‘zgu bor, ko‘rpachangizning tagida, ana, qarang, — dedi soqchi.

Ortimga o‘girilganim zahoti, ikkitasi otilib kirib qo‘llarimga yopishdi, uchinchisi boshimga qop kiyirdi, olamni zulmat qopladi. Qo‘l-oyoqlarimga kishan urib, qamoqxona yo‘lagiga yetaklab chiqishdi.

— Qop nima uchun? — so‘radi bir odam.
— U soqchidan ko‘zgu so‘radi, — dedi soqchilardan biri.
— Psixiatr maslahat berdi, bunday paytda eng to‘g‘ri chora boshiga yorug‘lik o‘tkazmaydigan qop kiydirish ekan.

— Jin ursin! — fig‘oni falakka chiqdi kelgan kishining.
— Oxirgi paytlarda bunga nimalar bo‘lyapti-ya?! Yana kimnidir o‘ldiradi, qutuladi. Yaxshilanish o‘rniga og‘irlashyapti. Og‘irlashganda ham yomon og‘irlashyapti. Ayol bo‘lsa ham kaltak o‘tmasa, elektr tokidan qo‘rqmasa, ukollar ham darrov ta‘sir etmasa! Kim o‘zi bu maxluq? Na odam zotiga, na o‘zga sayyoralikka o‘xshaydi! U yoqqa — ruhiy kasallar shifoxonasiga yuborish kerak edi. Har kuni besh mahal ukol qilishsa, jonsiz qo‘g‘irchoqqa aylanadi. Qo‘g‘irchoqlar shu vaqtgacha quturgan itdek qopganini hech kim ko‘rmagan.

Ko‘zguga qaraganimda, nima sodir bo‘lganini xotiramda tiklamoqchi edim, bo‘lmadi. Miyam bo‘m-bo‘sh va qop-qorong‘i edi. Soqchilarning yetovida ketaverdim, ketaverdim, axiyri ventilyator g‘irillab turgan sokin va shi-

Azamat QORJOVOV

nam bir xonaga kirib keldik. Oyog'im tagida yumshoq gilam bilqilladi.

— Olinglar uni, — tanish ovoz eshitildi.

Qopni sug'urishgach, boshimni ko'tardim va ro'paramdagi odamga qaradim. U kim edi deysizmi? Bir qarasam otam edi, bir qarasam Madina opaning eri. Yaxshiroq tikilib, ko'zlarimga ishonmadim: u erim edi... Bo'ri edi!..

Nahotki, tirik bo'lsa? Axir, o'sha kuz kechasida, bir be-xosiyat kuz tunida o'lardim, o'ldirib qo'ydim-ku. Modomiki, o'ldirmagan ekanman, men qamoqxonada nima qilib yuribman? Yo'q, yo'q, men emas, u nima qilib yuribdi?

Ko'zoynak taqishim kerak shekilli. Bu odamni taniyolmay qiyaldim.

— O'sha kecha qizimni otib tashlashdi... — dedim men.

U indamadi.

— ...

— Keyin uyim yondi.

— ...

— To'yim kuni bir tentak xotin olovda aylanishim kerakligini aytgandi. Gapini eslayman: «Senkim, ey kelinchak, bir kun kelib gunohlaringni olov tozalaydi. Agar eringning tabarruk uyiga munosib kelinchak bo'lmasang, yonasan, bugun turmushing sharafiga yoqilgan shu olovda yonasan...» Mana, yonyapman... haligacha yonyapman...

— ...

— Nahotki, men Boyjanjal qishlog'ida qaror topgan qonun-qoidalarga qarshi chiqqanim uchun jazolandim? Olovda aylanmayman deganim birinchi jinoyatim edimi? Jinoyat tushunchasi dunyoqarashdan kelib chiqsa, u holda boyjanjalliklarning yuzlab, minglab qiliqlari mening dunyoim uchun jinoyat emasmidi? Urf-odat insonning muqaddas e'tiqodiga qarshi bo'lmasligi kerak...

— ...

— Qizlarim bor edi... O'g'lim bor edi...

Qarshimdagi odam hamon jim. Men esa ukol va dorilarning ta’sirida bo’lsa kerak, halim bo’lib qolgandim. Bolalarim yodimga tushdi, ammo Beshinchi tergovxonadagidek janjal ko’tarmadim. Balki endi hech qachon sochimni yulmasman, birov larga ozor yetkazmasman. Diy-dor ko’rishadigan Ulug‘ Kungacha sabr etadi bu Nigora... sabr etadi bu Nigora...

— Meni baxtsiz qildilaring, — g‘o’ldiradi tilim.

Ha, baxtsiz etdilaring, qo’llaringdan shu keldi, xolos. O’zlarining chirkin dunyoqarashlaringni deb, kayf-safoni deb, biz ham yashab qolaylik deb, boshimga yetdilaring. Men hammangizdan xafaman. Ehtimol, xafagarchilik qiyomatgacha cho’zilar. Sizlarni jallodlar deb atayman. Qazolaring kelgach, tuproq tagidagi sokin mozordan umid etmanglar: yer tuflab tashlaydi, deyman. Shunday deyman-u yana rahmim keladi. Azob chekishlaringga yuragim chidamaydi. Nigora deb atalgan shu vujud o’zimga ham, boshqalarga ham baxt kelishiga sababchi bo’lishini xohlayman.

— Qanday yaxshi qiz eding-a, Nigora... — dedi tilim.

Birdan miyam tiniqroq ishlab ketdi. Kimga gapiryapman? Ro’paramdagagi odam kim? U joni yo’q bir tulup bo’lsa, unga so’zlab kulgiga qolmayapmanmi?

— Kimsan?

Yana qaradim. Yuzidagi har bir chiziq, har bir nuqtaga tikildim. To’xta, bu odam Ergash emasmi? Ro’paramdagagi bu odam haqiqatan Ergash-ku. Ne sababdan buncha dovdirayapman? Dorilär kuchlilik qildimi?

— Ergash, senmisan?.. Uh-h-h-h... — deya damim chiqib ketdi.

— Salom, Nigora, yaxshimisan? — hol-ahvol so’rashdi u qadimgidek sensirab.

Boshim g‘uvilladi, bo’m-bo’sh miyamda og‘riq turdi. «Men qayerdaman?» degan savol yangradi. So’ngra savol boshqacharoq yangradi: «Sen qayerdasan, Nigora?»

Keyin o'zimga o'zim javob berdim:

— Sen qamoqxonadasan.

Ergash jilmaydi. Aftidan u menga gapiryapti deb o'yaldi.

— Qamoqxonada emasman, — dedi yoshlik chog'laridagidek samimiyl ohangda. — Sen ham qamoqxonada emassan. Atrofingga bir qara, qanday yorug', qanday go'zal xona. Istanasang derazadan tashqi olamga ham mo'ralashing mumkin. Boshingga qop kiydirishni men buyurmaganman, badgumon bo'lma. Faqat hozircha ko'zgu berolmayman. Dunyo o'zgardi. Dunyo shunday o'zgardiki, ma'naviyat shamollari yuzingga urilmasa, menga ayt. Islom ham huquqlariga ega bo'ldi, yovuzlar kamaydi, sen istagan dunyo, sen istagan go'zal demokratiya, go'zal mamlakat, go'zal xalq maydonga chiqyapti.

— Hech qachon! — dedim men. — Sen aldab ko'rsatmoqchi bo'lgan dunyoga qaytib qaramayman!

— Mayli, mayli... Beshinchি tergovxona olislarda qolib ketganini aytmoqchi edim, xolos. Umid qilamanki, endi seni hech kim qo'rqtib tergov qilmaydi. Yomon kunlaringni o'ylama. Dunyoda yaxshi insonlar ko'p, juda-juda ko'p.

— Qamoqxonada emasman deding, bo'lmasa, qayerdasan?

— Rostini aytaymi?

— Ayt!

— Shahar shifoxonasidamiz. Bu shifoxona asab kasalliklari shifoxonasi ham deyiladi. Sen qattiq asabiylashgansan, shuning uchun o'zingni qamoqxonadaman deb tasavvur qilyapsan. Gapimga ishonmasang, yoningdagi ayoldan so'ra.

Angladimki, men yana tergovxonadaman, ular mendan sir olisholmagach, avrovchi psixiatr yordamidan foydalanishmoqchi. Begona shifokor bo'lsa ham boshqa gap. Ular Ergashni safarbar etishdi. Toshkentdan yetib keldi. Ergash shinam tergovxonani hech qanday tergovxona emas deb ishontirmoqchi. Haqiqatan bu tergovxona shinam va salqin

edi. Sarg‘ish gulli yashil gilam o‘ziga ohanrabodek tortadi. «Alvido, beton pollar!» deb hayqirging keladi. Faqat ko‘zgu yo‘q. Ventilyator ishlayapti, tuvakda gullar barq urib ochilgan, huv ana oltin qafas. Undagi qush hozir sayraydi.

— Kak-ku... kak-ku... kak-ku...

Ergash chuqur nafas olgandi, yelkalari ko‘tarilib tushdi. Ko‘zoynagini ohista yechib, oppoq ro‘molchasida artdi. Ro‘molchani tanidim. Qirq yil avval o‘zim sovg‘a qilgandim. Ana, chetiga tikkan kashtamning qizil iplari ham ko‘rindi. Unda «E» harfi aks etgan. Ergash bugun hislarim bilan o‘ynashmoqchiga o‘xshaydi. Aks holda qirq yil avvalgi ro‘molchani atayin namoyish etmasdi.

— Sen qush emassan, Nigora, — jiddiy tortdi u. So‘ng ko‘zlarimga achinib boqdi. — Telba ham emassan. Nega o‘zingni bunday tutyapsan? Qachondan beri qushga o‘xshab sayrab qolding? Tibbiy tekshiruvlardan sog‘lom chiqqansan-ku, axir. Asablaring charchagani rost, lekin kasal emassan. Aytmoqchimanki, adoyi tamom bo‘lgan ruhiy kasal emassan. Seni bu yerga men o‘tkazdirdim. Qamoqxonaga o‘xshab ketsa ham, aslida qamoqxona emas. Soqchilar shunchaki xavfsizlik uchun qo‘yilgan sanitарlar.

— Kak-ku...

— Bas!

— Kak...

— Nigora, senga yarashmayapti! — stolni urdi Ergash.

— Nimani o‘ylayotsam, gapirib yuboryapman, — dedim men.

— Qulog sol, sening asab tizimingda shu vaqtgacha ilm-fanda kuzatilmagan hodisalar ro‘y beryapti. Muammo faqat o‘ylagan narsangni gapirib yuborishingda emas. Bu mendek psixiatr uchun ikki karra ikki to‘rt degandek oson masala. Sen hozir kakkuqushga o‘xshab sayrading. To‘g‘rimi?

— To‘g‘ri.

— Nega sayrading? Menga tushuntirib ber, iltimos!

- Qafasdagi qush hozir sayraydi, deb o'yladim. Keyin u sayradi.
- U emas, sen sayrading.
- Menmi?
- Ha, hamma gap shunda-da. Ilmiy ishim aynan sening kasalligingni tadqiq etish edi. Ilmiy tadqiqotni boshlaganimda, sen kasal emasding. Ering, farzandlaring — baring el qatori bir oila bo'lib yashardinglar. Sen bilan ishim yo'q edi, fanni o'ylardim. Men o'rganayotgan fan senga kerak bo'lib qolishi tushimga ham kirmagan. Biz tanishligimiz uchun meni chaqirtirishgani yo'q. Sening xastaliging bo'yicha mutaxassis bo'lganim uchun keldim. Ilmiy tilda gapisam, tushunmaysan. Oddiy aytganda, sening ruhing o'zing tasavvur qilgan dunyoga o'tib qolgan. Ilmfanga noma'lum jihat shundaki, tanangda o'ta xavfli jismoniy kuch paydo bo'lgan. Bu kuchingni ishga solsang, odam o'ldirib qo'yishing hech gap emas. Sen sport bilan shug'ullanmagansan, tergov natijalari shuni ko'rsatadiki, hatto og'irroq jismoniy mehnat ham qilmagansan. Namoz o'qigansan, ro'za tutgansan, uy yumushlarini bajargansan. Hatto, ering fermaga ham yubormagan. Lekin... lekin sen qo'lga olinganingda o'zingni noma'lum dunyoning jangchilariiga o'xshab tutgansan. Hali-hanuz shundaysan. Bu yerdagi barcha xodimlar uchun sen xavflisan, hayoti uchun xavflisan. Tashqi olamga qo'yib yubormasliklarini ham endi tushundingmi? Yana bir gap... — Ergash ko'zlarimga o'tkir nigoh qadadi. — Seni yashirinchha tayyorgarlikdan o'tgan ham deyishdi. Men o'z bilimimni ishga solib ularga isbotlab bermoqchimanki, sen jangari emassan, hech qanday tayyogarlikdan o'tmagansan, ekstremizm, terrorchilik, diversiya — bari senga begona. Sening olaming tashqi olamdan ming chandon go'zal. Qushga ham ozor bermaysan, chumoliga ham. Doim ibodatda yashagan odamni ko'r-ko'rona jangari deyish katta bo'hton. Terrorchi degan

tavqi la'natni muhrlashmoqchi ekanini eshitib chidayolmadim. O'zim kelolmasam ham, ilmim foyda berishini istadim. Seni bilmasam ekan! Tushunmasam ekan! Sport ko'rsatuvarlarini ko'rganmisan?

- Ko'rganman.
- Boksni, dzyudoni bilasanmi?
- Ha.
- Ular nima?
- Boks — urish, dzyudo — kurash.
- Shu sport turlari bilan shug'ullanmagansan. Bu — haqiqat.
- Ha, haqiqat.
- Sen jarohat yetkazgan soqchilardan biri sakkiz yil boks bilan shug'ullangan sakson kiloli yigit edi, ikkinchisi dzyudo bo'yicha ichki ishlar xodimlari o'rtasida o'tkazilgan Respublika musobaqasi championi bo'lgan. Vazni sakson besh kilo. Bokschini bir zarbda qulatding, dzyudochini devorga gursillatib urib, kishan bilan bo'g'ib o'ldirishingga sal qoldi. Boshqa soqchilar yordamga kelmaganida, uni narigi dunyoga jo'natarding.

Men piq etib kuldim.

- Yovuzlik haqida gap ketayotsa, nega kulyapsan?
- Narigi dunyoga men jo'natmayman. Buni hech qachon unutma, do'xtir!
- Qo'l-oyoqlaring mushaklarini shifokorlar qayta-qayta tekshirishdi. Qizig'i, senda championlarni qulatadigan jismoniy kuch yo'q. Biroq o'tmishingdagi og'ir kunlarni eslab jazavaga tushganingda, seni to'xtatib qolish juda qiyin bo'lyapti. Nimalar qilib qo'yaningni anglamaysan. Nakarserdan qo'rqasan, na kaltaklashlardan, na sog'ligingdan, hayotingdan ajralib qolishdan. Qisqasi, kasalligining jumbog'ini yechishim kerak. Sen nozik xilqat bir ojiza ayol eding. Ayolligingga qaytishing shart. Men qo'limdan kelganicha yordam beraman. Qaytmasang, kech bo'ladi. Hayotda yashashdan maqsad kayf-safo deguvchilarni manqurt

deb atagansan. Unutma, agar ayollik latofatiga qaytmasa-
ng, sen ulardan ham battar manqurtga aylanasan.

— Demak, anavilarni ham aslida men o'ldirmaganman.
Qo'llarim bilmasdan o'ldirib qo'ygan. Sen, Ergash,
Toshkentdan kelib, meni oqlamoqchisan. Hammasini
to'g'ri tushunibmanmi?

- Nigora, sen rostdan qotil emassan.
- Qotilman! Qaytadan o'ldirishga ham tayyorman!
- Hech qachon bunday qilolmaysan. O'zingni o'zing
yo'q qilishning oson yo'lini tanlagansan. Qotillik qildim
deysan va o'lim jazosiga tayinlashlariga erishmoqchisan.
Otib tashlashadi deb umid qilyapsan. Maqsading, dunyo-
dan qutulish. Axir, dinda o'zini o'ldirish gunoh. Sen
boshqacha yo'l tutyapsan.
- Ha, o'limdan umidim bor.
- O'lim jazosi yo'qligini bilasanmi?
- Menga farqi yo'q.
- Senga aytishgan-ku.

Shu payt ko'z oldim jimirlab ketdi. Rostdan menga
kimdir aytgandi. «Baxtingizga bizda o'lim jazosi yo'q»,
degandi... To'xta-to'xta, Ergash bir daqiqa avval nima
dedi? «Gapimga ishonmasang, yoningdagi ayoldan so'ra...
Yoningdagi ayoldan so'ra...»

Yonimda ayol yo'q edi-ku! Erkak soqchilar olib kelishdi.

Shunda nazoratchi xotinni unutib yuborganimni eslab,
yalt etib o'ng tomonimga qaradim. «Assalomu alaykum»
deb yuborishimga sal qoldi. Ne tongki, o'ng yonimda na-
zoratchi xotin xuddi Ergash boyaga jilmaygandek chiroyli
kulimsirab turardi. Beshinchi tergovxonaga birga borgan-
dim. To'polondan so'ng izsiz yo'qolib qolgandi. Bugun uning
zohiri xuddi botini kabi chiroyli edi. Tobora erkakka o'xshab
borayotganidan achchig'im chiqardi goho. Xayriyat, yuzi
tiniqlashibdi, hatto qayeridir Madina opaga o'xshab qolib-
di. Balki yashirinchha namoz ham o'qiyotgandir.

— Shu opam menga o'lim jazosi yo'qligini aytgandi, — dedim nazoratchiga ishora qilib.

Negadir Ergash nazoratchi xotinga qiyo ham boqmadni.

— «Shu opam» deganining kim?

— Nazoratchi.

— Qayerning nazoratchisi?

— Qamoqxonanining.

— Ko'k kiyimdamni, oq kiyimdamni?

— Qora.

Ergash peshonasini ishqadi.

— U bilan gaplashma, Nigora, — dedi u. — Sen uchun eng yaqin do'st menman. Shunga kelisha olamizmi?

Nazoratchi xotinga nigoh tashladim. U og'ir-vazmin, aqlli va sabrli edi, bizni jimgina kuzatmoqda edi. Menga yana eski gapini aytdi:

— Biz opa-singil tutinganmiz, unutmagansiz deb o'ylayman. Qotillik uchun esa kechirim so'rang, vijdoningiz yengil tortadi. O'tgan safar aytganimni qilmay to'polon ko'tardingiz. Bu odam sevgidan ku'ygach, hayotini ilm-fanga bag'ishladi. Ilmiy ishi sizning kasalligingizni o'rganish bo'lib chiqdi. Har bir fanning o'z predmeti bor...

Miyam g'uwilladi. Ergashga o'xshab men ham peshonamni ishqadim.

— Xo'sh? — dedi Ergash.

— Kechirim so'rayman, — ming'irladim men.

— Nima uchun?

— Odam o'ldirganim uchun.

— Qotilsan deb u aytdimi? — o'ng yonimga imo qildi Ergash.

— Opamning aybi yo'q... U xizmat vazifasini bajaryapti... Xuddi sen kabi... Bilasanmi, Ergash, kimsan? Boshimga kulfat tushib, eng qattiq qo'riqlanadigan qamoqxonaga keltirilganimda, «Nigora bilan o'zim shug'ullanaman, u mening qarindoshim, yoshligimdag'i sevgilim, meni ko'rsa,

yig'lab hamma narsani gapirib beradi» deb xomta'ma bo'lib bu yoqqa chopding. Sening predmeting emasman. Men tobutdagiman. Qabriston predmetiman.

— Iltimos, o'zingni qo'lga ol! — nihoyat, Ergashning ham jahli chiqdi. — Tuhmat qilyapsan! Tuhmat qanday gunoh ekanini mendan yaxshi bilasan!

— Tuhmat qilgan bo'lsam, kechir. Ayt-chi, bugun nega meni chaqirtirding? Sezyapmanki, ilmiy ishingdan tashqari senda qandaydir maqsad yashirin. Bir ishning hech qachon bitta sababi bo'lmaydi.

Ergash stulga cho'kib, menga qulayroq o'tirib olishni taklif etdi. Ikkimiz yuzma-yuz o'tirdik.

— Oyoq-qo'lingdagi kishanlarni yechishni so'rashimdan naf yo'q, — dedi Ergash, — baribir ruxsat berishmaydi. Muhimi, sen tiriksan va sog'-salomatsan. Bugun kasa-lingni ham yo'q deb hisoblaymiz va xayolan o't mishga qaytamiz. O't mish o'zga bir dunyo shaklida hamisha mavjud. Kelajakni yo'q qilish mumkin, lekin o't mishni yo'qotib bo'lmaydi. O't mish, bu — o'lim degani. Shuni anglashing kerakki, Nigora, sen faqat hozir tiriksan. O't mish davring allaqachon hayotdan ketgan. Faqat sening emas, hammaning o't mish o'lган. Agar o't mish tirik bo'lsa, uni o'z ko'zimiz bilan ko'rardik, tomosha qilardik, hidlardik, quchoqlardik, birga-birga yig'lashardik.

— Adashyapsan, istagan vaqtimda o't mishga qayta ola-man, — dedim bosh chayqab. — O't mishim tirikligi uchun ham bu yerdaman. Boshqalardan farqim ham shu.

— Unda o't mishingga boq-chi, meni ilk marta qayerda ko'rgansan?

— So'qmoqning boshida bir ahvolda turibman. Seni ilk marta uchratgan damlarimni ko'rishim uchun o't mishimning ichkarisiga kirishim kerak. Hali-verimadorim yetmaydi u yoqqa borishga... Qorong'ilik... qorong'ilik...

— Kel, unda sen haqingda men so‘zlab beraman, — dedi Ergash mungli bir qiyofada.

— So‘zla, — dedim tomog‘imga tiqilgan achchiq narsani yutib.

— Yoz kunlarining birida makkajo‘xori uvatida shamak terayotganimda, otam rahmatli chaqirib qoldi, — deb hikoyasini boshladi Ergash. — Quyosh botishdan avvalgi ajib bir dam edi. Sigirlarimiz podadan qaytishidan avval oxurlarini o‘tga to‘ldirib qo‘yardim.

«Velosipeding sozmi?» — so‘radi otam.

«Ha, soz, — deb og‘ilxona ayvonidagi qora «Ural»ga ko‘z tashladim. — Biror joyga borasizmi, ota?»

«Seni yubormoqchiman, — dedi padari buzrukvorim. — Mullasoya borib, Abdumurod tog‘amning uyidan Qur‘oni karimni olib kelishing kerak. Borib kelguningcha qorong‘i tushib qolsa ham, nachora. Menga ataylab Toshkentdan sotib olibdi».

O‘shanda hayotimni o‘zgartirib yuboradigan voqeal yuz berishi xayolimga ham kelmay, qo‘l-betimni yuvdimda, kiyimlarimni almashtirib, velosipedda olis Mullasoy qishlog‘iga jo‘nadim. Sakkizinchisinf o‘quvchisi edim. Sen esa yettinchi sinfda o‘qirding. Uzoqlashayotgan qarindoshlar bo‘lganimiz uchunmi, qishloqlarimiz oлиsligi va-jidanmi, o‘sha kungacha ko‘rishmaganmiz, bir-birimizni tanimaşdik. Ehtimol, go‘dakligimizda to‘y-ma’rakalarda onalarimiz qo‘llarida ko‘tarib yurganida, beg‘ubor nigoхlarimiz to‘qnashgandir, ammo eslolmaymiz. Hayotligimizda ilk marta qayerda uchrashganimizni, bir-birimizga jajji ko‘zchalarimizni tikib, go‘daklarcha g‘udranib qo‘yanimizni Qiyomatda bilib, Alloh mo‘jizasidan hayratlansak kerak.

Shunday qilib, velosipedimni uchirib, otamning maxsus topshirig‘ini bajarish uchun yo‘lga chiqdim. Mullasoya-cha to‘rtta qishloq oralab, keyin keng dala o‘rtasidagi tu-

proq yo'ldan yana uch-to'rt chaqirim yurish kerak edi. Ota-onam bilan bir necha marta tog'a yurtga — sening bobongnikiga to'y-tadbirlarga borganim esimda. To'rt qishloq yo'li ham, ularning orasidagi uzumzorli, tutzorli yo'l ham asfalt edi. Albatta, asfalt yo'lda tez yuradi odam. Quyosh qizarib, ufqqa yonboshlayotganida, qishloqlar ni ortda qoldirdim va dala oralab o'tgan tuproq yo'lning boshiga yetdim. Bug'doyi o'rilgan dalalardan qaytayotgan to'q mollar-u, shoshqaloq qo'y-qo'zilar, akkumulyatorsiz eski traktorlar-u eshakli odamlar uchraydigan yo'lning adog'ida — olis kun chiqarda yashil daraxtzorlarga burkan-gan, Mullasoy ko'zga tashlandi. U sening qishlog'ing edi, Nigora. Sen tug'ilib o'sgan makon. Bolalik chog'laringda ham go'zal diyor edi, hali-hanuz afsonaviydir. Har gal borganimda, seni eslayman, sening siymong har bir gulda, har bir daraxtda, umuman, qishlog'ing shakl-shamoyilida gavdalanaaveradi. Bir yigit shunday degandi: «Qachonki, Mullasoy qishlog'i yonidan o'tsam, bir vaqtlar shu qishloq-da yashagandek, yo'llarimga intizor bir malak bo'lgandek, yillar o'tib, barchasi o'tmishning qaytmash tubiga sho'ng'ib ketgandek, armon hislari suzib yurgandek tuyulaveradi». Ko'rdingmi, demak, qishlog'ingda o'ziga tortadigan nimadir yashaydi, nimadir ilohiy, bitta sen va men uchunmas, boshqalar uchun ham...

Shimimning pochasini qayirib, velosipedni jadal uchir-moqchi bo'lsam-da, o'nqir-cho'nqir tuproq yo'lda buning iloji yo'q edi. Ariqlar, o'ydim-chuqurlar, balchiqlar, ko'lmaklar tez-tez uchrardi.

Yura-yura nobop yo'ldan charchadim va chap tomon-dagi xiyol yaxshiroq yo'lga ko'zim tushdi. Bu yo'lga dashtning mayda tosh aralash sarg'ish tuprog'i to'shalgan edi. U Mullasoy tomonlarga cho'zilgan ihota daraxtzoriga tutashib ketgandi. Mendan ikki-uch yosh kichik bir bola eshagiga beda ortib, «ix, ix-e» deb jonivorni ayovsiz sava-lab kelayotgan ekan.

«Hoy do‘stim, manavi yo‘ldan borsam, Mullasoya tezroq yetamanmi?» — deb so‘radim undan.

«Yetasan, — dedi u sensirab. — Faqat ko‘priк buzilmagan bo‘lsa o‘ta olasan! Ko‘priк buzilgan bo‘lsa, qanot kerak».

«Avvallari mana bu to‘g‘ridagi yo‘ldan borganman. Qarasam, bu yoqda ham yo‘l bor. Yangi yo‘lmi?»

«Ha, yangi, ko‘rmayapsanmi? O‘zi Mullasoya boradigan yo‘l ko‘p. Dalaning o‘rtasidan ketsang ham Mullasoya yetasan. Huv ana, mullaharning qishlog‘i ko‘rinib turibduku».

«Rahmat», — dedim men tosh aralash tuproq qotib qolgan yo‘lga burilib.

Endigina velosipedning pedalini bosib, tezlikni oshirgandimki, haligi bola hushtak chaldi. Tormoz berib, bir oyog‘imni yerga tiradim.

«Nechanchi sifsan?» — qichqirib so‘radi u.

«Sakkiz. Sen-chi?»

«Men maktabni bitirganman, — burnini tortdi bola. — Eshagim sakkizinchи sifn, shuni aytmoqchiydim».

U eshagini savalab, jo‘nab qoldi. G‘alati bola ekan. Nima ham derdim. Yo‘l ko‘rsatganiga rahmat deb, velosipedimni yeldek uchirdim va dalalarni shamoldan himoya qilish uchun qad rostlagan azim tollar poyiga yetdim. Yo‘l Mullasoy tomonga bir oz cho‘zilib, keyin yana chapga — ikki chaqirimcha naridagi oq beton binolar va qaqqaygan artezian minorasi sari enib ketgandi. Aftidan yo‘l qishloq xo‘jalik texnikalari uchun bunyod etilgan qo‘rg‘onniki edi. Agar yuraversam, Mullasoy o‘ng tomonimda qolib ketardi. Yana yo‘l so‘ray desam, yaqin-atrofda odam zoti ko‘rinmasdi.

Shu damda qishlog‘ing tarafda traktor tarillab, tuproq ko‘tarma oldida bir ko‘rindiyu, telejkasini ergashtirib ko‘zdan yo‘qoldi.

«Traktor yurgan yo‘lga yetsam, marra meniki», — dedim

va velosipedimni yetaklab, bug'doyi o'rilgan daladan kesib o'ta boshladim. Bug'doyning ildizda qolgan qattiq poyalari velosiped g'ildiragini teshib, «bosonojka» deb ataladigan poyabzalimdan ham o'tib, oyog'imni jarohatlashi mumkin edi. Shu sababdan jo'yaklar oralab, ehtiyyot bo'lib yurdim. Nihoyat, dala etagiga eson-omon yetib, tuproq uyumlaridan oshib, shuvoqzor va yantoqzor ustidan chiqdim. Tikanlar oyog'imni shilmasligi uchun shimimning pocha-sini tushirdim. Baribir tog'alarning uyiga bir ahvolda yetib borishimni o'ylab, o'zimdan xafa bo'ldim. Soddaman-da! Nega anavi bolaning gapiga kirdim? «Eshak sakkizinchi sinfda o'qisa o'qir, ammo uning ustidagi bola aslida haqi-qiy eshak», degan yomon xayollar ham ko'nglimga keldi.

Yantoqzor maydonni ortda qoldirib, balandroq tuproq ko'tarmaga yetganimda, quyosh botib, oqshom cho'kdi. Adashmasam traktor mana shu tepalikning ortidagi yo'lidan o'tgan edi. Mullasoy tomonda qurbaqalar qurilladi, uzoqlarda itlar hurib, eshaklar hangrab, buzog'ini so'ragan si-girlarning mo'rashlari eshitildi.

Bir amallab tuproq ko'tarma ustiga chiqqanimda, qo'1 cho'za yetgulik masofada chiroqlari porlab Mullasoy qishlog'i namoyon bo'ldi. Ammo yo'lidan yomon adashgandim. Qishloqqa borish uchun ikki qirg'og'i tik jarlikdan iborat zovurdan o'tishim kerak edi. Bu biz tomonlarga boradigan katta kanalning shoxobchasi bo'lib, shosha-pisha qazilganidan, yilma-yil o'pirilib, jarlikka aylangandi. Jarlik tubidan uzun-uzun qamishlar o'sib chiqqandi. Ko'z ilg'agan yergacha goh o'ngimga, goh so'limga boqdim va hech qayerda ko'priordan nishona ko'rmadim. Yaramas bola bekorga qanot kerak demagan ekan. Zovurga tushib, jarlikdan iborat qirg'oqqa velosipedni ko'tarib chiqish u yodda tursin, velosipedim narvonga aylanib qolsa ham, o'tishim dargumon edi. Traktor zovurning narigi tarafida-gi yo'lidan o'tgandi. Yo'lidan narida bug'doyi o'rilgan dala,

undan so'ng ikki qator tollar, keyin uzumzor va... Mulla-soy. Uzog'i bilan, bir-bir yarim chaqirim, xolos.

Eng to'g'ri yo'l — eshakli bola uchragan yo'lni topish, dalani ko'ndalangiga kesib o'tib bo'lsa ham, o'sha yo'lga qaytib chiqish edi.

Nigora, ayt-chi, men nima qilganman o'shanda?

— Kalima qaytargansiz, — dedim panjara ortiga tush-ganimdan beri ilk bor uni sizlab.

Ergash avvalgidan ham chiroyli jilmaydi.

— To'g'ri aytding, — dedi u, — kalima qaytardim. Shunda yuragimga bir yengillik kelib, bu adashishning ham xosi-yati borligini anglab yetdim. Bugun qo'llarim Qur'oni karimni ko'tarib, otamga eltab berishi kerak edi. Meni oddiy bir eshakli bola yo'ldan adashtirib, halok etishi mumkin emasdi. Hammasiga aqlim yetdi, hammasini to'g'ri qabul qildim va:

«Yo Parvardigori olam...» — dedim.

Shu payt taqdir menga zovurning narigi yogasidan choppib kelayotgan ajabtovur maxluqni ko'rsatdi. U oqsoqlanib, lo'killab chopardi. Ayol libosida edi. Boshida ro'moli, eg-nida uzun ko'ylak-lozimi bo'lgan, aql-u hushi uchgan qirq yoshlardagi ozg'in xotin edi.

Meni ko'rmadi. Zovurning bu yog'ida odam zotini uchrataman deb xayoliga ham keltirmadi.

«Assalomu alaykum, yanga!» — deb xitob qildim.

U yugurib borayotib, atrofsa alangladi, ko'zları yana meni ko'rmadi.

«Hoy yanga!» dedim qo'limni og'zimga karnay qilib. Shunda g'alati xotin taqqa to'xtab, Oydan tushgan mavjudotni uchratgandek baqrayib qoldi. «Bor-e!» degandek qo'l siltab, yugurib ketmoqchi bo'ldi, lekin soniyalar ichida tafakkur qilib, iziga qaytdi-da, to'g'rimga kelib to'xtadi. Dam menga, dam o'rtadagi jarlikka qarab, taraddudlandi. Fahmladimki, ayol ruhan sog'lom emasdi. Shunga qaramay, yaxshilik tashvishida edi.

«Uv-v-v... A-a-u-u-u...» — tushunarsiz tovushlar chiqarib, chopib kelgan tomoniga ishora qildi.

«Yo'l bormi? Qanday o'taman?» — dedim men.

Ayol titragan misoli bosh chayqab, ikki chakkasini ushlagancha faryod urdi.

«Nima bo'ldi?» — deya velosipedimni tashlab, jar labiga keldim.

Pastlikda loyqalangan zovur bir to'lqinlanib, bir girdob yasab, bir sokinlashib vahm bilan oqib yotardi.

«U... u... cho'k... cho'kadi... cho'kadi... Hozir... ho... ho...» — deb meni imlab chaqirgancha, iziga qaytib yugurdi.

Falokat yuz bergen edi. Kimdir cho'kmoqda. Mendan boshqa yordam beradigan odam yo'q. Hoynahoy, traktorchi bu xotinni telba deb o'ylab, to'xtamasdan o'tib ketganga o'xshaydi. Qosh qorayib kelyapti. Yulduzlar chiqquncha, bu yoqda — taqdir osmonida bir bandaning yulduzi so'nadi.

«Yordam beraman! Qayerda u?» deya unga yonma-yon yo'nalishda jarlik bo'ylab chopdim. Tezda avvalgidan-da xavfli girdobsimon havza oldida yo'lim tugadi. Ikki sohilning jarligi o'pirilib, girdobli hovuz paydo bo'lgan edi. Suv o'rtasida bir daraxtning ildizi qorayib ko'rinsa-da, loyqa oqim buralib-buralib, qulqullab-qulqullab oqardi. Agar suvga tushgudek bo'lsam, yo girdob meni domiga tortib ketadi, yo oyog'im nimagadir ilakishib, g'arq bo'lishim tayin edi.

Aksiga olib, haligi xotin o'z yo'lidan o'ngga enib, ko'zimga ko'rinxanay qoldi. Cho'kayotgan odam zovurning narigi tomonida irmoqlardan hosil bo'lgan qo'shimcha jarlik tubidagi suvda ekanini angladim. Buning uchun katta zovurdan suzib o'tishim kerak edi. Qirg'oqdagi do'nglikchaga chiqib, bo'ynimni cho'zib-cho'zib qaradim va xotin chopib ketgan yerda, zovurning narigi tomonida qora tollar sari uzangan jarlikni ko'rdim. Qulqullab-qulqullab oqardi. Fursat g'animat edi. Bir tayoqni olib, o'rtasiga tizza qo'yib,

qarsillatib sindirdim. Bir bo‘lagini tashlab yubordim, ikkinchisi tayyor qoziq edi.

«Yo Alloh, o‘zing madadkor bo‘l!» — deb qirg‘oqning nisbatan qiya joyidan suvga sirg‘alib tushib, jon-jahdim bilan narigi qirg‘oqqa suzdim. Tor o‘zanda tez oqayotgan suv halok etishi hech gap emasdi, ammo mo‘jiza yuz berdi: narigi qirg‘oqning jarligiga yetdim. So‘ngra qirg‘oqni paypaslab, qamish va yantoq ildizlarini, eng muhim, sal nishabroq joyni axtarib, oqim bo‘ylab oqdim. Qulayroq joyni topgan onimda, ildizlarni changallab, yog‘och qoziqni jon-jahdim bilan sanchdim. Ushlash uchun uyacha yasadim. Keyin yuqoriga tirmashib, qoziqni yanada balandroqqa sanchdim. Shu ko‘yi ming bir azobda tepaga chiqqanimda, ust-boshim shalabbo va loy, ko‘ylagimning tugmalari uzilgan, tirnoqlarim achishmoqda edi. Muhimi, tirik edim, zovurdan o‘tishni uddalagandim.

Haligi xotin meni ko‘rib, imlab chaqirdi, ortidan yugurdim. Yuz qadamlardan so‘ng zovurdan boshlanib, Mullasoyning tollari tomon cho‘zilgan jarlikka yetdik. Bu jarlik ham suvni noto‘g‘ri taqsimlash, ariqqa yetarli suvni oqizmaslik natijasida yerning o‘pirilishidan hosil bo‘lgandi.

«Ana, ana!..» — dedi xotin pastga qo‘lini bigiz qilib.

Jarlik tubida bir sohibjamol qiz yarim beligacha suyuq sarg‘ish loyga botib yotardi. Har qimirlaganida, oyog‘i loy tubidagi qiyalikdan toyib, tobora chuqrarroqqa siljib, loy bo‘g‘zi sari yaqinlashardi.

U sen eding, Nigora!

Sanoqli daqiqalardan keyin hayoting shami so‘nishi mumkin edi. Otam meni Qur‘oni karimga yuborganida, seni xalos etishga ham yuborgan bo‘lib chiqdi. Eshakdag‘i tarbiyasiz bolaga ham Xudoning rahmi kelib, yaxshilik qilishga sababchi qildimi yoinki eshagi tez yurib, u bilan meni yo’llar ayro tushgan nuqtada uchrashtirdimi, bu yog‘ini ham hozircha bilolmaymiz.

«Qimirlama! Qattiq yerdan mahkam ushla! Tirnog'ingni botirib bo'lsa ham!» — qichqirdim men.

Atrofga alanglab, na uzun tayoqni, na korimizga yaray-digan biror tuzukroq narsani ko'rdim. Velosipedim yonimda bo'lganida edi, g'ildiragidan ushlab, pastga tushirardim, sen ikkinchi g'ildiragidan tutarding.

«Mol... molini... iz... izlab... Yiqildi... yi... qil... di...» — dedi xotin.

O'shandasigiringni axtarib yurib, falokatga yo'liqqanding. Duduq xotin esa hamrohing edi, ikkalang kech bo'lganida, bu jarlikka kelib qolgandinglar. Ko'nglimdan o'zimning shimimni va haligi xotinning ko'ylagini yechib, arqon yasash fikri ham o'tdi. Biroq bu arqonni yasash uchun xo-tinning ko'ylagini yechib olguncha sen cho'kib ketarding.

Traktorni esladim. Uning telejkasida nimadir qorayib ko'ringandi. Modomiki, traktor ham taqdir yo'llarimizda meni bu yoqqa chorlagan belgi ekan, yana nimadandir umid bor edi. O'ylash kerak, umid qilish kerak. Zero, dunyoda hech bir narsa bejiz voqe bo'lmagay.

Traktor o'tgan yo'lga chopib chiqib, ikki tarafga yalt-yult qarab, uzoqda bir shoxga ko'zim tushdi. Telyajkadagi o'tinlar orasidan uzun tol shoxi tushib qolgandi. Yugurib borib, shoxni olib keldim-da, g'adir-budir uchini senga tut-dim. Sen o'lim botqog'idan sekin-asta sug'urilib, jarlikdan turtib chiqqan quruq yerga o'tib olding. Qo'rquv va char-choq seni holdan toydirgandi. Senga ko'pdan-ko'p dalda beruvchi so'zlar aytdim. Boshingni ko'tarib, yana shoxdan tutding va hayot maydoniga tirik chiqding. Yurolmading. Seni qo'llarimda ko'tarib, Mullasoy qishlog'iga yo'l oldim. Hamroh xotin esa bizdan oldinda lo'killab chopib borar, tinimsiz yig'lar, har o'n-yigirma qadamda bizga qarab qo'yardi. Men charchagandim, qadamlarim sustlashdi. Xotin bizdan ancha ilgarilab ketdi. Aksiga olib, hech bir traktor, arava, eshak uchramadi.

Tollar tagiga yetganimda, qorong'i tushdi. Sen ingranib

qo‘yding, lekin ko‘zingni ochmading. O‘lib qolishingdan qo‘rqdim. Shunday esa-da, hali ko‘p yashashingni ham yuragim sezardi.

Bir payt qorong‘ilik qo‘ynida chopib kelayotgan uch-to‘rt erkakning sharpasi ko‘rindi. Ular bizga ro‘para bo‘lgan zahoti, biri qo‘limdan seni oldi.

«Nima bo‘ldi?» — dag‘dag‘a aralash so‘radi mendan. Keyin javobimni kutmay, seni yotqizib, tomiringni ushladi, ko‘zlariningni ochib ko‘rdi.

«Yiqilib tushibdi, — dedim men, — jarlikka...»

«Tanimadim? Kimning o‘g‘lisan?» — deb biri menga yaqinlashdi.

«Abdurahim akaning o‘g‘li Ergashman, — deb javob berdim. — Millasoyga, Abdumurod tog‘amnikiga kelayotgandim».

«Ie, Ergash jiyan-ku!» — dedi sening ustingga engashib, birinchi yordam ko‘rsatayotgan odam.

U sening otang Abdumurod tog‘a edi.

Menga boshdan-oyoq ust-bosh berishdi. Yaqinda olin-gan «Sura» velosipedini «Moskvich»ga ortishdi. (O‘zimning velosipedimni ertaga topib, o‘rniga oladigan bo‘lishdi.) Onang o‘limdan qutqarganim uchun uzundan-uzoq duo qildi. Duo hali-hanuz quloqlarim ostida jaranglaydi. Kuchli psixiatr bo‘lib yetishgan esam-da, duo menga qayerdan eshitilayotganini hozirgacha bilmayman, bilolmayman.

O‘shandan so‘ng Millasoydagি tog‘alar qishlog‘ining qahramoniga aylandim. Keyin tog‘alarning xonadonidagi to‘yga bordim. To‘ylar hovlilarda o‘tkazilardi. Shunday bir odad bor edi: qarindoshlarning o‘g‘illari to‘ylarda choy, non, ovqat tashib, boshdan-oxir xizmatda bo‘lishardi. Qizlar ham xizmatdan benasib qolishmasdi. Esingdami, o‘shanda sen kosa-tovoq yuvayotganding. Men patnis ko‘tarib, yuvilgan kosalardan to‘rttasini olganimda, ko‘zlarimiz to‘qnashdi.

«Assalomu alaykum, aka, yaxshimisiz?» — deding sen.

«Valaykum assalom», — deya oldim arang.

Jarlikdagi voqeordan so'ng o'n chandon go'zallahib, go'yoki pari qiyofasiga kirgan eding. Ko'zlariningni yerga tikkaningda nayza-nayza kipriklaring jon olar darajada senga chiroy baxsh etardi. Kamsuqum va dilrabo, kamgap va sho'x eding, yetti iqlim malikalari ham sen kabi bo'lolmas edi. Men – bo'z yigit bunday sehrli ovozga, bunday shirin muomalaga, bunday husn-malohatga bardosh beradigan holda emasdik. Yuragim jiz etdi... Yuragim faqat sendan iborat bo'lib qoldi... Birinchi muhabbatim eding, Nigora!.. Hech kimni seni sevganimchalik sevmadim, sevolmasam ham kerak...

– Endi bu gaplaringizni qo'ying, – dedim men Ergashning hikoyasi shu joyga yetgach. – Biz boshqa-boshqa olam vakillarimiz. O'tmishni eslash asnosida bo'lsa ham, menga ishqdan gapirmang. Sizga aytishganmi, yo'qmi, kameramda o'tirib, kundalik yozyapman. Daftarin ni «Telba kelinning kundaligi» deb atadim. Aytgan har bir gapingiz aslida kundaligimda ro'y beryapti va kim hozir shu satrlarni o'qiyotgan bo'lsa, u ham kundaligimning ichiga kirib qolgan hisoblanadi. Kundalikdan tashqaridagi olam mana shu satrlarni o'qimayotgan odamlar uchungina mayjud.

– Olam mangu ekan, sen ham mangulik ichidasan, ya'ni olam ichida yashaysan va shunday ekan, sen ham mangusan, – dedi Ergash. – O'sha damlardagi taassurotlarimni gapirdim, xolos. Bugun qarshimda xotirasini yo'qotgan, ruhiy xastalikka yo'liqqan, oilasidagi muammolar tufayli ezilgan bir bechora bemor qiyofasida o'tiribsani. Seni ilk marta qayerda uchratganimni-yu qanday sevib qolganimni aynan o'zingga gapirib berishdan maqsadim shuki, hech bo'lmasa, o'sha davrlar yodingga tushar, deya umid qildim. O'tmishda senda yovuzlik tugul, yomonlikning mitti zarrachasi ham yo'q edi. Mana shu haqiqatni etkazmoqchiman...

– Ergash aka, – dedim boshimni egib, – siz aytgan voqealarni elas-elas esladim. Bugun ikki narsa haqida bil-

mogchi edim. Meni nega sizga emas, Bo‘riga uzatishdi?.. Va nega menga ko‘zgu berishmayapti?

— Quloq sol, Nigora, — uh tortdi Ergash, — bizning taqdirimizni ayro tushirgan voqeanning ildizi seni qutqar-gan kunimga borib taqaladi. O’shanda qo’limda ko‘tarib kelayotganimda, yo’limdan chiqqan odamlar orasida otang bilan birga Abu Mannop degan kishi ham bor edi. U «Tani-madim? Kimning o‘g‘lisan?» degan kimsadir. Besh vaqt namoz o‘qirdi, ro‘zani kanda qilmay tutardi, umrida aroq ichmagan, to‘ylarida aroq qo‘ymagan otang kabi xo‘dojo‘y edi. Biroq har qanday xudojo‘y insonni ham ibodatdan tashqari hayot maydonida to‘liq ezgu amallarni qiladi deb bo‘lmas ekan. Taqdir bizning o‘rtamizga Abu Mannop degan dushmanni yuborgandi. Senga ko‘zgu berilmayot-ganiga ham uning aloqasi bor. Endi Abu Mannop tarixini eshit.

— U kishi ham yodimga tushdi. Otamning qalin uka-xonlaridan edi. Xushchaqchaq yurganini, birovga ochiq chehra bilan gapirganini ko‘rmaganman. Abu Mannop aka o‘zini odamlardan olib qochardi. Xotiniga ko‘p ozor beradi, deb eshitganman... Xotini kim edi-ya?.. Ismi... ismi... Yo boshqamikan?.. — Asablarim tarang tortilib, ko‘zlarimni yumdim. — Xayolimning chetida turibdi... U... u...

Eslash uchun chirangandim, miyamning tutuni chiqib ketayozdi.

— Ismini unutdingmi? — deb Ergash battar asabiylash-tirdi. — «M».

— «M»?

— Ismi «M» bilan boshlanadi.

— Madina opam!.. — qichqirib yubordim men.

— Ko‘rdingmi, sen ko‘p narsani eslolasan. Ruhing boshqa olamga o‘tib, xotirangga ham salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Muhimi, barchasini ortga qaytarsa bo‘ladi.

— Madina opam yaxshi ayol edi... Eri... eh, eriga o‘xshamasdi... — hapriqib ketdi yuragim. — Umuman

o'xshamasdi... Madina opam biror marta yomonlik qilmagan, ha, hech kimga yomonlik qilmagan... U ayoldan ko'p narsa o'rganganman... Eri... Abu Mannop aka nega bizga dushman bo'lgan, tushunolmayapman... Yomon odam emasdi shekilli... O'z foydasini ko'p o'yldi, shunisini bilaman.

Ergash menga ko'zoynagi ortidan tikilib qoldi. So'ng:

— Nigora, — dedi, — Madina opang senga sovchilikka borgan.

— Yodimda yo'q.

— Seni kimga so'rab borganini aytaymi?

— Qarindoshlaridan biriga. Hoynahoy, sizga emas.

— Adashding, o'z eriga xotinlikka so'ragan. Agar eri seni tan mahramlikka olsa, Madina opa ikkingiz bir umr opa-singil bo'lib yashashingiz kutilayotgan edi. Sening dunyoqarashing ham, Madina opaning dunyoqarashi ham, qolaversa, otangning, Abu Mannopning — barcha Mulla-soy qishlog'i ahlining dunyoqarashi buni odatiy deb qabul qilayotgandi.

Ergashning nigohida achinishni ham, istehzoni ham ko'rdim. «Madina opa ko'plab soliha ayollar hayotida muqarrar yuz beradigan kundoshlik onlari yaqin ekan, kundoshni o'zi tanlab qo'ya qolgani ma'qul bo'lgan», deb o'yladim. U shunday ayol ediki, erining istagini halol deb topsa, qarshi bormasdi. Biroq Abu Mannop akaning baayni menga uylanish istagi kaminaga jumboq edi. Nega ayanan men? U tug'ishgan singildek ko'rmasmidi? Qachon tan mahrami qilish o'yi tushdi ko'ngliga?

— Sho'ro zamoni tugadi, endi bir xotinli tizim ham barham topib, har kim o'zi xohlagan boshi ochiq juvonni yoki turmushga chiqmagan qizni xotinining ustiga nikohlab olib, ta'minlab qo'ysa, hech qanday yomon tomoni yo'q, degan gaplar Mullasoydagi to'y-ma'rakalarda ko'p gapirlardi, — Ergash uzundan-uzoq jumlalarni qatorlashtirdi.
— Bilaklarini, oyoqlarini, bo'ynini ko'z-ko'z qilib yuradi-

gan qo‘sni qishloq ahli ustidan sening qishlog‘ing odamlari kulishardi, hatto dayuslar deb atab, ba’zan janjallashib ham qolishardi. Qishlog‘ing odamlari ulardan aroqxo‘r, dinsiz, millatsiz avlod tug‘iladi, musulmonchilikning o‘rniga qandaydir jamoa madaniyati ustunlikka erishadi, hammang do‘zaxda kuyasanlar, deyishar, ersiz qolib ketgan juvonlar yoki o‘tirib qolgan qizlar nikohlab olinmasa, kimdir yo‘ldan urib, buzilib ketadi, deb hisoblashardi. O‘n yettiqa kirdimi, ajrashdimi, eri vafot etdimi, qishlog‘ingda ko‘p ham qismat haqida bosh qotirib o‘tirilmasdi. Kimgadir nikohlanadi, tamom. Ularning gaplariga ayrim dalillar bor edi. Masalan, mayxo‘r odamlarning farzandlari ham to‘ylarda ichib, chekib, mast bo‘lib, xuddi otasidek mushtlashishsa, qishlog‘ing ahli «Biz aytmadikmi sizlarga, ko‘zlarining ochinglar», deyishardi. Eri bilan ajrashib, endi o‘zim uchun yashayman, degan maqsadda yaltir-yulturlarni kiyib, ishdan kimningdir mashinasida kechroq qaytgan juvonlarni ko‘rsatishib, «ana, fohishaga aylanib qopti» deyishardi. Inson huquqlari, erkinlik degan tushuncha bor, buni bilasiz.

— Qishlog‘im muhit yodimda, — deb istehzo ila bosh silkidim. — Siz aytayotgan qavm farzandi edim, namoz o‘qib, ro‘zalarni xatosiz tutardim, otamning aytganlari qonun edi, lekin tuhmatchi emasdum. Birovni kofir demaganman, fohisha demaganman, insoniy huquqlarini poymol ham qilmaganman. Ogohlantirgan bo‘lishim mumkin, ishlari xato degandirman, ehtimol. Siz shaharda o‘qib, har xil odamlar orasida ko‘p yurib, bizning qishloq madaniyatini pastga urib gapiryapsiz. Odadta, ziyorolar birov larning madaniyatiga hurmat bilan yondashishlari lozim emasmi? Unutmang, aka, bu dunyoda odam erkin yashashi kerak! Erkin yashashga mening ham haqqim bor, shundaymi?

— Albatta.

— Unda eshitting! Erkinlik, bu — poklik degani! Kimki nopol ekan, u erkin emas, bo‘lajak tutqundir. Bu dunyo-

da qamalmasa, u dunyoda baribir tutiladi. Erkinlik, bu — ro'zasini tutib, namozini o'qib, gunohlardan qutulib, ko'ngli u dunyodan xotirjam bo'lib, faqat yaxshi ishlarni qilib yashash! Hech kimdan qarzi yo'q, hech kimga yomonlik qilmagan odamgina erkindir! Erkinlik ota-bobolarimiz, ona-momolarimiz o'rgatgan o'gitlarni chin yurakdan qabul qilib, sodiq bo'lish! Yana qanday ta'rif beray? Men erkinlikni shunday tushunaman! Boshqacha erkinlikni o'lsam ham qabul qilmayman! Sizning gapingizdan erkinlik deganda istagan kiyimini kiyib, hatto ko'ksi ochiq kiyimni ham o'ziga loyiq deb, sigaret chekib, sharob ichib, xohlagan qilig'ini qilib yurish mumkin, degan hid sezilyapti. Shu erkinlikmi? Shu erkinlik sizga, xotiningizga, qizlaringizga, kelinlaringizga kerakmi? Butun mamlakatga, butun Yer shariga kerakmi? Ko'ryapman, sizlar uchun kerak! Marhamat, o'shanaqa erkinliklarni istaganlaringizcha olavering. Chunki u bizga kerakmas, biz uchun u chiqindi. Jaholat davrida chiqindiga chiqarib tashlaganmiz. Bir ming uch yuz yil avval «musor»ga chiqarib tashlagan buzuqchiliklarni bugun qabul qilyapsiz. Chunki bu buzuqchiliklarni sizlar o'ylab topmagansizlar, u avval bor edi, ha, bor edi, bor edi...

- Yo'q, Nigora, meni noto'g'ri tushunding...
- To'xtang! Sizlar meni telba deb qabul qilyapsizlar-
mi, bir narsani unutmanglar! Mening dunyoqarashim, bu
— meniki! Mening dunyoqarashimni telbalik deb atasangiz,
u holda men uchun sizlarniki o'z-o'zidan telbalik
deb hisoblanmaydimi? Siz psixiatr, men jinni ekanman,
xo'p, xo'p, ammo bitta narsani mushohada qiling! Mening
hayotim sizlarning ko'zlarining bilan qaralsa, qora rangda
ekan, men uchun u oq rangda. Ranglar mos tushmayap-
timi? Juda soz! Bundan chiqdi, mening hayotimdan turib
qaralsa, sizlarniki qora bo'lib ko'rindi. Xo'sh, kim erkin?
Ayting, kim erkin? Menmi yo sizlar?
- Hammani bitta qolipga solma...

— Shunaqami? Sizningcha, men sizlarni bitta qolipga solib, menga o'xshanglar deyapmanmi? Qachon?! — Birdan g'azabim jo'shib, qichqirib yubordim: — Hech qachon! Hech qachon!.. — Keyin o'zimni tutolmay ho'ngrab yig'ladim. — Qamoqxonalaringga tiqib qo'yib, nima istaysanlar?! O'zimning hayotimni erkinlik deb hisoblaganim uchunmi? Axir, sizlarning hayotingizni qaysi aql, qaysi imon bilan erkinlik deyman? Sizlardek yashagan kunim Ollohim jonomni olgani ming marta yaxshi-ku!

Ergash yupatmoqchi bo'lib o'rnidan qo'zg'algan edi, kishanlarimni shaqirlatib, po'pisa qildim:

— Yaqinlashmang menga! Gap boshladingizmi, endi oxirigacha eshititing! Erkinlik har bir odamning o'zida, hayotida, turmush-ro'zg'orida yashaydi. Men o'z uyimda erkin edim, sizlar ham o'z uyingizda erkin edilaringiz. Men... men... axir, sizlarni o'zimga o'xshatish uchun kuch ishlatmadim-ku! Qachon izimdan yuringlar deb targ'ib qildim? Qachon birortangizni paranjiga chirmadim, ro'za tutishga da'vat qildim, ibodatga majburladim? Qildimmi shularni?! Yo'q, yo'q! Har kim o'zining erkinligidan foydalanib, kim erkinlikni qanday tushunsa, shunday yashab kelayotgandi. Biroq sizlar menga yuborgan Bo'ri degan shaxs og'zimga aroq quyishgacha, o'lsasi qilib do'pposlashgacha bordi, meni o'z o'rtog'iga, Ibodga berib turib, o'zi esa uning xotini bilan raqs tushmoqchi bo'ldi. Ro'za tuttirmaslikka, ibodat qildirmaslikka, hijobimni yechtirishga urindi. Siz Toshkentdan kelguningizcha, meni terrorchi deb gumon qilishgan ekan, sizlar emasmisizlar mening hayotimga, mening dunyo-qarashimga bostirib kirgan bosqinchilar? Gapiring! Men ruhiy kasal ekanman, agar shu ruhiy kasallik bo'lsa, men abadiy ruhiy kasal bo'lib qolishga tayyorman.

— Bo'ri sening ering edi, Nigora, — achinib bosh chay-qadi Ergash. — Uni sening hayotingga biz yubormaganmiz, misol uchun, aynan men yubormaganman. Otang seni unga turmushga berdi. Bo'ri sening shar'iy ering! Biz

bu yerda shu haqda gaplashayotgandik, sen o'zing qizishib ketyapsan. Unutma, men sen tarafdaman. Senga hech qanday xusumatim, g'arazim yo'q. Maqsadim, seni o'zing xohlagan o'sha erkinlikka olib chiqish. Bugun qilgan ishlaringni ko'rib, seni taniyolmay tursam-da, o'tmishda qanday go'zal qalb sohibasi bo'lganiningni bot-bot takrorlayotganim bejiz emas. Hozir aytgan gaplarim qishlog'ing muhitini ko'z oldingda jonlantirish edi, xolos. Abu Mannopning xotini o'z eriga so'rab kelganida nima deb javob bergenningni aytaymi?

— Men... o'zim... — dedim-u miyam bo'shab, huvillab qoldi. Boshimni egdim. Ko'z yoshlarim kishanlarimga tomdi.

— Nigora, — pichirladi nazoratchi xotin qulog'imga, — psixiatrni haqorat qildingiz. U va oilasiga, madaniyati va e'tiqodiga til tekkizmang. Axir, siz tarbiya ko'rgan muslima ayolsiz! Madina opadan qanday o'rgangan bo'lsangiz, boshqa qiz-juvonlar ham sizdan andaza olishi kerak. Shuni unutmangki, dunyoqarashingiz hozir ikkinchi masala. Qamoqxonaga sizni birinchi masala bo'yicha, ya'ni qotillik uchun keltirishgan. Men emas, siz qotilsiz.

— Madina opangning taklifini chiroyli rad etding, — dedi Ergash. — Chunki qalbingda men yashardim, meni sevarding. Madina opadan ko'p narsani o'rganganman deyapsan. Uning eriga turmushga chiqmading va opasingil bo'lib yashamagansan, birga ishlamagansan. Balki qo'ng'iroqlashib turgandirsizlar?

— He, yo'q, opani bu ishlarga aralashtirmang. U bilan gaplashmaganman... Yurish-turishiga, o'zini tutishiga qarab o'rganganman... — ko'z yoshlarimni artdim. — U ayol men uchun ideal edi, bundan keyin ham idealligicha qoladi. Sizlarning xotinlaringiz hech qachon ideal bo'lolmaydi... Xotinlaringiz haromdan rashk qilishi yaxshi, lekin... haloldan ham rashk qilishi... Hammasini bir go'r deb biladi...

Ergash kulimsirab, uh tortdi va:

— Senga uylanganimda ustingga xotin olib berarkansanda? Obbo, otamning tog‘asining qizi-ey! — dedi. — Men ham musulmonman, alhamdulilloh, ammo ikkita xotinning aslo keragi yo‘q.

— Ha, chunki siz ikkinchi xotin uchun javob berolmay siz. Tanlagan yo‘lingiz bir xotinli tizim... Bitta xotin va ko‘chada o‘nlab ko‘zi suzuklar...

— Seningcha, Abu Mannop ikki xotinga munosib edi mi? O‘sha soqoltoya sen kerak emasding. U vaqtincha nikohlab olib, vaqtincha yashab, keyin javobingni berardi. Abu Mannop uchun joriya qatori bo‘larding. Bu — achiq haqiqat! Tag‘in yana dod solma! Abu Mannop diniy ekstremizmda ayblanib qamalganlarning badavlat qarindoshlaridan, muridlaridan poralar olib turgan. Bu poralar evaziga u «falon kishi yaxshi odam, mahalla faollaridan edi, qamoqdan chiqarsanglar, biz kafillikka olamiz, ikkinchi marta adashmaydi» deb xatlar yozgan, tegishli tashkilotlarga yugurgan. Puli ko‘paya boshlagach, ikkinchi xotin olishga haqqi borligini Madina opangizning miy sigma quyishga kirishgan. Ayrim sodda boylar «hoji aka, manavi pulni masjidga atagandim» deb berib qo‘yishsa, katta qismini cho‘ntakka urib yuborgan. Bu ma’lumotlarni organ xodimlaridan eshitdim. Yolg‘on desam, Abu Mannop qanday qilib pulsurga aylanganiga aqlim eytmayapti. Qaysi pulga boyib ketdi? U pulga muhtoj bevalarga, yesirlarga, yetimlarga yordam berish savob deb, shu savob bahonasi ba’zi chiroyliroq xotinlarni yashirincha nikohiga olib, vaqtincha yashagan. Bu ham endi aniqlandi. Keyin shartnomasi asosidagi joriya xotin joniga tekkach, javobini bergen. Yashirin nikohidagi xotinni «ko‘chaga tashlab qo‘ymay», o‘ziga o‘xshagan hamtovog‘iga tavsiya etgan. O‘z navbatida hamtovog‘i ham oldingi nikohidagi biror ofatijonni uning o‘rniga tavsiya qilgan. Ichmaganimizdan keyin, chekma-

ganimizdan keyin dunyoviy lazzatlarning qaysilaridandiratib ko'rishimiz kerak-da, deyishgan.

— Nafratingiz cheksiz ekan.
— Nafrat emas! Xohlagan noma'qulchiligini qilmaydimi menga desa! Ular, ming afsuski, ekstremistlarning puldor qarindoshlaridan olingan poralar, masjidga deb berilgan hadyalar, yana qanaqadir tushumlar evaziga shu ishlarni qilgan. Madina opa pok ayol. Erining qilmishlaridan bexabar bo'lgan. Abu Mannop faqat seni, ya'ni turmushga chiqmagan yosh qizni unga aytgan. Nigoraga uylanmoq-chiman, sen rozi bo'lishing kerak, aks holda eringning shar'iy istaklariga qarshi chiqib, gunohga botasan, degan. Avvalgi joriyasifat xotinlarini sir tutgan. Aslida sen Abu Mannopning dunyoda ko'z ochib ko'rgan ikkinchi xotini emas, kim biladi, qirqinchi xotini bo'larmiding! Ishon-mayapsan-a? Abu Mannop akadan bu qiliqlar chiqmaydi, demoqchisan-a? Shunaqa bir g'alati g'oyasi bor ekan: oilangda yashaydigan birinchi xotining, bu — haqiqiy xotin, farzandlaring onasi. Uning javobini berib, kimgadir tavsiya etmaysan. Anavi pulga muhtoj yesir juvonlar esa vaqtinchalik xotinlar. Ularni joriya o'rnida ko'rsa bo'ladi, almashsa bo'ladi va hokazo...

— Va hokazomi? — dedim labimni tishlashdan to'xtab.
— Abu Mannop akani misol keltirib, mendan nima kut-yapsiz? Yig'lab, afsuslanaymi? Uning nomini eshitib, g'ijinim kelsinmi? Yoki hamma musulmon erkaklar shunaqa ma'naviy buzuq ekan, cherkovga borib cho'qingan ma'qul, eng yaxshisi, hech qaysi dinga e'tiqod qilmay, dahriy bo'lish kerak, deymi? Ruhshunos bo'la turib, nega aqlingizni yo'qotyapsiz, Ergash aka? Dinning yaxshi yoki yomonligini Abu Mannop akaga qarab belgilaymanmi hech zamonda? Yoshligingizda tappa-tuzuk odam edingiz-ku? Kim yo'ldan urdi? Darvinmi?

Ergash menga ajablanib qaradi. Men esa ukollar ta'sirida o'zimni nisbatan ancha bosiq tutayotganimni anglab

o‘tirardim. Hatto, «Darvinmi?» deb hazilomuz kinoya qilishga-da tilim aylandi. Shu tobda Ergashga ham, soqchilarga ham – birortasiga hujum qilish niyatim yo‘q edi.

— Biz nega turmush qurmaganimizni o‘zing so‘rading, — dedi Ergash. — Men Abu Mannop haqida so‘z ochdim. U bizni ikki tomonga ajratib yuborgani uchun azbaroyi yomon ko‘rganimdan emas, dalillarim bo‘lgani sabab haqiqatni gapiryapman. Abu Mannop haddidan oshib ketdi. Oxir-oqibat seni ko‘z ostiga oldi. To‘y-ma’rakalarda «erkak kishi balog‘atga yetgach, darhol uylanishi lozim, shunda ma’naviy buzilib, har xil zinolardan saqlanadi, o‘ttiz-qirq yoshida ro‘zg‘orini tiklab olgach, yana bir qizga uylansa bo‘ladi, dinda to‘rtta xotinga ruxsat berilgan, lekin biz – faqirlarga ikkitasi ham bo‘ladi, shunda dunyoda fohishalar ham yo‘qoladi, zinolar ham», deb odamlarning ongi ga singdira boshladi. Bu gapi ko‘plab erkaklarga moydek yoqardi. O‘ttiz va qirq yosh oralig‘ida o‘n etti-o‘n sak-kiz yoshli hurliqoga uylanish orzulari edi, buning ustiga tashabbusga xotini ham bosh qo‘sib, «dadasi, shariat qoidalarini to‘liq bajaryapsiz, mukofotiga endi yosh bir qizga uylansangiz, o‘zim uni singlimdek ko‘rib, ro‘zg‘or yumushlariga o‘rgatsam», deb tursa. Qalay, bir qarashda romantik hayotmi? Ha, uning targ‘ibotidan maqsad – sen eding. Otangni ham g‘oyaviy tayyorlab borardi. Sovchi kelganida, otang «ie, ukam deb yurganim nega qizimni ikkinchi xotin qilib olmoqchi?» deb g‘azablanmasligi uchun zamin kerak edi. Dindan foydalanib, uni niqob qilib, otangni avradi.

— Unga turmushga chiqmadim, shunda ham Abu Mannop akaga xusumatingiz borligi sezilyapti, — degan edim, Ergash davom etdi:

— Quloq sol, u otangni menga qarshi tuhmatlar va g‘iybatlar bilan qayrashga kirishdi. Ho‘l kiyimlaring ustidan quchoqlab, qo‘limda ko‘tarib borganimni qishloqda gap qilib, go‘yoki seni nomusini yo‘qotgan, begona erkakning qo‘li tekkan qizlar qatoriga qo‘sib qo‘ydi. Shu yo‘l bilan

Mullasoy qishlog‘idagi dindor yigitlarning seni xasmi halo qilib olishga bo‘lgan ideal orzularini sindirdi, nihoyatda ay-yorlik bilan sindirdiki, otang uni g‘iybatlarda ayblayolmadı. Tog‘alarnikiga to‘yga borganimda, sen kosa-tovoq yuvayot-ganiningni aytdim. Qozon boshida uchrashib, bir-birimizga ma’noli qaraganimizni ham Abu Mannop nazardan chetda qoldirmagan ekan. O’sha to‘ydan so‘ng otangga meni osh-kora yomonlash uchun yeng shimargan. Modomiki, otang xudojo‘y, taqvodor banda ekan, jiyanining o‘g‘li qizining boshini ochiqchasiga aylantirib yurishiga yo‘l qo‘yishi asle mumkin emasligini bot-bot uqtirgan. Bunga yo‘l qo‘yish jarlik voqeasi haqidagi mish-mishlar rostligini isbotlaydi degan. Yana bir voqeа shu ediki, sinfdosh do‘stlarimning ko‘pchiligi to‘ylarda va bazmlarda qadah ko‘tarishardi. Biz – ichmaydigan, chekmaydigan yigitlar kamchilik edik. Ba’zan jo‘shib ketgan sarxush o‘rtoqlarim «Hamma qadah urishtirishi shart» deya, bizning ham qo‘limizga stakan tutqazishardi. Stakanda minerel suv yoki limonac bo‘lardi. Abu Mannop otangga mening qadah urishtirayot-ganimni ko‘rsatishga erishdi. Esingdami, to‘yingda ham qadah ko‘targandim. Piyolamda issiq choy bor edi, xolos. Xullas, Abu Mannop g‘alaba qozondi, otangning mendan ko‘ngli qoldi. Qolaversa, seni menga uzatib, qishloqda «jarlik voqeasi» mavzusi ko‘tarilib, umrbod yomon gumonga, gap-so‘zga qolishni ham istamadi. Shu orada Boyjanjal qishlog‘idagi fermerning o‘g‘lidan – Bo‘ridan sovchi kel-di. Otang seni menga ham, Abu Mannopga ham bermay, uchinchi shaxsga – Bo‘riga uzatib, mojaroga nuqta qo‘ydi.

- Oxirgi savolim bor, – deb boshimni ko‘tardim.
- Nima uchun oxirgi savol? – dedi Ergash.
- Biz bugundan keyin gaplashmaymiz, balki uchrashmasak ham kerak, – dedim men. – Yaxshi-yomon gapirgan bo‘lsam kechiring. Otam meni Bo‘riga uzatib, uning yaxshilik tomonga o‘zgarishidan umid qilgandir yoki kuy-

ovining yomon jihatlarini eshitmagandir, surishtirmagan-
dir. Tanamdan jonim chiqquncha o‘z dunyoimga (sizlarga
xayolotmi, ruhiy kasallikmi, uchinchi olammi bo‘lib tu-
yuladigan dunyoga) ketaman. Vujudimdan tashvish chek-
mang. Vujudimda qon aylanar ekan, shu yerda — panja-
ralar-u beton devorlar bilan qurshalgan qamoqxonangizda
qoladi. Ayting, tanamga ko‘proq ukol qilib, ko‘proq dori
berib, qamoqxonaning eng zax, eng qorong‘i zindoniga
tashlashsin. Zora, jonim ertaroq uzilib, ruhim o‘zimning
dunyoimni, vujudim esa sizlarning dunyoingizni tark
etib, chin dunyoga rixlat qilsam. Qo‘rqadigan bitta narsa
— o‘lim edimi? Yo‘q, o‘limdan ham qo‘rqlinchisi... ozod-
likdan mahrum bo‘lish tuyg‘usi... Endi ikkisi ham yo‘q...
Oilam haqida-ku gapirmasam ham bo‘ladi... Oilamni men
emas, Bo‘ri yedi... Bo‘rining ortida turgan uni tarbiyalagan
muhit yedi... G‘am va anduh, armon va alam, gunoh va
oh-zorlar qoldi shayton bazmlaridan.

— Sovuq gaplardan gapirma, Nigora, — deb Ergash ach-
chiq yutindi, ko‘zlarida yosh g‘iltilladi. — Sog‘ayishingdan
umid bor, shifokorlar kechay-u kunduz harakat qilishyapti,
nega bunchalar tushkunsan? Umid qilsang, davo topishing
tezlashadi, Mullasoy qishlog‘iga qaytasan, hayoting bosh-
langan, esingni tanigan, bolaliging o‘tgan, dugonalaring
bilan o‘ynagan, ilk bor baxtni tanigan, o‘zingni tanigan,
Xudoni tanigan makoningni ko‘rasan. Qishlogging sajdagoh
kabi muqaddas emassi? U yerdagi xalq avliyolar kabi pok
emassi? Nahotki, ularga talpinmasang?! Shuni unutma —
baxt hozircha seni tark etgani yo‘q. So‘nggi iplari bilan
borlig‘ingga bog‘lanib turibdi. Maqsadim — baxtli bo‘lib
qolishingga yordamlashish. Men bilan gaplashmoqchi,
ko‘rishmoqchi emassan. Tergovchi, nomahram erkak,
yoshlikdagi sevgili, yana nimalar deb o‘ylasang o‘layver.
Meni unutmasang bas. Mullasoy qishlog‘i senga ochiq,
menga esa... umrbod yopilgan.

- Ha, hammasi tamom bo'lgan, Ergash aka... Vidola-shaman...
- Sen qotil emassan! Begunohliging isbotlanadi!
- Bolalarim yo'q, erim yo'q, uyim ham yonib kul bo'ldi, dunyoqarashim qoralandi, menga boshqa baxt kerak emas.
- Tavba de, tavba...
- Jallodlar tavba qilishsin.
- Jallodlar ham yo'q, Nigora! · Sen qotil emassan, boshqalar ham! Qizlaringni ko'rishni istaysanmi?

Farzandlarimni tilga olib, olovga moy sepdi. Kishanlarim shaqir-shuqur qilgach, qo'l-oyog'imga ko'z tashladim va vujudim qora terga botib, qaltirayotganini ko'rdim. Adashmasam, dorilarning kuchi ketib, quturish qaytadan xuruj qilayotgandi. Ko'z oldimdan lip-lip etib kimningdir janozasi kuni o'tdi. Hovlimiz odamga to'la edi.

- Savoling nima? — shoshib so'radi Ergash.
- Ro'molcha... — tilim qovjirab qoldi.
- Qanaqa ro'molcha?
- Qo'lingizdag... qo'lingizdag... Hih... hih... — Aksiga olib, bo'g'zimdan yo'talishga o'xshash «hih» degan tovush ketma-ket chiqdi. Ko'zlarimdan qonga o'xshash qizg'ish tomchilar tomdi.
- Ro'molchani bugun ertalab marhum xotinimning shkafidan topdim, — dedi Ergash. — Uni bir vaqtlar sen sovg'a qilganding, eslaysanmi?.. Hozir yordamga do'xtir chaqiraman...

Janoza kuni edi. Faryod urib, sochini yulgudek yig'layotgan oq ro'molli xotinlar, choponi ustidan belbog' bog'lagan do'ppili erkaklar ko'zimga ko'rindi. Uyda oq surpga o'ralgan ikkita murda yotardi...

- Bolalarim... — deb ingrangan edim, tishlarim g'ijirladi. Vujudimga yovvoyi kuch to'plandi. Nazoratchi xotining rangi quv o'chib, ortiga chekindi va devor orasiga singib, ko'zdan yo'qoldi. Xona jivirlab, g'alati to'lqinlandi, alvon tusga kirdi.

— Hammasi tush... hammasi ro‘yo... — g‘udrandi tilim. — Yo‘q... yo‘q... Ularning o‘lishini xohlamayman... xohlamayman...

Yana bir necha soniyadan keyin o‘zimni boshqarish butunlay ixtiyorimdan chiqib, Ergashga qoplondek tashlanib, bo‘g‘ib o‘ldirib qo‘yishim haqidagi xayol miyamda yalt etib chaqnadi. Xayolimga keldimi, voqe bo‘lmog‘i hech gap emasdi.

Soniyalardan so‘ng Ergash o‘ladi. O‘rnimdan sakrab turdim. Ergash allaqachon vafot etib ketgandek, qarshimda arvohi o‘tirgandek tuyuldi.

...Yo‘limni shartta derazaga burdim. Oynay-u romlarni sindirib o‘tsam, u yog‘i bepoyon cho‘l... kimsasiz cho‘l... Qiyomatgacha yolg‘iz ketaveraman, ketaveraman...

Derazaga o‘qdek otliganim yodimda, deraza oynasida lahzaning bir bo‘lagida o‘z yuzimni ko‘rganim yodimda, nega menga ko‘zgu berilmasligiga Abu Mannopning alo-qador ekanligi haqidagi gap ham yodimda...

O‘z aksimni ko‘rdim.

Menda hijob yo‘q edi...

Oyna singanini eshitdim. Qulog‘im chippa bitib, alvon dunyoni zulmat qopladi...

V BOB

*Chorrahada bir dorga osilgandi afisha,
Shu afisha yuzida kulib turar fohisha...*

Kundaligim...

Kundaligimdagи satrlar...

Qo‘limga qalam olib, kundaligimda o‘z-o‘zidan aks etayotgan qoramtil satrlarni bo‘yay boshladim...

O‘shanda haqiqatan, oyna jaranglab sindi. Alvon dunyoni zulmat qopladi. Biroq tush kabi g‘alati edi: na bo‘lgan voqeaga, na bo‘lmagan voqeaga o‘xshardi.

— Men qayerdaman? — deb so'radim o'zimdan, lekin ovozim chiqmadi.

Hushim o'zimga qaytib, ko'zimni ochdim. Tashqaridagi chiroqdan yog'och shiftga yorug'lik tushib, nim yoritgandi. Bu Bo'rining uyi edi. Men Bo'rining uyida — olis kelinlik davrimda ko'rpa-to'shak qilib yotardim. Kimdir hovlida Bo'rini mahkam quchoqlab, derazadan nariroqqa tortar, Bo'ri esa:

— Baribir sharmanda qildi, iflos! — deb baqirardi. — Qo'yvor, Barda! O'ldiraman uni!

Bo'rining tiriklik davriga qaytib qolgandim. Yostiqdan boshimni ko'tarib, karaxt holda o'tirdim. Bugun erimning o'rtoqlari xotinlarini ergashtirib, biznikiga mehmonga kelishganini esladim. Janjalga qaraganda, hammalari uyuyulariga tarqalgan, narigi qo'shnining Barda laqabli o'g'li erimni boshqa xonaga yotqizib, to'polonni bostirmoqchi. Barda o'rtog'i emasdi, erimdan uch yosh kichik. Qachon qaramang, qayerda bazm, may, ulfat bo'lsa, tirjayib yetib kelib, xizmatni qilar, uyat-andishani yig'ishtirib, eng past ishlar evaziga ham o'sha yerda o'ralashib yuraverardi.

Erim yulqinib, changalidan chiqdi-da, oynasi singan derazadan bosh suqdi.

— Ha, kasal! — dedi ko'zlarini olaytirib. — Moxovga o'xshab o'tiribsanmi yolg'iz, bitta xonada! Nega chiqmading? Uyimga kelgan mehmonlarga nima uchun bir og'iz «kel» demading?! Bir og'iz... bir og'iz-a!.. Seningcha, shu tarbiya-da, a?! Fikringcha, biz gunohkor, ser jannatisanda, a? Shunchalik jirkanasanmi? Aslida ular sendan jirkanadilar! Bilib qo'y! Sen vahhobiysan! Sen zombisan! Sen eng maraz xotinsan!

— Alloh insof bersin! — deya oldim men.

— Alloh senga insof bersin, yaramas! Aql o'rgatishni ko'zingga ko'rsatib qo'yaymi, kasal tovuq! Uyga aroq olib kelding, sigaret chekding, jo'ralaring bir-birining xotini bilan valsga tushar ekan, degan bahonada sen — Mulla-

soyning tentagi, irqchisi bo‘lib qoldingmi? Din bahonasida irqchilik qilyapsan! Fashist bo‘lmoqchimisan? Gitlerxon-misan? Yana nima dey? Qo‘lingga bomba bersa, ham-mamizni portlatar ekansan-da, a? E, odam bo‘lmay may-munga aylangur, maxluq! Qayoqdanam senga uylandim, it!

Burchakka sudralib borib, tizzalarimni quchoqlab o‘tirdim. Hammasi tezroq tugashini istardim. Agar Barda hozir mast erimni qo‘yib yuborsa, u derazadan oshib kirib, menga tashlanib, qonimga belab do‘pposlari edi.

— Sabr va faqat sabr... — dedi tilim.

Qaynotam va qaynonam shovqin-suronni eshitib, tashqariga chiqishdi.

— Ichmay o‘l, eshshak! — so‘kdi qaynotam. — Bor, chetdagi xonaga kirib yot! Sen bola bilan ertaga gaplashaman! Alkash! Mol!

— Bo‘rijon, otangning aytganini qil, — yalindi qayno-nam. — Bunaqa ichmas eding-ku? Birov bir nima dedimi?

— Barda, anqaymay olib bor uni! — o‘shqirdi qayno-tam qo‘sning o‘g‘liga. — Yarim kechasi elning tinchini buzib, sharmanda qildilaring! Sig‘sа ichinglar-da!

Qaynotam singan oynaga yaqinlashdi, ammo ichkariga qaramadi. Qaynonam esa uf tortgancha deraza oldiga kel-di-da, sekin mo‘raladi.

— Kelin, uyg‘oqmisiz? — dedi norizo ohangda.

— Ha, ena, — deb javob berdim.

— Deraza oynasiga yostiq qo‘yib qo‘ying. Siz bilan ham ertaga gaplashamiz.

Ertasiga uy yumushlarini qilib yurganimda, meni osh-xonaga chaqirishdi. Bu umrimda ko‘rganim Ikkinci ter-govxona edi. Bir chetda Bo‘ri bosh egib o‘tirardi.

— Gapiradigan gapimni qisqa qilib aytaman, ferma-ning hujjatlari bo‘yicha «rayon»ga borishim kerak, — dedi qaynotam menga qaramasdan. — U yog‘ini enangiz tu-shuntiradi, kelin. Oxirgi paytlarda siz o‘zingizni ota uyi-dagidek tutyapsiz. Bilamiz, Mullasoy qishlog‘ining ham-

masi namozxon, mullavachchalar. Siz qishloqdan tugul, uyingizdan ham chiqmagansiz. Uyingizni dunyo deb qabul qilgansiz. Dunyo faqat Abdumurod qudamning uyi emas, bu yodqa boshqa dunyolar ham bor, Yer shar shaklida, uni afsonalardagidek to'rtta fil yoki insoniyat tarbiyasini to'rtta soqolli arab ko'tarib turgani yo'q. Tushunamizki, sizlardagi to'ylarda aroq qo'yilmaydi, aroq qo'yilgan to'ylarga borilmaydi, bu aslida shaxsiy ish. Amir Temur davrida ham ichishgan, Amir Olimxon davrida ham. Ichadigan ham, ichmaydigan ham qadim zamonlardan beri bitta mammalakatda teppa-teng yashab kelgan, bitta to'y-ma'rakada bitta xalq bo'lib o'tirgan. May, sharob, bo'za deb eshitgansiz, to'g'rimi?

— Ota, siz... — deya o'z e'tirozimni bildirmoqchi edim, qaynonam tomog'ini qirib, oglantirdi:

— Jim, qaynota gapiryapti!

— Aytmoqchimanki, spirtli ichimliklar avval ham bor edi, bundan keyin ham bo'ladi, — davom etdi qaynotam kalta soqolini silab. — Bu bilan butun dunyo, butun insoniyat piyonistaga aylanib qolmaydi. Kimga to'g'ri kelmasa, ichmasin, chekmasin, onasiga rahmat. Kimdir amir bo'lib, kimdir kulol bo'lib, kimdir shayx bo'lib, kimdir dehqon bo'lib yetishib chiqaveradi, otasiga rahmat. Agar kelajakda otin oyi bo'lmochi bo'lsangiz, marhamat, hech kim yo'lingizni to'sib...

Endi gapni Bo'ri kesdi:

— Menga otin oyi bo'ladigan xotinning keragi yo'q! Oddiy odam bo'lsin, olam guliston! El qatori oddiy xotin...

— Obbo, ikkalang ham tarsillab gap qo'shmasang biror joylaring kamayib qoladi! — g'azablandi qaynotam.

— Odamga o'xshab gapga qulop solinglar! Men aytgan gap qonun! Bundan keyin Bo'ri uyga aroq olib kelib ichmaydi! Ichgisi kelsa, to'ylardami, jo'ralarining uyidami, «rayon»dagi oshxonalardami ichadi. Shunda ham har doim ichmaydi! Bir-bir, ora-chorada! Men senga, Bo'ri, umu-

man ichmaysan deganim bilan baribir foydasi yo‘q, shuning uchun insof sari baraka deb shart qo‘yyapman! Eshitdingmi?! Kelin ham dunyoni mundoq anglab, qaysi asrda yashayotganini tushunib, mabodo Bo‘ri ichib kelsa, aldabsulda joyiga yotqizadi. «Harom narsani ichib, do‘zaxga tushasan» kabi gaplar yig‘ishtiriladi! Musulmonchilik astasekin! Shundan keyin ham urishsalaring, mendan yaxshilik kutmaysizlar! Kelishdikmi?

— Ichganimni bir marta yuzimga solsa... — Bo‘ri qo‘lini «iks» qildi.

— Bo‘ri! Ko‘p jirillama! — xontaxtani urdi qaynotam.
 — Mening uyimda janjal chiqmasligi shart! Sulolamda ajrashish bo‘lmasligi shart! Mana, enangdan so‘ra! Sendayligimdan kechagi kungacha ichardim, lekin janjal qilmaganman, ikkovingga o‘xhab, birimiz tog‘dan, birimiz bog‘dan kelmaganimiz. Er-xotin bir-birini tushunib yasha-sa, baxt ham o‘sha oilaga qattiq o‘rnashadi. Bugun ichgan odam ertan-indin tavba qilib, namoz o‘qib, ro‘zasini tutar, yoshlikda nimalar bo‘lmaydi! Men ketdim. Ikkalang ham haddingni bilib yasha! Xudo avvalo ko‘ngilda, qog‘ozdag'i qoidalarda emas.

Qaynotam chiqib ketgach, so‘z qamchisini qaynonam oldi.

— Endi mening gapimni eshiting, — dedi xuddi tentakka tikilgandek angrayib, — biz sizni kimsan — Abdumurodbekning qizi ekanligingiz uchun kelin qilganmiz, devonaning avlodi deb emas. Otangizni el hurmat qiladi. Mulla qatori, eshon qatori odam. Siz Boyjanjalda nima tomoshalar qo‘yayotganingizni Mullasoydag'i qudamlar bilsa, elga sharmanda emasmi? Kelin degan uyg‘a mehmon kelsa, qorong‘i xonaga kirib, eshikni qulflab, betini ko‘rsatmay yotib oladimi?! Kecha nomuslarga o‘ldirdingizku! «Bo‘rivoyning xotini telba ekan» degan gapni men ham, Bo‘ri ham ko‘tarolmaymiz. Sog‘lom odam chetdan bundoq qarasa, sizni haqiqatan sog‘ demaydi, jinni bo‘p qopti,

Azamat QORJOVOV

deydi. Elning orasida yurib, qanchadan-qancha xudojo'y, taqvodorlarni ko'rdik. Mehmoni aroq ichayotsa, uyidan quvmagan, yuzini ters burmagan, chidagan, sabr qilgan, ichida «mening aybim yo'q, xudoyim kechirsin» degan. Nimaga? Chunki mehmon — atoyi xudo, mehmon — aziz, har qanday mehmonning siyi bor. Uni xafa qilish — gunoh! Mehmon-ku, mayli, har zamonda keladi. Erga gap qaytarib, erni gunohkor deb aqlilik qilishga balo bormi?! «Ering — piring» degan gaplarni bekorga aytishmagan! Erni er qilolmagan, ernen erkaliklarini, qiliqlarini ko'tarolmagan xotin ham xotinmi? Xotiniga mos tayyor er hech qayerda yo'q! Ichadi emish! Nima, o'g'lim piyonistalarga o'xshab har kuni ichadimi? Topgan-tutganini ko'chaga sarflaydimi? Kerak bo'lsa, Boyjanjalning yigitlari Mullasoyning mulavachchalaridan aqli, o'qimishli, mehribon! Mana, qaynotangiz ham aytdi, vaqtida ichganligini! Ustimga xotin olmadi, to'y-hashamlarni taqiqlamadi, Samarqand-u Buxoroga, Toshkent-u vodiylarga sayohatga bordik bir gala xotinlar. Birortasiga to'sqinlik qilgani yo'q. Mullasoqliklarni eshitib yuribmiz. Biri xotinni ikkita qilgan arablar ruxsat bergen deb! Ikkinchisi xotinini matoga chirmab yaqin qarindoshining to'yiga ham yubormaydi erkak-ayol bir davrada o'tiradi, birga o'ynaydi deb! Bu — hayot! Hayotda esa odamlar bilan kelishib yashash kerak. Qo'shning o'ris bo'lsa, sen o'rislashma, qo'shningdan ham kechma. U o'ris bo'lib yashasin, sen o'zbek. Urf-odatini qabul qilma, o'zaro inoq bo'lib yasha! Shukrki, biz ham musulmonmiz, siz ham. Biz ham o'zbekmiz, siz ham. Bitta «rayon»da yashaymiz, hamma urf-odatimiz bir xil. Nega o'zingizni boshqacha tutasiz, aqlim yetmay garangman. Axir, hamma narsani Xudo yaratgan. Yeydigan, ichadigan narsa borki, Xudodan boshqa yaratuvchi yaratmagan. U yaratgan narsadan bolam bir oz tatisa, tatibdi-da. Yo noto'g'ri gapirdimmi?

Egilgan boshimni ohista-ohista silkidim.

— «Ha» deganingizmi, «yo‘q» deganingizmi? — so‘radi qaynonam.

— Kechirasiz, oxirgi gapingizni tushunmasdan gapirib qo‘ydingiz, — dedim men.

— Nimani tushunmabman? — qaynonamning rangi ge-zardi.

— Hamma narsani Xudo yaratgan, U yaratgan hamma narsadan tatib ko‘rish kerak deganingiz katta xato. Tavba qiling, ena.

Bo‘ri jahl bilan oyoqqa qalqib, eshikka yurdi.

— E, o‘l-e, «katta xato!» Tavba qil emish! Aytdim-ku bu otinchaligidan qolmaydi! U men uchun bir tiyin! Bo‘kkuncha ichaman! Mana shu zombiga o‘xshamaslik uchun bundan keyin olovga sig‘inaman, cho‘qinaman, fermadagi sigirlarni ma‘buda deyman! Muhimi, shunga o‘xshamasam bas! Qarindoshlaridek oq do‘ppi kiyib, soqol qo‘yib, har gapimda «inshaalloh» deb turmasam bo‘ldi!

Eshik qarsillab yopilib, oynasi zirilladi.

— Birinchi va oxirgi marta gap qaytarganingiz shu bo‘lsin, kelin! — dedi qaynonam bo‘s shiyolani xontaxta-ga do‘qillatib urarkan. — Nega men tavba qilarkanman? Oldin oynaga bir qarang-chi, kimga o‘xshaysiz? O‘ragan ro‘molingiz o‘rislarning «babushka»larinikidan zig‘ircha farq qilmaydi. O‘rnimda boshqa qaynona bo‘lganida allaqachon javobingizni berdirib, o‘g‘lini onasi o‘pmagan za-monaviy qizga uylantirardi.

— Men qarshi emasman...

— Zaharingizni sochmang! Bu uyda diniy qoidalarin-gizning birortasini ham pesh qilmang! Birortasini ham! Xohlasam, men ham olib kelib ichaman o‘sha zormanda-sini! Hammamizni siz ichishga majbur qilgan hisoblanasiz, uqdingizmi, hurmatli avliyoxon?! O‘g‘lim to‘g‘ri aytyapti...

— Hamma narsadan tatish yaxshimas, axir, ena, — zor-landim men. — Nahotki, o‘ylab ko‘rmayapsiz? Pichoq bilan tovuqni, qo‘yni, sigirni so‘yadilar, duch kelgan tirik jonni

so'yish og'ir jinoyat-ku! Ayollarni ham Xudo yaratgan deb, uchragan ayolni xotin qilib ketavermasligini bilasiz-ku! Birov ona, birov opa-singil, birov boshqaning xotini. Ichadigan ne'matlar ham shunday. Birini ichish mumkin, ikkinchisini ichish tugul, ushslash...

— O'chiring ovozingizni! Boring, uyni tozalang! — eshikni ko'rsatdi qaynonam. — Keyin kirlarni yuving! Bizi ni o'z yo'rig'iga yo'rg'azadigan «daho»lar hali tug'ilmagan! Tug'ilmaydi ham! O'rgildim sizning aqlingizdan!

Ular ustimdan hukmronlik o'rnatdilar. Qaynotam ham endi menga xayrixoh emasdi. Bitta yutug'im — Bo'ri uyg'a aroq olib kelmay qo'ydi. Biroq har ikki-uch kunda «bir bayram qildik», «charchaganimizdan oz-oz ichdik», «fermadagi Qoplon degan itimizning tug'ilgan kuni bo'ldi» deb shirakayf holda kelar, to'shagini alohida qilib yotar edi. Men ma'lum vaqt sabr qilib turishga qaror qabul etgandim. Bo'ri aroq ichsa-da, to'ng'iz go'shtni harom hisoblab, yemasdi. Oxirgi vaqtarda bazm dasturxoniga nafaqat mol va qo'y go'shtidan, balki cho'chqa go'shtidan ham kabob tortilganini eshitdim. Kiyimlarini yuvayotganimda esa gohida g'alati qizg'ish bo'yoqqa ko'zim tushardi. Bu labbo'yoqning ham, yog'och yoki temir bo'yoqning ham yuqi emasdi. Xonadonimizga bir falokat yaqinlashayotganini ko'nglim sezdi. Haqiqatan, kunlarning birida (peshindan so'ng edi) tandirga o't yoqayotganimda, mototsikl ovozini eshitib, kim keldi ekan deya qaradim. U Barda edi. Katak ko'ylagining tugmalarini yechib, etagini tugib olgan, og'zida filtrsiz sigaret, patak sochlari changdan oqargan. Bir qarashda g'ayratli ko'rinar va qandaydir ishni qoyillatib, xonadonimizga foyda keltirganga o'xshardi.

— O'v yanga! «Brat» qani? — shang'illab so'radi bir oyog'ini yerga tirab, mototsiklini o'chirarkan.

— Dam olyapti, — deb javob berdim men.

— Odam ham shuncha uxlaydimi? Tushki uyqu yetadi. Chaqiring, chiqsin! Fermaga yem kerak degandi.

«Raz’ezd»da bittasi hovlisiga qirq tonna kunjara to‘kdiribdi, borib ko‘ramiz.

- Chetdagি sakkiz bolorli uyda. O‘zingiz uyg‘ota qoling.
- Xo‘p bo‘ladi-da!

Barda mototsiklini tirkakka tirab, uyg‘a qarab g‘ayritabiyy qadam tashlab yurdi. Fahmladimki, u ichgan edi. Erim va ulfatlari gohida kechqurun emas, undan oldinroq — peshindan keyin allaqaysi dalalardagi shiyponlarda yoinki tuman markazidagi oshxonalarda ichib, kechqurun spirt sasib, aljirab, dimoqlari chog‘ holda qaytishardi. O‘sha kun men uchun eng baxtsiz kun bo‘lardi. Bo‘ri bilan yonma-yon o‘tirish tugul, u kirgan xonadan nafas ololmasdim. Yarim kechagacha namoz o‘qib, erimga insof so‘rardim. Uning ko‘zlarini tubidagi qachonlardir insofga kelishni anglatuvchi uchqunlar menga hamon umid baxsh etardi.

Hayal o‘tmay uyqusiragan erim Barda bilan tashqariga chiqdi. Barda yugurib borib oftobani suvga to‘ldirib kelib, erimning qo‘liga quydi. Har kungidan boshqacha yuvindi. Ko‘zguga ham kechagidan ko‘ra sinchkovroq qarab, dam chap yuzini, dam o‘ngini tutdi. Barda kulib, bir nima degandi, erim men tomon bosh irg‘agandek bo‘ldi, qo‘shni yigit darrov og‘zini yumdi. Tandirga o‘t qalar ekanman, ularni goh oshkora, goh yashirinchcha kuzatib, muammo faqat mayxo‘rlikda emasligini angladim. O‘rtada ayol zotidan bo‘lmish yana bir fitnachi bor edi. Bo‘rining kiyimlaridagi qizg‘ish bo‘yoq lolaqizg‘aldoqqa o‘xshash rangin chechakning nuqsi edi. Barda hammasini biladi, hech qachon menga aytmaydi, aksincha, uning o‘zi o‘rtada yugurdak va xoindir.

Ana, erim ichkariga kirib, ochiq deraza ortida o‘ziga atir purkaganini ham ko‘rdim. Adashmabman. Hech zamonda u kunjara savdosiga atir sepib boradimi? Tamom, erim mastlik keltiruvchi ichimliklardan icha-icha zino yo‘li sari tubanlashibdi. Fikrimcha, bundaylar avval pan-a-pastqamda sigaret chekib ulg‘ayishadi, balog‘atga yet-

ganlaridan so'ng shaytoniy ichimliklardan tatib ko'rishadi, keyin sekin-asta to'ng'iz go'shti eydiganlarga aylanadi, ko'p o'tmay esa zino davri boshlanadi. To vujudidagi yog'lar qurib, hayvoniy kuchlar o'tmishda qolib, kelajakka eshelon-eshelon gunohlarni yuborib, hassaga tayanganlarida to'xtaydilar. Kitoblardagi ilohiy bashoratlar bunchalik to'g'ri chiqmasa-ya!

Hozir o'tmishimdag'i o'sha voqeaga to'xtalib, ushbu kundaligimni bitar ekanman, Bo'rining xiyonatini kimdan, qachon eshitganimni eslolmayman. Ko'p o'ylab, ko'p ezilib, ko'p yig'lab, ruhim sargardon kezishni odat qildi va hammasini, hatto o'zim ishtirok etmagan voqealarni ham o'z ko'zim bilan ko'rgandek bo'laveryapman. Nazarimda, Bo'ri va Barda mototsiklda ketgan kuni nimalar ro'y ber-ganini hech kimdan eshitmagandekman, go'yoki o'sha kuni ularning izidan ruhdek uchib, ularni kutayotgan yengiltak juvonning ichiga jin kabi kirib olgandekman va hammasi ko'z o'ngimda ro'y bergandek...

Ha, tandirxona devoriga suyangan vujudimdan uchib chiqqan ruhim men hech qachon ko'rmagan, ismini ham bilmagan juvonni axtarib topib, vujudiga kirdi va men unga aylandim-qoldim. Begona bir gulzor o'rtasida turardim. Libosim shunday tor ediki, belimning ingichkaligiyu ko'ksimning turtib chiqqani uch chaqirim naridan bilinardi. Kiyimidan xushbo'y atirning isi anqirdi. Chap ko'zimga sochim jamalak bo'lib osilib tushgandi, pufladim-da, boshimni ko'tardim. Devor bilan o'ralgan yigirma sotixcha hovli o'rtasidagi mo"jazgina gulzor edi, o'rtada tor yo'lak. Nafis qo'lqopchalar kiygandim, o'ng qo'limda yer yumshatadigan kichkina cho't.

Yo'lakdan yurib, gulzordan chiqib, hovlining g'ishtli sahniga — ishkom tagiga keldim-da, eski umivalnik oldida to'xtadim. Qo'limdag'i cho'tni tashlab, umivalnikning ko'zgusiga boqdim. Pardoz-andoz qilgan yigirma

ikki-yigirma uch yoshlardagi, lablari qalin, bodomqovoq, sohibjamol bir juvonning tanasiga kirib qolgandim. Hoynahoy, erim yo‘q edi: yo ajrashganman, yo o‘lib ketgan.

Ochiq eshik yaqinidagi tumbada telefon jiringladi. Qo‘limni tez-tez yuvib, sochiqqa artgancha telefonga shoshildim. Bu — raqamlari g‘irillatib teriladigan simli sarg‘ish telefon edi.

— Alo, — dedim men. Yo tavba, ovozim shunaqa shirali, shunaqa nozli ediki, uyalganimdan atrofga yalt-yult alangladim. Faqat fohishalar begonalarga shunday nozlanib, suzilib so‘ylaydi deb o‘ylardim.

— Sommalaykum, qo‘g‘irchoq! — deb salomni buzib talaffuz qildi begona yigit.

— Kimsiz? — so‘radim qo‘rqib.

— Tanimay qoldilarmi? Men Bardaman.

— Barda? Qaysi?

— Boyjanjaldagi, albatta. Nima, dunyoda mendan boshqa Barda ham bormi? Qaysi deb so‘raysan-a?

— Bo‘ldi, tanidim. Bo‘ri akanikiga ketgandingiz, mototsiklda.

Barda xaxolab kulib yubordi.

— «Brat»ga salomingni va uchrashuvga rozilicingni yetkazish uchun ketganimni bilasan, lekin mototsiklim yo‘q edi, qayoqdan eshitding? Axir, uni yarim soat oldin yo‘lda o‘rtog‘imdan oldim-ku.

— Ko‘rdim.

— Qo‘ysang-chi! Qayoqdan ko‘rasan! Xullas, idoradan qo‘ng‘iroq qilyapman. Fermaga kirmadik, Bo‘ri akaning otasi mollarni tekshirib yurgan ekan, tag‘in ushlanib qolmaylik dedik. Bahonaning zo‘ri chiqdi. «Raz’ezd»ni eshitgansan-a?

— Eshitganman.

— «Raz’ezd»da bittasi kepakfurushlik qiladi. Tunov kuni qirq tonna yem olib kelaman degandi. Qayerda eding deyishsa, yemni bahona qilamiz.

- Kimga bahona qilasizlar? Xotinigami?
- Aytganman-ku, xotini sal jinniroq, Bo'ri aka bilan deyarli ishi yo'q. Muhimi, Bo'ri akaning otasiga ishonchli bahona kerak. Otasi ezib yuboradi, naq Gitler.

Barda bilan gaplashar ekanman, beixtiyor uydagi katta toshoynaga ko'zim tushdi. Tannoz go'shakni qulog'iga tutgancha ishva bilan suzilib, yana deng, bir qo'lini belimga tirab, ishshaygancha so'zlashardi. «Voy!» deya go'shakni tashlab yubormoqchi edim, juvonning qo'li menga bo'ysunmadi, ruhim bu tanada shunchaki tomoshabin, anqov mehmon edi.

Tuf, tuf, tuf, juvonning vujudi tentak ekan, darhol og'ziga saqich solib, chalpillatib chaynagancha hiring-hiring kului.

- Nega kulyapsan, qo'g'irchoq? — dedi Barda.
- Nega kulmayin? Gitler saqich nomimi? Akangizning otasini nimaga o'xshatyapsiz o'zi, a?
- Ie, Gitlerni tanimaysanmi? Maktabga «borganskiy»?
- Borganman, ja a'lochi emasdum.
- Amerikaning poytaxti qayer? Ayt-chi!
- Kim bilmaydi? Televizorda AQSH, AQSH deb ko'p gapirishadi-da, Amerikani ko'rsatishadi. Kitob o'qimasam ham oynai jahonga termulaman, Barda aka. Amerikaning poytaxti AQSH.

Barda xixilab kului. So'ng:

- O'tgan gal biror diniy kalima bilmayman desang, ishonmabman, — dedi. — Tushunarli, hammasi tushunarli.
- O'zingizni aqli qilib ko'rsatmay qo'ya qoling. O'shanda uyimga yetmasdan qorong'i ko'chaga tashlab ketdingiz. Qo'rqqanimdan kalima qaytaray desam, bir qatorini ham yodlamagan ekanman. Kalimaning o'rniga cho'qinmoqchi bo'ldim, nima farqi bor, hamma xudo bir-ku. Shu ishim uchun haligacha ustidan kulasiz-a? Birovning ustidan kulish yaxshimas. Undan ko'ra aytинг-chi, ahmoqona bahonaga Bo'ri akaning xotini ishondi deb o'ylaysizmi?

— Ishonadimi, ishonmaydimi, Bo‘ri akaga u sariq chaqa. O‘zi shunaqa degan. Xotinidan emas, otasidan qo‘rqadi. Onasi, opalari, qarindoshlari — hammasi Bo‘ri aka tarafda, otasi esa «brat»ni o‘tirg‘izib-turg‘izadi. Ajrashmaysan deb turib olgan. Bo‘ri aka menga «ajrashmasam ajrashmab-maň-da, endi ma’shuqa va may oshnam bo‘ladi, hayotda o‘zimni shular bilan ovutaman» dedi. Mana, gapiga rioya qilyapti.

- Shu gapni xotiniga nega aytmagan?
- Chunki xotini nima deb javob berishini biladi.
- Xotini nima deb javob beradi?

— «Sizga zerikarli ko‘rinayotgan bu hayot Yaratganning bir ne’mati, undan foydalanib qolish o‘rniga o‘zingizni ma’shuqa va may bilan ovutib, qayerga yetish uchun vaqt o‘tkazyapsiz? Albatta, do‘zaxga. Hayot tezroq o‘tsin, uning tez o‘tmayotgani uchun ko‘proq yomonlarga ovunay, tezroq olovda kuyadigan makonga yetib olay degan sizdek so‘qir bandaga achinaman» deydi. O‘lay agar, boshqa gap ayt-maydi. Xotinining kasofatiga Bo‘ri aka uyida aroq ichol-maydigan bo‘lib qoldi. Jo‘ralarini ham chaqirolmaydi. Xoti-ni hammani kofirga, dayusga chiqarib, janjal qiladi.

- Voy-bo‘, Bo‘ri akaga rahmim kelyapti.
- Bo‘ri aka unga ko‘ngil qo‘yib uylanmagan. Akasi-ning xotini sal beboshorq chiqqani uchun kenjamizni so-liha qizga uylantiramiz deyishgan. Shu sabab Bo‘ri aka bir adashdi, qattiq adashdi.
- Soliha? Xotinining ismi Solihami?
- Xotini namoz o‘qiydi. Namozxon xotinlar «soliha» deyiladi-ku, nima eshitmaganmisan?
- Ie, xotini halitdan namoz o‘qiydimi? Mabodo, Bo‘ri akangiz pensiyaga chiqqan kampirga uylanmaganmi?
- Hali yosh. Ko‘rsang, naq otin! Ro‘mollarni shu-naqa o‘raydiki, hayron qolasan. Men uylansam, senga o‘xshaganini topaman. Qaddi-qomatini ko‘rib, butun

qishlog‘im-u tanish-bilishlarim hasad qilishsin. Bo‘ri akaning xotinining ismi Nigora. Mening xotinim yangaga o‘xshab uzun kiymaydi. Shimga ham, kalta ko‘ylak ki-yishga ham ruxsat beraman.

— Juda zamonaviysiz-da, Barda. Ammo mendan go‘zalini topib bo‘psiz.

— Jim... Bo‘ri aka kelyapti, hozir go‘sakni beraman, kechagi gap — gap! Bahordagi voqeani aytib qo‘yma, xo‘pmi? Eshitsa, «o‘zingdan qolganni menga tiqishtirib-san» deb terimga somon tiqadi.

Bir necha soniyalar o‘tib, go‘sakning narigi tarafidan Bo‘rining ovozi eshitildi:

— Salom. Gulchi, bu men — Bo‘riman. Yaxshimisiz?

Erim uni sizlab gapirdi. Ovozida ham qandaydir haya-jon, intiqlik zuhurlandi.

— Salom, aka, — dedi tannoz erimga nozlanib, — ukangiz rosa boshimni qotirdi, nega unaqa?

— Bardami? Eshshak-ku. Nimalar deb hangradi?

— Nega unaqa deysiz? Odam ham hangraydimi?

— Gulchi, men fermerman, ayrim gaplarim chorvachi-likka ketib qolsa, ko‘nglingizga olmaysiz. Kelishdig-a? — Keyin u qulvachchasiga buyurdi: — Barda, naryoqqa borib tur... — Qo‘shti yigit uzoqlashdi shekilli, erim dedi: — O‘zi ishlaringiz yaxshimi, jonim? Sog‘indim sizni.

— Ishdan gaplashayotgandik, aka, — nozlanishni qo‘ymadi juvon. — Men gul yetishtiraman, siz mijozimsiz. Oxirgi paytlarda ko‘p gul olyapsiz.

— To‘g‘ri, kasblarimiz har xil, ko‘nglimiz esa bir, asalim. Siz gul yetishtirasiz. Gul — go‘zallik ramzi. Men uchun esa u molning yemishi.

Gulchingning vujudi qah-qah urib kului. Mening ruhim ang-tang edi. Na yengiltak juvonning vujudini tark etadi, na tiyiqsiz tanani o‘z ixtiyoriga oladi. Dunyoda Gulchi va Bo‘ri kabi insonlar borligidan hayron-u hasratda edim. Ik-kisi ham imonini eb qo‘yib, borgan sari suyulmoqda edi.

— Muhimi, sizni yoqtirib qoldim, — dedi erim. — Gullaringiz ikki-uch marta yuragimni qizilga bo‘yadi. Ko‘ylagimni ham. Uyda bitta ro‘dapo xotinim bor, kir yuvayotib ko‘ylagimga anqayiblar qaradi, rosa kuldim

— Xotiningizni sevmas ekansiz, gulzorimdan sotib olgan shuncha gulni nima qildingiz? Ishqilib, mollaringizga bermadingizmi?

— Aslida o‘simplik zoti borki, mollar uchun, ammo sizing gullaringizni fermamdag'i tuvaklarga solib qo‘ydim. Fermam qip-qizil gulzorga aylandi. Ishonasizmi, yo‘qmi, mollarimning ko‘zлari shahlo bo‘ldi, kipriklari qayrildi, yelinlari...

— Uyatsiz!

— Uzr, fermam misoli bir parnik bo‘lganidan keyin sutlar ko‘paydi demoqchi edim.

— Barda aytdiki, gullarimni mening biznesim yurishib ketishini o‘ylab sotib olgan ekansiz. Maqsadingiz menga yoqdi, aka. Yaxshiliklaringizni qanday qaytarishni bilolmayapman.

— Yaxshilikni qaytarish juda oson, hammasi qo‘lingizda, jonom, — dedi erim ovozi titrab.

— Yangamga xiyonat qilyapsiz, — erkalandi juvon. — Hamma erkaklar nega shunaqasizlar?

— Xotinim ko‘nglimni olishni bilmaydi. Yovvoyi! Vah-hobiy!

— Necha yoshda?

— O‘n ettida.

— Hali bola ekan-ku.

— Gulchi, birovlarni qo‘ya turaylik, uydan qachon chiqasiz?

— Qachon chiqay?

— Hoziroq! Biz ham o‘n daqiqalarda temiryo‘l vokzali orqasidagi ko‘chaning chorrahasida bo‘lamiz.

— Xo‘p, aka, siz nima desangiz shu.

Gulchining vujudi hammomga kirib, erkakchasiga apil-tapil yuvinib, burnini ham tozalab, ichkariga xonaga yo'l oldi. Shkafda Yevropada o'ylab topilib, Amerikadan oq yo'l tilangan va Osiyoda tikilgan allambalo kalta-kulta, to'r-po'rli ko'ylaklar, simli siynaband-u simsiz kalta ishtonchalar taxt edi. Tez-tez kiyindi, atir-upalarni ayamadi, ruhim bo'g'ilib, karaxtlandi. Qora chulki ilondek edi. Ayniqsa, kalta qizil ko'ylagi shunday tor ediki, shunday belini qisardiki, hademay vujudning ichak-chavog'i chiqib keta-digandek edi.

Keyin sumkachasini yelkasiga ilib, poshnalarini taqillatib, hovli sahnidan darvoza tomon yurgan edi, ro'parasidan tappa-tuzuk o'zbekcha kiyingan, ro'mol o'ragan, oltmis yoshlardagi ikki ayol chiqib qoldi, quvonib ketdim.

— Ha, qizim, yo'l bo'lsin? — dedi biri. (U onasi ekan.)
— Gul do'konidagi Risolatning tug'ilgan kuni, shunga ketyapman, aya.

- Soat nechchi bo'ldi?
- Uch.
- Bir soatda uyda bo'l.
- Kun botguncha kelaman.
- Tezroq qayt! Dadangdan gap eshitmay!

Gulchi darvozaga yetib to'xtadi, poshnasiga nimadir yopishgan edi. U chap oyog'ini ko'tarib, yelkasi osha poshnasiga qaradi. Kattakon qo'ng'iz majaqlangancha qapishib qolgan ekan, cho'p olib, tozaladi. Bu vaqtda ikkinchi ayol Gulchining onasiga dedi:

— Qizingga ega chiqsa bervorganing ma'qul. Erdan qaytib kelgan yosh xotin ko'cha-ko'yda xursand yursa ham gap-so'z bo'ladi, xafa yursa ham. Kiyinishi juda zamonaviy-da. Uyalib ketdim.

— Ikki bolali, toparmon-tutarmon er chiquvdi, tegmadi. Birovning bolasiga onalik qilmasmish. Mayli, ro'zg'ori buzilib, oxirgi paytlarda rosa yuragi ezilib yurgandi, tug'ilgan kunlarga borib yayrab kela qolsin.

Gulchi oyog‘ini tushirib, kalta ko‘ylagining etagini te-kislagan bo‘ldi-da, darvoza hatlab ko‘chaga chiqdi. Taksi to‘xtatib, vokzalga eltilib qo‘yishni buyurdi. Vokzalga kel-gach, temiryo‘l ustidan o‘tgan ko‘prikka chiqdi. Yurishlari nozli-nozli olifta juvonga o‘tkinchi yigitlar ishshayib qa-rashar, hatto otasi qatori erkaklar ham kishi bilmas suqli nigohni bir qadab o‘tishardi. Juvon qachon bunday andi-shasiz maxluqqa aylanganini tushunolmadim. Boz ustiga u hozir erim bilan uchrashishga ketyapti. O‘rtada nikoh yo‘q, aka-singillik yo‘q. Maqsad nima? Nahotki, zino botqog‘iga botishsa? Bo‘ri harom oyog‘ini uyga bosib, nahs izlarini qoldirib, kelajak avlodiga ham kasofat yuqtirmay-dimi? Qanday qilib ularni to‘xtatsam? Afsuski, o‘tmishni o‘zgartiradigan kuch yo‘q, lekin...

...lekin temiryo‘l ustidan o‘tgan ko‘prikdan tuman markazi kaftdek ko‘rindi va masjid gumbaziga ko‘zim tush-di. Juvonni masjid yo‘liga burib yuborish haqida o‘yladim. Biroq bu aytishga oson edi. Juvon shum xayollari, yarim yalang‘och kiyimi, tahorati darrov buzilgan badani bi-lan o‘la qolsa ham masjid yo‘liga burilmasdi. Suyak, qon, teri, to‘qima va suyuq miyadan iborat biologik robot o‘z boshqaruvini yo‘qotib, shayton izmida edi. Uning miyasi bilqillab qaynab, huzur-halovat, kayf-safo xususidagi o‘y-xayollarni tinimsiz ishlab chiqarib, vujudni o‘scha onlarga yetkazishga shoshiltirardi. «Hammasidan kuyib ketdim, o‘zim uchun ham yashashim kerak» degan fikr miyada suyulib hosil bo‘lgach, ingichka asab to‘qimalari orqali qo‘l-oyoq, yuz, til, ko‘z va boshqa a’zolarga xabar yo‘llardi. A’zolarning o‘z miyalari bo‘lmasa nima qilsin? Ular o‘zlar uchun yashashning halol yo‘llari borligini mushohada etol-masdi.

Juvon bir-bir qadam tashlab zinalardan tushdi-da, vok-zal orqasidagi chorrahaga yetdi. To‘rt tomon yo‘l edi. Erim va Barda hali kelmagan chog‘i, hech qayerda ko‘rinmasdi. Shu payt menda bir fikr tug‘ildi. Juvonning vujudiga jin

kabi kirib olgan men — mazluma banda bu tanaga aniq-tiniq buyruq berolmas ekanman, ayrim ruhiy holatlarga solishim — uni tentaklarcha kuldirishga, ho'ngratib yig'latishga, aqdan ozgandek raqsga tushirishga, almoyi-aljoyi so'zlarni gapirtirishga urinishim mumkin edi. Zora erim «savdoyiga duch kelibman» deb xiyonat yo'lidan qaytsa.

Biroq jin ham, shayton ham emasdim. Boshqacha yo'l tutishga qaror qildim: juvonning vijdonini axtarib topmoqchi bo'ldim. Ko'ngil cho'kindilari tagidagi badbo'y xayollar tagida toza vijdon ko'milib yotardi. Urvoqchalik vijdoni qolmaganida, tomorqasida mehnat qilib, gul yetish-tirmasdi. Qolaversa, vijdonni bir uyg'otsam, Gulchiga keyingi gal uchraydigan erkaklarning oilalari buzilmaydi, bolalari yetim qolmaydi, mendeklar ham iztirob chekib, umrini zahar-zaqqumda o'tkazmaydi.

— Buzuqchilikdan boshqasiga bo'yni yor bermay, jamiyatdagi eng tuban so'qmoqlardan yurar bir ayol! — deb qichqirdim.

Gulchi eshitmadi. Men uning tanasi oldida pashshadek edim.

— Go'zal vujuding umrning eng durkun avj nuqtasiga yetdi, hademay qarilik sari og'ib, go'zallik, kuch-quvvat, sochingdagi qora rang tark etadi, qadding bukiladi, mo-zorga yaqinlashasan, o'shanda qilmishlaringdan afsuslashasan! — dedim men.

Gulchi pashsha g'ing'illadimi degandek qo'l siltadi.

— Erim tugul, anavi mishiqi Barda bilan ham gaplashyapsan, sening oxiring voy, Xudodan qo'rqi, — degan edim, juvonning allaqayeri, ehtimol, yuragi sanchib, taqqa to'xtadi.

Men uni osongina va soddagina usulda qo'lga ololmasdim. Jamiyat yordamga kelmasa, bari bir tiyin edi. Ro'parada yosh kelin-kuyov ko'rindi. Yigit oq ko'yak, qora shimda, kelinchak uzun zarli ko'yak, yaltiroq oq do'ppida. Gulchi ularning liboslariga emas, yuz-ko'zlariga tikildi.

Juftlik behad shod va baxtiyor edi. Go'yo baxt bandalarga taqsimlanar ekan, sevgi va sadoqatga, ishonch va sadoqatga, sabr va sadoqatga, odamiylik va sadoqatga, yana nimalardir... va sadoqatga qaralgan edi. Gulchi ham bir vaqtlar kelinlik libosini kiygandi. Sevganmidi? Ishonganmidi? Sabrli bo'lganmidi? U na o'z ota-onasiga, na eriga sadoqat ko'rsatgandi. Endilikda begona bir erkakning o'z zavjasiga sadoqat saqlashiga xalaqit berib, shayton singari yo'ldan urmoqda edi.

Juftlik o'tdi-ketdi. Kuyov yo'lakda uchragan juvonning turmushi buzilganini, endilikda ko'chadagi biror erkakdan mehr axtarib yurganini bir qarashda payqadi, kelin-chak ham kuyov kabi o'yADI, faqat bir gapni qo'shimcha qildi: «Astag'firullo... Shunday ko'yga tushishdan O'zing saqlagin...»

Juvonning ro'parasidan endi sevishgan yigit va qiz kulisib kelmoqda edi. Qizning nigohi Gulchiga tushgan zahoti yigitning bilagiga osilib, nimadir deb pichirladi. Hoynahoy, «narigi yo'lakka o'taylik» dedi shekilli. Ikkisi ham g'alati kiyangan xotinga ijirg'angandek qarab, yo'lni kesib o'tdi-da, odamlar orasida ko'zdan yo'qoldi.

Ularning nafrati meni quvontirdi. Kim qo'yibdi Gulchiga birovning erini yo'ldan urishga? Aksincha, erim uni yo'ldan urayotgandir, ammo Gulchi oilali nomahram erkak bilan uchrashuvga chiqayotganini bilmasa ekan, boshqa gap edi.

Hayal o'tmay yo'lakda ikki qiz paydo bo'ldi. Ular o'n ikki-o'n uch yoshda edilar. Biri Gulchining pardoz-andoziga, bejirim, tor ko'ylagiga havas bilan boqib, «Ikkovimizga ham shunaqa kiyimlar bo'lib qolsa-ya», dedi. Yuragim shuv etdi. Nahotki, norasida qizlar shu juvonga havas qilishsa? Onalari qachon qizaloqlarini xiyonatchilarga havas qiladigan qilib o'stirishga ulgurishdi?

Xayriyat, ikkinchi qiz Gulchidan darrov yuz o'girib, af-tini bujmaytirdi va: «E, men bunaqa kiyim kiymayman»,

dedi qat'iyat bilan. Gulchi uning gapini eshitdi, yuzidagi ifodani ko'rdi, xo'rsindi.

Juvon uf tortib, toqatsizlandi. Vijdoni to'lg'onib qo'ygan edi-da. Unda ham ota bor, tog'a, bor, amakilar bor. Gulchi va o'n minglab boshqa juvonlar hali mahalla-ko'ydan, qavm-u qarindoshdan butunlay uzilib, o'rtada ulkan ummon hosil bo'limgandi. Birortasi uchrab qolsa-yu «Bu yerda nima qilib yuribsan?» deyishsa, «Gul do'konidagi Risolatning tug'ilgan kuniga borayotgandim» deb yolg'on aytishga Gulchining tili aylanmasligi uchun yana ozroq fursat zarur edi. Shuni xohlardimki, ko'cha imonli, insofli odamlarga to'lib qolsa. Biri baxtli oilasi bilan xush-xandon o'tsa, biri ro'zg'orim, bolam-chaqam deb nimadir olib ketayotgan bo'lsa, boshqasi esa o'z do'sti yoki dugonasi bilan ezgulik mavzusida so'zlashsa va Gulchi eshitsa, «men ham tinchgina uyimda o'tirsam-chi» desa...

— Qayerlarda qoldi bular? — to'ng'illadi juvon istar-istamay.

«Nahotki, u oddiy bir haqiqatni anglab yetmasa?» deb hasrat chekdim. Kimning qandayligini el biladi-ku. Gulchi bekorga ajrashmagan. Uning eri piyonistadir, giyohvandir, xiyonatchidir, og'zi shaloq, kaltaklovchi zo'ravondir, ne bo'lganda ham, juvon o'zini qo'lga olishi, sabr qilishi, odobi, axloqi, mehnati bilan kutishi darkor edi. Birinchi baxt qaytmasa, ikkinchisi albatta keladi. El aytmaydimi, falon uyda xushro'ygina, odobli, qo'l-oyog'i chaqqon juvon bor, erining tuturiqsizligi uchun oilasi buzildi, deb. Xotini o'lgan yoki ajrashgan erkaklar unga uylanishga havasmand bo'lishmaydimi?

Afsuski, u oilali erkaklarning vaqtincha ma'shuqasi bo'lishlik yo'lida yulduzga aylanayotgandi. Qizig'i, shu nusxaga ilakishayotgan o'sha noinsof erkak menga begona emas, erim Bo'ri edi. Yo'lda Bardaning mototsikli ag'anab, erimning oyog'i sinsa, bu uchrashuv yuz bermasdi balki.

Biroq sarkush Barda uni chorrahaga eson-omon yetkazib keldi.

Erimning atir ufurgan shamoli chorrahaga kelmasdan avval negadir to'rt tarafdan irshaygan-tirjaygan yosh yigitlar va allaqachon ma'naviy buzilib, eng jirkanch xiyonatlariga qo'l urgan kimsalar ko'zga tashlandi. Ular o'tgan-ketgan qiz-juvonlarga surbetlarcha suqlanib qarash u yoqda tursin, gap otishar, ismlarini so'rashardi. Gulchining yuragi gup-gup urdi. Kiyinishi va pardoz-andozi manqurt qavmning hirsini qo'zg'atib, atrofida girdikapalak qilishi tayin edi. Eribor paytlari ko'ylak-lozim, boshda ro'moli, bu ko'chalarda emin-erkin yurgan Gulchi hozir qayoqqa qochishni bilol-may taraddudlandi.

Chorrahaning boshqa tomonidagi yo'lakdan ellik-oitmish yoshli erkaklar Gulchi tomon kelaverishdi. Gulchi jincha yengil tortdi. Hech qurmasa, quda-andali erkaklarda insof bordir, dedi-yu xato qildi. To'yxonadan chiqqan kayfi taroq erkaklar bir-biriga baqirib-chaqirib hazillashgan ko'yi yaqinlashaverishdi. Yosh yigitlar ham, ular ham Gulchini ko'rib qolishgan ondayoq yanada su-yilib, og'izlarining tanoblari qochishdi. Chorrahada muhit o'zgardi. Chorrahada baxtsizlik va gumrohlik g'olib chiqdi. Xudo ko'rsatmasin, shu tobda dunyoqarashi shakllanmagan, ilmsiz va ustozsiz o'smirlar kelib qolishsami, jamiyatning kelajagi xavf ostida qolishi hech gap emasdi. Hayotdan zavqlanish uchun anavi yigitlardek yallo qilib yurish kerak, anavi kimsalardek mayxo'rlik bilangina maza qilib yashash mumkin, shunda huv anavi juvondek sohibjamol-lar seniki bo'ladi, degan fikr uyg'onishi muqarrar edi.

— Fshu-u-u!.. — deya Barda hushtak chaldi.

Juvon Barda va erimni ko'rib, quvonib ketdi-da, ular sari shoshildi.

— Sen, Barda, mototsiklingda aytgan joyimda kut, biz taksida ketamiz, — dedi erim yugurdagiga.

Erim taksi to'xtatdi. Rulda mo'ylovi oqargan, do'ppi

kiygan, oddiy bir inson o'tirardi. Ikkisi orqa o'rindiqqa cho'kishdi. Cho'kishgandanoq erim Gulchining oppoq qo'llaridan tutib, kaftlari orasiga oldi. Ikkisining ham qo'llari qizib, badanlariga o'zlariga xos yoqimli his yoyildi.

- Ko'rinnmaysiz? — dedi Bo'ri.
- Hozir ko'rinyapmanmi? — ehtirosli shivirladi juvon.
- Ko'rinyapsiz, — deb erim bir qo'lini belidan o'tkazdi.
- Jim... Odam bor-u...

Taksichini yo'tal tutdi. Yo'tali kuchayib, bo'g'riqib qizardi. Keyin og'ir-og'ir nafas olib, ortiga qaradi.

- Ikki kishi... ikki kishimisizlar?
- Ha, — dedi erim va Gulchi bilan ko'z urishtirdi. — Necha kishi bo'lib ko'rinyapmiz, aka?
- Uch kishi.
- Yo'g'-e!
- Kechirasizlar, mazam qochyapti shekilli... Sizlarni olib ketolmayman...

Taksichi meni sezib qolgan edi.

- Ko'zingizga rostdan uchta bo'lib ko'rindikmi? — dedi erim tushayotib. — Charchabsiz, aka. Borib uxlang.
- Eshikni tezroq yop, iltimos, uka, — jerkib berdi taksichi. — Bunday yurmay, tavba qil... tavba qil...

Gulchining endigina ko'tarilayotgan kayfiyati sopol-dek sindi. Qarasam, Bo'rida ham vijdon cho'g'lari miltilayapti. Taksichidan mingdan-ming rozi bo'ldim. Ammo quvonishga erta edi. Ular taksichining bir og'iz achchiq gapi ta'sirida tuzalib qoladiganlarga o'xshamasdilar. Ikkisi yarim istab, yarim istamay «Jununa» restoraniga kirishi. O'rtadagi stolni band qilishga cho'chib, chekkadagi pardalar yonidagi ko'zdan pana stolni egalladilar. Bu yer odamlardan pana bo'lsa-da, shaytondan pana emasdi.

Ofitsiant dasturxonni bezadi. Vijdon ularning nafaqat kayfiyatlarini, balki vujudlarini ham og'irlashtirib qo'ygandi.

- Ichamiz, charchab ketdi odam, — dedi erim ryumka-

ga iblis suvidan quyib. — Qanday yashashni bilmayapman. Ichsam vijdonim qiyaladi, ichmasam yashashning qizig‘i yo‘qoladi... Hayronman...

— Eshiddim, xotiningiz namoz o‘qir ekan, — Gulchi qadahni ko‘tardi. — Dardingizni tushunaman. Turmush o‘rtog‘ining dunyoqarashi to‘g‘ri kelmasa, har kuni aql o‘rgataversa, odam qanday yashashni bilmaydi. — U qadahni bir ko‘tarishda, yarimlatdi. — Ko‘ngil boshqacha hayotni tusaydi, aql boshqa narsani talab qiladi. Menimcha, sizda ham shunaqa, topdimmi?

Bo‘rining vijdoni simillab og‘ridi, lekin changalida-
gi sohibjamolni nafs otliq hislar sultanating lashkari
qo‘yib yuborishni xohlamasdi. Shunday ofatijon o‘zi istab
uchrashuvga chiqdi, Bo‘riga yana nima kerak. Erim bun-
day imkoniyat hamisha nasib etavermasligini, ertaga juvon
uchrashuvni rad etishini, biror boyvachcha odamga tur-
mushga chiqib ketishini o‘ylab, botiniy jazavalandi. Agar
shu damda kimdir «Hayot qiziqmi?» deb so‘rasa, «Ha,
mana shunday o‘tirganimiz uchun ham qiziq», deb javob
berardi. Go‘yo Gulchi kabilar bo‘lmasa, umri g‘urbatda
o‘tishiga ishonardi. Nega? Javobi oddiy edi: u Gulchiga
o‘xhash qizlar bilan yashash baxt, mabodo bundaylarga
uylanolmasa, shu toifaga mansublarni ilintirish omad deb
qon-qoniga singib ulg‘aygandi. Menga uylandi-yu o‘ylagan
baxtini topolmadidi. Men uning qavmidan bo‘lgan erkaklarga
oyoqlarimni, qo‘llarimni, bo‘ynimni ko‘rsatmadim, valsga
tushmadim, birga o‘tirib qadah cho‘qishtirmadim, aksin-
cha, mayxo‘rlik va dayuslik bazmlariga qarshi chiqdim.
Bo‘rining miyasi buni qabul qilolmadi, dunyo ko‘ziga
qorong‘i ko‘rindi. Men unga yolg‘on baxtni bermayman,
berolmayman ham. Ko‘ra-bila turib o‘z erimni yolg‘on
dunyo chohlariga qanday ham itarib yuboraman, axir?

— ...odamday yasholmayapman, — dedi Bo‘ri.

— Men ham odamday yasholmaganman-da, shuning
uchun dardingizni tushunaman, — dedi Gulchi.

Tavba, ular «odamday yasholmayapman» deyishdimi? Bir jihatdan to'g'ri. Odamday yasholmayaptilar. Yurish-turishlari odamlarnikiga emas, ko'proq odam ko'rinishli hayvonlarnikiga o'xshayapti.

— Nega ajrashgansiz?

— Erim kalta kiyishga qo'ymadni, bo'yanishimga ham qarshi edi, — dedi juvon xo'rsinib. — Uyda har kuni jan-jal-to'polon. Yoshligimda kalta kiymasam, to'y-hasham-larda sakrab-sakrab, aylanib-o'rgilib o'ynamasam, nega erga tegdim-u nega yashayapman? Qiz bolalik davringda uyingdagilar, harholda, «bu qiz bola narsa» deb avaylab-asrasharkan. Erga tekkaningdan keyin ham o'ynab-kulma-sang shu ham hayotmi? Maktabda o'qib yurganimdayoq aytganman bitta arning qovoq-tumshug'iga qaramayman deb! Bilasizmi, Bo'ri aka, erim to'yimda oq fata kiyidirma-di, hijobga o'xhash allambalo kiyimda sahnaga chiqdim. Shu ham hayotmi?! Ajrashib qutuldim iflosdan. Oq fata kiymaganim bir umrlik armonim. Mabodo xotiningiz to'y sahnasida paranjini ochmayman deb yig'lamadimi?

— Yig'ladi, — xo'mraydi Bo'ri.

— Ha-hah-hah-ha-a!.. Bularning bari shunaqa! — kului juvon.

— To'yim buzildi... — Bo'rining ovozi xuddi ma'ra-yotgandek qaltirab chiqdi. — To'yning yarmida sahna bo'shab qoldi... Xotinin o'zini kasalga solib, to'y tuga-masdan chimildig'iga kirib ketdi... O'lgudek ichib, o'rtada jo'ralarim bilan tentak bo'lib o'ynadim...

— Men ham erkak bo'lganimda shunday qilardim!

Gulchi hiring-hiring kului. Bo'ri sigaret tutatdi.

— Men ham chekishni boshlayman, hammasi jonga teg-di, opkeling, — qo'l uzatdi juvon.

Ikkisining og'zidan do'zaxda yaxshi yonmagan o'tinlarning tutuni usfurildi. Gulchini yo'tal tutdi.

— Eringiz namoz o'qiydimi? — so'radi Bo'ri.

— Namoz o'qishini bilmasdan erga tegibman, — suzildi

Gulchi. — Ichmaydi, chekmaydi deyishgandi, lekin mullavachcha ekanini aytishmagandi.

— Ie, u mulla edimi?

— Yo'q, ichmagandan, chekmagandan keyin kim deyman? Mulla deyman-da. Tirnog'idan sochining uchigacha odob, odob, odob! Shu «odob» degan so'zni eshitsam, qayd qilib yuboradigan darajaga yetdim! Mana bundoq bo'ldim o'sha oiladan! — Gulchi qo'lini tomog'iga arra qildi. — Voy-y-y, rashkini aytmaysizmi? Jamik degan sinfdoshim bor. O'zi o'g'il bola bo'lsa ham, men bilan xuddi qizlardek yaqin sirdosh edi. Jamik bilan telefonda kulishib gaplashayotganimni eshitib qoldi, rashk qilib janjal ko'tardi er o'lqur. Men Jamik bilan yuramanmi? Jamik o'rtog'im-ku, axir! Qoloqlar esa xotin kishi nomahram erkak zoti bilan sirlashdими, tamom, bu xiyonat deb hisoblashar ekan. Keyin... men pochchamlar bilan o'pishib ko'rishaman. Boshidan shunaqa. Pochchamlar mehmonga kelganida, qo'l berib, o'pishib ko'rishdim. U yuzimni, bu yuzimni tutdim. Mehmongalar ketgach, qaynonam bilan erim janjalning eshagini boshla-sa bo'ladimi! Ular pochchamlar edi, o'ynashlarim emas! Erimning ayol qarindoshlari o'zlarining pochchalari bilan shunchaki qo'l berib ham ko'rishmas ekanlar. Baloga qolgan men, men, men!

— Bizda «so'pi» deyishadi.

— Kimni?

— «Mulla» deganingizga aptyapman-da.

— Bayramlarni ko'ngildagidek nishonlamasliklariga hech chidayolmadim, — dardini dasturxon qilishda davom etdi juvon. — Ularning uyida Yangi yil yoki sakkizinchı martda emas, har juma bayram edi. «Nega juma kuni bayram qilasizlar? Men kitobda jumani «qora juma», xosiyatsiz kun deb eshitganman», deganimni bilaman, yana baloga qoldim. Kim jumani «qora juma» yoki xosiyatsiz kun desa, u musulmon emas emish, yevropaliklarning tarbiyasini olgan cho'chqa ekan. Ertadan-kechgacha robotga o'xshab to'g'ri

yur, begonalar oldida kulma, besh marta ibodat qil, voy-voy, ro'zani aytmaysizmi! Men bir gal erim bilan ro'za tutganman. Boshim shunday aylanganki, o'z o'qidan... aniqrog'i, o'z bo'ynidan chiqib ketib, uzilib tushishiga sal qolgan. Oshxonaga, bir tovoq ovqat oldiga yetib olish uchun devorga suyanib borganman. Ikki kun ovqat eyolmay kasal bo'lib yotib, ro'zadan qutuldim. Kelgusi yilgacha meni ro'za tuta oladigan ayol qilib tarbiyalamoqchi edi, ajrashib ketdim. Mana endi erkinlikka chiqdim. Siz qachon butunlay erkinlikka chiqasiz?

Bo'ri boshini ikki tarafga liqillatib:

— Allaqachon ajrashib ketardim, otam qo'y mayapti, — dedi.

— Endi nima qilasiz? — Gulchi erimga chiroyli jilmaydi.

— Sizni topdim-ku, jonim.

— Yashirincha uchrashadigan ikkinchi xotin bo'lmayman, aytib qo'yay, — hamon jilmayardi Gulchi. — Uyingizdag'i xotinchangizni haydavoring. Uni yo'qotish juda oson. Birorta jo'rangizga o'rgating, kechasi kelsin. Ikkisini ushlaysiz va otangizga «keliningizni xiyonat ustida ushladim» deb aytasiz. Otangiz xiyonatdan keyin ham birga yashattirmas?

— Hm-m... — deya erim o'nya toldi. Aftidan, uyg'onayotgan vijdoni ichkilik ta'sirida ancha-muncha karaxtlangandi.

— Xo'sh? — shivirladi juvon jodu ko'zlarida ishq va'da etib.

— Mayli, lekin... lekin avval birga yashab ko'raylik... siz bilan... — dedi erim.

— Nima deganingiz bu?

— Shu atrofda bir uy bor, uzoqmas, machit orqasida, — dedi Bo'ri. — Fermamdag'i mollarning sutini topshirishga kombinatga kelganimda tanishib qolganman. Yomon kam-pirmas. Og'ziga mahkam. Bitta o'g'li bor, alkash. Unga aroqqa pul berib uyidan chiqarib yuboramiz.

- O‘sha joyni Barda aytdimi?
- Barda emas, — rangi o‘zgardi erimning, — o‘zim... o‘zim bilaman... Aytdim-ku, sut sotishga kelganimda tani-shib qolganman...

Eng yomon voqea hali oldinda edi. Ruhim jin kabi Gul-chining ichiga kirib, xiyonatga tomoshabin bo‘lib turgani-da, vujudim tandirxonan devoriga suyangancha xayolga tol-gan emasmidi, bir vaqt kimningdir yo‘talganidan seskanib tushdim. Ko‘zimni ochib, erim va Gulchi uchrashayot-gan restorandan tandirxonaga qaytib qolganimni ko‘rdim. Yo‘talgan kimsa Bo‘rining o‘rtog‘i Ibob edi. Uning ko‘zlariga tikilib bildimki, erim bu dunyoda bir juvonni yo‘ldan urayotganida, taqdir charxpalagi mening huzurim-ga boshqa bir erkakni shaytonga hamroh qilib yuborgandi.

- Hormang, — dedi Ibob tandirxonaga bir qadam tash-lab.
- Qarasam, olovga termulib, xayol surib turibsiz.

Ro‘molim surilib, peshonam ochilib qolgandi, darhol manglayimni yopib, bosh egib salom berdim.

- Voalaykum assalom, Nigoraxon, — dedi Ibob «valaykum»dagi «a»ni atayin «o» deb talaffuz qilarkan. — Non yopyapsizmi?

— Ha, uyg‘a kiring, erkaklar ichkarida.

- Ko‘rdim, Bo‘ri mototsiklda ketdi Bardaning orqasiga mingashib. Qaynotangiz fermada. Uyda mishiqi bolachalar bor, qaynog‘angizning o‘g‘illari. Ular bilan nimani gapla-shaman?

Ibob menga erim belgi sifatida aytgan o‘sha mayda xo-lini qashib, uy tomon o‘g‘rincha qarab oldida, sekingina ikkinchi qadamini tashladi. Shunda uning vujudi tandir-xonaga kirib, uy tarafdan ko‘rinmaydigan nuqtaga yetdi. Ikkimiz kuppa-kunduzi ko‘zdan pana joyda yuzma-yuz qoldik. Bu hol Bo‘rining boshqa o‘rtoqlari va ularning xo-tinlari bilan yuz bersa, hech qanday g‘ayritabiyligi yo‘q edi. Ular do‘stlarining xotinlarini «mo‘yinsa» deb atashar-

di va qanchalik hazillashmasin, hazil hazilligicha qolardi. Mening esa qavmim boshqa edi. Xijolatdan yer yorilib, yerga kirmadim. Kosovni olib tadirga o'girilgandimki, bo'ljadi. Ibod shartta kosovni ushladi. Vujudimga bosh-dan-oyoq muz yugurdi.

— Siz ideal ayolsiz, — dedi u. — Mening xotinim kim? U Bo'ri bilan kelinchaklik davrida vals tushgan, tasavvur qilyapsizmi, yosh kelinchak erining do'sti bilan valsga tushgan. Men ahmoq ekanman, kelinchak-chi? U sizga o'xshab rad qilishga nega aqli yetmadi? To'g'ri, biz — sinfdoshlar o'rtadan qil o'tmaydigan qalin do'stalarmiz, lekin... lekin yaqinda eshitdim... pochchamning bir o'rtog'i boshqa bir o'rtog'ining xotini bilan gap bo'lib ajrashibdi. Bizda ham... mana shu qishloqda ham... yuradiganlar borligini kecha eshitdim.

— Bularni nega menga aytyapsiz?

— Sizning tanlagan yo'lingiz to'g'ri chiqdi, — deb Ibod achchiq yutindi. — May oyidagi o'tirishimizning boshida men ichmadim, chekmadim. Qushday yengil yurgandim. Afsuski, o'sha o'tirish kuni tashqariga chiqib, qaytib kirmsam, do'starim xotinimga vino ichirishibdi. Keyin hammalari valsga tushishayotgan ekan. Ichimdan zil ketdim, Nigora. Qanday qilib ichganimni, sigaret chekkanimni bilmay qoldim. Siz... siz nega bunday pokiza ayolsiz?

— Kechirasiz, kelganingizni uydagilarga aytishim kerak, — degandim, Ibod yo'limni to'sdi.

— Gap shu yerda qolsin, — dedi u dag'allashgan ohanda, — Bo'ri sizga xiyonat qilyapti. U kimyo posyolkasidiagi bitta beetak parnikchi bilan gaplashib yuribdi. Bugun Bardaga ergashib unikiga ketdi. Qasos olishni xohlaysizmi?

— Qarg'ish urgan kimsalarda o'chim yo'q, — deb javob berdim. — Endi esa yo'limdan qoching, aka.

— Muomalangizga besh ketaman-da. Agar sizdek xotinim bo'lganida, boshimga ko'tarib yurardim. O'lay agar,

namoz o‘qib, ro‘za tutardim. Hijobda yurishingizga hecham qarshilik qilmasdim. Uyimda aroq ichirmasdim, sigaret chektirmasdim...

Ketmoqchi edim, Ibod yana yo‘limga g‘ov bo‘ldi.

— Oxirgi paytlari xotinim gaplashyapti, kimligini aniqlayolmayapman, — deya Ibodning lablari gezarib, ko‘zlari nursizlandi. — Tunov kuni Oqtutdag‘i opasinikiga ketib, ikki kunda keldi. Avvallari opasinikida bir kun ham yotib qolmasdi.

— Alloh insof bersin sizga, yo‘limdan qochasizmi, yo‘qmi?

Ibod oshkora iljaydi, ko‘zlar qisildi.

— Siz, — dedi u, — eringizga xotinlik xizmatini qilolmaganingiz uchun u ko‘chadan boshqa mehr axtarib yuribdi. Mayli, don olishsin, lekin mening xotinimga yaqinlashsa, yomon bo‘ladi. Tag‘in bu gaplarni Bo‘riga aytmang, siz bilan xafalashib qolamiz. «Qayerda aytdi?» desa, «Tandirxonada dardlashdik» deysizmi? Siz demasangiz, men deyman. Bu gaplarni o‘zimga yaqin olib gapirdim, Nigora...

— Maydalashmang! Uylanayotganingizda ko‘zingiz qa-yoqda edi? Xudodan qo‘rqlaydigan buzilgan qiz ekanini, nomussiz ekanini nima uchun endi aptyapsiz? Yaqinlarin-gizga emas, menga aptyapsiz? Uyaling, Ibod aka! Vaqtida tavba qilib, dilingizni, tilingizni poklang.

— E, u nomusli edi, buzuqi emasdi.

— Xotiningiz ota-onasining yashagan kezlari nomusli edimi? Sizni shunday tushunaymi?

— Bo‘lmasa, qanday tushunasiz?! Hamma bilan yurgan suyuqoyoq qizga uylanamanmi?

— Xotiningiz ota-onasining uyida iffatli, hayoli, imonli qiz bo‘lgan, tur mushga chiqib, buzila boshlagan. Demak, uni erim yoki boshqalar emas, siz o‘zingiz buzgansiz. Buni ikki qulog‘ingizga quyib, umrbod unutmang.

— Men? — Ibod ko‘zlarini chaqchaytirdi. — O‘z xo-

tinimni o'zim buzamanmi? Kechirasiz-ku-ya, ko'zingizga dayus yoki qo'shmachi bo'lib ko'rinyapmanmi?

— O'z tilingiz bilan aytayapsiz-ku, ota-onasining tarbiyasi ostida yaxshi qiz edi, mening uyimga kelib, tarbiyamni olib, buzilishni boshladi, deb. Ayb qaysi oilada? Ota-onasining oilasidami, siznikidami? O'z qo'lingiz bilan xotiningizni boshqa erkaklar bilan vals tushishga berganmisiz? Ziyofatlarda ichishiga yo'l ochganmisiz? Birovlar jufti halolingizga bepara hazillar qilishiga sharoit yaratganmisiz? O'ylab ko'ring-chi, ota-onasi xotiningizga qizlik davrida shu ishlarni qilishga ijozat bergenmi? Yo'q! Shundan keyin ham aybni faqat xotiningizdan axtarishni o'layapsizmi?

Aftidan ilonning dumini bosgan edim. Biroq Ibob achchiqlangan ko'yi gapga nuqta qo'yib, qorasini o'chirmadi. Maqsadi uzoqroq gaplashish, o'zining niyatini sezdirish, jirkanch rejalarini yuqtirish edi.

— Siz-chi? — dedi u. — Nega ota-onangiznikida ham ramkangizdan chiqmagansiz, eringiznikida ham chiqmayapsiz?

— Mening tarbiyam, dinim, e'tiqodim bir umrga yetadigan, yurakka bir marta o'rnashadigan va qaytib chiqmaydigan o'zgarmas, mangu e'tiqod. Uni islom deb qo'yibdi. Siz va xotiningiz ota-onalida uyida nimadan ta'lim olgansizlar? Uyingizga borib, o'ylab ko'ring!

— So'zlashishingizga besh ketaman-da! Haqiqatan «otin oyi» deganlaricha bor ekansiz. Mening xotinimning e'tiqodi qanaqa? Bilsak bo'ladimi? Xristianmi yo butga sig'inadami?

— Iltimos, keting!

— Savolimga javob eshitmasdan ketmayman!

— Xotiningiz ota-onasining qanday tarbiya olgan, e'tiqodlari qanaqa, bilmayman. Tushunishimcha, u ota-onasining uyidan chiqib ketguncha bo'lgan muddatga

mo‘ljallangan tarbiyani olgan. Sizlar uni «dunyoviy tarbiya» deb ataysizlar. Er uyi odoblari, qabr hayoti va boshqalarni bilmagani uchun oxirgi paytlarda o‘zini yo‘qotgan.

- Qiziq, qabrda ham hayot bo‘ladimi?
- Uzr, siz bilan ortiq gaplasholmayman, — deb kosovni tashlab, Ibodni aylanib o‘tmoqchi edim, u qo‘limdan tutdi.
- Gunohga botyapsiz! Qo‘yvoring! — iltijo qildim men.
- Ko‘ryapman, siz baxtsizsiz! Baribir Bo‘ri bilan ajrashib, birorta mullaga erga tegib ketasiz! O‘sha mulla menman.
- Qo‘yvoring!
- Qichqirasizmi? U holda butun Boyjanjal qishlog‘iga sharmanda bo‘lasiz. Eringiz ajrashadi...
- Ko‘nglingizda ozroq imon bo‘lsa, qo‘yvoring! Menga akadeksiz, qaynog‘adeksiz. Uyalmaysizmi?! Qanday gunohga botayotganingizni anglab yetyapsizmi? Nomahramga, o‘z do‘stingizning xotiniga, namozxonga, begunoh ojizaga, muslimaga teginyapsiz, tuhmat qilmoqchisiz. Unutmang, Alloh sizni hozir kechirmoqchi bo‘lib turgandir, inshaalloh. Bitta xato bilan do‘zaxiyga aylanib qolishingiz xavfi yaqin, juda-juda yaqin. Buning ustiga, farzandingizni ham o‘ylang. Men qarg‘amasam ham, noroziligidimning o‘zi qarg‘ishga aylanadi. Qarg‘ish sal-pal zarar yetkazadi, deyolmayman. Ehtimol, ikki dunyoingizni ham kuydirar. O‘z taqdiringizni tavakkalga qo‘yib, og‘ir jazolarga giriftor etmang.

Ibod titradi, ammo qo‘limni qo‘yib yubormadi.

- Men kechaman... Xotinimdan, bolamdan... Ajrashaman... Siz ham ajrashing, Nigora... Agar ajrashmasangiz, Bo‘rini qayerdadir o‘lgudek ichirib, mast qilib tashlab kelaman-da, kechasi uyingizga kiraman... Ha, ha, shunday qilaman! Ovoza bo‘lganiningizdan keyin Bo‘ri bir kun ham yashamaydi. U mening xotinim bilan valsga tushgan, siz esa meni rad etdingiz...

- Imonsiz ekansiz. Ming afsus...
- Haqorat qilmang, Nigora! Sizni yoqtiraman. Meni siz tarbiyalaysiz. Biror kun bozordan narsa olishim kerak, deb «rayon»ga chiqing. Machit orqasidagi mahallada bir kampir bor. O'shanikiga kirib, maslahat olamiz, xo'pmi? Buni tuzoq deb o'ylamang, kampir yaxshi... juda yaxshi!.. O'g'li ichadi, o'shanga kuyadi... Sizga qo'limni ham tek-kizmayman...
- Qo'yib yuboring!
- Va'da bering, qo'yib yuboraman. Xudoni o'rtaga qo'yib qasam iching...
- Siz... siz nimalar deyotganingizni bilasizmi? — deb ko'zlarimdan duv-duv yosh to'kdim. — Yaratgan Egangizni o'rtaga qo'ymoqchimisiz? Gunoh ish uchun-a?! Koinotni yaratgan, yo'qdan bor qilgan Zot oldida siz qanchalar mayda va ojiz jonzot ekaningizni bilasizmi o'zi? U zotni o'rtaga qo'yish tugul...
- Hech kim sizga yordam berolmaydi! — dedi Ibob tishlarini g'ijirlatib. — Hatto, xudo ham!
- Tavba qiling, tavba qiling!
- Nega yig'laysiz? Men sizni... — Ibob quchoqlash uchun talpingan ham ediki, yerdan chiqdimi, ko'kdan tushdimi, Sapi tentak paydo bo'lib, boshiga tayoq bilan bir urdi.
- Ha, kal, bu yerda nima qilib turibsan? — dedi u. — Tandirga non qilib yopib yuboraylikmi seni, pishmagan xamir?! Kelinning qo'lidan ushlab, qo'rqtyapsan! He o'-o'-l...
- Ibob ortiga tisarilgancha tandirxonadan chiqdi. Sapi tentak rangim murdanikidek oqarib ketganini ko'rib, krujjkadagi suvni sepib, yuzimni ishqaladi. Ho'ngrab yig'lab yuborgandim, quchoqladi. So'ngra pishgan nonlarga termulib, g'amga botdi.
- Bir vaqtlar men ham non yopardim, — dedi boshini liqillatib, — keyin non yoptirmay qo'yishdi. Nima uchun?

Chunki men tentak bo‘lib qoldim. Aytishlaricha, otam rahmatli juda qattiqqo‘l, mirg‘azab bo‘lganmish. Bir bevaning bir hovuch bug‘doyini ocharchilik yillarida tortib olib, qat-tiq xafa qilganida, «seni qarg‘amayman, davlatning odami-san, lekin qizing mening holimga tushsin» degan ekan. Men ham davlatning odamiman-ku, yolg‘onmi? Davlatning qizi bo‘lmay, kimning qiziman? Begonamasman, hecham begonamasman... Non yopolmayman, umrimda yaxshi ish qilmaganman, hamma meni yomonlaydi... Yig‘lama, uni haydavordim... Birovga aytsam, tilim uzilib tushsin.

- Yo‘q, siz yomon emassiz, — dedim uni yana quchib.
- Keyingi safar keling, birgalikda non yopamiz.

— To‘ying kuni esingdami? — U mening quchog‘imdan chiqib, ko‘zlarimga quvonch-la tikildi. — Olovda yetti marta aylanasan, deb rosa qo‘rqtgandim. Nima uchun? Seni ham qishloqqa tushadigan anavi kelinlardan biri deb o‘ylabman. Olovda aylan, aylan, aylan, deb battar qilaman, deganman. Yo‘q, sen boshqacha ekansan. To‘ying o‘tib, chillang chiqqanda ham uchrashib qolgandik. Esladingmi? O‘sanda kechirim so‘ramagandim, mana endi so‘rayman. Meni kechir, Jannat kelin! Men bir tentak xotinman! Olov hech nima. Olov shunchaki bir bahona. Eng qizig‘i, olovdan katta narsalar davlatdan ham katta. Bir narsani so‘rashga kelgandim. Men ham olovda yonamanmi?

- Olov har bir tirik jonni kuydirib qo‘yishi mumkin. Undan aqlni ishlatib foydalanish kerak.

— Qo‘ysang-chi, bog‘chaga boradigan bolamanmi?
 — dedi Sapi tentak. — Menga kattalarning gapini gapir! Do‘zaxdagи olovda yonamanmi? Shuni so‘rashga keldi-i-i-im... hi-hi-hi-i... Tag‘in birov larga aytib qo‘yma, xo‘pmi? To‘ying kuni seni xafa qilganim uchun do‘zaxga tushamanmi? Shundan gapir!

- Olovda kim yonishini faqat Alloh biladi, — deb Sapi tentakni yupatdim. — Ayniqsa, hozirgi yaxshilingizning

savobini Alloh ziyoda qiladi, inshaalloh, opajon! Mulla-soyda sizga o'xshagan bir opa bor edi. Bir kuni sigirimni axtarib yurib, oyog'im toyib jarlikka yiqildim. Jarlik tubi bo'tqaga aylangan loy edi. Haligi opa meni qutqarolmasligini bilgach, dod-faryod solib, chor tarafga yugurib, yordamga odam chaqirdi. U bo'limganida umrim tugardi. Keyin opani butun qishloq hurmat qila boshladimi, deb o'layapsizmi?

— Ha, ha, ha, — deb boshini qayta-qayta irg'adi Sapi tentak.

— Yo'q, u avvaldan shusiz ham hurmatga ega ayol edi. Nega? Chunki bizning Mullasoy qishlog'i ahli o'z mazhabidan bir qadam ham chekinmasdi. Munofiq deb eshitganmisiz? Ular hech qanday munofiq emasdilar. Bir insonda xastalik bormi, ustidan kulmasdilar. O'sha opani ham barchamiz birdek ardoqlardik. Boyjanjal qishlog'iga kelin bo'lib tushganidan keyin ko'rdimki, odamlar xastalarning ustidan kulishi, do'stining xotiniga ko'z olaytirishi, ota-bola bir dasturxon atrofida aroq ichishi, erlar o'z xotinlarini yarim yalang'och kiyintirishlari, tizzasi tugul sonini, soni tugul ko'ksinining yarimigacha namoyish etishi mumkin ekan. Menga bu qishloq gohida do'zax bo'lib tuyuladi. Bitta gugurt cho'pini yoqayotganida, barmoqlariga salgina olov tegsa, voy-voylashadi-yu nega bu ilohiy signal ekanini anglashmaydi? Gugurt cho'pining kuydirishiga chidayolmagan o'sha odamlar kuppa-kunduzi xotinlariga xiyonat qilishadi, bir-birini aldashadi, mushtlashadi, so'kinishadi. Axir, qayerda yozib qo'yibdi do'zaxni aldash mumkin deb? Do'zax olovi gugurt cho'pining kuydirishidan milyon baravar azobli emasmi?!

— Ha, olov yomon, juda yomon. To'ying kuni olovda aylanmayman, deb yig'lading, seni uzoqdan, odamlar orasidan kuzatib, baravar yig'ladim, — hiringladi Sapi tentak.

So‘ngra u meni nari itarib, qo‘l cho‘zdi: — Non ber, Jan-nat, non ber!

Ibod kaltak egach, g‘oyib bo‘lgan edi. Men Sapi tentak-ka bitta nonni qo‘ltiqlatib yubordim va ortidan duo qildim. Taqdir Sapi tentakni yubormaganida ahvolim chatoq edi.

U yoqda Bo‘ri va Gulchi nima bo‘ldi deysizmi?

...«Jununa» restoranidan chiqib, taksi to‘xtatishdi. Bu sa-far imonli taksichi emas, barmoqlari orasiga sigaret qistir-gan, shapkasini qiyshaytirgan bir takasaltang uchradi. U o‘z aravasi bilan nafaqat ikki gumrohni, o‘zini ham qo‘sib do‘zax sari shoshiltiradigan yigit edi. Musiqa ham baland. Musiqa ham odamni huzur-halovatda yashab qolishga, so-hibjamollar bilan aysh qilishga, qahvaxonalariga kirib, pivo simirishga undardi.

Erim va ma’shuqasi orqa o‘rindiqda birbiridan bo‘sа olishdi. Taksichi orqani ko‘rsatadigan oynadan ularga ir-shayiblar qaradi.

— Machitdan o‘tib to‘xta, uka, — dedi Bo‘ri manzilga yaqinlashgach.

Bo‘ri taksichiga kelishilgandan ko‘p pul berdi.

— Chiqishlaringizni kutib turaymi, akajonim? — dedi yigitcha.

U ikki gumrohning nima maqsadda kelayotganiy-u bir soatga qolmay chiqishini tushunib yetgandi. Biroq Bo‘riga uning turqi yoqmadi. Odatda, bir gumrohga ikkinchи gumrohning turqi yoqmasligi bu dunyoda tez-tez uchrab turadigan hol edi.

— Qani, sur, — dedi erim, — biz qachon chiqamiz, xudo ham bilmaydi.

Taksi vang‘illab jo‘nab qolgach, ikkisi kampir yashay-digan mahalla ko‘chasiga kirgan ham edilarki, shu payt masjid tomondan bir it chopib kelib, Gulchining oyog‘idan tishladi. Gulchi dod solgan sayin it irillab, big‘illab, so‘laklarini oqizib oyog‘iga battar tish botirardi. Bo‘ri av-

val tepib, keyin tosh otib itni haydab yuborganida, kech bo'lgan edi: Gulchining oyog'i qonga belandi. Yerga o'tirib qolib, oyog'ini ushlagancha voyvoylardi.

— Tishladimi? — baqirdi kimdir qo'rqinchli ovozda.

Bo'ri qayrilib qarab, ko'ylagining tugmalari yechilgancha halloslab kelayotgan, so'yilli notanish kimsani ko'rdi.

— Sizning itingizmidi? Rasvo qildiku! He... — so'kindi Bo'ri.

— Meniki bo'lsa so'yil ko'tarib quvamanmi?! — Kimsa qo'lidagi temir bo'lagini tashladi. — It quturgan ekan. Xo-tiningizni tezda do'xtirga olib boring!

Men hamon o'zimni Gulchi deb his etardim, hamon uning ichida jin kabi yashardim. Ko'p o'tmay isitmam chiqdi. Shifokorlar bilagimga va kindigim ostiga allaqanday ukollar sanchishdi. To'shakda alahsirab yotarkanman, Gulchining vujudi o'lsa, dunyo go'zallahib qolmasligini angladim. Yomonlar o'sib chiqaveradi, erim xiyonat qila-veradi. Masalaning kaliti boshqa yerda edi. Odamlarni yomon yo'llardan qaytaradigan juda katta ezgu kuch kerak edi.

U — sog'lom jamiyat.

U — sog'lom jamiyatning poydevori bo'lmish sog'lom oila.

U — sog'lom oilani saqlab turadigan yagona SO'Z — imon...

Ho'ng-ho'ng yig'ladim. Kimdir kelib boshimni siladi. Ko'p o'tmay yana isitmam chiqdi. Alahlab yotdim. Bil-madim, yarim kechasi edi chog'i, ko'zimni ochdim. Qo'l-oyog'im va yuzim doka bilan bog'lab tashlangandi. Shunda angladimki, bu vujud Gulchiniki emas, o'zimniki. Meni it tishlamadi, men ikki kishining o'limida ayblanib qamoqqa olinganman. Ergash bilan gaplashayotganimda farzandlarimni eslatdi. Ergashni o'ldirib qo'ymaslik uchun o'zimni derazaga urdim. Oyna singanini eshitdim. A'zoyi badanimni oyna siniqlari kesib yuborgan edi...

VI BOB

*Zindonning kaliti mahbusda emas,
Mahbus ozodlikdan boshqani demas...*

Kundaligimni yozyapman.

Kundalikni endi xayolan yozyapman.

Yo'lakning chirog'i sutrang oynadan o'tib mening fayz-siz xonamni yoritib turardi. Telefon jiringlagach, uyqusiragan soqchi bir nimalar deb g'o'ng'illab javob berdi. Sukunat cho'kdi. Men karavot chetiga o'tirib, jarohatlarimga bog'langan dokalarни yechdim. Qon qotib qolgan yaralaringning dokalarini esa yechib bo'lmasdi. Og'riq zo'ridan ingrab yuborsam, soqchi uyg'onib ketishi mumkin edi.

Eshikni sekin itargandim, unsiz ochildi. Yo'lakka mo'raladim. Oq xalatli soqchi devorga suyanib, boshini bir tomonga qiyshaytirib uqlab qolgandi. Ergash meni dunyodagi eng kuchli qo'riqlanadigan qamoqxonadan bu yoqqa o'tkazdirib katta xatoga yo'l qo'ygan edi. Tamom, hammasi tamom.

— Bugun qamoqdan qochib, barchasiga oydinlik kirtiman, — dedim o'zimga o'zim. — Alvido, badbo'y xonalar... Bu yerlarga tirik qaytmayman...

Oyoq uchida yo'lakka chiqdim. Men yotgan xona-ning eshigiga shifoxonalardagidek oyna o'rnatilgan bo'lib, ichki tomoniga panjara qoqligandi. Hoynahoy, yana oynani sindirib, o'zimga shikast yetkazishimdan va qochib ketishimdan cho'chishgan shekilli. Biroq eshik tashqaridan tambalanmaganiga hayron qoldim. Balki soqchining yodidan ko'tarilgandir, balki yana oradan kunlar o'tgan, men o'zimni risoladagidek tuta boshlaganim uchun nazorat susaytirilgandir.

Yo'lakning soqchi o'tirgan o'ng tomoni — to'rt qadamlar nari panjara bilan to'silgan, chap tarafning oxirida esa yana bir sutrang eshik kaminani kutmoqda edi. Mushukdek pu-

sib, pildiragancha eshikka yetdim. Afsuski, u taqa-taq berk ekan. Kalit tirkishidan mo'ralab, yaltiroq polli charog'on yo'lakni ko'rdim. Yanglishmasam, bu bino qamoqxona emas, shifoxona edi. Xavfli mahbusni eshigi qulflanmaydigan palatada, buning ustiga uyqu elitgan sanitar yigit nazoratida qoldirishlari mumkinmi? Aslo. U holda qamoqxona qayoqqa yo'qoldi? Ergashning iltimosiga ko'ra sudsiz, hukmsiz, he yo'q be yo'q shifoxonaga o'tkazishmas, axir.

Miyamdan yordam kutdim. O'ylaganim sayin boshim xumdek shishib, toshdek qattiq og'riq turdi. Miyamda nimadir guvillab, burnim ham shishayotgandek tuyuldi. Eshikka holsiz suyandim va sirg'algancha polga o'tirib qoldim. Boshimni changalladim. Ko'rayotganlarim qo'rqinchli tushmi, illyuziyami, anglolmadim. Balki men o'lgandirman? Ko'rayotganlarim darbadar arvohimning kechmishlaridir? Yoinki Beshinchi tergovxona, Ergash bilan allaqanday kabinetda uchrashishim – bular bari turli yillarda, turli makonlarda sodir bo'lgan voqealarimi? O'rtadagi davrlarni eslayolmay halakmanmi?

Bir payt qayoqdandir qadam saslari eshitildi. Boshimni ko'tarib, diqqat-la qulq tutdim. Yo'lakda, men chiqqan palata eshigi bilan yonma-yon, yana bir eshik bor ekan. Shoshilinchda uni payqamay, to'g'ridagi shu eshikka yetib kelibman. Ovoz yo'lakdag'i o'sha eshik ortidan, qandaydir pastlikdan yaqinlashib kelardi. Badanimga titroq yugurdi. Dunyoni zulmat qoplagan, faqat shu binodagina chiroq yoniq edi. Bino mendan boshqa birorta ham tirik jonsiz hu-villab yotardi. Banogoh qadam saslari... kimligi noma'lum mavjudotning yaqinlashuvi...

Qo'llarimga boqdim. Men qamoqxonadagidek kuchli emasdym. Nozik bir ayol, o'sha Nigora, o'sha kelin, o'sha ojiza edim. Burchakka sudralib o'tib, tizzalarimni quchoqlagan ko'yi kutdim. Qadam saslari eshikka yaqinlashdi. Qulf shiqirladi. Eshik ochilib, oq xalatli barvasta erkak qo'lida qog'oz bilan kirib keldi. U yo'lakka qadam bosgan

zahoti menga emas, uxbab yotgan soqchisanitarga qaradi. Palatamning eshigi qiya ochiqligi esa kapalagini uchirib yubordi.

— Eshonqulov! — bo'kirdi u.

Soqchi joyidan sakrab turdi. Turdiyu o'ziga qarab lo'killab kelayotgan hamkasbining ortida — burchakda pu-sinib o'tirgan menga ko'zi tushdi.

— Eshik nega qulflanmagan? Tirikmisan ishqilib? — dedi hamkasbi.

— Chiqib ketibdi... Ana! — Soqchi menga qarab yugur-gan edi, hamkasbi ham o'girildi.

Ixtiyorimda ikki soniya vaqt bor edi. Eshikka yovvoyi mushukdek otildim. So'ngra shiddat-la yopib, qulfladimda, kalitni joyida qoldirib, zinadan pastga — hozirgina oq xalatli erkak chiqib kelgan dunyo sari shoshildim. Bugun ozodlikdan nafas olib, g'arbga, yanada g'arbga — menga jumboq, ro'yo, dahshatli tush bo'lib qolayotgan o'sha mud-hish yerga borishni istardim. Aslida nimalar bo'lgan edi? Shuncha yildan beri qayerdaman o'zi? O'tmishimning qanchasi haqiqat-u qanchasi yolg'on? Hozir o'z kelaja-gimda yashayotgan ekanman, bu kunlarga o'tmishimdan nimalar yetib kelgan?

Birinchi qavatdagagi eshik ham ochiq edi. Yo'lakdagagi xizmatchi ayollar qichqirib yuborishdi. Qurolli soqchilar ularga «Qochinglar!» deya baqirib, menga qarab chopdilari. Hademay qo'lga tushishim tayin edi. Biroq tanimga g'ayritabiyy kuch qaytib kelayotganini his etdim. Ha, bugun hammasiga nuqta qo'yiladigan kun edi. Kechami, bugunmi Ergashning xonasidagi deraza oynasida o'z aksimni ko'rdim. Mendan nafaqat ozodlikni, yuzimdagagi niqobni ham tortib olishgan edi. U hijob deb ataladimi, chimmatmi, chachvonmi, shunchaki ro'molmi, menga nomlanishining farqi yo'q edi. Muhimi — mavjudlik. Shifokor-larning o'zlari mikrobgaga qarshi oq niqoblarni qanday taqib

yurishsa, men ham imonimni saqlashim uchun shunday niqobda yurishim shart edi.

Yo'lakning ikkinchi tomoniga qochdim. U yerdagi eshik qulf edi. Yurakyorar vahm aralash ovozda chinqirib o'zimni eshikka urdim. Eshik qulfi qarsillab sinib, ikki tabaqasi ham sharaqlagancha ikki yonga urildi. Yo'limda uchragan hamshira qizning yelkasidan tutib uloqtirdim. Bechora qiz havoda aylanib, ortidan quvib kelayotganlarning ustidan uchib o'tib, ko'zdan yo'qoldi.

Darvozadek kattakon temir yeshikka etdim. Baxtimga qulflanmagan ekan. Eshikni yopib, tutqichlarga temir has-sani qistirdim. Tutqichlar singuncha tepishsa, keyin ochiladigan bo'ldi.

Qarshimda yer qa'riga eltuvchi yana bir zinapoya turardi. Erto'laga tushdim. Chiroqlari xira nur sochgan nimqorong'i yo'lakdan yugurib ketaverdim, ketaverdim, bir necha marta goh o'ngga, goh so'lga burildim. Shiftini o'rgimchak ini qoplagan, bir yonidan gaz va suv quvurlari, ikkinchi yonidan elektr, telefon va allambalolarning simlari o'tgan, tobora torayib borayotgan yo'lak meni boshi berk manzilga boshlab keldi. Har qanday go'zal binoni xunuk toshlar va betonlardan iborat poydevorlar tutib turishini avvallari o'ylab ko'rmagan ekanman.

Suvning chakillashi eshitildi. Oyog'im ostiga boqdim va panjarali qopqoq tagidan suv jildirab oqayotganini ko'rdim.

— Tasanno, — dedim men.

Kanalizatsiya qopqog'i ustida edim. To'yim kuni so-chilgan tangalardan biri o'tmishdan dumalab kelib, kanalizatsiya quvuriga jiringlab tushgani xotiramda uyg'ondi. Go'yoki u menga yo'l ko'rsatib, hurlik sari ishora qilgandi. Ozodlik ko'kda emas, ozodlik oyoq ostida edi. Alalxusus, oyog'ing osti ozod emas ekan, ko'kdagi ozodlikka termulgandan ne naf.

— Shukr, — dedim va engashib qopqoqni ko'tardim.

Chiqindi suvlari yarimlab oqayotgan quvurga hilvira-

gan kichik jussam zo‘rg‘a sig‘di. Jarohatlarim tirnalib azob bersa-da, bir amallab quvur ichida emakladim. Sudrala-sudrala noma'lum dunyoga yo'l oldim. Badbo'y suv a'zoi badanimni muzlatib manzilga mendan oldin shoshilardi.

Ancha joygacha sudralib bordim. Quvur ichi zim-ziyo bo'lib qoldi. Nafas olish qiyinlashdi. Quduqqa o'xshash zindonsimon joydan chiqib, sekin pastga tushdim. Ortga endi yo'l yo'q edi. Bu quduqqa men kelgan quvurdan suv quyilib, oyog'im ostidagi panjara ortidagi o'pqonga tu-shib, allaqayoqlarga oqib ketardi. O'tgan umrimda yoddan ko'tarilgan ayrim voqealarni eslab, to'xtadim. Men nima qilyapman? Kalamush kabi o'tmishimni tashlab qayoqqa qochyapman? Quduqni masjid deb tasavvur qilib, bir zum ikki dunyomni o'ylab olsam bo'ladimi? Boshim ustidagi cho'yan panjaradan tushayotgan xira yorug'lik menga tiriklikni eslatayapti-ku. Nima qilay?

...Bo'ri o'shanda Gulchini shifoxonaga yotqizib ke-lib, hech nima yuz bermagandek xo'mrayib choy ichdi. Ko'zlariga qaradim, u nigohlarini olib qochdi. Ibodning gapida jon bor edi. Men o'z vazifamni bajarishim kerak. Erni do'zaxdan to'sadigan parda – zavjasি. U shunday zav-jaki, o'zini ham do'zaxdan saqlaydi.

Shunday qilib, oradan oylar o'tib, xonadonimizda qiza-loq dunyoga keldi. Unga qaynotam Ziyoda deb ot qo'ydi. Butun oila jajji qizaloqning boshida parvona edik. Fer-madagi ishlar yaxshi ketayotgandi. Xalq o'zgarayotganidan ham shod edim. Ko'plab bayramlarimiz qaytib kelganini, hatto davlatning o'zi tantanali bayram qilganini ko'rib ko'zlarimga ishonolmasdim. Garchi Boyjanjal qishlog'i ahli orasida Ramazon hayiti va Qurbon hayiti kunlari «Hayit tushgacha! Tushdan so'ng ichsa bo'ladi» deguvchilar har qadamda uchrasa-da, yaxshilar ko'payayotganini ko'rmaslik mumkin emasdi. Ular vatanni sevmoq imondandir deb tushunishardi. Ular oilani sevmoq, ilmni sevmoq, yaxshi amallarni sevmoq, yaxshi odamlarni sevmoq

ham imondandir deb tushunishardi. Biroq o'zlar tilga olgan tushunchalar nisbiy ekanini hamisha ham anglab yetmasdilar. Menga haqiqiy vatan Jannat ekanini aytishgan chog'dayoq, birinchi inson – Odam Ato paydo bo'lgan makonni, ya'ni Jannatni vatanim deb bilib, unga munosib bo'lishga harakat qila boshlaganman va qachonlardir foni y dunyodan qaytsam, chin Vatandan abadiy makon topishimdan umid qilganman. Yerdagi men tug'ilgan bu o'lka esa majoziy vatanim bo'lib, shu ikkinchi yatanga ham har jihatdan munosib farzand bo'lishga urinardim. Atrofimdagilar sevadigan oila, ilm, yaxshi amallar, yaxshi odamlar ham o'z dunyoqarashim o'lchovlardan kelib chiqib YaXSHI degan nomga sazovor bo'lmoqlari darkori edi. Masalan, erimning uyidagilar to'y-ma'rakada yelib-yugurib xizmat qiladigan Bardani yaxshi yigit deb hisoblashardi, mening tushuncham bo'yicha esa u aroqxo'r, munofiq va qo'shmachi edi. Harholda, Boyjanjal ahlining ko'pchiligi komil bo'lolmasalar-da, baholi qudrat harakat qilishardi. Ayniqsa, ko'p yillar ichib, chekib, ro'zg'orning pulinisovurganlar shaytonning kuchli vasvasasi ostida o'tmishdagi bazm-u jamshidlarini qattiq qo'msab qolissa-da, «astagfirullo» deb o'zlarini tiyardilar. Ko'pchiligi nihoyatda insonparvar, halim, ochiqko'ngil kishilar edi. Ular Xudoni emas, insonni xafa qilib qo'ymaslik kerak degan qoidaga amal qilishib, mo'tabar mehmonlar tashrif buyurganda, dasturxonlarni turli may va sharob shishalari ga to'ldirishar, garchi o'zlar ichishmasa-da, mehmonning izzatiga qadah cho'qishtirishardi. Shunda ular haqiqatan ham Yaratganning ayrim qonunlari insonni insonga qarshi qilib qo'yadi, bir oz ichishga ruxsat bo'lganida-chi, deb ko'ngillaridan o'tkazishardi. Mayxo'rlik illati bilan murosa qilib bo'lmasligini anglamayotganlardan kuyinardim. Agar din bir piyola ichishga ruxsat bersa bormi, ming yildan keyin shu bir piyola may ummonga aylanishini, hech kim, hech qaysi qonun ularni ko'za-ko'za, xum-xum sharobdan

to‘xtatib qololmasligini tushunmasdilar. Eng yaxshi chora – bir tomchisini bo‘lsa-da taqiqlash. Boshqa yo‘l yo‘q edi. Bo‘limgay ham.

Qaynotam yuqorida zikr etilgan mayga oshna toifadan edi. Mendan va qishloqning boshqa namozxonalaridan yashirib goho jig‘ildoniga yuz-ikki yuz gramm aroqni urib olardi. Hajga yo‘llar ochilganida, qo‘shni qishloqlardan ikki-uch chollar borib kelgach, vaziyat o‘zgardi. Kechagina sovxozi raisi, omborxona mudiri, bosh hisobchi sifatida to‘ylarning to‘rida obro‘ qozonib o‘tirganlar endilikda «hoji bova» martabasi ila yana bir pog‘ona ko‘tarildilar. Qaynotam tadbirli odam edi. «Bozor iqtisodiyoti», «tadbirkorlik», «ishbilarmonlik», «biznes» degan istilohlar iste‘mol qilingach, qaynotam ham qarab turmagandi. Qishloqda birinchi bo‘lib ferma ochgani katta yutuq edi, ammo qaynotam boshqa sohalarni ham egallahshni istardi. Pulni sandiqda saqlaguncha shifer yoki spirt shaklida saqlasa, foyda tug‘adi, deb hisoblardi. Shifer kelganda, hovliga mashinamashina shifer tushirtirib qo‘yar, spirt kelganda, tonnalab spirtni bostirmalarga g‘amlardi. Uyga aroq olib kelmang, deganimda Bo‘rining ustidan g‘alabaga erishgandim va aroqni ma’naviy jihatdan «bomba» deb atagandim. Qaynotam biznesga mukkasidan keta boshlab, kanistr-kanistr, bochka-bochka spirtni uyimiz tagidagi erto‘lada saqlab qo‘yanidan so‘ng shayton suvini haqiqatan ham bomba deb atamasdan ilojim qolmagandi. Bitta o‘t tutashsa, biz – hammamiz kulga aylanardik.

Hajdan yana gap chiqqan kunlarning birida qaynotam o‘z qarorini aytdi:

- Shifer bilan spirtni sotib, hajga ketaman.
- Hajga borgan odam bir umr kanda qilmay namoz o‘qishi kerak ekan, – darhol e’tiroz ohangida so‘zladi Bo‘ri, – siz-chi, ota? Bir o‘qiyosiz, bir tashlab qo‘yasiz. Keyin yana bir gap. Ali hojini yaxshi tanisiz. Shu kishining o‘g‘illari to‘ylarda ichib yurardi, dabdala mast bo‘lib.

Otasi hajdan kelganidan keyin ham ichib yurishgandi, hojilar «o'g'illaring ichmasin, bo'lmasa, hajing kuyadi», debdi. Akam ichadi, men ham har zamon to'y-po'yda otaman. Shuncha shiferning, shuncha spirtning puliga, buyam yetmaganday fermadagi to'rt-besh molning puliga Arabistonga borib kelsangiz, biz to'yda ichib qo'ysak, nima bo'ladi? Pachka-pachka pullar Arabistonning banklariga foyda keltingani qoladimi? O'sha pullarga arablar qo'sha-qo'sha xotin olsa mayli-yu, men...

Bo'ri «bitta manavi bilan yashab yuribman» degandek olayib qaraganida, badanimni sovuq ter bosdi. O'nta xotingga uylanmaydimi? U o'zini muslimmon desa-da, islomni tushunmas, beshinchchi farzni oshkora haqorat qilib, tilini og'ir gunohga botirayotgandi. Xuddi shu qoidasini o'ziga qarshi qo'llasam, qanday xulosa chiqadi? U hajga borishni Arabiston banklarini boyitish va arablarning qo'sha-qo'sha xotini olishiga sharoit yaratish deb tushunar ekan, nega ota-si sunnat qildirganini malomat etmayapti? Kim uni nikoh o'qitib, halol oila qurishga majburladi? Janozasiz dafn etilishga-chi, rozimi? U nasroniylikni qabul qilsa va birorta nasroniy mayxo'r bo'lib chiqsa, bu butun bir nasroniylik madaniyatini, axloqini belgilab beradimi? Jo'n aytganda, Bo'rining tasavvuricha, shunday. Aslida uning og'zidan chiqayotgan gaplarning qonuniyatlariga mos boshqa o'nlab teranroq misollarni ko'ndalang qo'yish mumkin edi.

— Iltimos, — shivirladim titrab, — Alloh irodasiga til tekkezizmang. Yer sharining qaysi mintaqasiga borib, haj amallarini bajarishni Xudo xohlagan. Agar Xudo xohlama-ganda edi...

— Qanaqa mintaqqa? Arabistonmi? — ensasi qotdi Bo'rining. — Uning nimasi bizning yerdan ortiq?

— Yaratgan Egam qirq yil tarki dunyo qilib, ibodatdan bo'shamagan odamga ham jamolini ko'rsatishi dargumon, — dedim men. — Siz-u bizdeklarga ko'rinxmasligi aniq. Shuningdek, Yer sharining hamma mamlakatiga, hamma

tiliga, hamma odamiga Kitob yubormasligini ham o'zingiz yaxshi tushunasiz. Ruslarga, inglizlarga, hindlarga, turklarga, yaponlarga emas, arablardan biriga yubordi. Alloh har bir ishni o'zi bilib qiladi. Qaysi millat, qaysi yurtga yuborsam, bandalarga yoqarkan demaydi. Odamning o'zi o'ylab, mushohada qilishiga, tanlashiga imkon berilgan.

— Qisqasi, Xudoni qo'shma! Men buyuk arablar haqida emas, hozirgi ayrim xotinboz arablar haqida gapiryapman!

— E, adi-badi aytishmanglar, — jerkib berdi qaynotam.
— Bu yil joy yo'q ekan, yanagi yilga hujjat to'g'rilib, pulni ham to'plab turamiz. Sen, Bo'ri, otaga qarshi chiqishni bas qil! Akang ikking ichganlaring uchun hajimni kuydiraman deb xomta'ma bo'l manglar. Bir qultum ichsalaring, uyga bir kilometr ham yaqinlashmaysanlar. Uqdilaringmi?

— Nega?

— Nega deysan-a? — gapga aralashdi choyni xo'rillatib ichayotgan qaynonam. — Aroq gunoh deb otang ming marta aytgan-ku senga!

Bo'ri kulib yuborib, menga piyolasini uzatdi.

— Qovoq uygancha, choydan quy-e, din peshvosi!

— Bunga aql kirmaydi, — dedi qaynotam.

— Aqlim oz bo'lsa ham, bir narsani mushohada qilyapti,
— labining cheti istehzoli kulimsiradi Bo'rining, — hajga spirlarni sotib bormoqchimisiz? Unga ozroq suv qo'shilsa, nima bo'ladi? Aroqmi? Suv qo'shmasa ham spirt, bu — aroq degani! Bundan chiqdi, spirt sotib, hajga borish gunoh!

— Sen savdogarlikning halolligini qayoqdan bilarding, o'qimagan! — deya qaynotam o'g'liga sochiq otdi.

— Hadisda aytiganki... — deb og'iz ochgandim, qaynonam jerkib berdi:

— Otin oyi, hadisingizni «mulla papasha»ngizga aytasiz, xo'pmi? Erkaklarning gapiga ko'p ham jirtillab qo'shilavermay, boring, choy ichib bo'lgan bo'lsangiz, qizingizga qarang.

Men noiloj boshqa xonaga chiqib ketdim. O'sha yili ham, keyingi yilda ham qaynotamga hajga borish nasib etmadi.

— Porani kattaroq berish kerak-da, — dedi Bo'ri.

— Aql o'rgatguncha fermaning hujjalariiga qarasang o'lasanmi? — koyib berdi qaynotam. — Bardaning nomiga o'tkazsang o'tkazding, bo'lmasa, soliqlarni o'zingning cho'ntagingdan to'laysan.

— Bardaga pul bergenman, ota, yuguryapti.

— Sen ham qo'shilib yugur, ahmoq! U takasaltang eplayolmaydi!

Fermani nima uchun Bardaning nomiga o'tkazishlariga hayron qolganman. Bilsam, o'sha kezları yangi fermerlarni uch yil soliqdan ozod qilish haqida buyruq chiqqan ekan. Soliqdan qochish uchun qaynotam o'z fermasini Bardaning nomiga rasmiylashtirib, uni davlat idorasiga yangi fermer qilib ko'rsatmoqchi; soliqsiz yashamoqchi edi.

Oilada ikkinchi qiz tug'ildi. Uning ismini ham qaynotam qo'ydi. Nurxon bo'ldi ikkinchi qizim. O'rabi turgan qishloq muhiti e'tiqodimni izzat qilmasa-da, farzandlarim meni anglab yetadigan bo'lishlariga ishonardim. Ikki bolamni — Ziyoda va Nurxonni o'z Robbisini tanigan soliha qizlar qilib voyaga yetkazish orzuyim edi. Homiladorligimdayoq bunga kirishgan edim. Menga nima yomonliklarni ravo ko'rishsa ko'rishsin, ammo qizlarimning tarbiyasini kimdir buzishga urinsa, tanimda qandaydir isyon uyg'onishini yuragim o'shandayoq sezal boshlagandi. Ziyoda tili chiqqandayoq «Fotiha», «Ixlos» suralarini yoddan bilar, chuchuk tili bilan bidirlab duolar o'qir, salovatlar aytardi. Bo'ri ulfatlariga «Bizning xotin qizlarimni vahhobiy qilib tarbiyalayapti» deb kulganida janjal ko'tarmasdim, sabr qillardim va Allohdan erim uchun insof so'rardim. Boyjanjal qishlog'i ahli qizlarimning savodi chiqayotganini ko'rib, «mullaning nevaralari-da» deb ularning aqlu zakavatini otamga nisbat berishardi.

O‘sha yillari mamlakatning bir necha joyida diniy eks-tremistlar bilan otishmalar bo‘lib o‘tdi. Xavfsizlik choralar kuchaytirilganida, meni ham qishloq idorasiga chaqirtirishi-di. U yerda ichki ishlar xodimi va milliy xavfsizlik xizmati vakili kutishayotganini aytishdi. Qaynotam Sirdaryodagi bir tanishidan o‘sha kunlari bir tonna spirt keltirgandi. Bir qismini fermada, qolganlarini uyimizdagi yerto‘la va om-borxonada saqlayotgandi.

— Bo‘ri! — xitob qildi qaynotam. — Tez chiq! Idoraga militsiya kelib, kelinni chaqirishibdi. Hamma spirlarni ariqqa to‘k! Birorta ashayoviy dalil qolmasin!

— Shuncha spirtni-ya? — ko‘zlari ola-kula bo‘ldi erim-ning.

— Kelinni chaqirib, aldab so‘rashadi! Uydan bitta kanistr topilsa ham masalamiz hal, tushundingmi?

— E, ota, keliningiz ro‘mol o‘raydi-ku! Ro‘mol o‘raganlarni bittalab tekshirishyapti deb eshitgandim. Spirtingiz bilan kimning nima ishi bor?!

Haqiqatan ham idorada kutayotgan vakillarning dardi spirt emas, ro‘molim ekan.

— Qachondan boshlab hijobga o‘rangansiz?

— O‘n yoshimdan, — deb javob berdim men.

— Hozir ham namoz o‘qiysizmi? — so‘radi ko‘k ko‘zli, ozg‘in kishi.

— Allohga shukr, o‘ranganimdan beri deyarli qazosiz o‘qiymen.

— Boyjanjal qishlog‘idagi ayollardan yana kimlar o‘qiydi?

— Afsuski, hech kim.

— Nega afsuslanyapsiz? Hamma xotin-qizlar o‘ranib yurishini, namoz o‘qishini, zikr tushishini xohlaysizmi?

— Savolningizga qanday javob kutayotganingizni tushundim, — dedim vazminlikni boy bermay. — Maylimi men ham savol bersam?

— Xo‘s, eshitaylik-chi?

- Siz qachondan beri o'g'rilar to'dasiga a'zosiz va nega buncha ko'p aroq ichasiz?
- Men-a? — g'azabdan bo'g'riqdi xodim. — Kimligimni aytganimda xayolingiz joyida emasmidi?
- Bu kishi hech qanday o'g'ri emas, aroq ham ichmaydi, — dedi miliitsiya xodimi.
- Uzr, tashqi ko'rinishingizga qarab o'g'rilar to'dasiga a'zo va har kuni ichadi, deb o'yladim, — dedim men. — Demak, yanglishibman. Shuni unutmangki, siz ham me ning tashqi ko'rinishimga qarab adashdingiz. Kostyumshim kiygan, sigaret chekadigan, oz-moz ichib turadigan har qanday kishi o'g'rilar to'dasining vakili, piyonista bo'lмаганидек, ro'mol o'ragan, ibodatni kanda qilmaydigan har bir ayol ham ekstremist emas. Xohlaganingizcha so'rab-surishtiring, men chumoliga ham ozor bermayman. Mazhabim — qon to'kishga qarshi.
- Ular qaytib bezovta qilishmadi. Biroq taqdir oilamizga yetti uqlab tushimizga ham kirmagan sinovni yubordi. Musibat oilamizning dam sokin, dam po'rtanali kechayotgan hayotini butunlay o'zgartirib yubordi. Bu musibat sababchilari qaynotam va qaynonam edi. O'sha yili birinchi qor oktabrning oxirida tushdi. Dalalardagi ekinlar to'liq yig'ishtirilmagandi. Tongda uyg'onib, sarg'aygan makkajo'xori g'arami ustidagi oqlikni ko'rib, Allah mo"jizasiga hamd-u-sanolar aytdim. Neki kun ko'rsatsa, o'zining irodasi, qanday ob-havoni voqe qilsa, o'zi yozgan taqdir edi. Kundaligim bahonasida men — ojiz banda hayotda anglaganim bir haqiqatni aytib o'taman. Biz — bandalar ilm-u fan bobida qanchalik javlon urmaylik, koinotga ne qadar ichkari kirmaylik, Yaratganning olamidan tashqariga chiqib ketolmaymiz. Bunga misollarim juda ko'p. Masalan, Xudoyim taolo tuproq va suvni yaratib qo'ygach, ikkisini aralashtirsang, loy bo'ladi, degan qonuniyatni ham unga esh qilgan. Bir zamonlar qadimgi dunyo kishilari tuproq va suvni aralashtirib, loyni kashf etishib,

undan g‘isht, haykalcha, idishni ixtiro qilganida, faqat o‘z aqliga tasanno aytgan bo‘lsa bordir, ammo tuproq va suvni ham, loy va haykal-u idishlarni ham bandadan avval bunyod etgan ko‘rinmas Zotni unutmaslik darkor edi. Kimyogarlar, fiziklar, biologlar, ob-havoni oldindan aytuvchilar — bularning bari Parvardigori olamning yaratgan olami hamda qonuniyatlari ichida harakat etishardi, birortasi mutlaq boshqa olamga o‘tib, mutlaq boshqa narsalarni bunyod etolmasdilar. Qilingan har bir kashfiyot, ixtiro va loyiha ilohiyot oldida eski, oldindan ma’lum oddiy, jo‘n hodisa edi. Buni musulmon amalga oshiradimi, nasroniyimi, yahudiyimi, mumkin va muqarrar bo‘lib, ojiz bandalardan bilim, harakat va zakiylik talab etilardi. Kim ilm-fanni chuqur egallasa, Alloh yaratgan tabiat ichiga chuqurroq kira olardi. Tabiat boshqa narsa edi, Arshi a‘lo boshqa. Amerika va Yevropada oxirgi yuz-ikki yuz yil ichida barcha sohalar rivojlanib ketganini men — oddiy kelin oddiy aqlim bilan to‘g‘ri tushunardim, hecham hayron qolmasdim, zero kim, qayerda harakatda bo‘l-sa, o‘zgarish qila olishi g‘ayritabiyy emasdi. Dahriy olimlar ham tabiatning ichiga chuqurroq kirib borishlari mumkin edi, albatta. Tabiat shunday bir moddiy ne’mat ediki, undan foydalanish uchun musulmonmi, hindmi, otashparastmi, nasroniyimi, farqi yo‘q, tirik odam bo‘lsa bas. Men, hatto, kimdir may ichib, sarxushlikda iloh haqida ajoyib she‘r bitsa, bunga ham hayron qolmasdim. Zero, ong-u shururim bilan barchasini anglab yetgandim. Kechki ovqatni yegan odam bilan iftorlikni yegan odam — ikkisi ham bir xil ne’matni tanovul qilishadi. Shuningdek, bosqinchiga ham orden berishadi, vatan himoyachisiga ham. Tabiatan bir xil ko‘ringan hodisalar jannat bilan do‘zaxning yo‘lini belgilab berardi. Shunday ekan, tanovul qilingan ne’mat bilan ne’matning va sazovor bo‘lingan orden bilan ordenning ancha farqi borligini tushunmoq va haq yo‘lga shakshubhasiz rioya qilmoq kerak edi. Ibodatim va ro‘zalarim,

yaxshi amallarim va chiroyli sabrim meni qanday saodatga eltishini yuragim sezardi. Mana bugun qor yog'di. Boyjanjal qishlog'i ahli ichida kim to'y-ma'raka qilayotgan yoki ekini dalada qolgan bo'lса, falakka faryod urishini ham bilardim. Ular o'zlarini omadsiz hisoblab, Yaratganni ayblashlari hech gap emasdi.

Qaynona-qaynotam uchun tahoratga suv tayyorlab, o'zim bir zumda yuvinib, ibodatimni ado etdim. Qaynonam ham hajga boradigan bo'lib qolgani uchun bir necha oydan beri namoz o'qirdi. Biroq tiyramohning fojia yuz beradigan mudhish kunida ular namozga turishmadi. Men sut pishirib, endigina ayvonni supurayotgandim, qaynonam uyg'onib, hovliga chiqdi.

— Qaynotang bugun to'yda bir bayram qilay, deb namozga turmaganiga men ham uxbab qolibman, — dedi yuz-qo'lini yuvarkan. — Hechqisi yo'q, to'ydan kelib, «optom» qilib o'qib olaman. Bo'ri qani? Yana kech keldimi?

Ferma uchun kecha pichan g'amlagan Bo'ri o'z ishchilariga ziyofat berib, yarim kechasi qaytgan, xonasidan aroq va sigaretning badbo'y hidi sizib chiqayotgandi.

— Sal kechroq keldi, uxbab yotibdi, — deb javob berdim.

— Qor yoqqanini qarang, Xudo ham shu bugunga qorni to'g'rilib qo'yanini, — to'ng'illadi qaynonam. — To'yga kelganlar sovqotib qoladi-yov. Oqboy ota qishlog'i tog'ning eng salqin qishlog'i. Hozir u yerda gupillab qor yog'ayotganmikan, a?

— Yengil yog'ib o'tgan, hali qish boshlanmadiku, — dedim men.

— Qayoqqa qarab fol ochyapsiz?

Olisda ko'ringan toqqa ishora qildim. Qo'ng'ir tusdag'i pastak tog'ni ola-chalpoq qor qoplagandi.

— Hovlini tozalab, saranjom-sarishtalab qo'yish kerak, — dedi qaynonam negadir.

Qaynotam ham uyg'ondi. Ikkisi birga choy ichishdi. Bu ularning oxirgi marta dasturxon atrofida birga o'tirishlari

edi. Yaqinda «Damas» sotib olishgandi. Qaynotam «Damas»ni qizdirar ekan, menga Bo‘rini chaqirishni buyurdi. Chopib kirib, erimni uyg‘otdim.

— Ota, men to‘yga bormayman, — dedi Bo‘ri bosh og‘riqdan azob chekib, uf tortarkan. — Salim tog‘alar siz-larga tug‘ishgan tog‘a, menga esa bir avlod nari, uzoqroq qarindosh, bormasam xafa bo‘lishmaydi.

— Ko‘p gapirma, bola!

— O‘zingiz haydashga qiziqayotgandingiz-ku, nega rulga o‘tirmayman deyapsiz?

— Bo‘lmasa, Bardani chaqir! «Prava»si uyidami yo yana «GAI»ga tushdimi?

— Uyida, — dedi Bo‘ri darvoza sari oyoqlarini sudrab bosarkan.

Qaynonam oshxona oldida erimning yo‘lidan chiqib, dedi:

— Nega bormayman deysan? Ichganmisan?

— Ha, ena, unkib boryapman. «GAI» to‘xtatsa, dab-dalamni chiqaradi. Otam nega o‘zi haydab bormayapti?

— Otang ikkovimizning hajimiz hal bo‘ldi-ku, oyna. Shunga otang bugun tog‘alarning to‘yida bir ichay deyapti. Oxirgisi emish. Hajga borib kelganidan keyin ichib bo‘pti. Hojilar o‘z o‘tirishlariga qo‘shtay qo‘yarmish.

Hayal o‘tmay sport kiyimidagi Barda shang‘illagancha yetib keldi. Ovozi bugun xirqiroq edi. «Hoynahoy, kecha ko‘p ichib qo‘yan bo‘lsa kerak», deb guman qildim.

— U ham ichganmi? — so‘radim erimning yoniga borib.

— E, qayoqdan bilay! Kecha biz bilan o‘tirmagandi, — javob berdi Bo‘ri jerkingannamo.

Qaynotam uydan chiqdi. U kishining bu uydan oxirgi marta chiqishi edi. Hovliga, ya’ni bir necha soatdan so‘ng tumanot odam to‘planadigan maydonga qarab, dedi:

— Tomorqaga odam solish kerak. Kuzda hammayoq alkashning uyidek rasvo bo‘lib ketadi. Anavi makkajo‘xori g‘aramini somonxonaga bosinglar deb o‘tgan kuni aytgan-

dim. Qor erib, yer qurigandan fermadan ishchi chaqir, Bo'ri, eshitdingmi? — Keyin u o'z tobuti qo'yiladigan yerni bosib, imoratlarga ko'z yogurtirdi. — Deraza-eshiklarni oqlaymiz. Hajdan kelganlar to'y qilib berishyapti. Bo'yoqlari eskirgan uyga mehmon chaqirishga uyaladi odam.

Barda bu gapni eshitib, «Damas»dan tushib, gap qotdi:

— Sizni halitdan «hoji bova» desam bo'laveradimi? Vodiyda hajga bormaganlarni ham «hoji aka» deyishganini ko'rganman. Yaxshi niyatda «hoji aka» deyishadi-da.

— Senga mumkin, — dedi qaynotam kiborlarcha kekka-yib.

Shunda Barda qaynotamni umrida birinchi va oxirgi marta «hoji bova» deb atadi:

— To'ydan qaytganimizdan so'ng «Damas»ni ham mening nomimga o'tkazsangiz, hoji bova! Birinchidan, rulda qo'rqlar yuraman. Ikkinchidan, davlat sizning mol-mulk-laringizni tekshirib qolsa, nomingizda fermayam yo'q, «Damas» ham. Qiyomatli qo'shni shunaqa bo'ladi-da.

— Sen bizga tasodifan qo'shni bo'lib qolgansan, Barda, — dedi qaynotam. — Juda qasamxo'rsan-da. Bitta narsadan xursandman, qabristonda menga qo'shni bo'lmasan. Menden keyin qirq yil yashasang, ungacha qabriston to'lib qoladi. Seni boshqa yerga ko'mishadi.

Nimasidir ichkarida qolib ketgan qaynonam «Hozir» deya uyga shoshildi. U kishimning ham uyga oxirgi marta o'z oyog'ida kirishi edi. Hayal o'tmay chiqib, eshikni yopdi (oxirgi marta yopdi). Soat to'qqizlar edi. Avval yozganimdek, to'ylar kunduz o'tkazilardi. Tushgacha qariyalar-ga, tushdan so'ng yoshlarga.

— Bugun uyga kimdir keladimi, chap qovog'im uchdi, — dedi qaynonam «Damas»ga o'tirayotib.

— Hech kim kelmaydi, — ishonch bilan dedi qaynotam Bardaning yoniga o'tirarkan. — Tadbir-padbir bo'lmasa, kim kelardi qarz so'raydiganlardan boshqa. Odamlar ho-

lingdan xabar oladigan zamonlar o'tib ketdi, endi hamma ta'magir, hamma muttaham.

Vaholanki, ko'p o'tmay butun qishloq, jamiki qarindoshlar, uzoq-yaqin barcha tanishlar to'planishi xayollarida ham yo'q edi. Qayerdan ham bilishsin. Banda olgan nafasini chiqaradimi, yo'qmi, mudom gumonda.

Qizlarim Ziyoda va Nurxon ichkarida bo'lganlari uchun katta otasi va katta onasi bilan vidolashish nasib etmadi. Mashina yurdi. Bo'ri ota-onasi darvozadan chiqishlarini kutmasdan uf tortib ichkariga shoshildi. Uning vidolashuvi shu edi. Aniq eslaymanki, qaynotam ham, qaynonam ham yuzlariga fotiha tortishmadi. Meni-da g'aflat bosdi. Har doim oq yo'l tilab, omin qiladigan sodiq kelin qizlarimga chalg'idim va darvozani yopa solib, uyga yugurdim.

Ular ketishdi.

Ular qaytmas yo'lga ketishdi.

Barda bir kun avval bo'kib ichgan ekan. Yap-yangi «Damas»da to'yga borish, qolaversa, Bo'rining iltimosiga yo'q deyolmaslik uni rulga o'tirishga undagandi. Haydovchilik guvohnomasi yo'q ekan. Bir hafta oldin mastlikda qo'lga tushib, oldirib qo'yanini fojiadan keyin eshitdik. Barda o'zini hamma ishni eplaydigan chaqqon yigit deb hisoblardi. O'ylab qarasangiz, u na tabiat ilmini, na ilohiy ilmni egallahda chaqqonlik qilgandi. Uni amerikalik, yevropalik deb bo'lmanidek, mantiqan olganda, «o'zbekistonlik emas» deyish ham mumkin edi. O'zbekiston fuqarosi ham shunaqa bo'ladimi? Aldardi va o'zi ham aldovlarga uchib yashardi. Barda nafaqat birovning avtoulovini qonunlarni ortda qoldirib yeldek uchirdi, u bitta buzoq xarid qilmasdan o'zini davlatga «ferma xo'jayini» deb tanishtirdi va qaynotamdan pora olib yashadi. Alalxusus, tanasidagi jonga-da mutlaq xo'jayinlik da'vosida bo'lib, qattiq adashdi. Balki qachonlardir tavba qilishni ko'ngliga tukkandir, ehtimol, o'n yil o'tib, ehtimol, pensiyaga chiqqanida, istig'for aytmoqchi, Allohni, o'zini, davlatni aldashga nuqta qo'yishni

rejalashtirgandir. Holbuki, o'lim kutilmaganda keldi va Bardaga keksalik nasib etmadi. Uning insoniyat bilgan-bilmagan jamiki rejalarini tuproqdan tashqarida qoldirildi.

O'sha kuni «Damas» to'yga eson-omon yetib kelgan. Odatga ko'ra, tushgacha kelgan mehmonlarning orasidagi chollarni va ayollarni stol-stullarga emas, ichkariga taklif etishardi. Qariyalar orasida mayxo'rlar bo'lqa, aroqni choy-nakka quyib keltirishardi. Qaynotam ham ikki-uch piyola ichgan. Bir payt qarasa, tashqaridagi stolning bir chetini band etgan Barda ham qadah ko'taryapti. Bir bola orqali Bardani chaqirtirgan qaynotam «Nega ichyapsan? Ruldasan-ku», degan. Barda «Ichganim yo'q, u mineral suv edi» deb aldagani.

Tush chog'i ular uyg'a qaytish tashvishiga tushishgan. Tinimsiz sigaret chekayotgan Bardanining rangi qizilligini ko'rgan qaynotam uni so'kkani. Barda esa: «Mineral suvga ham mast bo'lamanmi?» deb qasamlarni qalashtirib, gapni askiyaga olgan. To'y egalari mehmonlarni ko'chagacha ku-zatib qo'yib, haydovchi tap tortmay ichib olganiga kula-kula to'yning yoshlarga atalgan ikkinchi qismini davom ettirishga sho'ng'ib ketishgan. Oradan o'n-o'n besh daqiqa o'tar-o'tmas, to'yxonaga sovuq xabar yetib kelgan. «Boyjan-jallik jiyanlarning «Damas»i katta yo'lga chiqib, ro'paradan kelayotgan «Ikarus»ga to'qnashib ketibdi. «Damas»dagi uchala odam joyida o'libdi».

Xabar biznikiga yetib kelganida, men qizlarimni ovqatlantirayotgandim, erim boshog'riqqa bir oz otib olib, uxbab yotgandi. Yuzida tashvish qotib qolgan ikki-uch kishi darvozadan bostirib kirib, «Bo'ri! Bo'ri!» deb vahimali ovozda chaqirganida, dahshatli voqeа sodir bo'lganini fahmladim. Qo'limdan qoshiq taraqlab tushib, erim yotgan xonaga otilib kirdim.

— Dadasi!.. — dedim va boshqa biror so'z aytolmadim.

Bo'ri ham fojia yuz bergenini sezdi. G'alati mung'ayib chiqdi eshikka.

— Bardam bo'l, Bo'ri, — dedi erkaklardan biri. — To'ydan qaytayotib Barda «Damas»ni avariya qilibdi. Otangdan ham, enangdan ham ajrab qolding, uka. Alloh sabr bersin...

Erim murdaday oqarib, bir menga, bir ichkarida ovqatlanayotgan qizlarimga qaradi. Bir soniya o'tdi, ikki soniya, uch soniya... Darvozadan erimning akasi yugurib kirdi va: «Xudo urdi! Uyimiz kuydi, uyimiz! Ota-enamizdan ajrab qoldik!» deb faryod ko'tardi. Bo'ri boshini changallab: «Voy otajon! Voy onajon!» deya uvvos solib yig'lagancha akasiga talpindi. Mening ham ko'zlarimdan shashqator yosh quyilib, ro'molimni tishladim. So'ng ichkariga chopib kirib, qizlarimni quchoqlab, unsiz yig'ladim. Norasidalar katta otasi va katta enasidan bir umrga ajralganlariga aql-lari yetmay tashqaridagi shovqindan hayron qolib, menga javdirashardi.

Qo'shnilar, qaynopamlar, qarindoshlar to'planib, ta'ziya ovozi butun qishloqni tutdi. Bardaning uyi tomondan ham ayol-erkaklarning faryodi ko'kka ko'tarildi. Boyjanjal qishlog'i kutilmagan xabardan toshdek qotdi. Uch kishining biryo'la o'lganini g'aflatdagi miyalar qabul qilolmadi. Mastlarning mastligi, dahriylarning dahriyligi, yuz yoshga kiraman deganlarning yuzlab kibrleri tarqab ketdi. «Nahotki?! Bo'lishi mumkinmas! Ertalab o'z ko'zim bilan ko'rgandim-ku!» deyishardi odamlar xuddi o'z ko'zi bilan ko'rsa o'lmasligi kerakdek.

Bir soatlardan so'ng uch mayyitni tuman shifoxonasidan keltirishdi. Ikkisi bizning uyga, biri Bardaning xonadoniga kirgizildi. Tirik odamlardan qolgan yetmish, sakson va to'qson kiloli jonsiz jasadlar Boyjanjal qishlog'ini butkul dahshatga soldi.

— Mayyitlarni mahtal qilmay bugunoq, asrdan so'ng chiqaramiz, — dedi mulla.

Ko'chaga odamlar va mashinalar sig'may ketdi. Ma-halla yigitlari hovlini bir zumda saranjom-sarishta qilişdi, makkajo'xori g'aramini somonxonaga tashishdi.

Hovli chinniday ozoda bo'ldi-qo'ydi. Stol-stullar keltirildi, ko'rpa chalar to'shaldi. Erim, akasi va boshqa qarindoshlar chopon, do'ppi kiyib, belni bog'lab, bir safga tizilishdi, hamma baravariga otamlab, onamlab yig'ladilar. Xotinlar ham sho'roviy liboslarini yechib, oq ro'mol, beqasam to'n, yengi uzun ko'k ko'yaklarini kiyib, maxsi-kalishda faryod urib, aytib-aytib yig'lashda erkaklarga jo'r bo'lishdi. Erkaklar darvoza oldida tik turishsa, ayollar olomoni hovlida to'planishgan edi.

Qaynonam «Damas»ning orqa o'rindig'ida o'tirgani uchun yuzi buzilmagan edi, shuning uchun faqat qaynonamning betini ochishdi. Keyin yana oq surpni yopdilar. Men har ikkisining peshanasidan o'pib, rozilik so'radim. Xotinlar ichida bitta men faryod urmayotgandim. Kim-lardir turtkilab: «Hoy kelin, ovozingiz qanchalik baland chiqsa, shuncha yaxshi, bo'lmasa, ta'ziyadan keyin malomatga qolasiz», — deyishdi. Men esa qaynota va qaynonamni boshqalar kabi «mehribonim», «suyangan tog'im», «bizni kimga tashlab ketyapsiz» deya alqamadim, yetti mahallaga yetadigan ovozda chinqirmadim. Shunday tarbiyalangan edimki, mehribonim ham, suyangan tog'im ham Alloh edi. Qachonki, bandaning ajali o'z nihoyasiga yetib, Alloh taoloning topshirig'i bilan janob Azroil jonini olarkan, nega men bunday oliy farmonga qarshi isyon ko'tarib, qonunlarni buzishim kerak ekan? Qizaloqligimdayoq sochni yulib, yoqani vayron etib yig'lamaslikni, mayyitni quchoqlab, uni mahtal etmaslikni, tushkunlikka tushib, taqdiri azalga qarshi so'zlar aytmaslikni otam o'rgatgandi. Tirik banda kelgusida albatta o'nlab janozalarni ko'rishi otamga besh qo'lday ayon edi. Padari buzrukvorim biz — qizlarini o'z janozasiga ham tayyorlab, barcha ruhiy humumlarga qarshi mudofaani shakllantirgandi...

Kundaligimga bu satrlarni yozar ekanman, otam menga qanchalik bilim va tarbiya berganiga qaramay, kelgusida mudofaamni yorib o'tadigan qudratli kuchlar kutayot-

ganini bilmaganimni ham qalamga olaman. Yo‘q, qaysidir ma’noda umuman kutmaganman deyolmayman, bilgaman, lekin uni olis ufqlarni to‘zitib o‘tadigan daydi bo‘ron deb o‘ylaganman. Balki qaynotam va qaynonamning fojiasi-dan keyin undan-da katta fojia o‘z erim tomonidan sodir etilishini miyam qabul qilolmay, esimni yo‘qtgandirman, qo‘limga qurol olgandirman, yo‘limdan chiqqan tirik jon borki, bir boshidan otib ketavergandirman, terrorchi degan nom olgandirman...

Shunday qilib, qaynota-qaynonamning ta’ziya marosimi yakunlanib, tobutlar hovliga chiqarildi. Erkaklar janoza namozini o‘qish uchun saflandilar. Tahorat olgan-olmagan, namoz o‘qishni bilgan-bilmagan do‘ppili kishilarning safi paydo bo‘ldi. Ularga yuzma-yuz turgan mulla namozdan avval dunyoning o‘tkinchiligi, Allohning irodasi haqida bir og‘iz gapirib, qaynog‘amni yoniga chaqirdi. «Otangiz tirikligida kimdan nimaki qarz bo‘lsa, to‘laysizmi?» deb so‘radi, qaynog‘am boshini silkib, «To‘layman», dedi.

Janoza namozi o‘qilib, tobutlarni ko‘tarishga ruxsat berilgach, olomon guvva talpindi. Xotinlar ohu nola chekkan-cha hovlida qolishdi, erkaklarning yelkalarida esa lopillab ikki tobut ketardi. Yuz qadam ham yurmay, ularga ik-kinchi to‘da qo‘schildi va endi uch tobut so‘nggi manzil sari lopillab keta boshladи. Uch odamning hayoti tugadi, umri tugadi, hech qachon qaytmas tiriklik fasli xotima topdi.

Birinchi qabrga qaynonam qo‘yildi, ikkinchisiga qaynotam, uchinchisiga Barda. Shunday qilib, qaynotam Barda bilan to Qiyomatgacha qo‘shti bo‘ldi.

Ertasiga xudoyi qilindi. Doshqozonlar to‘lib taom pi-shirildi. Kimsan – badavlat fermer olamdan o‘tgan, deb qirqigacha – har bir ma'raka dabdabali o‘tkazildi.

Uy huwillab qolgandek edi. Namozlarim yupanch bo‘ldi, sabrim meni yolg‘izlatib qo‘ymadi, farzandlarimga ovundim. Avval qanday kelin bo‘lsam, fojiadan keyin ham o‘zligimni saqladim. Qaynotam va qaynonamning bun-

dayin vafot etishlaridan afsusda edim, albatta. Ularning xatolarini bilsam-da, tish yorib, birorta so'z aytmadim, shama ham qilmadim. G'iybatchi xotinlar ma'rakalarda rosa og'zimni poylashdi, «ichgan odam gunohga botib, biror falokatga uchrashi aniq edi», deyishimni kutishdi. Qur'on tilovat qilishimni, duolar o'qishimni eshitgan ko'pchilik esa meni tushundi, xayrixoh bo'lishdi. Biroq Bo'ri tushunmadni. Bo'rining nazarida, ota-onasining o'llimida men mutlaqo aybsiz emasdim.

Darhaqiqat, meni yo'lidan surib tashlab, qizlarim bilan jarlikka ag'daradigan dahshatli kuch yaqinlashib kelmoqda edi. Kunlarning birida kimdir derazamizni ohista taqillatdi. Kim ekan deya o'rnimdan turib, pardani ochdim. Ochdimu seskanib tushdim. U Ibod edi.

— Kelin, ikkita piyola uzating, — dedi tirjayib.

Tush chog'i qizlarimni uxlatab, o'zimning ham ko'zim ilinganidan boshim g'uvillab, gapiga tushunmadim, ko'zimga ko'rinyotganidan hayron edim. Ibodning tandirxonadagi qilg'ilagini Bo'riga aytganimda, «hazillashadi-da, men ham xotiniga hazillashganman» deya da-yuslarcha javob bergandi. Biroq Ibodning fahsh taklifi jiddiy aytligandi, bunday gapning hazili bo'lmasdi, shu bois xonadonimga qadam bosmay qo'ygandi. Xotini esa pochchasining do'sti bilan don olishib yurgani haqida eshitsanda, birovga miq etib g'iybatini qilmagandim.

Pardani yopdim. Deraza kuchli taqilladi.

— Sizga njima kerak? — dedim qayta yuzlanarkanman.
— Jo'nang uyingizga!
— Ikkita piyola bering, xo'jayka, darrov quvib solasiz-a?!
— shilqimlik qildi Ibod. — Ana, eringiz ham shu yerda. Yomon fe'lingiz qolmadi-qolmadi-da.

Uyimiz orqasida kichik poliz bor edi. Bo'ri uvatda o'tirgan ekan, bir qo'lini baland ko'tarib, xitob qildi:

— Derazani och, gap bor!

Ibod ortga chekindi, men derazani ochdim.

— Kampir! — dedi Bo‘ri. — Ikkita piyola otvor biz — fa-qirlarga!

— Sizlarga piyola nega kerak? — so‘radim men.

— Mineral suv ichmoqchimiz, shishada turibdi, — deb javob berdi erimning o‘rniga Ibod. — Qarang, kun yondir-yapti, chanqadik.

Bo‘ri qo‘lini qulog‘iga qo‘yib:

— A-a? Nima deydi? — deb meni mazax qildi. — Mineral suv emas, echki suti ichmoqchimiz, de, Ibod! Hozir ko‘chadan o‘tayotgan echkilarni bittadan sog‘ib, bir shishani to‘ldirganimizni ayt! Echkilar ham rosa minnatdor bo‘lib, bizni maqtashdi!

Ikkalasi piq-piq kulishdi. Kayfiyatlar chog‘ edi, demak, aroqxo‘rlik qilishmoqchi. Ota-onasi vafot etganidan keyin Bo‘ri spirtli ichimliklardan tiyilgandi, ammo bu xur-sandchiligidan uzoqqa cho‘zilmasligini bilardim. Boyjanjal qishlog‘ida shunday odat hukmron edi: aroqxo‘rning uyida janoza bo‘lsa, qirq kun ichmasdi. Ularning «e‘tiqodi»ga ko‘ra marhumning hurmatiga chilla chiqquncha ichilmasligi, televizor ko‘rilmasligi, ro‘mollar yechilmasligi, to‘ylarga borilmasligi kerak edi. ‘Qirq kun o‘tib, «e‘tiqod» aroq ichishga va televizor ko‘rishga ruxsat berardi. To‘ylarga borish va ro‘mollar yechilishi keyinroq, asosan, marhumning olti oylik ma’rakasidan so‘ng hal bo‘lardi.

Mana, Ibodning qadami yetib, Bo‘rining eski hayoti iziga tushmoqda. Ular piyolalarni darhol to‘ldirib, polizza chordona qurib o‘tirgan ko‘yi ichishdi. Gazagiga palak orasidan bodring olib yeishdi.

— O‘h!. Ancha yengillashdim... — dedi Bo‘ri.

— Ma, chek, — sigaret tutdi Ibod. — Hadeb paxan bilan mamashkani o‘ylayverib, kuyinma, jo‘ra. Ular hozir jannatda yurishibdi. Barda haqida bir narsa deyish qiyin. U tentak fe’lli edi, o‘pkasini bosib ololmasdi. Mototsiklida meni ham urib ketay degan. Ikki-uch marta aytdim, «bola, ko‘zingga qara» deb.

- Barda do'zaxga tushgani aniq, — dedi Bo'ri tutun puflab.
- Otang bilan enang hozir bizni ko'rib turishibdi, — Ibod ko'kka boqdi, — lekin biz ularni ko'rolmaymiz.
- Hmm... — ming'illadi Bo'ri osmonga qarab.
- Shu payt yovvoyi kaptar havodayoq hojatni amalga oshirib, Bo'rining peshonasini bejadi.
- He iflos! — so'kinib yubordi Bo'ri bodring bargini yulib, manglayini tozalarkan.
- Boyib ketasan! Boyib ketasan! — kului Ibod. — Xudo nimadir beradiganga o'xshayapti. Ehtimol, o'g'illi bo'larsan. Erim bodring barglarini g'ijimlab nari otdi.
- Quy! Ichamiz!
- Otang juda ishbilarmon odam edi, birinchi bo'lib ferma ochgani katta gap, to'g'rimi? — dedi fitnachi shisha og'zini piyolalarga engashtirib, iblis suvini qustirarkan.
- To'g'ri.
- Ular qaynotamning sharafiga qadah cho'qishtirishdi. Qaynonam ikkisining joylari jannatda bo'lishini tilab, ichdilar.
- Xudo bekorga chaqirib olmagan, — burnini ishqaladi Ibod. — Otangning ishbilarmonligi u yoqda ham kerak bo'lib qolgan.
- Din haqida qancha nojo'ya gapisalar ham sabr qillardim, chidardim, lekin endilikda menda nimadir o'zgarayotgandi, ilk bor ko'nglim ag'dariilib derazadan uzoqlashdim. Bu gapni birinchi marta eshitishim emasdi. Kimga yolg'on, kimga chin, Boyjanjal qishlog'i ahli haqiqatan ham qaynotamni Xudo o'z huzuriga biror tadbirkorlik uchun chaqirgan, deb ishonishardi, davralarda tez-tez shu haqda gapirishardi. Dardimni kimga aytaman? O'z-o'zidan g'azablanadigan, chap qo'lim qaltiraydigan bo'lidi.

Ibod ketgach, men hovliga chiqdim. Bo'ri chorpo'yaga o'tirib, ola qaradi.

— Nega odamga o'xshab muomala qilmaysan? — dedi u. — Ibod arpangni xom o'rganmi, nima uchun do'stimga ters gapirding? Tarbiyasizliging jonimga tegib ketdi!

— Piyola kerak bo'lsa, o'zingiz so'ramaysizmi? Nega o'z xotiningiz va qizlaringiz uxlab yotgan xona derazasini nomahram erkakka taqillattirib, tomosha qilib o'tirdingiz? Tabriyasizlik haqida gapirishdan avval sal o'y lab ko'ring.

— Nimani o'y lab ko'raman? Ibod deraza taqillatib, piyola so'raganiga, biror joying kamayib qoldimi?

— Bu dayuslik.

— Dayus deb xotinini boshqa erkakka qo'shganga aytildi, qizg'anmaganga aytildi. Qachon seni qizg'anmadim?

— Dindan xabardor bo'lganingizda edi...

— Tomi ketgan arabparast! Ibod mening o'rtog'im-ku! Senga bilim bergen arablar o'z xotinini do'stiga ishonmaydi, men ishonaman, chunki ko'nglimizda kir yo'q, xotinboz emasmiz, do'stning xotiniga ko'z olaytirmaymiz! Buni tarbiya deydilar! Arablar buni tushunarmidi!

— O'sha o'rtog'ingiz meni «rayon»dagi bir uyga taklif etdi. Eshitib nima dedingiz? «Xotiniga hazillashaman, u ham senga hazillashadi». Men-ku rad etdim. Do'stingizning xotini-chi? Taklifingizni yo'q demagandir? Siz va do'stlaringizda imon, g'urur, insof degan narsa borimi o'zi?

— Voy, ablah dindor-ey! Senga o'xshaganlarni davlat bekorga qamamayotgan ekan-da! Meni Ibod bilan urish-tirmoqchimisan? Ertaga qishloqni ikkiga bo'lasan: kofirlar va dindorlar! Indin soqolli amakinglar bilan birga mamlakatni ham ikkiga ajratasanlar! Maqsadlaring shumi? O'cta asrdagi qoloq mamlakat qilishmi? Elektr yo'q, televisor yo'q, to'y-po'y yo'q! Urush, qon to'kish, kalla uzish!

— Mastsiz! O'ylamay gapiryapsiz!

— Bilmasang bilib qo'y! Ibodning to'yi belgilanibdi! O'g'llariga sunnat to'y qilyapti! Shuni aytishga va yuvishga keldi. «Jo'ra, ota-onangdan bir kunda ayrilib ezilib

ketding, ma, ich, yengillaşhasan», dedi. Rostdan yengillashdim. Agar aroq odamni yengillashtirmaganida, kayfiyatini ko'tarmaganida, ichmasdim. Ibodning uyi bo'lak. Sen-chi? Shu xonadonda yashab, shu oilaning kelini bo'la turib ota-onam o'lganda ovoz chiqarib yig'lamading! Ibod ko'chaning boshidan «voy, bovam-ey!» deb bo'kirib keldi. Uning bo'kirigi haliyam qulog'im ostida jaranglab turibdi. Sen-chi? Ota-onamning shunchalik hurmati yo'qmidi?

— Ovoz chiqarib yig'lash marhumga yengillik keltirsa edi, mendan boshqa ayolning ovozini eshitmasdingiz!

— Sen — vahhobiy nega baqirib yig'lamaganingni aytaymi? Otamning ichganini eshitding! Ha, tog'alarining to'yida otam qittay-qittay yutgan. Seningcha, ichgan odam do'zaxga tushadi. Ichgan-chekkandan urug'-aymog'ing bilan nafratlanasanlar! Ichmagan-chekmaganlarining qancha qasamxo'rilarini, tulkilarini, sudxo'rilarini, ikkita xotin olganlarini ko'rib yuribmiz! Ichgan deb otamdan irganding! Nima haqqing bor irganishga?! Hozir ham ichingda shunday o'layapsan! Bitta sen emas, otang, onang, amakilaring, kim namoz o'qisa, hammang shunaqa o'layapsanlar! Go'yoki sizlar jannati, qolgan jamiki odamzot gunohkor! Noto'g'rimi?

— Alloh bilguvchi! Uning ishlariga aralashmang!
— Balki Alloh seni ham bilar?
— Bu nima deganingiz, dadasi? Shirk keltirmang!
— Shuncha namoz o'qiysan, ro'za tutasan, nega unda o'g'il bermadi? Seni bilar ekan, o'g'illar berib, yuzingni yorug' qilib qo'ymaydimi? Ibodning xotini men bilan valsga tushgan, vino ichgan, namoz o'qimaydi, ro'za tutmaydi, yallo qilib yashaydi. Qara, unga nechta o'g'il berdi! Yaqinda to'y qilyapti! Men to'y ham qilolmayman, el-u yurtga mana shu hovlimda aroq ham berolmayman! Seni deb! Faqat seni deb!

Asab torlarim uzilib, sanoqli iplar qolganini his etdim. Qachonlardir Bo'ri Boyjanjaldagi kaltafahm hamqishloqlari

kabi o'z qizlaridan yuz burib, menga «o'g'il tug'mading» deb malomat qilishini kutardim, biroq ikkita qizdan keyin buncha tez, buncha haqorat bilan, osiylik bilan...

Ochig'i, g'azabdan qaltirab, gapirolmay qoldim. U nafaqat menga va farzandlariga, Robbisiga ham til tekkiza-yotgandi. O'nlab odamlar mast bo'ladigan dabdabali to'y qilolmayotgani uchun o'kinayotgandi. Ikki dunyosi kuyib borayotganini ko'rmaslik uchun ko'zim va qalbim so'qir bo'imog'i kerak edi.

— Tavba qiling, dadasi, tavba qiling... — yig'lab yubordim men.

— Ibod o'g'liga to'y qilyapti, boshqa sinfdoshlarim ham to'y qilishdi... Mendan keyin uylanganlari ham... Bitta men... Bitta men seni deb bo'ynim qisiq...

— Sabr qiling...

— Yig'lab yengaman dema! Men ko'rgan-bilganimi ni gapiryapman! Hayot men ko'rganimdek, aslo sen ko'rganingdek emas! Sening dunyoqarashing yolg'on! O'zingni ideal tutib, atrof-olamni ko'rmayapsan! O'z qobig'iga o'ralib qolgan zombisan! Ertaga biror dindor «bunaqa kofir erni portlatib yubor» deb, belingga bomba bog'lasa, meni ham, sinfdoshlarimni ham portlatib, kamikadze bo'lasan! Shahidlik shu, deb jannatga tushishni istaysan! Mana shu haqiqiy qiyofang! Bilding!

— Shahidlikni qo'ying, o'zimizdan gaplashaylik! Hayot siz ko'rganingizdek ekan, dadasi, nahotki, qizlaringiz ko'zingizga farzandlaringiz bo'lib ko'rinxayapti?

— Tobutimni qizlaring ko'taradimi? Qariganimda yolg'iz so'ppayib qolishni xohlamayman!

— O'ylab gapiring! Har kimga ham tobut nasib etmaydi, keksalik nasib etmaydi! Peshonangizda nima yozilganini bilmasdan kibrlanmang! Qancha odamlar samolyotlarda portlab, okeanlarda yo'qolib ketyapti. Kim ko'tarishidan qat'i nazar, har kimga ham tobut nasib etsin!

— Aytmoqchisanki, meni bir ovloqda o'ldirib, murdamni

yoqib yuborishadi. Shundaymi, sovuq nafas? Og'zingdan har doim bexosiyat gaplar chiqadi! Narigi dunyo, qabr azobi, do'zax! Birov bilan xayrlashayotsang, «jannatda uchrashaylik» deb o'lim tilaysan...

— O'lim tilamayman! Siz johilsiz, xolos. Hammangiz kafandan, ta'ziyadan, tobudan qo'rqasizlar. Hali kafanga o'ralish, ta'ziya, tobut nasib etadimi, yo'qmi, buncha kerilasizlar, men shuni aytmoqchiman. Axir, dom-daraksiz yo'qolib ketish, o'ligi ham topilmaslik — qancha-qancha fojialar yuz beryapti.

— O'chir!

— Tobutni qizlar ko'tarmaydi deysiz. Agar kafanga o'ralish, janzoza, tobut nasib etsa, qo'rqmang, hech qachon tobuttingiz yerda qolmaydi, ko'taradigan mo'min-u musulmon erkaklar albatta topiladi...

— O'chirasanimi, yo'qmi?! — Bo'ri ustimga bostirib kelib, yoqamdan bo'g'di. — Kimga o'lim tilayapsan?! Menga ko'p yashash nasib etmaydimi? Sendan ko'p yashayman! Kuning tezroq bitsa, ta'ziyangni ko'rsam, armonim yo'q!

— Oxirgi kuningizni o'ylab, o'g'lim yo'q dedingiz, men ham oxirgi kuningizdan gapirdim! Bir kun kelib qizlarin-gizning duosi u dunyoda sizni jahannam olovidan qutqarganida, xursandligingizdan ho'ng-ho'ng yig'laysiz! Yolg'on dunyoda ozor berganingiz uchun vijdoningiz shunchalar qiynaladiki, ko'zimizga qarayolmaysiz! Sabr qiling, Allah o'g'il beradi. Agar bermasa ham shukr qilish kerak!

— Bermasa ham shukr qilish kerak? Nimalar deyapsan, savdoyi?!

— Har bir olgan nafasimiz uchun ham Allohimga shukrona aystsak arziyi...

— Bo'pti, ikki qizingga shukr qilib, xursand bo'lib, duolar o'qiyver! Ustingga xotin olib, o'g'il tug'dirib, sunnat to'ylar qilanimda, ahvolingni ko'raman!

— Ikki xotin olish hukmi sizga emas. Xudoga faqat o'g'il bersagina shukr qilish kerakmi?

— Menga men xohlagan narsalarni bersa shukr qilaman! Musulmon bo'limgan qay go'rdagi kimsalarga milliardlab dollar, o'g'il-qiz, yosh-yosh ma'shuqalarni berib...

— Bas! — deya erimning og'ziga kaft bosdim.

— Tort qo'lingni-e! — siltab tashladi Bo'ri.

— Siz kasalsiz...

— Nima deding? Kim kasal? — U meni ustma-ust do'pposladi, boshimdan ro'molim uchib ketdi. — Kasal sensan! Hali o'g'il tug'mayotganingga meni ayblayapsamni, hayvon?! Balki ota-onasiga qo'shilib o'lib ketmadi-da, deb afsuslanayotgandirsan? Bardaning ornida rulda men bo'limganim uchun sochingni yulayotgandirsan? Sizlarda eri o'lsa, ko'p aza tutmay, iddasi tugagandan boshqasining to'shangiga kirish odatini eshitganman! Bir ma'rakada otang gapirgandi. Men o'lsam, sen har doim ijirg'anadigan zamonaviy ayollarday sadoqat saqlamay, iddani soatlab kutasan! Keyin birorta patak soqolli mullavachchaga ikkinchi xotin bo'lasan! Mulavachcha ham jon-jon deb nikohiga oladi, chunki manavi boyliklar senga meros qoladi! Ichingdagilarni to'g'ri topdimmi, otincha?! Kasalsan emish! Jonimdan to'ydirib yubording-ku! Mana endi ko'rasan kim kasal ekanini!

Ro'molimga tarmashib, boshimga o'rashga urindim, shu asnoda kimdir kelib qolsa, sharmanda edim-da. Ammo ro'molimni o'rayotganimda ham bir necha tepki yedim, ko'zlarimdan uchqun sachradi.

— Jismoniy kasalsiz demadim, sizning ruhingiz kasal... — zorlandim men. — Hech bo'lmasa, ro'molimni o'ragunimcha tepmang, dadasi...

Bo'ri yoqamdan bo'g'ib, joyimdan turg'azdi.

— Kim ruhiy kasal? Kim psix? Gapir, iflos!

— Ruhiy kasal emassiz... Qalbingiz kasal demoqchi edim...

Tarsaki tushirib, yerparchin qildi. Shovqin-suronni eshitgan qizlarim uydan chiqib, chinqirib yig'lagancha

meni quchib, o'zlarining jajji tanalari bilan zarbalaridan himoya qilishdi.

— Seni ham, qizlaringni ham, o'qiydigan Qur'oniningni ham... — dedi Bo'ri va gapini qanday davom ettirishni bilmay, tishlarini g'ijirlatdi.

Boshimni ko'tarib, sal narida yotgan toshni ko'rdim. Agar u gapini davom ettirsa, toshga qoplondek tashlanib, Bo'riga yashin tezligida hamla qilib, miyasingning qatig'ini chiqarib yuborishimni o'yladim. Nima qilsam-da, vujudimni qotillikdan to'xtatib qolishim zarur edi. Bo'rini bugun o'ldirmasam, ertaga insofga kelishi mumkin. Qolaversa, qizlarimning ko'z o'ngida xunrezlikka qo'l urmasligim darkor.

Qizlarimni quchib, sudralgancha ortga chekinib, atrofga alang-jalang boqdim. Ko'z yoshlarim qurib, tez-tez nafas olardim. Qizlarim ham, Bo'ri ham mendagi o'zgarishdan taxtadek qotib qolishdi. Yuzimdanmi, ko'zimdanmi qon tomayotgandi. Men men emas, yo'lbars edim. Vujudimda qandaydir yovvoyi kuch to'planayotganidan o'shanda tus-hunolmay, quturyapman deb o'yladim. Qanday qilib bo'lsa ham, tanimni bu kuch tark etishini kutishim kerak edi. Ishqilib, Bo'ri Qur'onimni va qizlarimni haqorat qilmasin... Ishqilib, u meni urish uchun yaqin kelmasin... yaqin kelmasin... Agar bir qadam tashlasa, majaqlab tashlayman...

— Yaqinlashma!.. Bir qadam ham yaqinlashma!.. — chinqirdim Bo'riga.

Qizlarim «ayajon» deb yig'lagancha bo'ynimdan quchishdi. Erimga ajdarhodek vishilladim:

— Nari ket!.. Ket dedim senga!..

Tanam shunday titray boshladiki, iyagim shaqillar edi. Atrofga alanglab, qorong'i xonani axtardim. Ko'nglim zulmatni tusayotgan edi. Hozir biror xonaga kirib, pardalar ni tushirib, ko'ksimni zaxga berib yotsam, hammasi o'tib ketadigandek edi.

— Ey xudoyim, nima bo'ldi sizlarga? — degancha qo'shni xotinlar hay-haylagancha kelib qolishdi. Biri meni qizlarimdan ajratib, mahkam quchoqladi, ikkinchisi og'zimga suv tutdi, uchinchisi Bo'rini itarib-surib darvozaxona tomon olib ketdi.

— Yaqinlashmanglar... yaqinlashmanglar... — telbalarcha takrorlardim men.

O'sha kuni ruhiyatim o'z qolipidan chiqib, o'rniga qaytib tushmadi. Menda qandaydir tushunarsiz holatlar ro'y berayotgandi. Ko'zguga qarasam, o'zim emas, begona ayol ko'rinaridi. U «Nega bunday hayotga ko'nib yashayapsan? Ozodlikka erish! O'z e'tiqoding bilan yashash — ozodlikdir!» deb uqtirardi.

Erim gumon qilganidek men boshqa erkakka, xususan, dindorga tur mushga chiqish haqida xayolimga ham kel-tirmayotgandim. Idda haqida o'n yoshimdan beri bilardim, lekin nafaqat o'sha paytlarda, Bo'rining ichkilikka mukkasidan ketganida ham u o'lib, boshqa erga tegish xususida o'ylamagandim. Bo'rining ko'ngli kir edi. Meni ham o'zidek deb o'ylab, xulosa chiqgandi.

Kechqurun qaynog'am va qaynopamlar to'planishdi. Bu — umrimda ko'rganim Uchinchi tergovxona edi. Ular marhumlarning qirqi o'tib, Bo'ri ichishni boshlaganini, meni va dinimni haqorat qilganini, tepib-urganini emas, butunlay boshqa masalada tergov ishini ochishdi.

— O'zlarинг gapiringlar, charchaganman, oxirida qo'shimcha qilaman, — dedi qaynog'am. — Men sudyalaringman.

— Kelin, — dedi katta qaynopam, — «o'zing pishirgan oshni o'zing eysan» degan maqolni eshitgansiz. Ro'zg'orlaringda nima muammo tug'ilsa, hammasiga siz aybdorsiz. Buni o'z ukamni oqlash, yon bosish uchun aytmayapman. Chetdan bir qarang, kimsiz? Xarakteringizni hech kim tushunmaydigan, yarim yovvoyi, qo'rs, muomasiz, g'alati xotinsiz. Ukam chidab yashayotganiga rah-

mat deng. Hech zamonda uyingizga kelgan mehmonga, o'z eringizning o'rtog'iga ham «Nima kerak? Uyingizga jo'nang!» deysizmi? Bo'ri yo'q bo'lsa ham mayli, uning ko'z oldida shunday debsiz. Ikkita piyolani uzatib yuborish shunchalik qiyinmi?

Miyam g'uvillab, hammaga angrayib qaradim. Bu xonadonga iblis yashirinib olgan edi. Men iblisni topmoq-chi bo'ldim. Iblisni oddiy ko'z bilan ko'rib bo'lmasdi. U qopqonga tushish o'miga, aksincha, odam bolasining o'zini osongina ilintirardi. Allohning la'natiga uchragunga qadar farishtalarga dars beradigan o'ta bilimdon muallim bo'lganini ham unutmaslik kerak edi. Jannatdan quvilgach, bilimini makr, fitna va yovuzlikka qaratdi. Yo'ldan urishga shunchalar abjir ediki, bilimsiz, ayniqsa, imoni sust oddiy odamlarni osongina aldab, gunohga botirardi. Unga qarshi turish uchun odam bolasi chuqur bilimga ega bo'lmos'i yoki imon va vijdon, odob-axloq va insofni mahkam tutib, makrlarga chap berish mumkin edi. Shayton, na odam, na hayvon shaklida edi. Katta-katta ko'zli, shoxli, dumli, tuyog'i bor deb tasavvur qilganlar yanglishgandilar. Unda ko'z, shox, dum, tuyoq nima qiladi? Bunday a'zolar yerda yashovchi odam yoki boshqa jonzotlarga gina zarur edi. Shayton odamning qonida qandaydir modda shaklida yashaydi deyish ham to'g'ri emasdi. Gap iblisning qanday shakl-shamoyilda yashashida emas, hayotda voqe bo'lishida edi. Fikrimcha, iblis his-tuyg'u shaklida odamlarning hayotiga kirib, fikrga aylanardi. Bekorga ba'zi olimlar fikr tuyg'udan kelib chiqadi deyishmagan. Eng katta qurol – mafkura edi. Iblis odamzotning mafkurasini o'zgartirib, murvatini burab qo'ysa bas, keyin shaxsan biror bandani yo'ldan urishi shart emas, barcha yomonliklarni odamlarning o'zları qilaverishadi.

Tushundimki, iblis uyning biror kunjagiga emas, shu oilada tug'ilib, tarbiyalanib, mustaqil hayotga qadam qo'ygan qizlar va o'g'llarning – hozir qarshimda kap-katta

erkak va xotinlar qiyofasida o‘tirganlarning dunyoqarashida yashiringandi. Ular biror surani eplab aytolmasdilar. Biz maymundan tarqaganmiz deb ishonardilar. Qaynotamning otasining otasining... qisqasi, yuz ming yil avvalgi otasi daraxtga tirmashib chiqib, banan eydigan esi yo‘q, ishtonsiz, badbashara maymun bo‘lgan edi. O‘sha maymun faqat bugunini o‘ylagan shekilli, qarshimdagи insonlar ham hozirgi dami bilangina yashardi. Ular uchun o‘tmish ham, kelajak ham yo‘q edi. O‘tmishni ham ushlab bo‘lmaydi, kelajakni ham, nimadan qo‘rqish kerak?

— Nega jimsiz? — tergadi katta qaynopam. — Ikkita piyolani uzatib yuborsangiz biror joyingiz kamayib qolar-midi?

— Ibod o‘rtog‘i tandirxonada xiralik qilgan, — deya sirni ochdim. — Ukangizga aytsam, hazilga yo‘ydi. Nahotki, shundan so‘ng ham uni men va qizlarim yotgan xonaning derazasini taqillatishga yubordi?

— Ibod hazillashgan, ahmoq! — shang‘illadi Bo‘ri. — Jo‘ralar bir-birining xotiniga shunaqa hazillar qilishadi. Opalarim, sizlarga pochchamlarning jo‘ralari hazillashmaganni? Aka, siz-chi? Do‘stingizning xotiniga hazillashmasangiz, shu ham jo‘rachilikmi? Yana bu otincha o‘zini telbalikka solib, esi oqqanga o‘xhab qo‘rkitishni biladi! Undan ko‘ra es-hushni yig‘ib, hayotga optimistik qarasin! Yoki ruhiy kasallar shifoxonasida davolanib kelsin!

— Bo‘rijon, senga so‘z berilmadi, jim tur, — dedi katta qaynopam. — Avval biz gaplashaylik.

— Ü hazil emas edi, — dedim kuyinib. — Alloh har kimga insof bersin. Kuyib gapirayotganimning sababi, piyola kerak ekan, dadasingin o‘zi kelsa yoki menga aytmay, piyolalarni oshxonadan olib kelsa bo‘lmasmidi? Aroq ichadiganlarga piyola tashishdan O‘zi saqlashini duolarimda so‘rashimning ma’nisi...

— Ma’nini qo‘yib turing, — dedi kichik qaynopam. — Biz diniy va’zlariningizni eshitishga kelganimiz yo‘q. Ukam

ichadimi, chekadimi, shaxsiy ishi! U yosh bola, siz esa otanonasi emassiz taqiqlab? Kim ichmaydi? Deyarli hamma ichadi. Eshaklar davrasida eshak bo'l, degan gapni eshitganmisiz?

— Men odamman, opa, eshaklar davrasida ham odamligimcha qolaman.

— Tushunmadim, bu bilan bizning oilani eshak demoqchimisiz?

— Eshak bo'l deganingizga faqat va faqat o'zim haqimda gapirdim, xolos, opa. Hech biringizga til tekkizmadim.

— Men ham sizni eshak bo'l demadim, ramziy ma'noda aytidim! — o'shqirdi kichik qaynopam. — Ming marta eshitdik har bir gapga o'nta javob qaytarishingizni! Endi pichoq suyakka qadaldi. Yo dinni deysiz, yo oilani! Tushunarlimi?

— Ikkisidan birini tanla deyish sizga yarashmaydi,
— dedim vaziyatni yumshatish ilinjida. — Bunday savol qo'yan odamning oxirati kuyadi...

— E, kuysa kuyaversin! O'lganimdan keyin pishirib yemaydimi?!

— To'xta, to'xta, qizishmanglar!.. — qaynog'am hakamlik qildi. — Kelin dindor oilada o'sgan. Unga bunaqa muomala qilish — oilani buzish degani. Ajrashtirib yuborib, Ziyoda bilan Nurxonning uvoliga qolasizlar.

— Aka, yumshoqlik qilmang, singlim to'ppa-to'g'ri aytidi, — dedi katta qaynopam. — Hamma janjallarga dindorligi sababchi. Dindan ja yuz foiz voz kechmasa ham, yarmidan kechishi kerak. Masalan, xudo ko'nglida yashasin, yetadi shu. Namozni yig'ishtirsin, pensiyaga chiqqanda o'qiydi. Hijobni tashlab, kichik zar ro'molga o'tsin. Ichganmi, chekkanmi, uyiga kelgan mehmonga odamday muomala qilsin. Bu bilan birov unga sen ham ich, chek, degani yo'q. Mana, biz yuribmiz-ku. Bir mashoyix ko'ngling xudoda bo'lsin, qo'ling mehnatda degan, to'g'rimi? Aynan kelinbop hikmat! Kelin mehnatni qilaversin, ko'ngli xudoni eslayversin. Xo'sh, shunga kelishamizmi, Nigora? Biz ham charchab ketdik-ku fe'lingizdan.

- Bahovuddin Naqshbandning hikmatini noto‘g‘ri talqin qilyapsiz.
- Uf, yana va‘z, nasihat, din! — pishqirdi kichik qaynopam. — Qachon odamga o‘xshab gaplashamiz, baraka topgur?!
- Sudyaga quloq solinglar-e! — tizzalab o‘tirdi qaynog‘am.
- Ayollar baribir bir to‘xtamga kelolmaydi. Kelin bilan men gaplashaman, sizlar jimgina quloq solasizlar. Xulosa oxirida bo‘ladi.
- Xo‘p, gaplashib ko‘ring-chi, nima karomat ko‘rsatar ekansiz, — dedi katta qaynopam.
- Foydasi yo‘q, uning tomi ketgan, — hafsalasizlik bilan qo‘l siltadi Bo‘ri. — Boshida ajrashib ketmadim-da. Bugun tomi qanday ketishini bitta men emas, qo‘snilar ham o‘z ko‘zlar bilan ko‘rishdi.
- Sen jim o‘tirgin, mening ruxsatimsiz gapirmagin, — dedi qaynog‘am erimga. Keyin menga yuzlandi. — Kelin, dindan kechasizmi?
- Yo‘q, — deb javob berdim men.
- Oolangiz nima bo‘ladi?
- Alloh o‘z panohida asraydi. Men ham, qizlarim ham ko‘chada qolmaymiz. Xudo xohlasa, ularni soliha qizlar qilib tarbiyalayman, hech kim onglarini zaharlab, imonlarini susaytirolmaydi. Aqlga sig‘mas shart qo‘yib, og‘ir gunohga botyapsizlar.
- Hijobni ham tashlamaysizmi?
- Tashlamayman. Hijobdan keyingi libosim kofta-yubka emas, kafan bo‘ladi.
- Voy o‘lmasam... Niyatini qaranglar... — yoqalariga tuflashdi qaynopalarim. — Kafan deydi-ya! Tavba, tavba! Bo‘riga haqiqatan ham achinadi kishi. Bunchalar sovuq nafas, bunchalar qora niyatli xotin bilan yashash bechora ukamizga osonmi?!
- Hijob arablarning diniy kiyimi, — davom etdi qaynog‘am. — El qatori yurish sizga shunchalik sharman-

dalimi, kelin? Atlas ko'ylak, zar ro'mol degan milliy kiyimlar bor-ku! Sizga aynan allambalo kiyimlarda yuring deyilmayapti. Qaynog'a sifatida bu gaplarni gapirish menga uyat...

— Qaynog'a sifatida tugul, musulmon sifatida ham uyat, aka, — dedim men. — Arablarga taqlid qilib emas, tarbiyamdan, dunyoqarashimdan kelib chiqib kiyinaman, imonimdan kelib chiqib kiyinaman. Mayli, boshqalarni targ'ib qilmayman. Kim kofta-yubka kiysa, o'zining xohishi bo'lganidek, hijob ham mening xohishim. Bundan chiqdi, boshqalar o'zining madaniyatiga meni majburlamasligini iltimos qilaman. Men ham ularni hijobda yuringlar deb majburlamayman. Bo'ladimi?

— Unda sizga maslahatim, hijobingizda ham yuraving, namozingizni ham o'qiyvering, lekin... — Qaynog'am atrofidagilarga ko'z yogurtirdi. — ...lekin tinch-totuv yashash uchun bir-birimizga xalaqit bermaylik. To'g'ri gapiryapmanmi? Misol uchun, Bo'ri ichasan deb kelinni majburlamaydi, kelin esa nega ichding degandek Bo'riga qarshi bormaydi. Qalay? O'zi gap shunga borib taqalyaptida. Yo xato gapiryapmanmi?

— Xato emas, — dedi katta qaynopam. — Chidasa bo'ladi.

— Bu ko'narmikan? — Kichik qaynopam menga qosh uchirdi. — Dindorlar jim qarab turmaydi. Bundaylar darrov bir kamchililingni topib, yuzingga aytadi, gaplashmayman, birga o'tirmayman, birga yashamayman va hokazo g'avg'olarni yaxshi ko'radi.

— Jim qarab turadi, — mening nomimdan gapirdi qaynog'am. — Bitta misol — Yevropa! Hozir Yevropa bizdan yuz yil oldinda. Nega? Yevropa dindan voz kechib, rivojlanib ketdi. Ko'chalari chinniday toza, aholisi yo'l belgilarini otasiday hurmat qiladi, pista tashlamaydi, sigaret qoldig'ini uloqtirmaydi, hatto asfaltga tuflamaydi. Elektr toki ham Yevropadan keldi, mashina-yu samolyotlar ham, avtomat-u tanklar ham, futbol deysizmi, basketbol deysizmi, e, ham-

ma-hammasi Yevropay-u Amerikadan kelgan. Erkagi-yu ayoli tinimsiz bilim o‘rganadi, bir nimalarni ixtiro qiladi, tajribalar-u izlanishlardan charchamaydi. Fazoga uchgan ham shular, Oyga borgan ham shular, ob-havoni oldindan aytgan ham shular. Biz-chi? Ular o‘ylab topgan narsalardan foydalanib gerdaiyb yuribmiz. Xo‘s, nima uchun musulmon bo‘limganlar rivojlanib ketdi? Chunki dindan kechib, erkinlikka chiqdi. Bir vaqtlar inkivizitorlar taraqqiyotga rosa to‘sqinlik qilgan, cherkov taraqqiyotni g‘ippa bo‘g‘ib olgan. Endi-chi? Episkoplar davlat ishiga aralashmaydi, kiyinishga, yurish-turishga tumshug‘ini tiqmaydi, ilm-fanga to‘sqinlik qilmaydi. Biz-chi? Elektr lampochkani ko‘rganlar «shayton chiroq» deganmi-ey, velosipedni «shayton arava» deganmi-ey... Yig‘lagim keladi. Hali-gacha xurofot, bid‘at, illat, irim-sirim. Bir qarasang falon mamlakatda bir mazhabdag‘i musulmonlar ikkinchi mazhabdagilarning masjidini portlatgan, bir qarasang xalqning oldida dorga osgan, avtomatda tarillatib otgan. To‘g‘risini aystsam, o‘l bu kuningdan deyman. Yaxshiyam, bižni ruslar bosib olgan ekan, aks holda hozir eng qashshoq va qoloq mamlakatda yashardik.

— Fikringizga yuz foiz qo‘shilaman, — dedi kichik qaynopam. — Bechora musulmonlarimiz bor joyda janjal tinmaydi, g‘iybat to‘xtamaydi, qachon qaramang urush, otishma, portlatish, toshbo‘ron.

— Buning soqolli amakilari ham payt poylayapti, — yarim hazil, yarim chin qilib so‘yladi Bo‘ri. — Mabodo terrorchilar bostirib kelishsa, biz avvaldan sizlarni kutayotgandik, kofirlar namoz o‘qishimizga qarshi edi, hijobga ruxsat berishmasdi, deb bir boshidan bizni o‘ldirishadi, dorga osishadi. Urushni ularga chiqargan. Dunyoni vayron qilib, vaboni tarqatib, ilm-fanni yo‘q qilib, keyin tinchishadi.

Vujudimga sabr madadga keldi. Titrog‘imni zo‘rg‘a bosdim.

- Sizlarga savolim bor edi, — dedim boshimni ko'tarib.
(Ovozim qaltirab, ichki to'fonlarim sezilib qoldi.)
— Nima savol? — so'radi qaynog'am ahvoli-ruhiyamdan xavotirlanib.

— Sizlar musulmonmisizlar, nasroniyalmi, yahudlarmi yo Xudoga ishonmaydiganlarmi? Rahmatli qaynotam bilan qaynonam-chi? Faqat gapni olib qochmasdan ochiq javob bering.

— Ie, qiziq savol-ku! — kului qaynog'am. — Bizni in-jilga o'tib ketgan, shuning uchun meni yomon ko'radi deb yuribsizmi? Biz albatta musulmonlarmiz, rahmatli otanonam ham musulmon edi. Bu bilan nima demoqchisiz?

— Musulmonlar nima foydali, nima zararli ekanini yaxshi bilishadi. Sizlar aytgan narsalarning hammasi zararlar! Agar musulmonlar urushni sevuvchilar bo'lganida, nega Birinchi Jahon urushini ular boshlashmad? Ikkinci Jahon urushining boshida turganlar ham musulmonlar emasligini bilmaysizlarmi? Afg'onistonni har doim misol keltirasizlar. Afg'onistonga qaysi asrda, qachon musulmonlar hujum qilgan? Inglizlar musulmon'midi yo Sho'ro rahbarlari musulmonmidi? Amerika rahbarlari ham musulmon emas! Bir mazhabni ikkinchisiga gij-gijlayotganlar kimlar? Qaysi dindagi odamlar ularga bomba, avtomat, tank, granata yasab beryapti? Rossiya bosib olmaganida xarob bo'lardik, deysiz, unda Birlashgan Arab Amirliklari, Malayziya, Turkiya, Qatar, Eron — qanchadan-qancha musulmon davlatlar sho'rolarsiz qanday rivojlandi ekan? Eng qizig'i, musulmon bo'lgan Beruniy, al-Xorazmiy, ibn Sinolar qadim zamonlarda Yevropada o'qiganmi? Amerikada ta'llim olganidan keyin olim bo'lib yetishganmi?

Bo'ri uf tortib oyoqqa qalqidi-da, dedi:

— Bu otin oyi o'lsa ham gapni ma'qullamaydi. Miyasi zaharlangan, tamom! Menga qisqa qilib aytингlar, ajrashaymi, yo'qmi?

— Yaxshisi, poyga o'ynanglar, — dedi qaynog'am. —

Bo‘ri, sen o‘zingning madaniyatingdan qolma, kelin, siz o‘zingiznikidan. Qani, kim yutarkin?

— Voy, bu nima deganiningiz? — angrayishdi qaynopamlar. — Bo‘ri yanada ko‘p ichib alkash, bu esa yanada chugur ketib otincha bo‘lsinmi?

— Boshqa nima deyman? — ters burilib o‘tirdi qaynog‘am. — Kim o‘z yo‘lidan tezroq ketib, nima bo‘lishini bashorat qiladigan folbinmanmi?

— Rahmat sizlarga, men bundan keyin ichaman, davr-u davron surib yashayman, — dedi Bo‘ri. — Menga hech kim xo‘jayin emas.

— Ana! Ana-a-a!.. Bitta xotinni deb ukamiz piyonistaga aylanadi-qoladi! — deyishdi qaynopamlar.

— Namozxon xotin bilan yashab shuncha ichyapsiz, benamoz bilan yashasangiz holingiz nima kechar ekan-a? — deb erimga alamlı nigoh tashladim. — Aslida sizga bahona kerak, dadasi. Nega nuqlu meni bahona qilib ichasiz? Uylanmaganingizdan oldin so‘fi edingizmi? O‘rtoqlaringiz-chi? Ularning xotinlari namoz o‘qimaydilar-ku! Nimadan kuyib ichadilar?

Shunda Bo‘ri ko‘zlarini baqraytirib javob berdi:

— Agar sen nafratlanadigan o‘sha benamoz xotinlardan biriga uylansam, ichishni ham, chekishni ham tashlayman! Sendaylar bor ekan, hayot qorong‘il! Chunki sen va jamiki qarindoshing, jamiki Mullasoy ahli — baring yoqimsiz odamlarsiz! To‘g‘risini aytsam, ta’ziyalarda kerak bo‘lasanlar, xolos.

U eshikni tars yopib chiqib ketdi.

— Dadasi faqat ta’ziya kunlarigina Qur‘on eshitgan, boshqa kunlarda o‘z ulfatlaridan ortmagani uchun shunday deyapti, — izohladim Bo‘rining gapini.

— Xullas, o‘zaro kelishib yashaysizlar, — dedi qaynog‘am. — Urush-janjal chiqsa, biz boshqacha chora qo‘llaymiz, keyin xafa bo‘lmang, kelin.

— Oxirgi ogohlantirishimiz, — po‘pisa qildi katta qayn-

opam. — U kamning xotinimisiz, o'rtada ikki farzand bormi, endi va'zlarga nuqta qo'yib, oilani o'ylaysiz! Qanday qilib bo'lmasin ukamning ko'nglini topib, tinch yashaysiz! Tushunarlimi?

— Ammo... — deb og'iz juftlagandim, kichik qaynopam:
— Ammo-pammoni yig'ishtiring! — dedi. — Bizning gapimizga kirmasangiz, oilangizni o'z qo'lingiz bilan buzib, yig'lab yurasiz!

— Adi-badi tugadi, omin, Ollohu akbar, — yuziga nari-beri fotiha tortgan qaynog'am ham eshikka yurdi.

Shu tarzda Uchinchi tergov muvaffaqiyatsiz yakunlandi. Olti oydan so'ng marhumlarning aza ochdi marosimi o'tib, ro'mollar yechildi, to'ylarga borishga ruxsat tegdi. Shu orada Ibod o'g'illariga sunnat to'y qildi. Bo'rining do'stlarining xotinlari bir guruh bo'lib kelib, meni qo'yarda-qo'y may to'yga yetaklashdi. Yana o'sha ahvol, o'sha sharmandalik hukm surardi. Ichgan, chekkan, suyulgan, qil panglagan, so'kingan olomon, hatto uy orqasidagi ikki qator qad rost-lagan teraklar tagida o'spirinlar ham piyola cho'qishtirib, sopol tovoqda osh yeb o'tirishardi. Huv naridagi o'tinlar ortida ikki yigit oyoqda zo'rg'a turib, bir-birining yoqasidan tortgancha janjallahishar, ularni ajratmoqchi bo'lganlar ham g'irt mast edilar.

Birinchi ovqatni yeyar-emas, qizlarimni bahona qilib, to'yxonani tark etdim. Uyga qaytar ekanman, karnaylardan jaranglayotgan tabrik meni uygacha ta'qib qilib keldi. So'zga chiquvchining jag'i tinmasdi:

— ...shu fursatdan foydaelanib, Ibod bilan Zamirani farzandlarining sunnat to'ylari bilan tabriklar ekanman, uzoq umr, baxt-saodat tilayman! Topgan-tutgani ana shunday to'ylarga buyursin! Eng yomon kuni mana shunday bo'lsin! Shu bolachalar uylanganida, nikoh to'larida ham maza qilib yeb-ichib, yuzta-yuzta olib o'tiraylik, aroqlar daryo bo'lib oqsin...

Yuragim mahzun edi. Yuragim shu qishloq ahli uchun

mazhun edi. Ular hayotdan zavqlanishning g‘ala-g‘ovur to‘y shakliga o‘rganib qolgandilar. Qachon ko‘zлari ochilib, pullarini bazm-u jamshiddan orttirib, ilmu fanga, go‘zal hayotga sarflashadi, aqlim yetmasdi. Ko‘pchilikning uyjoylari xarobaga aylangandi. Ko‘chalari shunday o‘nqircho‘nqir, tuproq va loy ediki, yurib bo‘lmashdi. Biroq to‘y qilishga kelganda, ne tongki, qarzga botib ham to‘yni o‘tkazishardi. O‘scha paytlarda bitta to‘yga uch yuz-to‘rt yuz kilo guruch, yaxnani ham qo‘sib hisoblaganda, yarim tonna go‘sht, flyaga-flyaga yog‘, son-sanoqsiz non, bir necha ho‘kizning puliga xarid qilingan matolar, eng dahshatlisi, saл kam bir eskiroq «Moskvich»ning puliga olingan to‘rt yuz-besh yuz shisha aroq sarflanardi. Men shunday odamlar orasida yashardimki, ular to‘yda aroq mo‘l bo‘lib, mastlar ko‘p edi, deb eslashlarini istashardi. Men shunday odamlar orasida yashardimki, ular to‘yda xotinlarga eng chiroyli, kamyob matolar hadya etildi, deb gapirishlarini xohlashardi. Men shunday odamlar orasida yashardimki, ular to‘yida odob saqlab, aql-u hushini yig‘ishtirib o‘tirganlardan «to‘yimni qizitmading» deb umr bo‘yi xafa bo‘lib yurishardi.

Bo‘ti ularning atoqli vakili edi. Allamahalda darvozadan bir ahvolda kirib, yuzini yuvdi. Keyin so‘nggi sigaretni og‘ziga qistirib, qutisini g‘ijimlab, qo‘lansa so‘zlarni qalashtirgancha uloqtirdi.

— Nigora! — bo‘kirdi u uy tomonga.

Men ostona hatlab, unga ro‘para bo‘ldim.

— Nega bиринчи ovqatni yeb, indamay ketib qolding? — сочимдан burab, ko‘zларимга tikildi.

— Dasturxonga aroq qo‘yilgan ekan, — dedim erimning qo‘lidan сочимни xalos etishga urinib. — Mastlar orasida qanday o‘tiraman, dadasi?! Meni tushuning...

— Opamlar kelgan kuni nimani kelishgандик? Murosаними?

— Ha...

— Murosa qilmadingmi, men ham sening usulingni tutaman! Bugundan boshlab uyimda birorta diniy kitob bo'lmaydi! Bitta qoldirmay yo'qotaman!

Tanimda yana g'ayritabiyy kuch uyg'onayotganini his etdim. Bir siltab burchakka itqitib yubormoqchi edi, kuchi yetmadi, mushuk kabi oyoqda tik qoldim. Bo'ri har doimgidek noziknihol vujudim yerparchin bo'limganini payqamay, chayqalgancha olg'a yurdi.

— Ko'rasan! Mana endi ko'rasan! — xirilladi u.

Qizlarim uqlab yotibdi, shovqin-suronni eshitib cho'chishadi demay, yo'lida uchragan narsalarni uloqtirib, sindirib, tepib, so'kinib, o'ngdagi xonaga kirdi. Kitoblarim, tasbehim, joynamozim saqlanadigan javon shu yerda edi. Qur'oni karim, tafsirlar, hadislar — bari jilolanib turardi.

— To'xtang! Unday qilmang! — deb izidan bordim.

— Odamday yeb-ichishimga, o'ynab-kulishimga, bosh-qalarday tinch yashashimga shu kitoblar to'sqinlik qilyaptimi, hozir ko'rasan!

U bir hamlada javonning joynamozlar qatorini to'zg'itib yubordi. Ikkinci hamlasi muqaddas kitoblarimga yo'nalanida, qo'liga chang soldim.

— Aybni kitoblardan emas, o'zingizdan axtaring! — chinqirdim g'azab bilan. — Hayvonning ishi-ku bu!

— Kim hayvon?

— Sizni hayvon demadim! Hayvonning ishini qilmasligingiz kerakligini aytdim! Ayb kitoblarda emas!

— Bekorlarning beshtasini yebsan, vahhobiylar! Hammasiga shu kitoblarining aybdor!

— Musulmonmisiz, demak, bular sizning ham kitoblariningiz! Hech qanaqa vahhobiylarniki emas! Bilmasdan har baloni gapiravermang!

Yo'ldan surmoqchi edi, bilaklaridan yovvoyi kuch ila changalladim. Bo'ri qo'lansa so'zlarni qalashtirib, meni otib yubormoqchi edi, kuch bermadim. Unga zuluk-dek yopishib, qancha siltasa-da, ajralmadim. Biz xona

o‘rtasigacha olishib bordik. Alamidan ikki-uch tepdi, lekin tepkilari kor qilmadi. Musht yog‘dirdi, ro‘molim boshimdan uchib, sochim to‘zg‘ib ketsa-da, qo‘yib yubormadim.

— O‘z eringga qarshi chiqyapsanmi, iflos?! — Bo‘ri tomog‘i yirtilgudek bo‘kirdi. — Hozir bariga o‘t qo‘yaman!

— Kitoblarga qo‘lingni tekkizsang o‘lasan! — dedim sensirab.

— Nima?!

— Qasam ichib aytamanki, seni o‘ldiraman, miyasi aynigan aroqxo‘r!

— Voy ablak, terrorchi-ey!

— Shunchaki gapirmadim! Afsuslanadigan ish qilma, iblis malayi! Muqaddas kitoblarni xo‘rlab, o‘zingga qo‘sib oilangni ham baxtiqaro qilmoqchimisan?! Xonadoningga qanday tavqi la’nat yopishishini o‘ylayapsanmi?! Qizlarimga kasofating urishiga hech qachon yo‘l qo‘ymayman! Axir, nega aybni kitoblardan axtarasan?! O‘zingga bir boq!

— Sensiraklading! Iblis malayi deding! Haqiqiy basharang ochilyapti! Hatto meni urmoqchisan! O‘Idirmoqchisan! Ustingga xoting olganim yoki pullaringni o‘g‘irlaganim uchun bo‘lsa ham mayli, bir to‘p kitoblar uchun-a?! Bo‘ldi! Tushunarli. Senga javob! Senday xotin bilan bir kun ham yashamayman!

Bo‘ri birdan bo‘shashib, eshik sari yurdi. Keyin hovliga chiqib, darvozaga yo‘naldi.

— Narsalaringni yig‘ishtir, ketasan! — dedi u xirilloq ovozda. — Kitoblaringdan xavotirlanma, izzat-ikrom bilan birga jo‘nataman. Bir varag‘i yirtilsa, non ursin!

Men ham bo‘sh qopdek shalvirab qoldim. Miyamdag-i to‘fon bosildi, yovuzlik chekindi. Hayal o‘tmay Bo‘ri qishloq taksichisi bilan kirib keldi.

— Uka, kayfing bor, unday qilma, — derdi taksichi erimga. — Qorong‘i tun bo‘lsa. Uxlab, dampingni olsang, ertaga o‘ylashib ko‘rarsan.

— Agar hozir ketmasa, erkak emasman! — baqirdi Bo‘ri.

— Qachon xotinimni haydab yuborganman? Biror marta ham! Kechasi sizni chaqirib keldimmi, ish jiddiy! Bekorga emas!

U uyqusiragan qizlarimni ko'tarib, mashinaning orqa o'rindig'iga o'tirg'izdi. Makkajo'xori solingan qopni ag'darib, qarsillatib qoqdi.

— Changini qoqyapman! — dedi menga. — Kitoblarining otangnikiga borguncha kir bo'lmaydi, qo'rqma!

Ichkaridan qopni to'ldirib chiqdi-da, mashina yukxonasiiga joylashtirdi. Taksichiga pul tutqazib, amr etdi:

— Bularni to'ppa-to'g'ri qaynotamnikiga eltidib qo'ying!

— Ota-onam, qarindosh-urug'im, qishlog'im oldida nafaqt meni, o'zingizni ham sharmanda qilyapsiz, — dedim erimga.

— Xuddi senga o'xshab! — dedi u. — Qishloqning oldida uyatga qolishni o'zing ham tatib ko'r! Qachongacha qavmu qarindosh, jo'ra-yo'ldosh oldida mening boshim egiladi?!

— Kim yoki nima uchun bizdan kechayotganiningizni o'ylab, o'zingizga savol bering!

— O'zimga emas, iblisga savol beraman! Iblis «mening malayim emassan, erkin odamsan» deyapti. Erkin fikrlab, erkin yashagan odamni senlar ateist deb ataysanlarmi, kofir deysanlarmi, murtadmi, ishim yo'q. Uylanganimdan beri meni aldab kelganining ochilib qoldi. Aslida istagan vaqtingda quruq g'oyalar uchun odam o'ldirishga ham tayyorsan! Quri bu uydan! Endi diniy qoidalaring emas, demokratiya hukmronlik qiladi! Xalifaliging quladi! Uyimda ichish mumkin, chekish mumkin, sevishish mumkin, ertadan kechgacha diskoteka qilish mumkin! Yashasin ozodlik! Tum-palaqi-tutam, tum-palaqi-tu-u!.. Chao, hijobli otin oyi!

Biz jo'nab ketdik. Taksichi «aroqni o'ylab topgan odamning uyi kuysin» dedi-yu yo'l bo'yi og'zidan boshqa biror gap chiqmadi. Qizlarim pinjimga tiqilib, uqlab qolishdi. Turmush qurganimdan beri ilk bor ota uyimga haydab yu-

borilgandim. Shu vaqtgacha ota-onamga oilaviy muammo-larimning shivirini ham sezdirmadim. Endi nima bo'ladi? Ota uyiga qaytib kelish o'limdan og'ir ekanini tuyib, yetayetguncha taksichiga sezdirmasdan unsiz yig'ladim.

Onam boshimni siladi. Otam esa ertalab o'z huzuri-ga — namozxonasiqa chaqirdi. Bu — umrimda ko'rghanim To'rtinchi tergovxona edi.

— Nega bunday yuribsan, kechasi qizlaringni yetaklab?
— so'radi otam.

— Kuyovingiz to'ydan ichib kelib, kitoblarimni yo-qib yubormoqchi bo'ldi, otajon, — deb boshimni egdim, ko'zlarimda yosh halqalandi.

— Turmushni shu darajaga keltirib qo'ydingmi?
— Kuyovingiz uylanmasdan avval ham ichgan, hali-gacha ichadi, sigaret chekadi. Boyjanjal qishlog'idagi hamma erkaklar shunaqa. Ularning to'ylarini bilasiz. Xalqini to'y buzgan...

— Xalqni to'y buzmaydi, aksincha, to'yni xalq buzadi. Ular xatna to'y, kelin to'y deb atalgan to'ylarni aroqxo'rlik bazmlariga aylantirishganidan xabarim bor, albatta. Hatto «payg'ambar to'y»larda ham mayxo'rlik qiliшganini o'z ko'zim bilan ko'rghanman. Ammo butun mamlakatda, butun dunyoda shunaqa emas-ku. Meni bir narsa o'ylantiryapti. Sen o'zing ularning orasida yashab yo'lingdan adashma-dingmikan?

— Yo'q, otajon, yo'limda o'la-o'lguncha sobitman.
— Balki nega Boyjanjal qishlog'iga turmushga berdi deb mendan xafadirsan?

— Xafa emasman.
— Yashirma, — dedi padari buzrukvorim oqargan so-qolini silab. — Sen o'zingni bo'rilar orasiga tushib qolgan qo'zichoqdek tasavvur qilib, har bir kuningni tahlikada o'tkazding. Bu sening xatoying edi, qizim. Begonalar orasi-ga emas, bundan keyin uying, oilang, hayoting hisobla-nadigan makonga borganding. Oqila qizim o'z o'rmini

topib ketadi, inshaalloh, deganman. Bilim, imon, sevgi bilan nega dovdirab qolding? Odamlar seni ko'rib muslima ekanligingdan hayratlanishlari kerak emasmidi? Soliha ayol mana bunaqa ekan, biz ham soliha qizlarga uylanaylik, qizlarimiz ham soliha bo'lishsin deyishlari kerak emasmidi? Nega ular senga havas qilishmadi, o'zlarini olib qochishdi, g'iybatingni qilishdi, g'alati xotinga chiqarishdi, o'ylab ko'rmadingmi?

— Ular uchun buzuqchilik birinchi o'rinda.

— Qattiq yanglisyapsan. Ular uchun hayotdan zavqlanish birinchi o'rinda. Sharobxo'rlik qilib, o'zlarini sarxushlik bilan chalg'itsagina huzurlanamiz deb yoshlikdan o'rganib qolishgan, xolos. Azonni eshitgandagi huzurni, namozdag'i xushuni, ro'zaning qanday halovatligini, farzandlari tilovat qilgandagi mastlikni tushunishmaydi. Bilib qo'y, ateistlarning katta qismi qayerdan kelib chiqadi? Dindorlarning xato ishlaridan, o'zlarini tutishlaridan, turmush tarzlaridan, tor fikrlaridan. Xuddi taqvodorlarga achchiq qilgandek o'zlarini ateistlarcha tutadiganlar, lekin ko'nglining bir chetida imoni borlar juda ko'p. Xudo borligiga, faqat U hayotda ko'rib yurgan tor fikrli xudojo'ylar tasavvur qilgandan sal boshqacha ekaniga ishonadiganlar-chi? Bundaylar kuyovning qishlog'ida har qadamda uchraydi. Aroqni Xudoga ishonmagani uchun emas, ishonib turib ichadi, «O'zi kechirsin» deb ichadi. Kuyov va uning qishloq doshlarining gunohlariga sen aybdorsan, demayapman, boshqacha yo'l tutishingni xohlayapman. Har bir tug'ilgan go'dak musulmon holida dunyoga keladi, keyinchalik ota-onasi qanday tarbiyalasa, muhiti qanaqa bo'lsa, shunga ko'ra yo musulmonligicha qoladi, yo nasroniy, yahudiy, hind, otashparast, ateistga aylanadi, degan gaplarni yoshligingdan senga uqtirganman-ku, axir.

— Shunday, otajon.

— Rahmatli qudalarim, qaynog'ang, qaynopalaring, eng muhim, kuyovim, umuman olganda, Boyjanjal ahli ate-

istlar emas, musulmonlar. To‘g‘ri, bitta-ikkita ateist yoki injilga o‘tganlar bo‘lsa bordir, ammo hech biri senga, diningga, kitoblaringga yomonlik qilishni xayollariga ham keltirmagan, men bunga ishonaman. Vaziyatni taranglash-tirmasdan, aksincha, sen ularni go‘zallik bilan yengishing kerak edi. Fe’ling, gap-so‘zing, xatti-harakating go‘zal bo‘lmog‘i shart edi. Qaysi musulmon mamlakatida urush kechayotgan bo‘lsa, ularni chetdan kelib bombardimon qilishga o‘zлari sababchi, shuni unutma! Bosqinchi qanchalik yomon ekan, bosqinchining kelishiga sharoit va sabab tug‘dirganlar ham shunchalik yomon. Sen ishni kitoblaringga hujum qilishga, uydan haydashlarigacha olib bor-gansan. Uqdingmi?

— Uqdim...

— Ateistlar nima deydi, aytaymi? Har bir tug‘ilgan bola ateistdir, deyishadi. Isbot sifatida go‘dak Allohnning borligini anglab yetmasligini dalil sifatida ko‘rsatishadi. Nahotki, ongi hali Yaratuvchini anglay olmagan murg‘ak bola ateist bo‘lsa? Bola balog‘atga etgan, gapishtini, o‘qishni biladigan tayyor aql bilan dunyoga kelsa, foniylilikning sinovi qayerda qoladi? Ateizm — bilib turib tan olmaslik! Qachonki, bola aqlini taniganidan so‘ng ham Allohnini tani-masa, keyin uni ateist desa bo‘ladi.

— To‘g‘ri, otajon.

— Yaqinda eshitdim, bizda ham agnost degan toifa paydo bo‘libdi. Ehtimol, eshitgandirsan?

— Yo‘q.

— Ularning ishongan tog‘i Darvinning g‘oyalarini davom ettirgan yevropalik bir olim ekan, laqabi «Darvinning bulldogi», ya’ni «Darvinning iti» emish. Agnostlarning fikricha, odamlar e’tiqodiga ko‘ra musulmonlar, nasroniyilar, yahudiylar, otashparastlar, buddaviylar, ateistlar, erkin fikrlovchilar kabi guruhlarga bo‘linarmish. Agnostlar shularning oxirgisi emish, ya’ni erkin fikrlovchilar. Ko‘rdingmi, ular oddiy ateistlar toifasini mensishmayapti,

o'zlarini dahriylarning yangi turi – xudosiz faylasuflar qilib ko'rsatishyapti. Har bir agnost dunyoni hech qachon bilib bo'lmaydi deb hisoblaydi. Musulmonman deb kalimai shahodatni keltirsang ham, sening müsulmon ekaningga ishonishmaydi, «musulmon ekaningni isbotla» deyishadi. Qilgan amaling o'tmaydi. «Bunday amalni men ham bajarishim mumkin, nega müsulmon bo'lmay, agnostligimcha qoldim?» deydi. Aytgan so'zing ham o'tmaydi. So'z bilan isbotlamoq ular uchun qiymatga ega emas. Bir odam ikkinchi odamni o'ldirdimi, agnostlar uni «qotil» deb ataydi. O'sha qotilga «uni o'ldir» deb buyurgan buyurtmachingi ayblayolmaydi, chunki isbot yo'q, «uni o'ldir» degan so'zlarga agnost ishonmaydi. Bularni senga aytayotganim, shusiz ham hayotda adashganlar son-mingta. Mastlikda achchiq qilayotgan müsulmon kuyovni shirin so'z, ezgu so'z, oydin so'z bilan to'g'ri yo'lga solo may, u bilan itmushuk bo'lising xato, katta xato! Muhibbi, kuyovni har jihatdan do'zaxdan to'sib qolishing kerak, xotinlik vazifang shu! «Kuyov islomiy tarbiya olmagan ekan, sen-chi?» degan savol ko'ndalangdir. O'zing ham gunohkorga aylanayotganiningni tushunyapsanmi?

— Tushunyapman...

— Kuyovning ko'zlaridan, so'zlaridan imonli ekanini sezganman, Nigora qizim, — ancha yumshadi otam.

— Uni shayton yo'ldan urib, adashtirgan, illo butunlay dindan chiqarganiga ishonmayman. Seni imonsiz yigitga bermaganman. Uning boyligi, uy-joyi, otasining martabasi — hech biri qiziqtirmagan. Yigit o'zi tug'ilib-o'sgan qishloqning ta'sirida bo'lishi tabiiy hol, sen bilan turmush qurbanidan keyin esa o'zi ko'rib turgan hayotning boshqa tomonini ham ko'rishi kerak edi. Aks holda bizning ilmimiz, amalimiz qayoqda qoladi?

— Rahmat, gaplaringizni angladim.

— Oxirgi maslahatim, sen kuyovga yoqadigan xotin bo'l. «Ajrashgan» degan gap sen-u menga yarashmaydi. Ateistlar

orasida yashaysanmi, yahudiylar-u nasroniyalar muhitidam, tarbiyamizning go'zalligini g'olib etmog'ing lozim. Buning uchun sen go'zallikka suyan va go'zallik imondan boshlanishini unutma! Odamlar sendan o'rnak olishga harakat qilishlariga erisholmasang, yutqazasan. Mehnat, odob-axloq, intiluvchanlik, og'ir-bosiqlik, qaltis vaziyatlarda oqilona qaror qabul qilish, hamisha halol-pok yurib, hamisha shirinsuxanlikni boy bermaslik — qancha-qancha jihatlarni yodingga qayta solishim shart emasdir?

— Kechiring, o'gitlaringizni unutib, xato, qildim.

Shundan so'ng otam oq fotiha berdi. Bir kunlik mehmondorchilik xotima topib, ertasiga Boyjanjal qishlog'iga qaytdik. Yuz bergen voqeа haqida eshitgan qaynopalarim vaziyatni o'rganishga kelishgan ekan, bizni ko'rib, «o'zi ketar yor-yor, o'zi kelar yor-yor» deya piching gaplar bilan qarshilashdi. Biroq men endi otamning o'gitlariga qat'iy amal qilmog'im darkor edi. Shu bois darhol jilmayib, qaynopalarimni quchoqlab, chin dildan hol-ahvol so'rashdim, oyog'im olti, qo'lim yetti bo'lib, dasturxon tuzab, choy damlab, ovqatga unnadim. Ziyoda va Nurxonni ammalari rosa gapga solishsa-da, sir olisholmadi. Zero, onam ortiqcha gapirmagan, otam yolg'iz o'zimgagina pand-nasihat qilgan edi.

— Bo'ri, kelinni uyiga quvib, mulla mingan eshakdek qilib qo'yibsanmi? — deb kului kichik qaynopam.

— Ko'zi ochilib qaytibdi, — dedi katta qaynopam, — o'lay agar, uni taniyolmayapman.

Oshxonadagi vino butilkalariga ko'zim tushib (janjalning ertasiga ulfatlarini yig'ib, bo'kib ichgan edi), hammasini qaznoqqa tashib, taxlab qo'ydim.

— Avvalroq haydar yubormagan ekanman, — boshini qashidi Bo'ri shisha idishlarni ko'tarib yurganimni ko'rib.

Hayotim yana iziga tushib ketdi. Men Bo'ri aytgan demokratiya ichida yashardim. Bo'ri bayramlarda uyga o'rtoqlari va ularning xotinlarini taklif etar, mayxo'rlik

bazmlariga va sigaret tutunlariga, derazadan nos tuflashlariga chidardim va nomahram erkaklar nomahram xotinlarni quchoqlab, vals tushishlarini ko'rishga, bepara hazillarni eshitishga mahkum edim. G'ubor bosgan davralarni hijobimda oralab yurardim, o'zim aslo qadah tutmasdim, o'ynamasdim, jilmayib qo'ysam-da, qo'shilip kulmasdim. O'tirsam, bir chetda, davraga qo'shilmasadn o'tirardim. Qo'l-oyog'im shunday chaqqon, tilim shunday shirin ediki, bora-bora qishloq ahli rostdan ham menga havas qila boshlashdi. Ro'zani xatosiz tutib, ibodatimni qazo qilmasdim. Qizlarimga islomdan o'zim dars bersam, o'qish va yozishga shaxsiy muallim – repetitor yolladim. Eri mastlikda mushtlashgan, xiyonat qilgan, janjal ko'targan juvonlar dardini menga aytib, biz ham sizdek namoz o'qib, hijobda yursak, Xudo halol hayot berarmidi, baraka kirarmidi, deydigan bo'lishdi. Bo'ri ham oxirgi paytlarda mendan uyalganidan uyda ichishni to'xtatdi, to'yarda aljirab qolishga chek qo'ydi.

Saodatga erishayotganim haqiqatdek tuyulsa-da, nima-dir yetishmasdi. U nima ekanini boshida tushunmadim. So'ngra angladimki, menga yetishmayotgan narsa halovat edi. Turmush shu tariqa davom etar ekan, xohlagan ishni qilishga izn beradigan demokratiya niqobi ostidagi bosh-boshdoqliq bor ekan, kunlarimni osuda o'tkazolmasligim aniq edi. Jarlik ustiga qurilgan omonat ko'priordan o'tib bordim. Istalgan vaqtida nahs bosib, jarlik tubiga qulashim mumkin edi. Baayni qizlarimning boshiga to'planayotgan tahdid mening qismatimdan-da og'irligiga ko'p kuyinardim. Ularni qanchalik soliha qilib tarbiyalayotgan bo'lsam, boshqalar o'z o'g'llarini shunchalik ichuvchi, chekuvchi, janjalkash, ilmdan yiroq, sevgi deb ataladi-gan, aslida ishqdan yiroq fahsh kayfiyatida tarbiyalayotgan edilar. «Haqqining talab qil!» degan qichqiriqlar zamirida «Birovning haqqini yulib ol!» degan amr ham yotardi.

— Chidayman va umid qilaman... — dedim men ko'zguga boqib. — Sen mag'lub bo'lmasliging shart.

Bir kuni qizlarimni ammasi olib ketdi, Bo'ri fermada edi. Yolg'iz qoldim. Shunda meni chekkadagi xonaga kimdir chaqirdi. Kim ekanini bilolmadim. Xonaga kirsam, o'rtada bir hijobli ayol teskari qarab turibdi. «Kimsiz?» deb yaqinlashganimni bilaman, menga o'girilib qarab, xaxolab kului. U men edim. Men ikkita bo'lib qolgandim. Ikkimiz raqs tushib, xonani chir aylanib o'ynadik. Keyin xona o'rtasiga o'zimizni o'likdek tashlab, ko'zlarimizni yumdik.

— Alvido, Nigora, — dedi u. — Sen yana xato qilding. Demokratiya bilan iblisning farqiga bormading.

...Bir necha kun kasal bo'lib yotdim. Shifokor tekshirdi va men farzand kutayotganimni aytdi. Yetti oy o'tib, o'g'lim dunyoga keldi. Unga Nurmuhammad deb ism qo'yidik. Bo'ri o'g'lim yo'qligiga kuyib ichyapman deganida, Yaratgan egamni va meni aldagani ekan. O'g'illi bo'ldim deb ulfatlariga rosa «haq berdi», o'ziyam qirq kecha-yu qirq kunduz mayxo'rlikdan boshi chiqmadi.

Nurmuhammad otasidek baquvvat, onasidek imonli bo'lib o'sayotganida, xonadonimizga aql bovar qilmas falokat yaqinlashdi. Nurmuhammad besh yoshga to'lganida, biz xatna to'y qilishni rejalashtirdik.

— To'yda aroq qo'ymaylik, — dedim men.

— Ie, men aroq qo'ymasam, umrbod yuzimga qora balchiq chaplanadi-yu! — kului Bo'ri. — Odamlar o'lgunimcha o'pkalab yurishsa, yaxshimi, otin oyi?

— Xudo-chi?

— Xudo kechirar endi, xotin.

To'y bahorga rejalashtirildi. Falokat esa hech birimizga sezdirmay tobora yaqinlashib kelardi.

Kunlarning birida, o'shanda sentabr edi, kir yuvayotsam, chekkadagi xonada nimadir taraqlab ketdi. Qo'llarim kirni g'ijimlagan ko'yi to'xtadi. Ko'nglim yomonlikni sezdi: chap yuzim boshimning orqa tomoni aralash vijirlab

muzladi, miyam g'uvillab, bir lahma qayerdaligimni, nima qilayotganimni unutdim, ko'zim tindi.

— Nurmuhammad! — chaqirdim o'g'limni.

Hech kim javob bermagach, kir tog'orani tashlab, chekkadagi xonaga gandiraklagancha talpindim. Lablarim ham muzlab, shalviraganini, rangim murdanikiday oqarganini tasavvur qildim. Aftidan tasavvurim aldamayotgandi. Devlar meni yengayotgan edi. O'g'lim qani? Nega u hech qayerda ko'rinxmayapti? Boz ustiga chekkadagi xonada kimdir ming yil avvalgi sandiqni ochib yo unga kirdi, yo chiqdi. Bugun qaysi kun? Men qanday voqeani kutyapman?

Eshik qiya ochiq edi. Maxluq uyda ekanligiga shashubha qilmadim. Ho'kizga o'xshab pishqirgani, narsabuyumlarni to'ng'izdek titkilagani, odamdek gapiringani qulog'imga chalindi.

— Nurmuhammad... — pichirladim qo'rqa-pisa. — Qayerdasan, bolam?

Keyin o'g'limning hayotini barchasidan ustun qo'yib, olg'a yurdim. Agar o'g'limni topolmasam qah-qah urib kulishimni ko'nglim sezdi.

— Nurmuhammad!.. Qaydasan?

Qiya ochiq eshikdan mo'raladim. Taxmonni ag'darib, sandiqqa tumshug'ini tiqib, jon-jahdi bilan titkilayotgan bahaybat maxluq o'z erim — Bo'ri edi. Ishiga shunchalik berilib ketgandiki, o'g'limni chaqirganimni eshitmadni, xonaga kirganimni ham payqamadi.

— Sizmisiz? — deb eshikka holsiz suyandim.

Gavdamning og'irligidan eshik tabaqasi taraqlab yopilib, Bo'ri seskanib tushdi.

— Ko'zingga qarasang-chi, Nigora?! Hujjatlar qani?

— Qanaqa hujjatlar?

— Bardaning nomiga yozilgan... Barda qo'l qo'ygan...

— U o'lgan-ku, — dedim men.

— Barda o'lgan bo'lsa, imzosi tirik-ku! — o'shqirdi Bo'ri.

— Nega menga g‘alati qaraysan? Fermani prokuratura bosdi! Militsiya ham o‘sha yerda, soliq ham! Kunimiz bitadi-ganga o‘xshayapti!

— Nega bosadi?

— Nega bo‘lardi, tovuqmiya! Fermani Bardaning nomiga o‘tkazgandikmi? O‘tkazgandik! Soliq to‘lamadikmi? To‘lamadik! U o‘lgandan keyin ham davlatni aldadikmi? Aldadik! Chunki zamon shunga majbur qilgan bizni, zamon! Agar halol ishlasang, bor topganing davlatga ketardi! Nimalarnidir o‘ylab topmasang, bo‘lmasdi, bo‘lmasdi!

— Qonunni aldash gunoh, dadasi.

— Nima-a-a?

— Soxta hujjatlarsiz ishlash mumkin edi-ku.

— Yana boshladningmi? Kimning tarafini olyapsan?

— Sizning.

— Ustimdan kulyapsanmi?

— Yo‘q. Sizga hozirgidan yaxshi bo‘lsin uchun yolg‘on hujjatlardan keching dedim, dadasi.

— Sendek xotinim bor ekan, dushman kerak emas! Bilib qo‘y, senga o‘xshagan ichmaydigan, chekmaydigan nasli toza odam mendan pora olib turardi. Afsuski, u qamalib qolib, ichuvchi, chekuvchi, lekin pulga ko‘nmaydigan tagi past eshak mansabga o‘tirdi. Fermani tag-tomiri bilan ag‘dar-to‘ntar qilyapti. Yillar davomida aldagansan deyapti! Mollarga qo‘silib men ham ketib qolmasam edi!

— Sizga yomonlikni ravo ko‘rmayman, — deb eshikka suyangan ko‘yi gilamga cho‘k tushdim. — Istanasangiz hamma aybni o‘z bo‘ynimga olaman, o‘rningizga men qamalamani.

— Aljirama! Boya kimni chaqirding?

— Nurmuhammadni.

— Kimni?

— Nurmuhammadni.

Shu payt tashqarida mashina signal chalib, Bo‘ri polni mushtladi-yu eshikka otildi.

— Bardaning imzolari ham foyda bermaydi, qoch yo'ldan! — dedi u ustimdan hatlab o'tarkan. — Kech! Ju-dayam kech!

Haqiqatan shunday bo'ldi. O'sha kuni Bo'ri hibsga olin-di. Fermani ham, uyimizni ham taftishchilar bosdi. Garchi uch kun o'tib, erimni shartli ravishda qo'yib yuborishgan esa-da, xonavayron bo'lgan edik. Tergov va sud jami hisob-da sakkiz oy davom etdi. Bo'ri bor-budidan ayrilib, nafaqat fermadagi mollarni, uning binosini, yerlarini ham sotib qamoqdan qutulib, uyga so'ppayib kirib keldi.

— Endi duolaring ham qutqarolmaydi, — deya muzlat-gich sari yurdi. — Sen har doim umid borligiga ishonasan. Ko'rsat menga umidni? Ko'rsat menga ilohiy kuch-qudrat-ni?

Muzlatgichning eshigini ochib, telbalarcha ko'z yu-gurtirdi. Axtarganini topolmagach, shkaf orqasiga qo'lini tiqb, shishani oldi.

— Tavbada hikmat ko'p, — dedim men. — Har ishda yaxshilikni ko'ring.

— Gado bo'ldim, gado, — Bo'ri piyolani to'ldirdi. — Gu-nohim nima edi?! Tavbaning karomati shumi? Xonu monim kuyganining nimasida hikmatni ko'raman, hoy tirik haykal?!

— Gunohingiz nima ekanini o'zingiz yaxshi bila-siz. Bunchalik kuyinmang. Mol-davlat topiladi. Yiqilgan bo'lsangiz, ustingizni qoqib, o'rningizdan turib keting, musulmonchilik shu. Sabr sizga oltin beradi.

— Gunohim nima?! — tishlarini g'ijirlatdi Bo'ri va qadahni jig'ildoniga quydi. — Gapni aylantirasan faqat!

— Astagfirulloh, — dedim men.

— Fermani Bardaning nomiga o'tkazib, soliqlardan qo-chishdan maqsad senlarni kam-ko'stsiz boqish edi. Birimi-ni ikki qilmoqchi edim. Nima gunohim uchun aynan men kafangado bo'ldim? Odam ichgani, chekkani, yurgani uchun mol-mulkidan ayrilsa, Amerika bilan Yevropa bosh-

dan-oxir Afrikadek qashshoq, xonavayron, xarob qit’alarga aylanardi-da. Nega ular gullab-yashnayapti? Ham kayfini suryapti, ham ishlayapti.

— Ular ana shunday yashashni kashf etib, qonunlari dan bir qadam ham chekinmaydilar. Siz-chi? Davlatning qonunlarini buzishni kashf etdingiz. Buning oqibati yosh bolaga ham ma’lum. Kim nima eksa, shuni o’radi.

Shundan keyin buruqsitib sigaret tutatadigan, arzon aroqlarni bo’kib ichadigan, o’zining baxtsizligidan, omadsizligidan noliydigan, sal narsaga asabiylashib so’kinadigan g’arib kimsaga aylandi. Unga hech kim moddiy yordam ko’rsatmadimi, do’stlari, ulfatlari qayerga ketdi, dersiz? Qarindoshlar, sinfdoshlar boshida ul-buldan qarashdi, ammo yotib yeganga tog’ chidarmidi. Bo’ridan haq qaytmasligini tushunib, o’zlarini olib qochadigan bo’lishdi. Tez orada haqiqatan ham Bo’ri bir tiyinsiz qoldi.

Qarindoshlarim ham yo’qlab turishardi. Ichuvchi kuyov biz tomonning namozxonalaridan o’zini olib qochib, tut-qich beravermagach, ular ham kelmay qo’yishdi. Bir kuni otam tashrif buyurdi. Bo’ri toifasidagilar gohida shunaqa odatga amal qilishadi: mulla, eshon va boshqa ulamolar qarshisida o’zlarini odobli, hattoki, sal bo’lmasa, taqvodor tutishadi. Agar ichishdan gap chiqsa, «tashlash kerak, foydasi yo’q narsa» deb boshini liqillatib turaverishadi. Bo’ri otamning oldida ham shunday mutelarcha tutdi o’zini. Padari buzrukvorim kuyoviga pand-nasihat o’qimadi.

— Barakani ketkazadigan narsa — aroq, — dedi, xolos.

Hamma gap Bo’rining o’zida edi. Birgina gapdagি fal-safani uqsa bo’lardi. U esa hayotdan ko’proq lazzatnish, ko’proq yeb-ichish, bazmlarning gulida o’tirish uchun soliqlardan qochdi, hujatlarni soxtalashtirdi, asli-da halol fermerlik orqasidan ham boyish imkoniyati katta edi. Hukumat uch yillik soliqdan kechib, barcha shart-sharoitlarni qilib bergen ekan, allaqachonlar, qaynotam tirikligidayoq, ferma rivojlanish sari yuz tutmog’i lozim

edi. Nailoj, Bo'riga davlatdan yashirib qolingan lo'nda pul huzur baxsh etardi. Rahmatli qaynotam sho'rolar davrida o'rgangan odatini negadir Bo'ri evolyutsiyadek, bir oz rivojlantirib davom ettirardi. Bu pulni u osmondan tushgan, lotereyadan chiqqan, yerdan topib olingan mablag' deb hisoblab, ichi achishmay to'kib-sochib sarflardi. Xuddi shu illat Barda bilan til biriktirishga olib kelgandi. Oqibat esa...

Yana bir mudhish kun eshik qoqishdan avvalgi voqeа esimda. Kunlarning birida Bo'ri har doimgidek kayfiyatsiz holda kirlagan boshini changallab o'tirganida, telefon jiringladi.

— Olvor anavini, — shang'illadi u.

Men go'shakni ko'tardim.

— E, qalaysiz, yaxshi qiz? — suyuldi Ibod. — Xo'jayin uydalarimi?

— Ha, hozir chaqiraman...

— To'xtang, to'xtang, to'xtang! Sizga aytar bir gapim bor. Nigora, ikki bolali bo'lsangiz ham, xuddi turmushga chiqmagan qizdek yurasiz-a, sizga havasim keladi.

— Ikki bolam emas, uch bolam bor. Alloh sizga insof bersin. Qilmishlaringiz qizlaringizga qaytmasligini so'rayman.

— Uzr, kayfim oshib, Bo'rining nechta qo'zichog'i borligini unutibman shekilli. Sizda ham kayf yo'qmi mabodo? Menda qiz nima qiladi? Bari o'g'il-ku!

— Sob bo'ling!

Shartta go'shakni qo'ydim.

— Kim ekan? — xirilladi Bo'ri.

— Do'stingiz. Aniqrog'i, shaytoniy do'stingiz.

— Hamma do'stim shaytoniy. Aynan qaysi biri?

— Yosh kelinchagini siz bilan valsga tushirib, o'zi chetdan tomosha qilgan dayus o'rtog'ingiz bor-u, o'sha.

— Ibodmi? Nega unga sog' bo'ling, deding?

— Sog' bo'ling emas, sob bo'ling, dedim. Miyasidagi

qurt ko'payibdi sho'rlikning. Qurtlari tezroq sob bo'lsa yaxshiydi.

— Hozir qaytib qiladi, — deb Bo'ri telefonning yoniga sudralib keldi. Telefon jiringlagach, go'shakni qulog'iga tutdi. — Nima deysan?

Ibod masxaraomuz hol-ahvol so'rashib, qayerdadir o'tirmoqchi ekanliklarini aytdi.

— Kimlar bor?

Ibod eng yaqin ulfatlarni sanab, qancha ichimlik, gazaklar va yeguliklar olinganini maqtandi.

— Yo'g'-e?! Ketishdan avval aystsalaring bo'lmasmidi?

Bo'rining so'lagini oqizgan Ibod bayramni kutilmagan-da yo'lda tashkillashtirishga to'g'ri kelib qolganini aytib, «kelasanmi?» deb so'radi.

— Uzoqqa ketib qolibsizlar-da. Amallarman.

Ulfatlar tog' tomondagi buloq bo'yiga jo'nash oldidan o'sha atrofdagi qishloq do'konidagi simli telefon-dan qo'ng'iroq qilishgan ekan. O'rtada sakkiz chaqirimli masofa yastanib yotardi. Bir qismi uzumzor, bir qismi yaydoq dashtlik. U yoqlarga avtobus qatnamaydi. Qishloq taksichilari esa borib kelish uchun qancha benzin sarflashlarini ham, yo'lning o'nqir-cho'nqirligini ham, qaytishda yo'lovchi uchramasligini ham bilishadi. Buning ustiga Bo'ri oxirgi vaqtarda deyarli nasiyaga ish qilardi.

— Bardaning mototsiklini tuzataman, — dedi u.

Qo'shnining egasiz shaloq mototsiklini uch-to'rt kun avval keltirib, yurgizolmagan, hozir ikki g'ildirakli temir tulpor molxonada chang bosib yotardi. Bechora Bo'ri kayfsafo g'amida shunday shijoat ko'rsatdiki, baxtga qarshi bir soatda mototsikl tarillab o't oldi.

— Yo'l bo'lsin, dadasi? — darvozaga chiqdim men.

— Qabristonga! — dedi erim zarda bilan.

— Hademay kech bo'ladi. Zarilmi xoin do'stning qo'lidan bir piyola shayton suvi ichaman deb shuncha yo'l yurib? Qo'ying o'sha bevafolarni.

— Shaxsiy ishlarimga aralashma! Men ham odamman! Odamdek yashashga haqqim bor! — baqirdi u mototsiklni o'qdek uchirarkan.

Qorong'i tushdi. Qaznoqdagi yog'ning so'nggi tomchisi-gacha qizdirib, oxirgi kartoshkalarni va piyozni to'g'rab, bolalarimga kechki ovqat tayyorladim. Mabodo qorni to'ymay kelsa, ovqat va non so'raydi, deb Bo'riga ham olib qo'ydim. Ertadan boshlab dalaga ishga chiqishga qaror qildim. Modomiki, Bo'ri pul topmas ekan, ro'zg'or yuki endi mening zimmamda edi.

Bir payt ko'zim ilingan ekan, darvozamiz tagida masha-na to'xtab, signal chaldi. Soat millari 22:00 ni ko'rsatardi.

— Bo'ri! Hoy!.. — qichqirdi mast-alast ulfatlari. — Volk! Iningdan chiq! O'rmondan jo'ralarin keldi! Qayerdasan, alvastijon?

Men to'daga ro'para bo'lib, erim mototsiklda bazmgoh-ga aynan ularni axtarib ketganini aytdim va:

— Ko'rmadilaringizmi? — deb xavotirlandim.

Do'stlari qahqah otib kulishdi. So'ngra ketma-ket xitob qilishdi:

— Sentabrda «mayovka»ga nima bor? Bizni bahona qilib, «rayon»ga survorganga o'xshaydi! Gul hidlagisi kel-ganmikan-a?

Ibodning gapi hammasidan jirkanchroq edi.

— Aldagani hijobli xotin yaxshi! — kului u. — Mulla-soyning dindor qizlari erlarining har bir gapini qonun deb bilishadi. Qonun ham mayli, haqiqat deyishadi. Mana sizga haqiqat! Bo'rivoy oshnamiz bizni bahona qilib, parniklarni kezib yurganmikan?!

— Erkak kishida lafz bo'ladi, — dedim javoban. — Ahli oilasini aldagani erkak ham erkakmi? To'g'risini aytsam, qishloqlaringizga kelin bo'lib tushganimdan keyin bildim dunyoda lafsiz erkaklar borligini. Sal mard bo'linglar, akalar! Nega bu qishloq yigitlarida lafz ham, tuturuq ham yo'q, hech tushunolmadim. Bunday ikkiyuzlamachilik

sizlarga yarashmaydi. Keyin yana bir gap: xotinlaringizni bir-biringizdan qizg‘anmaysiz. Bunday dayuslikning nuqsi xotinlaringizga urib, ular sharmsizlikka o‘rganishadi, ertaga boshqa nomahramlar suykalsa ham, yo‘q deyolmaydi.

— Tfu! Bolalar, ketdik! — Ibod shartta mashinaga o‘tirdi.

Ular jo‘nab ketishgach, qaynog‘amga odam yubordim. Qaynog‘am vahimaga hojat yo‘qligini aytib, chorpojada o‘tirgancha ukasini kutdi. Biroq Bo‘ri kechki o‘n ikkigacha ham qaytmadi.

— Rostdan ham jo‘ralari yo‘l-po‘lda ko‘rmaganmikan? — deya qaynog‘am Ibodnikiga otlandi.

Hayal o‘tmay darg‘azab holda qaytib keldi.

— Ablahlar! Hech qanaqa buloq bo‘yida o‘tirmagan ekan! — dedi u g‘ijinib. — Berdiboynikida ichishibdi. Bari-bir Bo‘ri borolmaydi deb o‘scha yoqlarni aytib, hazillash-ganmish, yaramas, eshaklar!

Qishloq taksichisini uyg‘otib, Bo‘rini axtargani jo‘nab ketdi. Oradan ikki soat o‘tib, telefon jiringladi. Qaynog‘am shifoxonadan qo‘ng‘iroq qilayotgan edi.

— Kelin, — burnini tortdi u, — Bo‘rini topib, balnisa-ga yotqizdik. Dasht yo‘lida mototsikli ag‘darilib, oyog‘i sinibdi. Hozir ahvoli yaxshi, xavotirlanmang. Uyda qancha pullaring bor?

— Bir tiyin ham qolmagan, aka.

— Vrachlarga berish kerak, dori-darmonga ham ancha ketadi. Qarz topping! Hozirmas, ertalab!

Otam menga pul berdi, lekin Bo‘rini to‘liq tuzatish ilojsiz edi: u bir umrga oqsoq bo‘lib qoldi. Mayxo‘rlik uchun har doim taqdiridan bahona qidirardi. Endilikda bahonalardan zig‘ircha muammo yo‘q edi. Ota-onasidan bir kunda judo bo‘ldi, xotini o‘g‘il o‘rniga, avvalo, ikki qiz tug‘ib, asabini sinadi, fermasidan ayrildi, oyog‘i sinib, has-sasiz yurolmay qoldi. Bular uchun Bo‘ridagi fe‘l-atvor va dunyoqarash umrbod aroqxo‘rlik qilishga izn berardi.

Mudhish kundan burungi voqea shu edi. Endi hayotimni chilparchin qilgan fojiaga to'xtalsam. Bu kun mening ozodlikdagi so'nggi damlarim edi.

Kechqurun Bo'ri g'alati bir hassaga suyanib, ichkariga kirdi. Oktabrning oxiri edi. Xuddi qaynotam va qaynonam hayotdan ko'z yumgan kundagidek kun sovuq, qor uchqunlayotgandi. Elektr o'chgani bois xira chiroq lipillab yonib turardi.

— Havo sovib ketganini qara, — dedi Bo'ri ko'rpa chaga o'tirib, haligi hassani devorga suyarkan. — Rasvo... judayam rasvo... O'zi oktabrda qor yog'ishini jinim suymaydi.

— Nima u? — deb «hassa»ga yaqinlashdim.

— O'n oltinchi kalibr, — dedi Bo'ri. — O'z narsamni janjal bilan qo'lga kiritdim. Aslida bizniki bo'lishi kerak edi. Otam ferma uchun olgan.

— Miltiqni nima qilasiz?

— Sotaman. Pulsizlik jonga tegdi.

— Bekor qilibsiz.

— Qachon gapimni ma'qullaganding?! Asabimga tegma! Ma, so'nggi chaqamni ol-da, Barot akanikidan spirt opkel! O'zim boray dedim-u oyog'im og'ridi, borolmadim. Soy tomondagi qiyalikdan chiqish qiyin.

— Meni bilasiz, siz aytgan narsani qo'limga ushlamayman.

— Odam emassan... — po'ng'illadi Bo'ri. Keyin bolalarimga olayib qaradi. — Ziyoda uxlab qoldimi?

— Ammasi Sapiya opadan berib yubor degan ekan, kechqurun ikkovini jo'natdim.

— Sapi tentakka ishonib birga yubordingmi qizingni?

— Sapiya opa ancha sog'ayib qolgan. Ammasi ko'chaga chiqib qarab turgandi, chorrahaga chiqib, uzoqdan ko'rdim.

Ichkari xonaga kirib namozimni o'qidim. Qaytib chiqsam, Nurxon bilan Nurmuhammad yo'q, tashqarida itlar bezovta huryapti.

— Bolalar qani? — so'radim Bo'ridan.

— Barot akanikiga yubordim, hozir keladi, — yuzini chetga burdi u.

Gapini tugatar-tugatmas allaqayerda bo'rilar uvillagach, itlarning uni o'chdi. O'shandagi holatimni tasavvur qilish qiyin. Men uyda edim, erim ham oyog'ini uzatib, ko'zlarini lo'q qilgancha qarshimda o'tirardi. Besh mahal namozimning beshinchisi — xustonni o'qib bo'lgandim. Tashqari zim-ziyo edi, ayoz edi, tentak qor uchqunlardi. Shunday bexosiyat kechada ikki norasida bolam soy bo'yidagi so'qmoqdan uyga qaytishardi, bir-birining qo'lidan ushlagan, pinjiga tiqilgan. Qo'llarida otalarining bergen idishi, ichida spirt, sassiq spirt, shaytoniy spirt, barcha fojialarga doyalik qiladigan harom suyuqlik. Aqalli biror foydali yumush bilan ketishgan bo'lishsa ham mayli edi. Aqalli himoya qiladigan kattaroq odam bilan, bir ongsiz it hamrohligida ketgan bo'lishsa ham mayli edi.

— Bolalarimni nega bemahal jo'natdingiz?! — Qonim qaynab erimga tarmashdim. — Bo'rilar!.. Tashqarida bo'rilar!.. Turing joyingizdan!.. Eshityapsizmi ovozini?!

Biroq u imillab turib, eshikka yetguncha umrbod kech qolishimni anglab, hattoki oyog'imga kavush kiymay, ylangyoyoq, hech qanday kaltaksiz, panshaxasiz hovliga otilib chiqdim. Erimning to'rt muchasi sog' bo'lib, sakrab turgan taqdirda ham menga yetolmasdi. Bolalarim darvoza eshigini ochiq qoldirgan ekan.

— Nurxon! Nurmuhammad! — faryod urdim shu atrofda kelishayotganmikan deb.

Afsuski, bolalarim sas-sado berishmadi. Qaytanga soy bo'yidan yana bo'rilarining uvlashi eshitildi. Men ovoz kelgan tomonga chopdim. Qulog'im ostida shamol g'uvillar, o'qdek uchib borayotsam-da, kechikayotganimni anglab, dahshatga tushmoqda edim. Nazarimda, bir lahzadan so'ng yirtqichlar bolalarimni qurshab olishadi, yana bir lahma o'tib, tamom, hammasi tamom! Bir necha soniya

kechikkanim uchun umr bo'yи armonda yashayman, so-chimni yulib yashayman...

Yo'q, ulguraman!

Ulgurmasam bo'lmaydi!

Bo'rilar qanchalik yovuz va qudratli bo'lmasin, agar men yetib borsam, farzandlarimni himoya qila olaman! O'lsam o'lamanki, qizim bilan o'g'limni – foniy dunyoda topgan boyliklarimni saqlab qolaman. Menga shunday kuch beriladiki, inson zotiga xos bo'lmaydi.

– Yo Alloh!..

Ko'cha tugab, soy bo'yiga engan so'qmoqqa yetdim. Zulmat qo'ynidan qizimning «Ayajon!» degan chinqirig'i keldi.

– Nurxon! – Jon holatda olg'a otildim. – Qayerdasan?

Qordan oqargan soy bo'yiga tushayotib, oyog'im toyib yiqildim. Ikki-uch umbaloq oshib tushdim. Yana oyoqqa qalqib, bosh yalang, yoqa vayron holda qizimning ovozi kelgan joyga bordim.

U yolg'iz edi. Nurmuhammad hech qayerda ko'rinnmasdi. Ko'zim qinidan chiqayozdi.

– Ukang qani? – so'radim titrab.

– Ayajon... – yig'ladi qizim qo'rquvdan tili aylanmay.

– Ukang qani deyapman?! – Bu gal shunday chinqirdimki, ovozim soy bo'yiga yoyilib, jarliklarda ham aks sado yangradi.

Javob o'rniga qizim ho'ngrab yig'lab yubordi. Qo'lida spirtli baklashka borligini ko'rdim. Idishni yulib olib:

– Ming la'nat! – deya soyga otdim. – Nurmuhammad qani?! Gapir!..

Yo alhazar, shu on baklashka uchib tushgan tomondan to'rt-besh yirtqichning g'ijillashib, it kabi irillashi allani-mani talashib nimtalayotgani eshitildi.

«Nurmuhammad!» deb o'yladim men.

«Nurmuhammad!» deya faryod urdi yuragim.

– Nurmuhammad!.. – qichqirdi tilim.

Bu yoqqa yugurib kelayotganimda tanimda ta'rif etib bo'lmas yovvoyi kuch paydo bo'lgandi. Keyinchalik Beshinchi tergovxonada ham, kamera va qamoqxona yo'laklarida ham meni va boshqalarni abgor qilgan kuch shu edi. Bu kuch duoning qudratiga, telepatiyaning mavjudligiga, gipnozning moddiyiligiga ishonmaydiganlar uchun noma'lum edi, g'ayritabiiy edi.

Onaizor kabi emas, yovuz jangchi misoli tashlandim yirtqichlar to'dasiga. Birinchi bo'ri ortiga o'girilib, boldirimga tish botirganida, kekirdagini uzib oldim. Ikkinchisi shoshganidan bo'ynimdan tishlash o'rniغا sochim aralash boshimga og'iz soldi. Bir hamlada jag'ini ayirib, uchinchi bo'riga tashlandim. Uning dag'al terisini ikki qo'llab g'ijimlab, boshimdan aylantirib soyga uloqtirdim, xuddi koptok singari shuvillab uchib ketdi. To'rtinchisi ustingga tashlanib, meni yerga ag'anatdi. Biz dumalashib olisha boshladik. Chap bilagimni og'ziga tutib, o'ng qo'limning tirnoqlarini kekirdagiga botirdim. Tomog'imdan shunday bir faryod otilib chiqardiki, na inson zoti, na bo'ri zoti bunday hayqiriqni eshitgandi.

Qonli jang uzoq cho'zilmadi. O'q ovozi eshitildi. Menga hamla qilgan bo'ri va atrofimda aylanishayotgan sheriklari o'zlarini qorong'ilikka urdi.

— Nurmuhammad... — deya o'g'limning jasadi yoniga tiz cho'kdim. — Ko'zingni och, bolam... Onangni qo'rqtma, jon bolam...

O'g'lim qilt etmadi.

— Sen islom chirog'isan-ku, bolam! — yig'lab yubordim men. — Makkaga imom bo'ladigan bolasan... Qo'y bunday yotma, ko'zingni och... Endi seni hech kim aroqqa yubormaydi... Bundan keyin sen, men, ikki opang — barimiz jannatday pok qishloqqa ko'chib ketamiz... U yerlarda hamma yaxshi, hamma mehribon...

O'g'limni sizlab gapira boshladim:

— Otamday mehribon bolam, ko'zingizni oching, o'tinaman... Sigaret chekib, saqich chaynab, aroq ichib,

mast-alast bo'lib yurgan kimsalarni uchratmaydigan joy-larga ketamiz... Otam dedim sizni... Otajonim dedim... Ko'zingizni oching... Onangizni qo'rqtigmang, joni'm bolam...

Ammo o'g'lim ko'zini ochmadi, kiprigini ham qimir-latmadi. Men Nurmuhammadni bag'rimga bosib, yuzidan o'pdim. Uning qoni bilan mening qonim qo'shildi.

Ortimdan oyoq tovushi keldi. Bilaman, Bo'ri miltig'ini ko'tarib, cho'loqlangancha yaqinlashyapti. O'g'limni aslida yirtqich hayvonlar — tabiat bo'rilar emas, jamiyatning mana shu Bo'risi o'ldirdi. O'z jigarbandini kechasi spirtga yuborib, hayvonlarning hukmiga havola etdi. Ha, chin hayvon u! Bir piyola ichsam, charchog'im yoziladi, degan hayvon shu... hayvon shu... Yaqin-yaqinlargacha «o'g'lim yo'q» deya yoqasini yirtib to'polon ko'taradigan, kuyganimdan ichyapman deb bahona qiladigan shu hayvon... shu hayvon... Bolasini aroqqa yuboradigan otalar bor ekan, hali-veri dunyo o'nglanmaydi... Dunyoni, avvalo, oilalardan boshlab nahs bosadi... falokat bosadi... o'lim bosadi...

— Nima bo'ldi, Nigora? Shu yerdamisan? — so'radi Bo'ri.

Men o'g'limni yerga yotqizdim.

— Do'xtir chaqiraymi? Nima bo'ldi senga? — Bo'rining ovozi qaltirab chiqdi.

Men tosh ustidagi yupqa qorni sidirib yaladim, so'ng qonli, yuzim, qonli ko'zim bilan erimga tikildim.

— Ni... nigo... ra... — g'o'ldiradi erim ortiga tisarilib.

Unga tashlandim. Bo'ri muvozanatini yo'qotib gursilab yiqildi. Ayovsiz musht yog'dirdim. Men halim bir ayol bo'lGANIMGA, umuman, ayol zotidan bo'lGANIMGA ishonmasdim. Na ayol-u erkak, na odam-u hayvon edim.

— Niyatingga yetdingmi, haromxo'r! Shuni istaganmiding, la'nati?!

U miltig'ining ikki uchidan tutib, tomog'imga tirab meni o'zidan nari itardi. Tabiat bo'risiga kuchim yetsa-da, jamiyat Bo'risi oldida baribir ojiza edim. Qarasam, beliga

bolta qistirib olibdi. Shartta boltani belbog‘dan sug‘urib, boshiga bir tushirdim. Nurxonning achchiq faryodi yangradi:

— Otajon!.. Ota!..

Men boltani ko‘targancha tek qotdim. Ikkinci zARBANI urolmadim. Qizim bizni kuzatib turardi. Bo‘rini bir zumda yerparchin qilolmaganimning sabablaridan biri ham shu edi: harholda, u bolalarimning otasi, men kabi farzand dog‘ini tatiyotgan sho‘rpeshona.

— Nurxon... — shivirladim men, ammo ovozim o‘zimga ham begona, g‘alati edi.

Qizim mendan qochib uy tomon yugurdi. Negadir men ham uning izidan chopdim. Ust-boshim qonga belangan, qo‘limda bolta, go‘yoki Nurxonni yupatish uchun emas, tutib biror zarar yetkazish uchun shoshilardim. Bir qarasam atrof qalin o‘rmon. Quyosh uch soat avval soy to-monga — g‘arbgan botganini sezgilarim aytdi. Men g‘arbdan sharqqa qarab yugurayotgandim, botgan quyoshdan qanchalik uzoqlashsam, chiqadigan quyoshga shunchalik ya-qinlashardim. Qo‘rqinchli tushlarda ko‘rinadigan makonga qachon, qayerdan kelib qolganimni ham angolmadim. «Qayerdaman? Nimalar qilyapman?» deb o‘ylardim. O‘ylardim-u o‘y bor, fikr yo‘q edi. Esimdan oqqanimni bir tushunib, bir tushunmay, goh yig‘lab, goh kulib, bir yengil tortib, bir og‘irlashib, quturgan kuchukdek chopib borardim.

Qarsillab o‘q uzildi. O‘q yonimdan bir parcha cho‘g‘ bo‘lib uchib o‘tdi. Nurxon yiqildi. Nurxon qalqib yiqildi. Nurxon tosh ko‘chada bir chiziq bo‘lib qoldi. Ko‘zlarimga ishonmay taqqa to‘xtadim. Hozirgina Nurmuhammaddan ayrligan emasmidim? Nega Nurxonni otib tashladi? Menga otilgan o‘qqa chap berdimmi?

O‘girildim. Bo‘ri miltig‘ini o‘qlayotgan edi. Qanday yetib borganimni, qanday chopib tashlaganimni keyinroq, qamoqxona yerto‘lasida esladi...

Boyo‘g‘li sayradi.

Qizimning yoniga qaytdim. Uning ko'zlarini yumuq edi, nafas ham olmasdi. Qo'llimdag'i bolta o'rniда esa miltiq paydo bo'lib qolgandi. Qurolni tashladim. Qizimni men ot-maganimni hech kimga isbotlayolmasdim, ammo hozir bu haqda o'ylamayotgandim. Qichqiray desam, endi ovozim ham yo'q edi, darmonim ham. Qizimning yoniga yiqlidim. So'ngra yonboshlab yotib, yelkasidan quchib, ko'zlariga tikildim.

— Shu yerda yotamiz... Qiyomat yaqin... — pichirladi lablarim.

Qizim jim edi. Sho'rlik Nurxonni u dunyoda ko'rolmaydigandek tuyuldi menga. Shunda bu fojialarga aslida o'zim sababchi emasmikanman, deb ilk bor aybni Bo'ridan emas, o'zimdan qidirdim.

Nimaga erishdim?

Shumi aroqxo'r er ustidan g'alabam?

Qani men kutgan saodat? Ichuvchi erga qarshi kura-shishimning mukofoti?

Savobim kuyib ketsa-da, aroqqa o'zim borsam bo'lmasmidi?

Qayerda xato qildim?

Qanday yashashim kerak edi?

...savollar javobsiz qoldi. Bir kunda borimdan ayrildim. Necha yillar panjara ortidagi dunyoda yolg'iz, baxtsiz, benavo yashayman. Qaytganimda, meni Boyjanjal ham, Mullasoy ham qabul qilmaydi. Men ham ularni qabul qilmayman, qilolmayman.

Gavdam o'z-o'zidan ko'tarildi. Oyoqda tik turdi. Yer-u osmon chayqalardi. Vujudim uy sari yurdi. Kanistrdag'i moyni sepdi. Gugurtni chaqdi. Uyga olov o'rлади...

Hovlida telbalarcha serraydim. Qayerdandir odamlar to'planishib, qiy-chuv, baqir-chaqir qilishib, birov suv sepishga, birov qimmatbaho narsalarni tashqariga tashishga kirishdi. Bozor dunyoga o't ketgan edi.

— Hammasi yonadi... Xuddi umrim kabi... Sizlar niyat-laringizga yetdilaringiz... Men ketaman... Ziyodaga qiyin bo‘ladi... Dadasidan ayrıldi, Nurxon singlisi va Nurmu-hammad ukasidan judo bo‘ldi, onasi qamaladi... Ziyoda uchun uyni yoqmasam yaxshimidi... Yo‘q, bu uyda Ziyoda ham yashamasligi kerak... Yashamaydi ham...

Bir payt uy erto‘lasi gumburlab portladiy-u, hamma-yoqqa oyna, yog‘och va qipiqlar sachradi. Odamlar hovli o‘rtasiga qochishdi. Olov shunday avj oldiki, deraza va eshiklarda xuddi tandirdagidek gulxan tillari o‘ynadi.

— Spirit portladi, spirit! — dedi kimdir bo‘g‘iq ovozda.

— Bovadan spirit qolgan ekan! Nari turinglar! Yana portlashi mumkin! — xitob qildi boshqasi.

— Barda aytardi, bovaning yerto‘lasida yashirin ombori bor deb!.. — gapirindi yonimda biri.

— Shuncha vaqt Bo‘ri topib ichmaganiga qarang!

— Bilmagan-da! Bo‘lmasa, spiritni ichmasdan qo‘yarmidi u! Barot akadan ham spirit tilanmasdi...

Oyoqlarimdan mador ketib, tizzalab o‘tirib qoldim. Bo‘rini o‘ldirib, uyga o‘t qo‘yib ham yengil tortmagan edim. Menda qasos hissi yo‘qolgandi. Xonu monimdan ayrilganim yetmagandek imonimdan ham mosuvo bo‘layotganimni anglab, ingrab yubordim. O‘z farzandalari spiritga yuborib, o‘limga duchor qilgan Bo‘ri uyi tagida bochkalab spirit borligini bilmagandi. Qaynotamga yugurdaklik qiladigan Bardaning xabari bo‘lgan, ammo u spiritfurush bilan birga allaqachon narigi dunyoga jo‘nab ketgandi. Qachonlardir aytganman, «spirit — bomba» deb. Ha, u hech qanday bombardan farq qilmagan holda portladi. Nafaqat moddiy dunyoni, ruhiy olamni ham xarob etdi.

Zulmatli osmon yorishdi. Yonayotgan baxtning shu’lasi bulutlarda o‘ynadi.

— Nega?.. Nima uchun?.. — dedim alam bilan.

Taqdirning menga atalgan zarbalari bu bilan ham tugamagan ekan. Bir ayol uy oldida bo‘zchining mokisidek

u yoq-bu yoqqa yugurayotganini ko'rdim. Yigitlardan biri sensiraklab koyidi:

— O'v, Sapi tentak! Qoch-e! Jo'na tez!

To'yim kuni Sapi tentakning aytgan gapi yodimga tushdi: «Agar eringning tabarruk uyiga munosib kelinchak bo'lmasang, yonasan! Bugun turmushing sharafiga yoqilgan shu olovda yonasan...»

Modomiki, e'tiqodim bu elniki bilan munosib tushmagان ekan, Sapi tentak haq edi. Ikki xil e'tiqod, ikki xil madaniyat bir uyning kuyishiga, uy-ku jonsiz narsa, butun oilaning falokatiga otalik qildi, onalik qildi.

— Qani?.. Ziyoda qani?.. Uv-v... Iy-y... — izilladi Sapi tentak.

— Keting deyapman! — do'q urdi bir yigit.

Joyimdan turib, Sapi tentakni tutdim-da, yoqasidan g'ippa bo'g'ib, ko'zlariga ko'z qadab, xirilladim:

— Ziyoda dema!. Ziyoda dema deyapman!..

— U ketaman dedi... Yig'ladi... — boshini telbalarcha chayqadi Sapi tentak. — Menda ayb yo'q... ayb yo'q...

— Qayoqqa ketdi?!

— Ammasining o'g'ilchasi xafa qilgan ekan, shunga... Ammasi uyiga tashlab kel, dedi... Kelsak hech kim yo'q ekan... O'zing o'tirib tura qol, hozir chaqirib kelaman deb... qo'shnilar nikidan sizlarni surishtirdim...

Men Sapi tentak nima demoqchi ekanligini anglab, qo'yib yubordim.

— Ziyoda... uydamidi? — so'radim «yo'q» degan javobni kutib.

Afsuski, Sapi tentak yig'lagancha bosh silkidi. Bu dunyoda oilamdan qolgan yolg'iz jigarbandimni o'ldirganimni tushundim. O'z uyimga, o'z vatanimga o't tutashtirganimda, o'z farzandimga ham o't qo'ygan bo'lib chiqdim. Ikki dunyoim kuyib, barcha toat-ibodatlarim kulga aylandi. Otam aytganidek, soliha emasdum. Dunyodagi eng vahshiy qotil ayol edim.

...O‘kirib yig‘lagancha o‘zimni yonayotgan uyg‘ urganimda, kimdir meni ushlab qolib, yerga ag‘dardi. Yana bir marta qichqirdim-u hushimdan ketdim.

VII BOB

*Sendan sabr so‘rab gado keladi,
Bersang ehson, baxtdan sado keladi.*

Kundaligimning yangi sahifasi ustida qalam yurgizaman...

Siz mendan yuz burmang, irganmang, nafratlanmang, zero haqiqatni bilaman, deb adashguvchilar safiga kirib qolishingiz mumkin. Haqiqatni to‘la anglash uchun sabr ham kerak. Kundaligimni yozayotgan ekanman, demak, men tirikman. Inson qachonlardir qayerdandir qaytib, yozuv stoliga o‘tirmas ekan, undan kundalik qolmaydi.

Qora o‘tmishim xotiramda to‘liq jonlangach, nega qamoqxonaga keltirilganimni eslab, ko‘z yoshlarim quridi. Haqiqatan, o‘tmishimdan qochib qayerga ham borardim.

...Kanalizatsiya quvuridan sirg‘alib tushib, quduqdek joydan chiqib, shularni esladir. Yuqoriga qaradim. Shiftdag‘i tuyrukka panjara qo‘yib, betonlab tashlashgandi. Boyadan beri xira yorug‘lik tushib turardi. Badbo‘y, shilta makon bo‘lsa-da, umrimning oxirini shu yerda o‘tkazaman, deb bir burchakka qunishib o‘tirdim-da, beton devorga suyanib, tizzalarimni quchoqladim.

Soqchilarining tepadan qadam saslari va g‘o‘ng‘ir-g‘o‘ng‘ir ovozlari eshitildi. Endi ozodlikka chiqishimning ham, qamoqxonaga qaytishimning ham ma’nisi yo‘q edi.

— Kanalizatsiya quvuriga tushgan, — dedi biri. — Boshqa yo‘l yo‘q.

— Hamma ehtiyyot choralar ko‘rilsin! — hukmfarmo xitob yangradi. — Suvni o‘chiringlar! Har ehtimolga qarshi binoning birinchi qavatidagi odamlar evakuatsiya qilinsin.

Umrim oxirlashib borarkan, men bir ojiz banda – hech kim uchun xavfli emasligimni, togramdagilar mushuk-dan yo'lbars yasaganini anglab etdim. Darhaqiqat, ularning nazdida zararli bir maxluq edim. Aslida men emas, Bo'ri xavfli emasmidi? Barda ham xavfli edi, Boyjanjal qishlog'inining ichuvchi xalqi ham. Ammo hamma meni yomon ko'rdi, cho'chidi, o'zini nari olib qochdi, fofia yuz bermaguncha qo'ymadidi. Axir, mening emas, ularning tangan yo'li o'n minglab oilalar nibebaxt qilib, avtohalokatlar-u qonli mushtlashuvlarga sabab bo'lmadimi? Aroq sabab kasallik orttirgan minglab majruhlar nega ko'zlariga ko'rinnadi? Ulardek ochiq-sochiq kiyinmaganim qanaqasiga ayb edi? Gap kiyimda emas, ko'ngil tozaligida deb o'zlar lof urmadilarmi? Ha, gap libosda emas ekan, nima uchun mening ro'molimdan ayb axtarishdi? Namoz o'qishim ularga g'alati tuyulganini qanday izohlay? Muammo ibodatda ekan, nima uchun pensiyaga chiqqan keksa otalari, onalari namoz o'qisa, to'g'ri qabul qilishadi? Balki ular odam o'limi yaqinlashganida, namoz o'qisa bo'ladi, deb keksalarning ibodatini me'yor deb hisoblashar? Unda avtohalokat, mushtlashuvlar, kasallik va boshqa sabablar bilan hayotdan ko'z yumgan pensiya yoshiga yetmaganlar nima uchun o'limlaridan bir necha yil burun ibodat qilishi boshlashmadi? Qachon o'lishlarini bilmagan edilarmi? Buni hech kim bilmasligi hammaga ma'lum-ku. Hech kim hech qachon ajali o'z yakuniga yetmog'ini aytib berolmaydi. Shunday ekan, qani mantiq, qani meni ayplashga asos?

Xullas, dunyoga tushunmadim, dunyo ham meni tushunmadi. Urush davom etar edi, qirish davom etar edi. Haqiqat o'z sahifalarini ochib borarkan, endi hech qayoqqa yo'l yo'qligini anglab, dunyoning ishlaridan hayrona qoldim. To'xtadim. Qochib-qochib, topgan joyim kanalizatsiya qudug'i bo'ldi. Kalamushdek xorlikda o'lishim peshonamga yozilgandek tuyuldiy-u, xo'rligim keldi.

— Nigora, qotil ekaningizni esladingiz, bu — yaxshi, — dedi nazoratchi xotin.

Nogohon uning ovozini eshitib cho‘chib tushdim. Bu yerda yolg‘iz edim-da.

Keyin quloglarimni bekitdim, ko‘zlarimni chirt yurdim, ammo ovoz miyam ichida ham aks sado berdi:

— Qotil ekaningizni esladingiz, bu — yaxshi... Qotil ekaningizni esladingiz, bu — yaxshi...

Nihoyatda charchaganimni his etdim.

— Nimasi yaxshi? — so‘radim istar-istamay.

— Eringiz oilangiz emasdi. Oila «ahil jamoa» degani. Bo‘ri sizga umuman begona shaxs edi. Shuncha yil er-xotin bo‘lib yashqaganingizga hayronman. U menga hecham yoqmagan. Bilasizmi, hozir tepada qanday voqealar ro‘y beryapti?

— Qanday voqealar?

— Odamlar ikki guruuhga bo‘lindi.

— Qanday guruuhlar?

— Oqlar va qoralar.

— ...

— Nega jimsiz? Ayni damda oqlarning ham ko‘plab turlari bor, qoralarining ham. Tushunish uchun shuni aytmoq-chimanki, sizga yon bosayotganlarni oqlar, tanqid qilayotganlarni qoralar deb atayman.

— Ular azaldan bor edilar...

— Oqlar aytishyaptiki, siz mutlaqo haq ekansiz. Bolalik davringizda otangiz islomdan ta’lim berib, faqat o‘z dunyoqarashingizni haq deb bilish, unga zarracha shubha qilmaslikni to‘g‘ri o‘rgatibdi. Er uyidagi bemazagarchiliklarni qabul qilmaganingiz, imon-e’tiqodingizni buzmaganningiz, og‘ir sharoitlarga bardosh berganingiz jannati ayol ekaningizni anglatadi.

— Kim jannati ekanligini Alloh biladi... Men hech kimga yoqmasdim... Qiliqlarim oilamning boshiga yetdi...

— Birovga yoqishga urinish shartmi? Qolaversa, oilang-

izning kushandası, avvalo, siz emas. Sizdek muslima ayollar ko'paysa, hayot o'z-o'zidan yaxshilanishi kerak edi. Misol keltiraman, azizam! Oddiy qilib aytganda, siz ODAMsiz. Agar yolg'iz odam itlar to'dasiga duch kelsa, o'rtada urush qattiq bo'ladi, chunki odam o'zini jon-jahdi bilan himoya qiladi, baqiradi, tosh otadi, kaltak o'qtaladi. Itlar «odam yomon ekan» deb o'ylashadi. Mabodo o'nlab odamlarga yolg'iz it duch kelsa, hech qanday urush bo'lmaydi. Odamlar baqirmaydi, tosh otmaydi, kaltak o'qtalishmaydi, ni-hoyatda xotirjam, nihoyatda go'zal bo'lib o'tib ketishadi. It «men yomon ekanman, ularga hurdim» deb o'ylaydi.

— ...

— Avvaldan do'stingiz edim, Nigora. Ba'zan qamoqxona nazoratchilarini, ayniqsa, meni yoqtirmasdingiz. Siz kim-siz? Men uchun bir mahbussiz, ya'ni ishimning ob'ekti. Sizni men qamamaganman, lekin xuddi o'zim hibsga ol-gandek qafasda avaylab-asrayman, hech qayoqqa qo'yib yuborgim kelmaydi. Hayotimning mazmuni shu. Siz ket-ganiningizdan so'ng men ham pensiyaga chiqaman. Pensiya — uzoqqa cho'zilmaydigan umr.

— Qismatingiz menikidan og'ir ekan.

— Itlar haqida bejiz aytmadim. Atrofingizda o'zingizdek fikrlaydiganlar ko'payganida, urush ham bo'lmasdi, qurban ham. Qaynota-qaynonangiz-chi? Kelinga o'rgatish o'rniga o'zлari adashganlardan edi. Eringizni-ku aytish ham shart emas. Xotinini sevmagan erlar o'z oilasining boshini eydi. Hech o'ylab ko'rganmisiz, mullaga turmushga chiqqanin-gizda shu ko'yga tusharmidingiz?

— Boshqa birovni er o'rnida tasavvur qilish — gunoh.

— To'g'ri gap. Sizga havas qilaman. Men esa biologik to'qimalardan iboratman. Agar shayton yo'ldan ursa, har balo bo'laman. Gohida o'ylab qolaman: nega bunday yaratiganman? Gunohlarim yashirin kamerada suratga olinib, umrimning oxirida barini bitta film qilib namoyish etishsa,

mendek mavjudot Yerda yashaganidan hayratga tushishadi. Men hamisha kameradan qo‘rqaman.

Bu gapdan so‘ng nazoratchiga rahmim keldi.

— Gunohlar chap yelkadagi farishta tomonidan yozib borilishini eshitmaganmisiz? — dedim unga. — Yashirin videokameradan ming baravar kuchli, biz tasavvur qilolmaydigan ilohiy yozuv turi.

— Sizning qalbingiz pok, — menga havas qildi nazoratchi. Shu bilan birga xatoyimni ham aytib o‘tdi: — Ammo faqat poklik bilan saodatga erishib bo‘lmaydi. Buni unutmang, Nigora.

— Qo‘limga qurol olgan kunim uyim kuydi. Faqat poklikning o‘zi yaxshi emasmidi?

— Saodatning kaliti poklik va ezgu amal demoqchiman. Qurol ko‘tarishni aytmadim...

Ko‘nglim ibodatni tusadi. Ko‘zimni ochdim. Kanali-zatsiya quvuridan oqayotgan suv to‘xtagan, ammo qo‘lansa tomchilar chakillab turardi. Tepadagi qalin cho‘yan panjara orasidan tushayotgan xira shu’lani kimdir to‘sdi, so‘ng fonar tutdi.

— Shu yerda, — dedi tepadagi kimsa.

Nazoratchi ularning ko‘ziga ko‘rinmayotgan edi. Buni Ergash bilan uchrashganimdayoq bilgandim.

— Nigora, iltimos, — deyishdi menga, — devor orasidagi quvurga qaytib kiring, tortib olamiz. Pastdagagi panjaraga yaqinlashmang, unisi yomon, judayam yomon.

Bir og‘iz ham javob qaytarmadim.

— Kimsiz? — deb so‘radim nazoratchi xotindan.

— Jismingizman, — dedi u.

— Unda men kimman?

— Ruhimsiz.

— O‘lganmanmi?

— O‘limda ruh va tana bir makonda bo‘lmaydi. Siz tirik-siz. Azoblar tanangiz va ruhingizni ajratdi. Biz bir-birimiz bilan gaplasha boshladik. Boyjanjalda gilar sizni telba de-

gani esingizdami? Ko'p o'tmay siz chindan ham savdoyi bo'lib qoldingiz.

— Yo'q, soppa-sog'man.

— Sog'lar o'z vujudi bilan gaplashmaydi. Umuman, siz bilan tortishmoqchi emasman. So'nggi so'zim — meni tark eting. Unutmang, ruh yolg'iz qolmaydi, ruhga yolg'izlik yarashmaydi. Meni aytsa bo'ladi yolg'iz qoladi deb. Meni tark etish uchun pastdag'i quvurga kirsangiz kifoya. Axir, hamma narsadan charchagansiz, boringizni yo'qtgansiz.

Tepada odam ko'paydi. Men kelgan kanalizatsiya quvuridan qamoqxonaning ozg'inroq xodimini tushirishni maslahatlashishdi. U quvur orqali men o'tirgan «uya»ga yetib kelib, yonimga tusharmish, keyin meni ko'tarib quvurga joylashtirarmish.

— Buningni u o'ldirib qo'yadi, — dedi do'rilloq ovoz. — Quqturib ketsa, qanaqa kuchga ega bo'lishini bilasizlar.

Boshqasi taklif aytdi:

— Baribir quvur orqali borish kerak. Uxlatadigan ukol qilish uchun qulay imkon tug'ilishi aniq.

— Aynan uxlatadiganmi? Qachongacha?

Uyg'ongunchami? — kesatdi biri.

— Uyg'ongach, bu uning oxirgi marta uyg'ongani bo'ladi.

— Bekorni aytibsan! Uning oxirgi uyg'ongani sening so'nggi uyg'oqliging bo'lishi mumkin.

Xodimlardan biri dedi:

— Ichganda edi, qotib qolgach, ushlardik.

Darhol jerkib berishdi:

— Hazilingni qo'y! Senga u sovet xalqimidiki, aroq bilan dinidan chiqarsang! Aynan sen aytgan usullarga qarshi kurashayotgan mahbus haqida zig'ircha tushunchang yo'q ekan!

— Imomni chaqirib, azon ayttrsak-chi? Azonni eshitib, namoz o'qiydi. Ibodati g'aflat o'rnini bosadi.

— U iflos quduqda namoz o'qiydi, demoqchimisan?

— Bu ayol namozni kanda qilmaydi. U namoz o'qiyotganda, tappa bosib, ukol qilamiz.

— Yaxshi fikr, lekin badbo'y joyda ibodat qilarmikan? Shu savolimga javob bermayapsizlar!

— Hozir o'zidan so'raymiz.

Shundan so'ng biri xuddi sajda qilayotgandek peshonasini panjaraga tekkizib, menga dedi:

— Nigora, biz sizga hijobda yurishga ruxsat berdik. Bu qamoqxona tarixida bo'limgan. Endi esa qaytib chiqmoqchi emassiz. Biroq namoz o'qishdan voz kechmaysiz-ku, to'g'rimi? Sizga quduq ichida ham, yop-yorug', shinam xonada ham sharoit qilib beramiz. Azon aytishga hatto imom ham keladi.

— Menga rasmiyatichilikning keragi yo'q, — dedim zarda bilan. — Har bir xatongiz sizlarni o'limga olib keladi. Qanday yashagan bo'lsam, o'zimni shunday qabul qilaman.

— Menga ochiq javob bering! Namoz o'qishni rad etyapsizmi yo...

Hech nima deb javob bermadim. Ular jimgina kutishdi.

— Qibla qayoqda? — so'radim men.

Ular allanimalarni shivirlashdi. Qulog'imni ding qilib, barini eshitdim.

— Qibla g'arb tomondami? — so'radi biri ikkinchisidan.

— Ha. Qiblani bilmaysanmi? — dedi sherigi.

— Ota-onam ateist edi, xudoga ishonmasdi. Quyosh botish tomon qibla ekanini ko'cha-ko'yda eshitganman.

— Baribir qiblani bilishing kerak-ku.

— O'zingiz-chi?

— Buni kim bilmaydi! Qibla kun botish tomonda.

— Ko'rsating-chi?

— Tashqariga chiqsak, quyosh botishiga qarab aytaman.

Bino ichida qiblani bilolmayman.

Gapga boshqasi aralashdi:

— Ko'p ming'ir-sing'ir qilmanglar. Quvurga teskari to-

monni qibla deb ishontirish kerak, shunda mahbus adasha-di va qo'lga olishimiz oson bo'ladi.

Kimsa yana panjaraga peshonasini tekkizib, pastga – choh tubidagi kaminaga gap qotdi:

– Qibla hozir turgan joyingizdan chapda.

Ko'zimni yumdim. Bo'ronda adashgan yo'lovchilar qiblasini yo'qotsa, yuragi qayoqqa talpinsa, o'sha tomonga ibodat qilmog'i joiz edi, menda ham shunday bo'ldi. Haqiqatan, qibla quvurga teskari tomonda edi. Qalbimning ko'zlarini kattaroq ochdim. Gavjum shahar o'rtasidagi go'zal anhor bo'yida qad rostlagan oppoq masjid ko'z oldimda jonlandi. Asfalt yo'ldan yurib, «zebra»dan o'tib, masjidga shoshildim. Daraxtlarda qushlar sayrar, yo'lakning ikki tomoni turfa rang gullarga burkangan edi. Namozxonalar masjidga shoshilishardi. Militsiya xodimlari ularni ibodatdan qaytarish uchun emas, tartibni saqlash, masjidga kelganlarni terrorchilardan himoya qilish uchun xizmat qilishmoqda edi. Umrimda bunday go'zal manzarani ko'rmagandim. Derazadan tashqaridagi dunyo allaqachonlar o'zgarib, hayot go'zallashgan edi. Agar shu mening mamlakatim bo'lsa, qanday baxtliman. Jannatning bir parchasiga o'xshatdim uni, haqiqiy hur islom diyoriga o'xshatdim uni. E'tiqodlar erkinligi hukm surar, kishi istagan libosini kiyar, to'y das-turxoni sharobsiz ham chiroyli edi.

Biroq tirikligimga shubha qildim. Foniy dunyoda bunday imkoniyatlар berilishiga ishonmay qo'ygandim. To'yim bo'lgandan beri ta'qibda yashagandim.

...Ibodatim chog'ida dushman quvurga tushdi. Bir qo'lida shprits, ikkinchisida o'rgimchaklar to'qib bergen chilvir. Yaqinlashaverdi, yaqinlashaverdi...

O'ng yonimga salom berdim.

– Assalomu alaykum va rahmatullohi barakotuh.

Chap yonimga salom berdim:

– Assalomu alaykum va rahmatullohi barakotuh...

Dushman bir qadam qoldi. Shu payt tanish ovoz yangradi:

— To‘xtanglar! Unday qilmanglar!

Men go‘zal shahardan nimqorong‘i, badbo‘y quduq tुbiga qaytib qoldim. Ovoz otamniki edi. Otam Xudodan pastda, mendan tepada edi.

— Nigora... qizim... — Padarimning hayajonli ovozi yuragimni larzaga soldi. — Jajji qizaloqligindan beri gapimni ikki qilmagansan... So‘nggi nasihatimni ol... O‘tinib so‘rayman sendan... Ahmoqliq qilma...

Boshimni ko‘targanimda, peshonamga otamning bir tomchi qaynoq ko‘zyoshi tushdi.

— Assalomu alaykum, otajon, — dedim men. — Nasihattingiz nimaligini aytaymi? Sabr qil, deysiz. Sabrim cheksiz, chunki haq makonimiz jannat ekanidan necha bor dars o‘tgansiz. Qachonlardir yo‘qotganlarimizni jannatdan topamiz, shunday ekan, sabrsizlik ortidan keladigan baxtsizlikka yo‘l qo‘yolmayman. Ziyoda, Nurxon, Nurmuhammad... ularning ruhlari tirik... ular meni kutmoqda... Men umrbod sabr qilaman, bundan tashvishlanmang.

— Valaykum assalom, jon qizim. Inshaaaloh, ularni ko‘rasan. Nasihat, borasida bu gal bir oz adashding. Nasihatim sabr emas. Senga sabrdan ham kuchli bir so‘zni ayt-maganman. Bu so‘zni eshitib, amal qilsang, albatta baxtli bo‘lasan.

— «Albatta» deb nega bunchalik ishonch bilan gapiryapsiz?

— Yuragimga qulq solyapman, qizim.

— Hayotni sevish kerak demoqchimisiz? Men hamisha hayotni sevganman, ota... O‘zim bilgan hayotni...

— Shoshmasang-chi!

— Odamlardan ham aslida nafratlanmaganman... Odamlarni ham sevaman... — deya ho‘ngrab yig‘lab yubordim. — Allohning yaratgan bandalaridan nafratlanolmayman, ota-jon... Jahl ustida qonim qaynab nimalar qilib qo‘yganimni

bilmadim... Ularni vahshiy maxluq deb o'yladim... Hech kim meni tushunmasa ham, siz... siz tushuning, otajon...

— Nasihatimni eshitishni istamayapsan! Quloq solsangchi, jon qizim!

— Ayting, otajon, ayting...

— Toki xotirjamlikka erisholmas ekansan, ikki dunyo saodatiga ham erisholmaysan. Neki o'y kelsa, so'z kelsa, amal kelsa, ichki sokinlik bilan qabul qil. Sen bir umr xavotirda, hadikda yashab kelding. Ichingda g'azab degan yangi kuch shakllandı. Xotirjamlik degani — beparvolik, loqaydlik, hafsalasizlik emas. Chuqur nafas olib, ko'zlarining yum va dunyoni angla. Sen to'g'ri yo'ldan ketayotgan ekansan, nega bezovtasan? Nima uchun jazavaga tushyapsan? Og'ir bo'l va har bir ishni xotirjamlik bilan qabul qil. Vahimaga tushish, baqirish, urish, tirkash, jaza-va, bu — musulmon farzandiga yarashmaydi, bolam!

Otam aytganidek, ko'zlarimni yumdim, o'pkamni to'ldirib nafas olib, asab torlarimni bo'shashtirdim. Men haq yo'lda edim, haq yo'ldan ketishim kerak. Jazavaga tushib nimaiki gunohlarga qo'l urgan bo'lsam, Alloh kechirsin. Yo'q narsadan bor qilgan qodir Xudo aslida menden hech nimani tortib olmagan, bari o'tkinchi armonlar, o'tkinchi umr vasvasasi.

— Qizim...

— Labbay, otajon, — deb javob berdim.

— Senga xushxabarim bor.

— Ayting, otajon.

— Esingdami, bir kuni senga Nurmuhammad haqida bir qissa so'zlab bergandim. Shu qissa oxirida bola o'z onasining bag'riga qaytadi.

— Yo'q, eslolmadim, — dedim men huvillagan xayolot sahrosiga nazar solib.

Tepadan yana otamning ovozi eshitildi:

— Kunlarning birida onasi Nurmuhammad degan bolani quduqdan suv olib kelishga yuboradi. Quduq xuddi sen

hozir tushgan mana shu kanalizatsiya shaxtasiga o‘xshardi. Bola suv tortaman deb nogohon quduqqa yiqladi. Qaytib kelavermagach, onasi axtarib uyidan chiqadi. Quduq bosida bolasining bir juft kalishi yotardi, o‘zi hech qayerda ko‘rinmasdi. Onasi nima voqeа sodir bo‘lganini darrov anglaydi. Quduqning qorong‘i tubiga qaraydi, o‘g‘lini chiqiradi, lekin hayot davom etar, bolasidan darak yo‘q edi. Ona boshqalardek faryod urish o‘rniga sabr qiladi. Faryod hech kimga bir umr hamrohlik qilmagan, sabr, aksincha, ishonchli hamrohdir. Ming bir faryod urganlar ham oxiroqibat sabrdan o‘zga chora yo‘qligini tushunishadi. Buni kimidir o‘lgan yoki boshiga qandaydir boshqa og‘ir sinovlar tushgan odamlar misolida ko‘rishing mumkin. Sabr ko‘pincha kimdir vafot etganda, og‘ir kasallikda, qamoqxonada sinaladi, umuman, boshqa holatlar, vaziyatlar-chi? Sabr hech qachon, hech qayerda sinmasligi kerak. Sabrni odamning harakatiga, intilishlariga kishan qilib taqmaslik ham shart. Shunday ekan, jazavaga tushib, faryod urgan dan ko‘ra biryo‘la sabrga yetishgan afzal emasmi? Bu hikmatni Nurmuhammad qissasidagi ayolga o‘z otasi aytgandi. Ona bolasini topish, qutqarish uchun ko‘p harakatlar qildi, ammo sabrni bir lahma ham unutmadi. Bo‘lar ish bo‘lgach, tiz cho‘kib, ko‘zlarini yumdi va sabrning oliv darajasiga – xotirjamlikka erishdi. Otaning o‘giti dunyo g‘amlaridan ustun keldi... Qizim, eshiyapsanmi meni?

— ...

- Qizim... — umidvor so‘zladi otam.
- Bolaga nima bo‘lgan? — so‘radim men. — U... o‘lganmi?

— Bola quduqqa yiqlgan, lekin o‘lmagan, — dedi otam. — O‘lim aslida yo‘q narsa. Bu dunyodagi odamlarning o‘limi u dunyoga ko‘chish hodisasi, xolos. Yaxshilar kun kelib jannatda uchrashadilar va abadiy makonlarida mangulikka doxil bo‘lishadi. O‘tkinchi, mayda, kir-chir, arzimas dunyoni eslab, o‘zлari ham qanchalik sodda ya-

shashganidan, hatto jannatga jonu jahoni bilan intilmay, umrning chang-g'uborlariga o'ralashib qolishganidan uyalishadi. Jannat asl vatanimiz deganim esingdami? Biz bir kun kelib tanalarimizni majoziy vatanimizga tashlab, ruh holatida chin vatanimizga ketishimiz lozim. Sening chekingga fonyi dunyo bilan bog'liq sal boshqacharoq qismat tushgan. Meni diqqat bilan tingla! Avval qissamning qisqacha mazmunini so'zlab beray. Nurmuhammad degan bola quduq tubidagi kattakon qizil gul ustiga yiqligan bo'lib, u tirik qolgandi. Gul bolani bag'riga olib, barglarini yopib, g'uncha shakliga kirgandi. Vaqt(soati yetgach, gul o'sadi va quduqdan bo'y ko'rsatadi. Oftob charaqlagan, qushlar sayragan, xalq sevingan ajoyib kunlarning birida gulning g'unchasi ochilib, Nurmuhammad sog'-salomat chiqib keladi. «Ona, men bu yoqdaman» deydi u... Sen bolaga nima deb javob berasan, qizim?

— Men... — deya yoqamni g'ijimladim. — ...men nima deyman?

- O'ylab ko'r.
- Men begonaman unga.
- O'ylab ko'r, — takrorladi otam.
- Nimani o'layman?
- Sen onasi o'rnida bo'lsang, nima qilarding?

Tilim aylanmay, havo yetishmay qoldi. Go'yo men it edimu, uxlab yotganimda otam dumimni bosgandi.

- Allohga shukr derdim.
- Keyin-chi?
- Ko'zlarimdan yoshlari quyilardi, ota.
- Xo'sh, undan keyin-chi?
- Bag'rimga bosardim, — deb javob berdim yuragim gup-gup urib.
- U senga nima derdi?
- Ona, men keldim, derdi.
- Shunday deyishiga ishonasanmi?

O'ylanib qoldim. Qissadagi Nurmuhammad nima degan bo'lardi?

- Javobingni kutyapman, qizim, — dedi otam.
 - Biłmayman...
 - Nima uchun?
 - Boshim og'riyapti... Uni eslolmayapman, ota...
 - Kimni?
 - Bolani.
 - Nurmuhammad qissasini qachon so'zlab bergenman, esla.
 - Eslayolmayapman.
 - Ko'ryapmanki, o'sha onaning o'rnila sen bo'lganingda, rosa sevinarding, Allohga shukrona aytib, bolani mahkam quchib, yuz-ko'zlaridan o'parding, sabring uchun mukofot qanchalik ulug' bo'lganidan boshing ko'kka yetib, Yaratganga hamd-u sanolar aytarding, to'g'rimi?
 - Ha, otajon.
 - Sabr qilish o'rniliga onaizor o'zini quduqqa tashlaganida, oqibat ne kechishini hech o'ylab ko'rganmisan? — so'radi otam yuzini panjaraga bosib.
 - Yo'q, — bosh chayqadim men.
 - Agar ona chidayolmay o'zini quduqqa tashlaganida, halok bo'lib, gul ham majaqlanib, unib chiqmasdi. Buni unutma, Nigora!
 - Unutmeyman.
 - Ammo sen... ammo sen hozir quduqdasan, qizim. Men sening otangman. Ota quduq labida bolasini axtarib bo'zlab turibdi. Qissadagi ona o'zini quduqqa tashlaganida, bolasi ham, o'zi ham halok bo'lib, ularni bir odam — menga o'xshagan otasi axtarib kelardi. Taqdir charxpalagi qanday aylanishini qara! Men quduq labidaman! Sen esa uning tubida bo'lsang-da, hammamizning baxtimizga tiriksan, qizim.
- Sergak tortib, oyoq uchida turgancha qo'llarimni

cho'zdim, ammo panjaraga yetmadi. Otamning qo'llarini tutgim, o'pgim, yuzimga bosgim keldi. Og'ir damlarda saodat yo'lini ko'rsatganlargina eng qadrli insonlar ekanini yurak-yurakdan tuydim. Biroq quduqqa suvga ketgan Nurmuhammad degan bola haqidagi qissani otam qachon so'zlab bergenini haqiqatan eslayolmadim. Balki hech qachon hikoya qilmagandir, balki Nurmuhammad voqeasini qachondir gapirib bergenman deb otam adashayotgandir...

Men qo'rqedim.

Men bolamni emas, otamni yo'qotishdan qo'rqedim.

...Otam adashmaydi. Otam ulug' insonligicha qoladi. Hamma gap menda. Men osiy bandaman, kasalman, adashganman, telbalik botqog'iga botganman.

Ha, hamma gap menda edi! Oxirgi damlarda vaqt, borliq va odamlarni bir makonda ko'ra olmay, real hayot hamda xayolotni chalkashtirib yuborayotgandim, ha, shunday, shunday. Buni ertaroq tushunib yetmadim. Yo'q-yo'q, ertaroq deganim nimasi? Ertaroqmi, kechmi, men o'zi tushunib yetamanmikan? Ehtimol, hozir ham otamning ro'yosi bilan gaplashayotgandirman?

...Hayotim tushda kechar edi.

Ko'rganlarim ro'yo, tush, alahsirash...

Shu tobda kundaligimning ilk sahifalari ko'z oldimda jivirladi:

«Baland devorlar... Tikanli simlar... Minoralarda soqchilar... Allaqa yerdan menga o'xshagan xotinlarning faryodi eshitiladi, ammo men xotirjamman...»

Bu tushim emasmidi? Baland devorlar, tikanli simlarni, soqchi minoralarini rostdan ko'rganmanmi? Xotinlar faryodi mahbuslarniki emas, bemorlarniki edi shekilli...

— Otajon, bu sizmisiz? — vahima aralash qichqirib yubordim.

— Ha, menman, Nigora! Shu yerdaman, qo'rqma! — dedi otam tepamdag'i panjaraga yuzini kuchliroq bosib.

— Men... men qayerdaman?

— Kanalizatsiya shaxtasidasan, hozir chiqarib olaman, qizim! — otamning ovozida ham hayajon sezildi. — Endi o‘zingning ovozingda gapirding, Allohga shukr, aslingga qaytyapsan. Yana bir oz chida, bir oz kut, yana bir necha og‘iz men bilan gaplash...

Ustimga sovuq suv qo‘yilgandek seskanib, ko‘zlarimni katta-katta ochdim.

— Ota, men o‘zimga ishonmayapman, siz... siz rostdan shu yerdamisiz? Qanisiz?

— Shu yerdaman, qizim, — degan edi, otamning ham ovozi titradi. — Qaytyapsan, o‘zligingga qaytyapsan. Tiling otajon desa-da, qalbing meni tanimasdi. Endi taniding, ovozingdan bildim, qizim. Ovozing avvalgi Nigoraniki... o‘zimning Nigoramniki... Kechir, xotirjamlikdan dars berib, o‘zim xotirjam bo‘lolmayapman...

Padari buzrukvorim muqaddam menga Nurmuhammad haqida gapirib bermaganini angladim. Men Nurmuhammadni tanimasdim, u haqda mutlaqo eshitmagandim.

Haqiqatni anglab, vahm aralash to‘rt tomonimga alangladim. Devorlariga g‘isht urilgan quduqqa qanday kelib qolganim yodimda, ammo qanday chiqib ketishga aqlim yetmasdi. Oyog‘im tagida — zulmat qa‘riga cho‘zilgan quvur ko‘rindi. Bu quvurga kirsam, tamom. Qibлага teskari tomonagi odam bo‘yi balandlikdagi quvurdan esa hamon suv tomchilab turardi.

— Xato qildimmi, ota? — so‘radim boshimni ko‘tarib.

— Ha, xatoga yo‘l qo‘yding, qizim. Yagona yo‘ling — ichki bezovtalikingni quvib solib, xotirjam bo‘lish. Hozir ham kech emas. Shunday xotirjam bo‘lki, sabrning eng go‘zal holatiga erish va saodatga yetish. Saodat — meni farzand dog‘ida qon yig‘latib, qaytmas yo‘llarga qochib ketishing emas, istiqbolimga chiqish, uchrashish, oila bag‘riga qaytishingdir. Shunday qilamizmi, qizim? Senga yordam beraman! Qo‘rqma! Meni so‘zda emas, yurakda tanigan-

liging birinchi katta g'abalang! Bu g'oliblikni qo'ldan boy berma, jon qizim! Es-hushing endi umrbod o'zingda bo'ladi!

- Ayting, nima qilay?
- Hozir gapiradigan gaplarimni bor aql-u shuuring bilan qabul qil!
- Xo'p, otajon.

— Nigora, sen agar quduq tubidagi anavi quvurga kirsang, zulmat tubiga sirg'alib ketasan va halok bo'lasan. U do'zax bilan yakunlanadigan yo'l. Bular panjara va betonni buzib, seni tortib olgunlaricha, dunyoning iflos chiqindi suvlari ichida hayotdan ko'z yumishingni istamayman. Qayoqqadir qochib ketish uchun kanalizatsiya quvuriga kirgansan. Shuni unutmaki, qizim, odamlardan qochib, hech qanday muammo hal qilinmaydi, qilinmagan ham. Qadim zamonalarda tarkidunyo qilib, g'orga kirgan ulug'lar haqida eshitgansan. Ammo sen tarkidunyo qilishing uchun ortda qolgan muammoni yechishing kerakligini tushungin.

- Tushunyapman, ota...
- Aslida bugun senga so'nggi sirlarni ochish uchun kelib, bu voqeanning ustidan chiqdim. Menga hammasini aytishdi. Seni vaqt davolaydi, deb o'ylagandim. Biroq vaqtga yordamlashmasam bari bekor ekan. Quruq vaqtning o'zi qalampirdan ham achchiq. Yana bir gapimni eshitishga tayyormisan, qizim?

- Tayyorman, otajon.
- Tanlagan yo'ling to'g'ri ekaniga va Alloh seni hech qachon xor qilib qo'ymasligiga ishonsang, xotirjamlik dilingga mustahkamroq o'rashadi va sen sog'ayasan.

- Qaysi yo'lim?
- Hozirgi emas, o'zimizning uyimizdagi yo'ling. Qulog sol, manavi qo'limdagi kalishchalarini bugun onang sandiqdan olib berdi, — deb otam panjara ustiga jajji oyoq kiyimlarini qo'ydi. — Bularni bir vaqtlar sen kiygansan. Mitti

kalishchalaringni uyimizdagи sandiqda qoldirib, quduqqa tushib ketganing bag‘rimni vayron qildi. O‘ylaymanki, mening — o‘z otangning ovozini eshitib, o‘zini ko‘rib, yorug‘likka — saodat maydoniga chiqasan, hali men bilan ozoda makonlarda, ozoda liboslarda namozlar o‘qiysan, ro‘zalar tutasan, hajlarga borasan. Bu kalishchalarni endi tug‘ilajak o‘g‘lingga berasan...

— Xudo xohlasa, otajon... Lekin... lekin men... — dedim-u qo‘rqa boshladim. Nazarimda, dahshatli xavf yoqasida turardim, otam ham qutqarishi dargumon edi.

— Sen ketgan quvurlarga men sig‘mayman, — dedi otam vazmin tortib, — xodimlar ham sengacha yetib borishi mushkul. Ammo ko‘rinmas arqonlarim bilan bu chohdan xalos etaman. Buning uchun rost so‘zlapping kerak. Rost so‘zlaysanmi?

— Ha, ota...

— Qo‘rqyapsanmi?

— Ha... Judayam...

— Bu — yaxshi. Senga aql va imon qaytib kelyapti. Vaqt-ni boy bermaylik! Menga ayt, Nurmuhammad haqidagi qissani senga qachon so‘zlab bergenman.

— Hech qachon... so‘zlab bermagansiz....

— Rost gapirding. Senga Nurmuhammad haqida biror marta ham hikoya qilmaganman.

Otam ko‘zyoshlarini artib, yuragimni muzlatib yuboradigan gapni aytdi:

— Sen ham Nurmuhammad haqida gapirmagansan, qizim. Bu haqiqatni ham tan ol. Shunda hammasi yaxshi bo‘ladi.

— Men gapirmaganmanmi?

— Qissadagi Nurmuhhammadni ham gapirmagansan, boshqa Nurmuhhammadni ham.

— Boshqa Nurmuhammad?

— O‘ylab ko‘r-chi, men yana qaysi Nurmuhhammadni nazarda tutdim?

— Nurmuhammad... Nurmuhammad... — Quduq devoriga gurs etib urildim. Boshimni changalladim. Miyam oddiy bir masalani yecholmay, junbushga keldi. — Ota, kim u?..

— Qizim, quduqdan sog'-salomat chiqib, oppoq, pok liboslarda, o'zingning go'zal hijobingda men bilan birga uyga ket, birga ibodat qilamiz, saharlikka turamiz, birga Makka-yu Madinalarga boramiz, avvalo, qarindosh-urug'larni ziyyarat qilamiz. Mening qizim ilohiy sokinlikka, ilohiy xotirjamlikka erishadi. Dunyoning g'amlari, dunyoning xastaliklari o'tkinchi-ku, axir! Shunday emasmi?

— Shunday, ota; shunday... Lekin Nurmuhammad... Nurmuhammad...

Boshimni changallab, ko'zlarimni chirt yumdim. Kim edi u? Kim?

— Oyog'ing tagidagi panjaradan uzoqlash, ortingga o'giril. Ro'parangda, sal balandroqda yana bir quvurni ko'rasan. Unga kirsang, men kutib olaman. Seni shunchalar sog'inganmanki...

— Nurmuhammad kim? — chinqirib yuborayozdim men.

— Hech kim, ha, aslida u hech kim.

— Ota! Gapingizga tushunmayapman!

— Nurmuhammad degan o'g'lim bor, degansan, lekin uni men ko'rmaganman, Bo'ri ham ko'rmagan, boshqalar ham.

Shu payt soy bo'yiga chopib ketayotgan bola ko'z oldidan lip etib o'tdi.

U Nurmuhammad edi!

U mening aroqqa ketib, qaytib kelmagan bolam edi...

Ko'zlarimdan duvillab alam yoshlari to'kildi. Yig'layotganimni otam darrov bildi.

— Agar Nurmuhammad qissasidagi onaning emas, o'g'ilning o'rnida bo'lganiningda nima qilarding, bolam? — dedi otam. — O'z ota-onangning bag'riga qaytib, ularni

suyuntirishni o‘ylamasmiding? O‘ylarding, senga ishona-man. Bugun shu ishni amalgalash, bizni xursand qila-san. Uyda onang yo‘llaringga qanchalik intizor o‘tirganini tasavvur ham qilolmaysan.

Otamning ko‘zlaridan yosh tomchiladi. Yuragim xavotirdan potirlab urib, achchiq yutindim. Men olis ufqlar ortidan xushxabar jarchisi kelayotganini his etdim, ammo ma’nosi mavhum edi. Otam ilgarilar ko‘zyosh to‘kmagandi, boyagina o‘zi aytganidek, xotirjam edi, donishmand edi.

— Ota... otajonim... Yig‘lamang... — dedim men goh otamni, goh Nurmuhammadni o‘ylarkanman.

— Bugun seni quduq tubida ko‘rib, o‘zimni o‘sha rivo-yatdagи ona deb bilyapman... Ota bo‘lib, erkak kishi bo‘lib, yuragim qanday chil-parchin bo‘lganini ko‘rmayapsan. Onang kelganida bardosh berolmasdi. Shusiz ham sening necha oydirki, bu yoqda ekaningdan sham kabi so‘ndi. Yana bir marta seni bunday holda ko‘rsa, yuragi chidamaydi...

— Nurmuhammadni onam ko‘rganmi?

— Yo‘q, ko‘rmagan. Sening Nurmuhammad degan o‘g‘ling bo‘lganini nafaqat onang, dunyodagi hech bir tirik jon ko‘rmagan. Onang seni o‘yladi, sog‘ligingdan qattiq xavotirda edi. Holingdan xabar olishga keldik. O‘shanda aql-hushing o‘zingda emasdi. Qo‘llaringga, oyoqlaringga kishan urilgan bir ahvolda eding. Onang bu yerkarda qaytib kelmadi, boshqalarga ham sen bilan uchrashish taqiqlandi.

— Sudim qachon o‘tdi?

— Suding bo‘lmaygan. Bo‘lmaydi ham. Sen bilan uchrashishni vrachlar taqiqlashdi, xolos. Yaqinlaringni ko‘rsang ruhiyattingda kuchli to‘fon turgani uchun shunday qilindi.

— Nurmuhammadni hech kim ko‘rmagan demang, il-timos! Bunday bo‘lishi mumkin emas! Mumkin emas! U Makkaga imom bo‘ladigan islom chirog‘i edi, axir!

— Sen bo‘rilar yeb ketdi degan o‘g‘ling Nurmuhhammadni rostdan men ham ko‘rmaganman, eshitmagan, bil-maganman.

- Q... qanaqasiga, ota? Bu — yolg'on!
 - Nurmuhammad sening xayolot mahsuling, Nigora qizim. Mana shu haqiqatni hazm qilolsang, u yog'i bir qadam qoladi.
 - Xayolot? Bu... bu nima deganingiz?
 - Sen o'g'illi bo'lmagansan, oxirgi paytlarda ko'zingga ko'ringan bola og'ir ruhiy zo'riqishing oqibatida miyangda yuz bergen o'zgarishlar oqibati. Unga sen Nurmuhammad deb ism qo'ygansan.
 - Qizlarim... qizlarim qayerda?
- Otam yana ko'zyoshlarini artib, cho'yan panjaraga yuzini bosdi va shunday dedi:
- Ular haqida bilishni istasang bu yoqqa chiq, demayman. Shusiz ham baribir ortingga qaytib, yorug'likka yetasan, biz bilan ko'rishasan. Bunga ishonaman, qizim...
 - Panjaraga tikildim. Bo'g'zimdan ilhaq savol uchdi:
 - Qizlarim qayerda, ota?
- Padari buzrukvorim ko'p kuttirmay javob berdi:
- Ular Allohning panohida, jonim bolam. Ko'p qayg'urma. Bari yaxshi bo'ladi.
 - Qizlarim... shu dunyoda... men yashayotgan mana shu dunyodami?..
- Badanim titrardi, ovozim titrardi, yuragim titrardi.
- Ha, — dedi otam, — nevaralarim sog'-salomat...
 - «Bolalaring hayot!» — dedi koinot.
 - «Bolalarim tirik...» — dedim men.
 - Sen esa jigarbandlaringni tashlab, diydorlarini boshqa yoqlardan qidirib ketayotgan eding, — davom etdi otam.
 - O'sha yoqlarda ular yo'q edi.
- Qizlarimni yo'qotmaganimni, ammo nimadandir qattiq xavotirda yashaganimni tuydim. Haqiqatan, oxirgi paytlarda boshimga og'ir musibatlar tushgandi. Bu farzandni yo'qotish, oilani yo'qotish, vatanni yo'qotish bilan baravar azob ekaniga shak-shubha qilmasdim.

U nima edi?

...e’tiqodni, imonni, islomni yo’qotish azobi edi.

...erim qachonki bolalarimni aroqqa yuborganida, odamiylikni yo’qotish azobi edi.

...undan ham avval meni... o’z xotinini... yarim yalang’och libosda omma oldiga chiqishga majburlash azobi edi.

...hamisha meni terrorchi, vahhobiy, telba deb o’ylash, boshqalar ham shunday tushunish azobi edi.

...dunyoda erkinlik hukm surayotganida, kiyinish erkinligidan mahrum etish azobi edi.

— Menga... ko’p narsalar teskari ekanini sezganman, ota, — dedim achchiq yutinib. — Ammo baxt uzoqlarda qolib ketayotganini to’g’ri anglaganman... Bejiz qo’rqmaganman... Qo’rquv meni baxtsiz kelajakdan ogohlantirgan... Hayotim o’shanday ketsa, adashgan bandalar oxiri voy zamonga el-tardi bizni... Ishonmaysizmi?

— Senga-ku ishonaman, qizim, — dedi otam mehribonlik-la. — Ammo baxt hamisha yoningda ekanligini ham unutma. Sen uni yo’qotmagansan. Menga ishon.

— Ishonaman...

Holbuki, qalbimda ishonchisizlik hukm surardi. Hatto, otamning shu yerdaligiga ham to’liq ishonolmay garang edim. Balki hammasi til biriktirib, meni quduqdan aldab chiqarmoqchidir, deb o’yladim. Axir, qatl etish uchun oxirgi kunimgacha sog'-salomat avaylab-asrashlari kerak emassi? Ha, albatta. Xaloskorlikdan maqsad — yo uzoq yillar qamoqda saqlash, yo qatl etish. Shunday bo’lishi mumkin-ku. Otamga «telba qizingiz kanalizatsiya quvu-ri ichidan o’rmalab, xavfli nuqtada, o’lim labida turibdi, aldab chiqarsangiz chiqardingiz, yo’qsa, undan ajralasiz» deyishgandir, ehtimol...

— G’arb tomonga ketayotgan edim, ota.

— Qiblagami?

— Yo’q, qachonlardir qon to’kilgan joylarga. Men u yerda oilamdan ajralganman, ha, oilamdan, borimdan...

— U yerning yo‘q ekanligini eshitding, qizim. O‘zing o‘yla, sen aytgan soy bo‘yidagi voqeа, bo‘rilar, qorong‘i o‘rmon... bular yo‘q ekan, demak, sen ham, oilang ham sog‘-salomat.

— Men... — dedim-u ko‘p narsaga aqlim yetmasligidan gangib, tilimni tishladim.

Modomiki, yana bir qadam tashlab, panjarani ko‘tarib, pastki quvurga kirish o‘zini qasddan halok etish va oqibati do‘zax ekan, haqiqatan ham g‘arb tomondagi men intilgan makon yo‘q edi. Makonning yo‘qligi voqeanning ham yo‘qligiga dalolat emasmi? Qolaversa, men o‘tmish deb o‘ylagan vogelik aslida kelajak bo‘lib chiqmoqda. Yorug‘ o‘tmishga qaytib, kelajagim bilan diydor ko‘rishganim a‘loroq-ku...

Xayolimda gavdalangan chiroyli ozoda shahar, uni kesib o‘tgan anhor bo‘yidagi oq minorali Tojmahalga o‘xhash oq masjid, go‘zal bog‘i, saodatga eltuvchi yo‘laklari — bular ham yo‘q edi. Yo‘q bo‘lsa-da, menga huzur-halovat baxsh etgandi.

— Dahriylar faqat o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan, ushlagan narsasigagina ishonishadi, — dedi otam. — Shundoqqina tepangda turibman, qizim. Ovozimni eshityapsan, o‘zimni ko‘ryapsan, lekin nafaqat gaplarimga, nazarimda, hatto shu yerdaligimga ham ishonmayapsan, to‘g‘rimi?

— To‘g‘ri, — deya tan oldim.

— Ilohiylikka ham ishon, moddiylikka ham. Ikkisini bir-biridan ajratib bo‘lmaydi. Senga Alloh biror ne’mat berar ekan, uni hammaning guvohligida ko‘kdan tushirmaydi, balki kishilar moddiylik va reallik deb atagan borliq orqali beradi. Ko‘kdan nimadir tushirish uchun sen juda-juda oddiylik qilasan. Na payg‘ambar, na avliyosan. Hozir o‘zingni chimchila. Og‘riydi. «Ey Xudo, chimchilasam, og‘rimasin» deb munojot qilib, keyin chimchilasang, baribir og‘riqni sezasan. Nega? Dahriylar aytganidek, Xudo yo‘qmi? U nima uchun sening o‘tinchingni inobatga ol-

may, og‘riqni to‘xtatib qo‘ymadi? Jismoniy og‘riq nima o‘zi? Biologlar, anatomlar, shifokorlar, ekstrasenslar tu-shuntirib bergen og‘riq hodisasi ishonchli xulosami? Bosh miya, asab tolalari, to‘qimalar... Ha, dahriy olimlarning ilmiy izlanishlaridan chiqqan xulosalar to‘qson to‘qqiz foiz to‘g‘ri. Chindan ham odam organizmi olimlar aytgan tuzilishlardan iborat va biz olimlar aniqlagan sezgilar orqali og‘riqni sezamiz. Hatto, ming yillar davomida odamning tashqi ko‘rinishi ancha-muncha o‘zgargani ham rost. Jonzotlar evolyutsiyasini yo‘q deb bo‘lmaydi. Eng qizig‘i, so‘nggi bir foizda. Shu bir foiz hammasini Alloh yaratganini bildiruvchi kichik nuqtada yashiringan katta sir. Olimlardan birortasi bosh miyani, asab tolalarini, og‘riqni, boshqa barcha sezgilarni yaratmagan. Ular yaratilgan narsaning qanday tuzilgani va qanday ishlashini aniqlashgan, xolos. Bu Yaratgan Egamga qarshi qo‘yiladigan ilmiy xulosa bo‘la olishi mumkinmi? Dahriy olimlar Xudo yo‘q deb ilmiy isbotlashga uringanlarida, ular Alloh yaratgan borliq ichida fikrlayotganlarini, Alloh yaratgan moddiylik ichida ekanliklarini tan olishni istashmaydi, bor gap shu. Koinot o‘z-o‘zidan paydo bo‘lgan, milliard-milliard yil avval gaz portlashlaridan koinot vujudga kelgan, gaz esa o‘z-o‘zidan yo‘qdan bor bo‘lgan, deb kulgiga qoladilar. Ularning ilmiy «isbotlashlari» o‘zlariga moslashtirilgan moddiylik ichida bo‘lgani uchun ularning yo‘lidan borib Xudoning borligini isbotlashning iloji yo‘q, qizim. Shuning uchun bechoralarning barcha ilmiy isbotlari qaysidir ma’noda to‘g‘ri, lekin o‘zlar uchun to‘g‘ri, ma’lum bir doira ichida to‘g‘ri, mahdudlikda to‘g‘ri. Men dahriylar borligidan, ularning ilmiy yutuqlaridan hecham tashvishlanmayman. Qizim, bu dunyoda yuz bergen barcha voqealarning sirtiga emas, ichiga boq. Bino yemirilgani uchun qulaydi. Dunyo yaratilayotganda, yemirilish hodisasi ham yaratilgan. Undan avval emirilish hodisasi yo‘q edi. Yemirilish nimaligini farishtalar ham bilmagan. Xudo moddiy dunyodagi biror

binoni yiqitishni yemirilish hodisasi vositasida amalga oshiradi. Shunday ekan, binoning qulashini tekshirib ko'rib, «Xudoning xohishi bilan emas, yemirilish natijasida quladi» deyish qanchalik kulgili ekanini senga takrorlashimga hujat yo'q. Maktabda molekulalar haqida o'qib qaytgan kunningni esla. Menga qanchadan-qancha savollar berganding. Senga o'shanda ham aytganman, molekuladek, atomdek zarralar ortida ham Yaratgan Egam turibdi. Fizik olim molekulalarni o'rganayotib, bu dunyoning qonuniyatlarini kashf eta boradi va hayratlanadi. U o'z ilmiy izlanishlari dan so'ng islomga qarshi borishi qanchalik mantiqsizlik bo'lsa, xudojo'y, taqvodorlarning fizikaga qarshi borishi ham shunchalik mantiqsizlikdir. Sen bulardan saboq olgan mening eng aqli qizim eding.

— Endi-chi? Adashganlarning boshqacha bir turi bo'lib qoldimmi, ota?

— Yo'q. Aytmoqchimanki, sen ularga o'xshab biryoqlama fikrlama.

Men devorga suyanib, boshimni changalladim.

— Ruhiy kasalman, ota...

— Davolanyapsan, jon qizim. Meni taniganing, ilm-u amaling o'zingga qaytayotgani shifo topganingdan darak. Muhibimi, sen rost so'zlading. O'zingni ham, meni ham aldamading.

— Baribir o'zimni chiqolmas chohdaman deb tasavvur qilyapman...

— Yo'q, yo'q, Nigora, — dedi otam, — seni kutyapman. U yerdan chiqishning yo'li bor. Ayt, yana nima yordam kerak?

— Yalangoyoqman, kalishchalarimni tashlang, — dedim men.

Otam qalin panjaralar orasidan kalishchalarni tiqish-tirdi. Bo'yim yetmadi. Otam ularni pastga tashladi. Ik-kisi ham kaftimga tushdi. Men kalishchalarimni hidladim, bag'rimga bosdim. So'ng shunday faryod urdimki...

Ammo ovozimni o‘zim eshitmadim.

...Ko‘zimni ochganimda, yorug‘ xonada yotardim. Havoda dorilarning isi emas, rayhon hidi kezib yurardi. Badanim toza libosni, uzun libosni, halol libosni his etib, yayradi.

Karavotim yonida qadrdon gavda rostlandi. Ko‘z qirimni tashlamasdan tanidim: u otam edi, o‘zimning tirik otam, hech qachon aroq ichmagan, sigaret chekmagan, ro‘zasini kanda qilmagan, ibodatini uzmagan, bizga qo‘pol gapirmagan, onamni xafa qilmagan, oilasini zoriqtirmagan, go‘dakligimizdan ilm bergen otam, o‘zimning mehribon otajonim, hech qanday ro‘yoga aylanmagan otajonim. Yuzidan nur yog‘ilib turardi.

Ammo otamning emas, onamning ovozini eshitdim:

— Qizim... Nigoraxon...

Boshimni burdim. Otamning panasidan onam chiqib kelib, jilmaydi.

— Bari ortda qoldi, — dedi voldam kirtaygan ko‘zlarida halqalangan yoshni artib boshimga engasharkan. — Bu o‘tgan kunlar senga qirq yilday tuyulgan bo‘lsayam, irodangni ishga solding, chidading, azoblar tutunday tarqab ketdi. Seni bizga qaytargan Allohimga ming qatla shukr.

Kaftlarim barmoqlarim aralash doka bilan bog‘lab tashlangandi. Barmoqlarim bukilmasa-da, ota-onamning qo‘llaridan tutishni, silashni istadim.

Ular qo‘llarini uzatishdi.

— Endi bizni qo‘rqitmaysanmi, qizim? — hazin ovozda zo‘rg‘a so‘zladi onam.

— Qo‘rqitmayman, ena... Sizlar uchun hammasiga chidayman...

— O‘zingni yaxshi his qilyapsanmi?

— Ha... Lekin bu yerga qanday kelib qolganimni eslолmayapman.

— Qo‘y, yomon kunlarni eslama. Nima eysan? Nima ichasan, qizim? Otang olib kelib beradi. Aytaver.

— Shartmas, ona.
— Ko'ngling biror narsani tusayotgandir? — deya otam
qo'limga Qur'oni karimni tutqazdi.

Men kitobni o'pib, peshonamga surtdim.

— Hayotimni ko'rgim kelyapti, — dedim men.

Onam yig'lamoqdan beri bo'lib otamga termuldi.

— O'zingning hayotingni ko'rishdan avval dunyoning
hayotini ko'r, — deb otam tirsagimdan tutdi. Keyin onam-
ga imo qildi: — Narigi tomonidan suya. Tashqariga olib
chiqamiz. Qizimizni oxirgi marta o'n sakkiz yil burun
etaklaganmiz.

Men gavdamni ko'tardim. Oyog'im yerga tegdi. Ma-
dorim yo'q edi, ota-onam suyadi. Ruhim in qurgan bio-
logik tanamning oyoqlari ostida ulkan Yer shari koinot
qo'ynida muallaq aylanmoqda edi. Ozoda va yorug' xo-
naning burchagiga qo'yilgan ko'zguga boqdim. Egnimda
avalgi ko'kish libos yo'q. Men Madina opadan ham chiro-
qli kiyinib olgandim. Oq ro'molim biram yarashganki,
payg'ambarlarning ayollari kiyadigan hijobga o'xshaydi,
faqt yuzim ochiq...

So'lg'in, kasalmand, tushkun ruxsorimni ko'rib, bir
zum to'xtadim.

— Bu — sen, — dedi onam.

Men onam kabi jilmaydim. Yuzimda sezilar-sezilmas
nur jilvalandi. Abu Mannop yuzingni ko'rsatsang jahan-
namda kuyasan, aroqxo'r er bilan yashasang jahannam-
da kuyasan, men kabi haqiqiy musulmonga tan mahrami
bo'imasang jahannamda kuyasan degandek tuyuldi. Biroq
vosvosga tushmadim. Otamni haq deb bildim.

— U ko'zguda o'zini ko'rdimi? — so'radi soqchilardek
basavlat erkak shifokor.

— Ha, hammasi joyida, — deb javob berdi otam.

Eshik lang ochiq edi. Temir panjaralar, beton polar,
nimqorong'i yo'laklar g'oyib bo'lgandi. Muhimi, hech kim

menga dahshatli qotil ayol deb qaramayotgan edi. Odamlar o‘z ishlari bilan xotirjam holda u yoq-bu yoqqa o‘tib-qaytishardi.

Bemorlarni yetaklagan hamshiralalar bosh qimirlatib salomlashishdi.

— Xo‘sish, qizimizning ahvoli qanday? — so‘radi Ergashga o‘xhash shifokor ko‘zoynagini burni ustiga yaxshiroq qo‘ndirarkan.

— Nigora yaxshi, u butunlay uyg‘ondi, — dedi otam. — Ko‘rganlari tush kabi ortda qoldi.

Shifokor menga emas, otamga hayratlanib qaradi. So‘ngra mamnun ko‘z qisib qo‘ydi-da:

— Butunlay uyg‘ongani rost bo‘lsin, hoji aka, — dedi.

Shifoxona bog‘ini ko‘rib, to‘xtadim. Yengil, hafif shamol avval bog‘ni, keyin mening yuzimni silab o‘tdi. Yuragim hapriqib ketdi va bu dunyodagi hodisalar, hislar, manzaralar u dunyoda sodir bo‘ladiganlarning mingdan bir bo‘lagi, degan o‘y o‘tdi ko‘nglimdan. Qachonlardir biz shunday quvonamiz va shunday bir hurlikka chiqib, shunday bir bog‘larni ko‘rib, abadiy makon tutamiz. Faqt uni si abadiyatga doxil bo‘ladi va hozirgisidan ming, ehtimol, o‘n ming, yuz ming baravar sevinchga doyalik qiladi. Biz u qadar ulug‘ sevinchni hozir tuyolmaymiz, yuragimiz ko‘tarolmaydi. Ojizligimiz ham shunda.

Bog‘ ichidagi o‘rindiqqa cho‘kdik.

— Eslayapman, — dedim men va ko‘zlarimdan duv-duv yosh oqdi. — Hayotimni eslayapman... Sog‘indim... qizlarimni sog‘indim... Ziyoda, Nurxon... Ular nega kelishmadi?

— Bo‘ri bugun olib keladi.

— U... u kishi ham hayotmi?

— Hayot, — dedi otam. — Sen bu yerda davolanayotganganingda, u ham shifoxonadan chiqib, farzandlarini talab qildi. Bolta zarbidan omon qolgani omadlaring. Qonun Bo‘ri tomonda edi, chunki sen kasallikka chalinganding. Bola-

laring otasining qaramog‘iga o‘tdi. Hozirda Bo‘ri ayblarini tushungan, tavba qilgan. Norasida bolani aroqqa yuboradigan gumroh endi yo‘q.

— Nurxonga o‘q tegmaganmidi?

— Yo‘q, Bo‘ri havoga o‘q uzgan. Keyin chopib kelganda, Nurxonni quchoqlab yig‘layotgan bo‘lgansan. Nevaram qattiq yiqlilib hushini yo‘qotgan. O‘sha kecha bo‘rilar yo‘q edi. Nurxon bechora sen bilan kuyovning janjalidan ko‘proq aziyat chekkan.

— Ziyoda ham sog‘-salomatmi?

— Uni ham tez orada ko‘rasan. Qizingni o‘z vaqtida qutqarishdi. Seni esa zo‘rg‘a saqlab qolishdi. O‘zingni olov ichiga otib halok bo‘lishing hech gap emasdi. Shifoxonaga olib kelishganida ham necha kunlar o‘zingni bilmay alahsirab yotding. Ochig‘i, seni odam bo‘lmaydi, bir umr o‘zining kimligini bilmay ruhiy kasalligicha o‘tadi, deyishgandi. Rahmatli Ergash senga katta yaxshilik qildi... Tog‘amizning o‘g‘li...

— Ergash... U... qachon vafot etdi?

— Ruhiy kasallar shifoxonasiga tushib qolganing, qandaydir qamoqxona, Beshinchি tergovxona, Nurmuhammad degan bola haqida gapirganing, kun botish tomondan bo‘rilar kelib, o‘g‘lingni yeb ketgani haqida baqirib-chaqirib so‘zlab, atrofingdagilarga tarmashganing unga yetib borgan. Qish edi, yo‘llar muz. Toshkentdan kelayotib, halokatga uchradi. Ergash kasalingni ko‘rmasdan turib tashxis qo‘yan ekan, to‘g‘ri chiqdi. Bu yerdagi shifokorlar uning yonidan topilgan qog‘ozlardan foydalanib, seni davolashdi.

Yuzimga fotiha tortdim.

— Shifoxonaga tushib qolganimdan keyin oradan qancha vaqt o‘tdi?

— Yetti oy. Sen oktabrning oxirgi kunidan beri shu yerdasan.

— Qizlarimni nega menga biror marta ham ko‘rsatish-

madid? Axir, men ularni o‘lgan deb o‘ylayotgandim. Qanchalar qiynalayotganimni bilmaslik mumkin emasdi...

— Boshida ularni ikki marta olib kelishdi. Birinchi-sida sen tanimading, ikkinchisida «sizlar o‘lgansizlar» deb faryod urding. Shundan keyin vrachlar qizlaring bilan uchrashtirishni taqiqlashdi. Bo‘ri ham qizlaring qattiq qo‘rqusanini, sening abgor ahvolingdan ezilmasligini hisobga olib, uchrashtirmaslikka qaror qildi.

Men chuqur nafas olib, o‘z vujudimni kislorod bilan ta‘minladim. Asab torlarimni bo‘sashtirishga urinib, bir zum jim o‘tirdim. Erim va ikki qizim tirik edi, Nurmuhammad esa xayolimdagи bola... yo‘q bola...

Lip etib ko‘z oldimdan oq surpga o‘ralgan ikki mayit o‘tdi. Ular farzandlarimning mayitlari emasdi, kattalarni-ki, ha, katta yoshli kishilarning mayiti ekanligi bo‘y-bastlaridan ma‘lum...

- Qaynotam bilan qaynonam... — pichirladim men.
- Ularning ham joylari jannatda bo‘lsin, — dedi onam.
- Ergash aka bir gal meni botqoqdan qutqargandi, — dedim uh tortib. — Ikkinci botqoqdan ham qutqaribdi-da...
- Ha, uning o‘zi kelolmagan bo‘lsa ham, qog‘ozlarining ilmining foydasi tegdi, — deb xomush tortdi otam. — Ilm-fan moddiy dunyoda katta ahamiyatga ega.
- O‘zi kelolmagan bo‘lsa ham... — takrorladim xayolga tolib. — Balki... uning ruhi... Men ruhi bilan gaplashgan-dekman.

Ota-onam menga xavotirlanib tikilishdi.

Shu payt Bo‘ri va ikki qizim shifoxonaga kelganlarini xabar qilishdi.

- Ana, kelishdi, — o‘rnidan turdi onam. — Hozir ularni bu yoqqa boshlab kelaman.
- Nurmuhammadning yo‘qligiga chidashim osonmas, ena, — zorlandim onamning ortidan.

Azamat QORJOVOV

Onam to'xtab, menga qarab kulimsiradi. Keyin yonimga kelib, dedi:

- Kim aytdi uni yo'q deb? Otangmi? Bekor gap!
- U... u bormi?

Onam qulog'imga shivirladi:

- Keyingi yil keladi, ko'nglim sezyapti. Uni hammamiz birgalikda imom bola qilib tarbiyalaymiz, xo'pmi?
- Xo'p, — dedim bo'shashib.

* * *

Biz uyni qaytadan tikladik. Fermani ham sotib ol-dik. Bo'ri chala musulmonchilikdan kechib, poklar safiga qo'shildi. Nurmuhammad tug'ilganida, eski ulfatlari to'planib kelishib, «Yuvasan!» deyishdi. Bo'ri esa:

— Qachongacha farishtaday pok bolalarimizni spirit bilan yuvamiz, yaxshisi, jonliq so'yib, bir osh qilib beray, — dedi.

Shu-shu Boyjanjal qishlog'ida hech kim o'z bolasini aroq-sigaretga yubormaydigan bo'ldi. Xotinlarini ochiq-sochiq kiyintirib, nomahram erkaklar bilan valsga tushirish odati ham yo'qoldi. To'ylarda aroq qo'yilmasa, ilgarilarini birinchi ovqatni yeb, arazlab ketib qoladiganlar ham endilikda yo'q edi. Ular «biz mol emasmiz-ku molchasiga fikrlab», deyishgan mish.

Yil o'tib, o'g'lim Nurmuhammadjon o'z fikrlarini aytash boshlaydigan bola bo'lib yetishdi. Men unga kalishchalarni kiydirib, tay-tay qilib yetaklab yurgizdim.

— Nurmuhammad, kelajakda kim bo'lasan? — deb so'rading kunlarning birida mehmonlarning oldida maqtanib.

— Menmi? — hammamizga qora ko'zchalarini yiltillatib qaradi u. — Ayamdi, dadamdi, opalaydi qo'yiqlaydigan zo'y odam bo'laman.

— Bizni kimlardan qo'riqlaysan? — hayron bo'ldim men. Chunki unga «Makkaga imom bo'laman» degan gapni o'rgatgan edim.

— Bo‘yilaydan qo‘yiqlayman, bo‘yilaydan, — deb javob berdi Nurmuhammad.

Men choy damlash bahonasida mehmonxonadan chi-qib, oshxonaga kirdim-da, ho‘ngrab yig‘lab yubordim...

Kundaligimga nuqta qo‘ymayman. Hajdan qaytib, ha-qiqiy daftarga ko‘chiraman. Sizlarning muslimangiz tirik. Sizlarning muslimangiz soppa-sog‘. Barchangizga ikki dunyo saodatini tilayman.

MUNDARIJA

Qorong‘i chor bog‘	3
Telba kelinning kundaligi	83

Adabiy-badiiy nashr

Azamat QORJOVOV

QORONG‘I CHORBOG‘

Qissalar

Muharrir:	<i>O.Qanayev</i>
Dizayner:	<i>R.Tashmatov</i>
Musahhih:	<i>M.Xoliqova</i>
Sahifalovchi:	<i>G.Kurbanbayeva</i>

Nashriyot litsenziyasi: Al №270

Bosishga 07.08.2019 yilda berildi Qog‘oz bichimi 60x84 1/16

“Virtec Times UZ” garniturasida ofset usulda bosildi.

Nashr bosma tabog‘i 18,0 Adadi 5000 Buyurtma №63

«IJOD-PRESS» nashriyotida nashrga tayyorlandi.
«Dizayn-Print» MCHJ O‘ICHK bosmaxonasida chop etildi.
100054. Toshkent shahri, Cho‘pon ota ko‘chasi, 28-a uy.

Telefon: (371) 273-19-51

Faks: (371) 273-19-50

Email: book@ijodpress.uz

www.IjodPress.uz

13043

84(50)6
a-59

Azamat QORJOVOV

QORONG'I CHORB OG'



ISBN 978-9943-5814-3-2



9 789943 581432

